O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

BOBIR ODILOV

O‘ZBEKISTONDA AN’ANAVIY KULOLCHILIK MAKTABLARINING IJTIMOIY-MADANIY TRANSFORMATSIYASI (XIX ASR OXIRI - XXI ASR BOSHLARI)

MONOGRAFIYA

Toshkent –2026

UO‘K: 94(575.1):39:745:572

KBK: 63.5(5Uzb)

O-23

Odilov, Bobir.

O‘zbekistonda an’anaviy kulolchilik maktablarining ijtimoiy-madaniy transformatsiyasi (XIX asr oxiri - XXI asr boshlari) [Matn]: monografiya/B.Odilov. – Toshkent: TDSHU, 2026. – 353 b.

Ushbu monografiyada O‘zbekistonda an’anaviy kulolchilik maktablarining XIX asr oxiri – XXI asr boshlaridagi taraqqiyoti ijtimoiy va madaniy antropologiya nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Asarda ustoz-shogird an’analari, hunarmandlar hamjamiyatining ichki ierarxiyasi, mehnat taqsimoti va bilimlarning avloddan-avlodga uzatilish jarayonlari, bezaklarning ramziy ma’nolari antropologik kuzatuvlar asosida yoritilgan. Tadqiqot mamlakatda turizmning rivojlantirish hamda kasbga doir bilimlarning nomoddiy madaniy meros sifatida saqlab qolishda o‘ziga xos amaliy ahamiyat kasb etadi.

Monografiya tarixchi-san’atshunoslar, etnologiya, ijtimoiy va madaniy antropologiya bilan qiziquvchi barcha kitobxonlar uchun mo‘ljallangan**.**

Mas’ul muharrir

Alisher Doniyorov – tarix fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

Saodat Davlatova – tarix fanlar doktori, professor;

Hurshid Jumanazarov – tarix fanlari doktori, katta ilmiy xodim.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Ilmiy Kengashining 2026-yil 28-favraldagi 7-sonli bayonnomasiga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9910-8137-3-3

© Odilov B.A., 2026

© “TDSHU”, 2026

SO‘Z BOSHI

Ma’lumki, O‘zbek xalqining boy madaniy merosida an’anaviy hunarmandchilik alohida o‘rin tutadi. Bu merosning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan kulolchilik nafaqat amaliy san’at turi, balki jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, kasbiy identitet, ramziy tafakkur va madaniy xotira mexanizmlarining yorqin ifodasi sifatida ming yillar davomida rivojlanib kelgan. O‘zbekiston hududida kulolchilik Rishton, Gijduvon, Xorazm, Samarqand, Urgut va boshqa markazlarda shakllangan mahalliy maktablar orqali o‘ziga xos uslub, texnika va ramziy ma’nolarga ega bo‘lib, avlodlar o‘rtasida uzatiladigan noyob bilim va ko‘nikmalar tizimini yaratgan. Ularning tadqiq etish orqali ma’lum tarixiy davrdagi aholining ijtimoiy tuzilishi, kasbiy identiteti, ramziy tafakkuri va madaniy meros mexanizmlari haqida qimmatli ma’lumot olish mumkin bo‘ladi. Shu jihatdan olib qaraganda, kulolchilik maktablarining XIX asr oxiri – XXI asr boshlaridagi taraqqiyotini ijtimoiy va madaniy antropologiya nuqtai nazaridan kompleks tahlil qilish dolzarbdir.

Monografiyaning “Mavzuning nazariy-metodologik asoslari va tarixshunosligi” deb nomlangan birinchi bobida muammoning nazariy va tarixshunoslikka doir masalalari tahlil qilingan. Xususan, nazariy masalalarda kulolchilik maktabi hamda an’anaviy kulolchilik maktabi tushunchalari asosiy tahliliy tushunchalar sifatida qo‘llanilgan. Ularni ijtimoiy-antropologik nuqtayi nazardan talqin qilish kulolchilikni texnologik, estetik hodisadan tashqari ijtimoiy jihatdan tashkil topgan kasbiy tizim sifatida tushunish imkonini yaratgan. Qolaversa, muammo doirasida yozma manbalarning cheklanganligi va amaliy bilim ustuvorligi sharoitida etnografik-dala hamda oral history yondashuvlarining qo‘llanilishi an’anaviy kulolchilik maktablarini empirik materiallar asosida o‘rganish uchun zarur metodologik poydevor yaratganligini ko‘rishimiz mumkin.

Birinchi bobning “O‘zbekistonda kulolchilik maktablari tarixshunosligi” deb nomlangan ikkinchi qismida mazkur yo‘nalishga bag‘ishlangan va qariyb 170 yildan ortiq davr mobaynida chop etilgan ilmiy nashrlarda kulolchilik va uning maktablari faoliyatini o‘rganishga bo‘lgan yondashuvlarning dinamikasini ko‘rsatishga harakat qilingan. Shuningdek, adabiyotlar XIX asr va XX asrning birinchi choragidagi tavsifiy tadqiqotlar, Sovet davri tadqiqotlari, 1991-yildan keyingi ilmiy tadqiqotlar va xorijiy tadqiqotlari kabi to‘rt guruhga ajratilgan xolatda tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotlar arxeolog, etnograf va antropolog, san’atshunos, muzeyshunos va mintaqa xalqlari hayotiga qiziquvchi boshqa mutaxassislar tomonidan amalga oshirilgan va ular muammoni

ochishda turli davrlarda turlicha ahamiyat kasb qilganligini ochib berishga harakat qilingan.

Monografiyaning “O‘zbekistonda kulolchilik maktablarining shakllanishi va rivojlanish jarayonlari” nomli ikkinchi bobi uch paragraf kesimida ochib berishga harakat qilingan. Xususan, uning birinchi paragrafida O‘zbekiston hududida kulolchilik an’analarining shakllanishi va tarixiy taraqqiyoti masalalari o‘rganilgan. O‘zbekiston hududida kulolchilik an’analarining qadimiy tarixi arxeologik tadqiqotlar bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, mazkur qism bayonida muallifning turli masalalarga doir bir qancha yondashuvlari ko‘rsatib o‘tilgan. Bu borada, kulolchilikning taraqqiyoti kelgusi davrlarda temirchilik va shishasozlik sohalarini rivojlanishiga ta’sir etganligi, kulolchilik maktablarining shakllanishini ilk bosqichi VIII asrlardayoq, sirlash texnologiyasini paydo bo‘lishi bilan boshlanganligi kabi yondashuvlarni ko‘rsatish mumkin.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafi esa, mustaqillik davrida milliy hunarmandchilik siyosati va kulolchilik maktablarining qayta tiklanishi omillariga qaratilgan bo‘lib, unda O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi milliy qadriyatlar, an’analar va madaniy merosga bo‘lgan munosabatni tubdan o‘zgarganligini isbotlashga urinilgan.

Qismdan o‘rin olgan ma’lumotlardan Mustaqillik yillari qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar natijasida hunarmandchilik faoliyatining huquqiy maqomi mustahkamlandi, ustalar faoliyatini rasmiylashtirish, ularga soliq va kredit imtiyozlari berish, mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarga chiqarish uchun zarur infratuzilmani yaratish tizimlari shakllantirilganligini anglash mumkin.

Mazkur bobning uchinchi paragrafida esa O‘zbekiston hududiy kulolchilik maktablarining shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari yoritilgan. Ushbu qismda O‘zbekiston hududida shakllangan asosiy kulolchilik maktablari qadimiyligi, bugungi kunda ko‘pchilik tomonidan tan olinganligi va ustoz shogird va boshqa an’analarning tiklanishi nuqta’i nazaridan kelib chiqib, Rishton, G‘ijduvon, Xiva, Samarqand, Urgut, Toshkent, Andijon, G‘urumsaroy va Shahrisabz kulolchilik an’analarining shakllanishi hamda tarixiy rivojlanish bosqichlari ketma-ketlikda ochib berishga harakat qilingan.

Monografiyaning “Kulolchilik maktablarining ijtimoiy-madaniy funksiyalari va an’analari” deb nomlanuvchi uchinchi bobining birinchi paragrafida ustoz-shogird an’analari, mehnat taqsimoti va gender vazifalarining ifodalanishi yoritilgan. Paragrafda ustoz shogird an’analarining madaniyat tashuvchilik funksiyalari bilan bir qatorda yosh avlodni tarbiyalashdagi samarali mehanizmlariga doir yondashuvlar

ilgari surilgan. Hamda kulolchilikda gender ro'llar qat'iy emasligi bilan bog'liq nazariy qarashlar amaliy misollar doirasida ko'rsatib berilishiga e'tibor qaratilgan.

Kulolchilikda marosimiy an'analar va hunarning ramziy-ma'naviy mazmuni nomli ikkinchi paragrafda kulolchilik ustaxonalarida bajariladigan marosimiy odatlar, qo'llaniladigan bezaklarning ramziy ma'nolari va ularning taransformatsiyasi tahlil qilingan. Mazkur qismda marosimiy odatlar va ramziy ma'nolardagi o'zgarishlarning ta'sir omillari bilan birga ochib berishga harakat qilingan.

Monografiyaning to'rtinchi bobi "Zamonaviy davrda kulolchilik maktablarining muammolari va rivojlanish istiqbollari" masalasiga qaratilgan bo'lib, uning birinchi paragrafida globallashuv, turizm, bozor iqtisodiyoti va ekologik omillar O'zbekiston an'anaviy kulolchilik maktablariga o'zaro bog'liq xolda ta'sir qilayotganligi yoritilgan. Shuningdek, mazkur omillar ta'sirida kulolchilikdagi an'anaviy jarayonlar transformatsiyalashib borayotganligi, ushbu jarayonda an'analarni saqlash uchun horij tajribalariga suyangan xolda takliflar va yondashuvlar ilgari surilgan.

Mazkur bobning an'anaviylik va innovatsiya uyg'unligi sharoitida kulollarning kasbga munosabati transformatsiyasiga bag'ishlangan paragrafida globallashuv, bozor iqtisodiyoti, turizmning kengayishi, kommunikativ texnologiyalarning rivojlanishi va innovatsiyalarga asoslangan sanoatning shakllanishi kulolchilikni ijtimoiy institut sifatidagi ichki tuzilmalarini ya'ni an'anaviy kulolchilik ustahonalarida faoliyat olib borayotgan kulollarning kasbga bo'lgan munosabatiga ham ta'sir qilayotganligi ochib berilishiga e'tibor qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, mazkur monografiya tugallangan tadqiqot bo'lib, uning xulosa va natijalari etnografiya, etnologiya va antropologiya fanlariga sezilarli darajada hissa qo'shadi. Monografiyada tadqiqotchi tomonidan og'zaki tarix, etnografik kuzatuv va sotsiologik so'rovnoma metodlaridan samarali foydalanganligi, shuningdek, xolislik, davriylik, tarixiylik tamoyillariga izchil amal qilinganligi tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati oshiradi.

Alisher Doniyorov,
tarix fanlari doktori, professor

KIRISH

XX-XXI asr global antropologik va etnologik tadqiqotlarida an’anaviy hunarmandchilik tarmoqlari, xususan kulolchilik faoliyatini madaniy meros, ijtimoiy xotira va kasbiy bilimlar tizimi sifatida o‘rganishga bo‘lgan ilmiy qiziqish sezilarli darajada ortdi. Jahon ilmida kulolchilik faqat xo‘jalik ehtiyojlarini qondiruvchi ishlab chiqarish faoliyati emas, balki jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, estetik qarashlari, marosimiy an’analari va kasbiy identitetini mujassamlashtiruvchi murakkab ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida talqin qilinmoqda. Shu jihatdan iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, madaniy merosni saqlash, etnoturizmni rivojlantirish, ijtimoy identitetni mustahkamlash hududiy brendni yaratish doirasida ahamiyat kasb etib, globallashuv va madaniy transformatsiya jarayonlari sharoitida dolzarb hisoblanadi.

Dunyoning yetakchi tashkilotlari tomonidan kulolchilik maktablarini turli jihatlari yoritib kelinmoqda. Xususan, UNESCO, United Nations Indastrail Development Organization, World Crafts council, ICCROM va International Coucil of Muzeums kabi tashkilotlar kulolchilikning nomoddiy madaniy meros sifatida ustoz shogird an’anasi, avloddan avlodga bilimlar uzatuvchi, jamoaviy identitetni mustahkamlashda muhim tizim, kulolchilikni iqtisodiy barqarorlik, ishlab chiqarish klasterilar rivojlanishi va qiymat yaratish modeli, hunarmandchilik markazlarini hududiy brend va kreativ sanoat elementi, kulolchilik buyumlarini saqlash, konservatsiya va muzey talablari asosida rasmiylashtirish jarayonlariga e’tibor qaratib olib borgan tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar kulolchilikni avloddan avlodga o‘tib kelayotgan madaniy faoliyat faoliyat sifatida tizimli o‘rganish zaruratini yuzaga chiqarib, tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Mustaqillik yillarida milliy hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati va an’anaviy kasb-hunar turlarining qayta tiklanishi kulolchilik maktablarining jamiyatdagi o‘rni va ijtimoiy ahamiyatini yangicha baholash zaruratini yuzaga chiqardi. O‘zbekistonning Rishton, G‘ijduvon va Xorazm vohalarida shakllangan an’anaviy kulolchilik maktablari orqali uzatiladigan kasbiy bilimlar ko‘proq tarixiy-madaniy rivojlanish, hududiy sharoit va mahalliy ijtimoiy

munosabatlar bilan chambarchas bog‘liq holda namoyon bo‘lmoqda. Ushbu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Bu idishlarda mehnat bilan, yurak bilan birga tarix ham bor. Hamma yo‘nalishlarda milliy an’analarimizni tiklayapmiz. Sopol buyumlarni ham yana ommalashtirib, har bir xonadonga kiritish kerak. Ularni chet elliklar juda qadrlaydi. Chunki chiroyli, sifatli, ekologik toza. Yurtimizdagi har bir uyda mana shunday idishlar bo‘lsa, ham milliy iftixor, ham ma’naviyat bo‘ladi kabi fikrlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu jihatdan, an’anaviy kulolchilik maktablarini alohida lokal madaniy hodisa sifatida etnografik va antropologik yondashuvlar asosida o‘rganish, ularning ichki tuzilmasi, funksiyalari hamda jamiyatdagi o‘rnini aniqlash zarurati yuzaga keladi. Ayniqsa, kulolchilik faoliyatida saqlanib kelayotgan kasbiy ichki bilimlar , ramziy qarashlar va norasmiy tajribalar tizimini zamonaviy ijtimoiy-madaniy kontekstda tahlil qilish mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Mazkur monografiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi PF-5242-sonli Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida gi Farmoni, 2021-yil 23-martdagi PQ-5033-sonli Kulolchilikni jadal rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida gi Qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida gi Farmonida belgilangan an’anaviy hunarmandchilik turlarini, xususan kulolchilik maktablarini asrash, rivojlantirish va ularni ilmiy asosda tadqiq etish bilan bog‘liq vazifalarning ijrosini ta’minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 28-yanvardagi 41-sonli Rishton an’anaviy kulolchiligi tarixi muzeyi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida gi Qarorihamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

An’anaviy kulolchilik maktablari masalasi zamonaviy xorijiy antropologiya, etnologiya va moddiy madaniyatni o‘rganishga ixtisoslashgan ilmiy yo‘nalishlarda kompleks ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida talqin qilinmoqda. Amerika va Yevropa ilmiy maktablarida

hunarmandchilik, jumladan kulolchilik faoliyatlarini kasbiy bilimlar tizimi, madaniy identifikatsiya vositasi hamda mahalliy ijtimoiy munosabatlar ifodasi sifatida o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar shakllangan.

Bu borada kulolchilikning taixiy manba sifatida shakklanishi yuzasidan seminar-treninglar yo‘lga qo‘yilgan (Fransiyadagi Ijtimoiy fanlar bo‘yicha oliy maktab (EHESS)), Qadimgi Peru kulolchilik an'analari bo’yicha master-klasslar tashkil qilingan (Yuta davlat universiteti Antropologiya muzeyi, AQSh), arxeologik tadqiqotlar asosida "Saroy buyumlari" nomi bilan tanilgan elita kulolchilik buyumlarining kelib chiqishini va ishlab chiqarish usullariga tayanga holda Ossuriya imperiyasi rivojida kulolchilikning o’rni ochib berilgan (Akron universiteti, AQSh), kulolchilik texnologiyalari, ishlab chiqarish an'analari va lokal maktablar shakllanishining tarixiy hamda ijtimoiy jihatlari xususan, kulolchilikni moddiy madaniyat, ijtimoiy xotira va madaniy transformatsiyalar bilan bog‘liq holda o‘rganish tendensiyasi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida keng qamrovda tahlil qilinmoqda (Kembrij universiteti qoshidagi arxeologiya va antropologiya markazlari, Buyuk Britaniya).

Markaziy Osiyo hududiga oid xorijiy tarixiy-etnografik tadqiqotlarda ham hunarmandchilik, shu jumladan kulolchilik an'analari mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, shahar va qishloq madaniyati, ishlab chiqarish munosabatlari bilan bog‘liq holda yoritilgan. Xorijiy tadqiqotlarda Farg‘ona vodiysi, Buxoro va Xorazm vohalari moddiy madaniyati doirasida kulolchilik faoliyatlari mahalliy muhit, tarixiy rivojlanish va madaniy ramzlar kontekstida umumiy tarzda tahlil qilinadi. Biroq ushbu izlanishlarda kulolchilik ko‘p hollarda keng madaniy jarayonlarning tarkibiy qismi sifatida qaralib, alohida kulolchilik maktablarining ichki tuzilishi, ustoz-shogird an'analari, kasbiy bilimlarning uzatilishi va mahalliy ijtimoiy funksiyalari maxsus antropologik tadqiqot ob'ekti sifatida yetarlicha ochib berilmagan.

Shu jihatdan, Rishton, Gijduvon va Xorazm kabi an'anaviy kulolchilik maktablarini alohida lokal ijtimoiy-madaniy tizim sifatida, ya'ni ularning shakllanish tarixi, kasbiy bilimlar tizimi, madaniy ramzlar va jamiyat hayotidagi o‘rni bilan birgalikda kompleks antropologik yondashuv

asosida oʻrganish zarurati yuzaga keladi. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda mavjud umumiy tahlillar ushbu maktablarni chuqur etnografik materiallar asosida qayta koʻrib chiqish, mahalliy amaliyotlarning oʻziga xos xususiyatlarini aniqlash va ularni zamonaviy ijtimoiy-madaniy jarayonlar bilan bogʻliq holda tadqiq etish dolzarbligini yanada oydinlashtiradi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, Rishton, Gʻijduvon, Xiva va Xorazm kulolchilik maktablarining aholining ijtimoiy-madaniy hayotidagi oʻrni, ularning shakllanish omillari, ustoz-shogird an’analari, mehnat taqsimoti, gender vazifalari va kasbiy identitetga ta’siri tarixiylik, xolislik va tizimlilik tamoyillari tahlil qilinib, VIII asrda sopol buyumlarni sirlash texnologiyasi qoʻllanishi bilan kulolchilik maktablarini shakllanishi boshlanib XV asrda ularning hududiy xususiyatlari aniqlashib, ixtisoslashgan kulolchilik maktablari paydo bo’ligan kabi yondashuvlar ilgari surilganligi nilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot natijalaridan oliy oʻquv yurtlarida Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasi , Sharq xalqlari antropologiyasi , Madaniy antropologiya fanlari boʻyicha oʻquv, ilmiy-uslubiy va amaliy qoʻllanmalar tayyorlashda, maxsus kurs va seminar mashgʻulotlarini tashkil etishda, muzey ekspozitsiyalarini ilmiy asosda shakllantirishda, etnoturizm va madaniy turizm loyihalarini ishlab chiqishda, shuningdek hunarmandchilik sohasi mutaxassislari va talabalar uchun malaka oshirishga qaratilgan seminar-treninglar va metodik qoʻllanmalar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

I BOB. MAVZUNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA TARIXSHUNOSLIGI

§ 1.1. Kulolchilik fenomenining antropologik tadqiq etilishiga oid nazariy yondashuvlar

Sopoldan tayyorlangan buyumlar bozor munosabatlari rivojlangan davrda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Ular nafaqat xo‘jalik ehtiyojlarini qondirishda, balki nomoddiy va madaniy meros namunasi hamda sayyohlar uchun ramziy esdalik sifatida ham qadrlanmoqda. Shu bilan birga, sopol mahsulotlar hunarmandlar uchun barqaror daromad manbai bo‘lib, mahalliy iqtisodiyotning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda.

Hunarmandchilikning ushbu tarmog‘i qadimgi davrlardan buyon jamiyat hayotida muhim o‘rin tutib kelgan va murakkab taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tgan. Ayrim davrlarda yuksalish kuzatilgan bo‘lsa, boshqa bosqichlarda turli ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy omillar ta’sirida susayish holatlari yuz bergan. Shunga qaramay, kulolchilik jamiyatdagi o‘zgarishlar bilan hamohang tarzda transformatsiyaga uchrab, yangi sharoitlarga moslashish orqali o‘z mavjudligini saqlab kelmoqda. Mazkur jarayon turli davrlarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda ham aks etib, sohaning ko‘p qirrali hodisa sifatida o‘rganilishiga zamin yaratgan.

Zamonaviy ilm-fan taraqqiyoti natijasida shakllangan yangi nazariy yondashuvlar va metodologik usullar an’anaviy hunarmandchilikni, jumladan kulolchilikni kompleks tarzda o‘rganish imkonini bermoqda. Kuzatiladiki, endilikda mazkur soha tarixiy, tavsifiy jihat bilan birga ijtimoiy-madaniy tizim, iqtisodiy resurs, madaniy identitet va nomoddiy merosning barqaror shakli sifatida tadqiq etilmoqda.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, ko‘p asrlik tajribaga ega bo‘lgan kulolchilikni saqlash, uning unutilgan texnologik va ramziy jihatlarini tiklash hamda kelajak avlodga yetkazish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy vazifaga aylanmoqda. Bu jarayon esa madaniy merosni asrash bilan birga milliy o‘zlikni mustahkamlash, hududiy maktablarning tarixiy xotirasini tiklash va ularni global madaniy jabhada namoyon qilish bilan ham uzviy bog‘liqdir.

Zero, an’anaviy hunarmandchilikni chuqur ilmiy asosda o‘rganish va tizimlashtirish jahon xalqlari o‘rtasida madaniy xilma-xillikni saqlash, identiklikni belgilash va uni keng miqyosda targ‘ib qilish jarayonlariga xizmat qiladi. Shu bois kulolchilik maktablarining ijtimoiy-madaniy transformatsiyasini zamonaviy ilmiy metodlar asosida tadqiq qilish tarixiy ehtiyoj bo‘lishi bilan birga bugungi va kelajak taraqqiyotining muhim omillaridan biridir.

Yuqorida bayon etilgan mulohazalardan kelib chiqib ta’kidlash mumkinki, mazkur monografiya bugungi kungacha kulolchilikning nisbatan kam o'rganilgan biroq sohani muhim jihatlariga e’tibor qaratishni maqsad qilgan. Mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan kulolchilik maktablarini zamonaviy yondashuvlar doirasida tadqiq qilish, hozirgacha olib borilgan tadqiqotlarni tarixiy davrlarda o'zgarib borish dinamikasini ko'rsatish va kelgusi tadqiqotlar uchun metodologik asos yaratish, kulolchilikning maktab darajasida shakllanish bosqichlarini aniqlash, faoliyatdagi kulolchilik maktablarining ijtimoiy-madaniy funksiyalari va an’analarini tadqiq qilish hamda ularning muammolari va rivojlanish istiqbollarining aniqlashni maqsad qilgan.

Mazkur bobda esa O‘zbekistonda an’anaviy kulolchilik maktablarining ijtimoiy-madaniy transformatsiyasini tahlil qilish uchun zarur bo‘lgan nazariy-metodologik asoslar aniqlashtirilib, muammo tarixshunoslik nuqtai nazaridan tizimli ravishda ko‘rib chiqiladi. Kulolchilik fenomeni endi moddiy ishlab chiqarish jarayoni sifatidagina bo‘lmay kasbiy bilimning davomiylik mezonlari, ichki me’yor va qadriyatlarga, kasbiy faoliyatning ijtimoiy jihatdan tan olinishi, me’yoriy tartibga solinishi va obro‘ e’tibor tizimi orqali mustahkamlanadigan ijtimoiy institut sifatida tahlil qilinadi.

Dastavval qayd etish lozimki, mazkur tadqiqot doirasida kulolchilik maktabi hamda an’anaviy kulolchilik maktabi tushunchalari asosiy tahliliy tushunchalar sifatida qo‘llaniladi. Ularni ijtimoiy-antropologik nuqtayi nazardan talqin qilish kulolchilikni texnologik, estetik hodisadan tashqari ijtimoiy jihatdan tashkil topgan kasbiy tizim sifatida tushunish imkonini yaratadi. Bunday yondashuv monografiyada ilgari surilgan nazariy qarashlarning mazmunini aniqlashtirib, kulolchilik fenomenining ijtimoiy mohiyatini ochib beradi.

Ijtimoiy antropologiya va etnologiyada maktab tushunchasi rasmiy ta’lim muassasasi bilan chegaralanmaydi. Mazkur kategoriya muayyan hududiy muhitda shakllangan, kasbiy bilim va ko‘nikmalar, me’yorlar hamda qadriyatlarning uzluksiz davomiyligini ta’minlovchi barqaror ijtimoiy tuzilmani anglatadi. Shu bois hunarmandchilik maktablari individual ustalar faoliyatining yig‘indisi xisoblanmay jamoaviy tajriba asosida shakllanadigan kasbiy hamjamiyat sifatida qaraladi[1].

Mazkur talqinning metodologik asosini situativ o‘rganish (situated learning) va hamkorlikdagi faoliyat (communities of practice) konsepsiyasi tashkil qiladi. J. Lave va E. Wenger tomonidan ishlab chiqilgan ushbu nazariyaga ko‘ra, bilim rasmiy o‘qitish jarayonidan ko‘ra ko‘proq amaliy faoliyatga bosqichma-bosqich o‘tish orqali egallanadi. Shogird dastlab kuzatuvchi yoki ko’rinmas ishtirokchi maqomida bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan kasbiy hamjamiyatning to‘laqonli a’zosiga aylanadi[2]. Bu jarayonda bilim ijtimoiy muhit, tajriba darajasi va norasmiy me’yorlar bilan bog‘liq holda shakllanadi.

Shu nuqtayi nazardan, kulolchilik maktabi muayyan hududda shakllangan ustozlar va shogirdlar doirasi, kasbiy me’yorlar, texnologik tajriba hamda obro‘-e’tibor tizimi bilan tavsiflanadigan ijtimoiy birlik sifatida ham talqin qilinadi. Bunday tuzilma doirasida kasbiy faoliyat jamoaviy baholash va ijtimoiy tan olish tizimlari orqali tartibga solinadi. P. Bourdieu faoliyat nazariyasida[3] ta’kidlaganidek, kasbiy bilimlar ichidagi harakatlar habitus va ijtimoiy maqom bilan belgilanadi. Shu ma’noda kulolchilik maktabi kasbiy kapital va ijtimoiy maqomning shakllanish bilimlari sifatida namoyon bo‘ladi.

Antropologik tadqiqotlarga ko‘ra hunarmandchilik jarayoni bilim va tajribaning faoliyat vaqtida shakllanishi bilan bog‘liq holda izohlanadi. J. Goody yozuv va og‘zaki madaniyat o‘rtasidagi farqlarni tahlil qilar ekan,

[1] Lave J., Wenger E. Situated Learning: Legitimate Peripheral Participation. – Cambridge: Cambridge University Press, 1991. – 138 p.; Wenger E. Communities of Practice: Learning, Meaning, and Identity. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – 318 p.

[2] Lave J., Wenger E. Situated Learning: Legitimate Peripheral Participation. – Cambridge: Cambridge University Press, 1991. – 138 p.; Wenger E. Communities of Practice: Learning, Meaning, and Identity. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – 318 p.

[3] Bourdieu P. Outline of a Theory of Practice. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – 248 p.

og‘zaki tarzda bilimlarning avloddan avlodga o‘tishi jarayoni ijtimoiy tuzilma bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi[4].

T. Ingold va T. Marchand esa mahoratni inson, muhit va amaliy faoliyat o‘rtasidagi uzviy aloqada shakllanadigan jarayon sifatida talqin qiladi[5]. Bu qarashlar kulolchilik maktablarida bilimning yozma dastur asosida emas, kundalik mehnat va amaliy ishtirok orqali o‘tishini ilmiy jihatdan asoslaydi.

R. Sennett hunarmandlikni axloqiy mas’uliyat va kasbiy sharaf bilan bog‘liq ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilib, ustalik faoliyatini shaxsiy mahorat bilan bir qatorda ijtimoiy majburiyat sifatida ham izohlaydi[6]. Shu bois kulolchilik maktablari iqtisodiy ishlab chiqarish birligi bo‘lish bilan birga, kasbiy identitet va madaniy qadriyatlarni mustahkamlovchi muhit vazifasini ham bajaradi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan an’anaviy kulolchilik maktabi tushunchasi tarixiy davomiylik asosida shakllangan va avloddan avlodga o‘tib kelayotgan kasbiy bilimlar majmuasini anglatadi. Bu yerda an’anaviylik tarixiy tajribaning davomiy qayta qo‘llanilishini anglatadi. Situativ o‘rganish[7] nazariyasi mazkur jarayonni izohlashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi, chunki unda bilim avloddan avlodga o‘tishi bevosita amaliy ishtirok va ijtimoiy muhit bilan bog‘lanadi[8].

An’anaviy kulolchilik maktablari hududiy va madaniy identitetni shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb qiladi. Muayyan maktab mahsulotlarida tarixiy tajriba, estetik qarashlar va jamoaviy xotira mujassamlanadi. Shu tariqa kulolchilik maktabi tushunchasi texnologik umumiylikdan serqirra ma’noga ega bo‘lib, kasbiy bilimlarni uzatish tizimi, ijtimoiy maqomni shakllantirish bilimlari hamda hududiy madaniy identitetni mustahkamlovchi tizim sifatida talqin qilinadi.

---

[4] Goody J. The Logic of Writing and the Organization of Society. – Cambridge: Cambridge University Press, 1989. – 196 p.; Marchand T.H.J. Making Knowledge: Explorations of the Indissoluble Relation Between Mind, Body and Environment. – Oxford: Wiley-Blackwell, 2008. – 256 p.

[5] Ingold T. The Perception of the Environment: Essays on Livelihood, Dwelling and Skill. – London: Routledge, 2000. – 465 p.; Marchand T.H.J. Making Knowledge: Explorations of the Indissoluble Relation Between Mind, Body and Environment. – Oxford: Wiley-Blackwell, 2008. – 256 p.

[6] Sennett R. The Craftsman. – New Haven: Yale University Press, 2008. – 326 p.

[7] Situativ o‘rganish (situational learning) - ta’lim jarayonida bilim va ko‘nikmalarni real hayotiy vaziyatlar, muammoli holatlar yoki amaliy faoliyatga yaqin sharoitlarda o‘rganishga asoslangan pedagogik yondashuv xisoblanadi. Ushbu usulda bilimlar nazariy tarzda emas, balki muayyan vaziyatlarni tahlil qilish, muammolarni hal qilish va tajriba orqali erishiladi.

[8] Lave J., Wenger E. Situated Learning: Legitimate Peripheral Participation. – Cambridge: Cambridge University Press, 1991. – 138 p.

Mazkur nazariy asoslar kulolchilik maktablarining jamiyat tomonidan tan olinishi, ustoz-shogird munosabatlarining barqarorlashuvi hamda kasbiy bilimlarning avloddan avlodga o‘tishi tizimlarini aniqlashda konseptual tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, u kulolchilik faoliyatida ijtimoiy maqom, kasbiy legitimatsiya va obro‘-e’tibor tizimining shakllanishini tahlil etishda muhim ahamiyat kasb qiladi.

Bundan tashqari, mazkur yondashuvlar hududiy kulolchilik maktablarining o‘ziga xos uslubiy xususiyatlari qanday qilib ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog‘liq holda shakllanganini izohlash, an’anaviylik va innovatsiya o‘rtasidagi nisbatni tushuntirish hamda Globallashuv sharoitida kasbiy identitet transformatsiyasini tahlil qilish imkonini beradi.

Bir so‘z bilan aytganda kulolchilik maktabi va an’anaviy kulolchilik maktabi tushunchalarining ijtimoiy-antropologik talqini monografiyada ko‘tarilgan asosiy ilmiy muammolar xususan, kasbiy bilimlarning uzatilish tizimi, hunarmandchilikning ijtimoiy tuzilmasi, hududiy identitet shakllanishi va zamonaviy transformatsiya jarayonlarini kompleks ravishda yoritishda nazariy-metodologik poydevor vazifasini bajaradi.

Ijtimoiy antropologiya va etnologiyada hunarmandchilik faoliyatini ijtimoiy institut sifatida tushunish aksariyat xollarda strukturaviy-funksional yondashuv doirasida muhokama qilinadi. Bu yondashuv jamiyatni bir-biri bilan uzviy bog‘langan turli unsurlar tizimi sifatida tushunadi va har bir institutning jamiyat barqarorligidagi o‘rnini aniqlashga imkoniyat yaratadi.

Shu nuqtayi nazardan qaralganda, hunarmandchilik faqat mahsulot ishlab chiqarish yoki iqtisodiy faoliyat bilan cheklanib qolmasdan, jamiyatda muayyan ijtimoiy vazifalarni bajaradi. Kasbiy an’analarni saqlaydi, ustoz-shogird munosabatlari orqali tajriba va bilimlarni avloddan-avlodga yetkazadi hamda hunarmandlar o‘rtasidagi kasbiy tartib va mavqe tizimini shakllantiradi.

Bir so‘z bilan aytganda, hunarmandchilikni jamiyat hayotiga chuqur singib ketgan, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy munosabatlarni bir-biri bilan bog‘lab turadigan muhim institut sifatida anglashimiz lozim xisoblanadi.

Kulolchilik ijtimoiy institut sifatida, avvalo, mehnat taqsimoti va kasbiy vazifalar tizimi orqali ham ko‘zga tashlanadi. Bu borada Emile

Durkheim va Marcel Mauss maktabi vakillarining qarashlariga koʻra, hunarmandchilik jamiyatdagi ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlovchi muhim faoliyat turlaridan biri xisoblanadi[9]. Chunki, bunday faoliyat jarayonida odamlar oʻzaro hamkorlik qiladi, tajriba almashadi va umumiy qadriyatlarga tayangan holda faoliyat olib boradi.

Kulolchilik faoliyatiga nazar tashlasak, unda ishlab chiqarish texnik koʻnikmalar majmui bilan cheklanmaydi. Usta va shogird oʻrtasidagi munosabatlar, kasb bilan bogʻliq axloqiy qoidalar, mehnat madaniyati hamda kasbiy masʼuliyat ushbu faoliyatning muhim tarkibiy qismlarini tashkil qiladi. Shu sababli ham kulolchilik ustaxonasi buyum tayyorlanadigan joy boʻlishi bilan bir qatorda tajriba, qadriyat va kasbiy anʼana ustozdan shogirdga oʻtishini taʼminlaydigan ijtimoiy kichik jamiyat sifatida ham koʻrinish beradi. Umuman olganda kulolchilik jarayonida mehnat, tajriba va ijtimoiy qadriyatlar bir-biri bilan uygʻunlashib, kasbning doimiyligini taʼminlaydi hamda jamiyat madaniy hayotining rang-barang jihatlarini boyitib boradi.

Strukturaviy-funksional yondashuv nuqtayi nazaridan kulolchilik maktablari norasmiy institutlar sifatida jamiyat ichida muayyan funksiyalarni bajaradi. Ular kasbiy bilimlarni avloddan avlodga oʻtishi, ijtimoiy nazoratni amalga oshirish, ustoz va shogird oʻrtasidagi ierarxik munosabatlarni tartibga solish hamda kasbiy maqomni legitimatsiyalash vazifalarini bajaradi. B. Malinovskiy va K. Levi-Stross tadqiqotlarida hunarmandchilik institutlari jamiyatning madaniy va ijtimoiy ehtiyojlariga moslashgan funksional tizim sifatida talqin qilinadi[10].

Kulolchilikni ijtimoiy institut sifatida talqin qilish uning tarixiy davomiyligini tushuntirish imkonini ham beradi. P. Bourdieu tomonidan ishlab chiqilgan faoliyat va habitus tushunchalari hunarmandchilikni ijtimoiy institut sifatida anglashda muhim nazariy asos boʻlib, kulolchilik faoliyatida shakllangan kasbiy odatlar va ijtimoiy xulq-atvor meʼyorlarining avloddan avlodga oʻtishini izohlaydi[11].

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib aytish lozimki, anʼanaviy kulolchilik maktablarini ijtimoiy institut sifatida talqin qilish orqali

[9] Durkheim É. The Division of Labour in Society. – New York: Free Press, 1995. – 353 p.; 4. Mauss M. The Gift: The Form and Reason for Exchange in Archaic Societies. – London: Routledge, 2000. – 192 p.
[10] Malinowski B. A Scientific Theory of Culture and Other Essays. – Chapel Hill: University of North Carolina Press, 1944. – 228 p.; Lévi-Strauss C. Structural Anthropology. – New York: Basic Books, 1963. – 410 p.
[11] Bourdieu P. Outline of a Theory of Practice. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – 248 p.

ularning jamiyatdagi funksional oʻrni, kasbiy munosabatlarini tartibga solish tizimlari va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi roli strukturaviy-funksional yondashuv asosida tahlil qilish sohaga oid bilimlarni zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida boyitish imkoniyatini vujudga keltiradi.

Yuqorida tahlil qilingan nazariyalar mazkur tadqiqotning tegishli boʻlimlarida turli darajada qoʻllanilib, bu jarayon tadqiq qilinayotgan muammoni turli jihatlar va yondashuvlar asosida koʻrib chiqish imkonini yaratgan. Mazkur jarayonni quyida batafsil koʻrib chiqish orqali qismlarda qoʻllanilgan yondashuvlarni amaliy tahlil bilan bogʻlash, ularning qoʻllanilish chegaralari va natijadorlik darajasini belgilash hamda umumiy xulosalarni asosli tarzda shakllantirish imkoni paydo boʻladi.

Dastavval kasbiy bilimlarga toʻxtalib, ularning avloddan avlodga oʻtishini faqat ogʻzaki koʻrsatma yoki shaxsiy tajriba bilan izohlash yetarli emasligini e’tirof etish lozim. Ijtimoiy antropologiyada mazkur jarayonni tushuntiruvchi muhim nazariy asoslardan biri P. Burdye tomonidan ishlab chiqilgan habitus va faoliyat (practice) konsepsiyasi ahamiyat kasb qiladi. Burdyening bu boradagi asosiy yondashuvlari shundaki, u kasbiy koʻnikmalarni ijtimoiy muhitda shakllanadigan, tanaga singgan va kundalik mehnat jarayonida avtomatik tarzda takrorlanib turiladigan odatlar tizimi sifatida tushuntiradi. Ushbu yondashuvga koʻra, kulolchilikdagi muhim va ayni vaqtda sirli bilimlar - loyning pishganligini his qilish, shaklni muvozanatda ushlash, olov haroratini me’yorida boshqarish, sirning oʻtirishini oldindan payqash kabi koʻnikmalar - yozma koʻrsatmadan koʻra koʻproq faoliyat davomida tanaviy sezgi, xotira sifatida shakllanadi va shuning uchun ham bilimlar avloddan avlodga uzatilishda ijtimoiy muhit, kasbiy ierarxiya hamda obroʻ-e’tibor mezonlari hal qiluvchi rol oʻynaydi.

Natijada Burdyening nazariyasi[12] kulolchilik maktablarida kasbiy bilimlarning avloddan-avlodga oʻtishi ustoz oʻrgatuvchi va shogird oʻrganuvchi kabi munosabatlari bilan cheklanmasdan, kasbiy legitimatsiya, norasmiy nazorat va ramziy kapital (obroʻ) orqali mustahkamlanadigan ijtimoiy tizim ekanini izohlash imkonini beradi.

[12] Bourdieu P. Outline of a Theory of Practice / P. Bourdieu. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – 248 p.; Bourdieu P. The Logic of Practice / P. Bourdieu. – Stanford: Stanford University Press, 1990. – 333 p.

Mazkur tadqiqotda kasbiy bilimlar va ularning ijtimoiy uzatilish tizimlari masalasi ham alohida ahamiyat kasb etib, ushbu qismda muammoni nazariy asoslarini tushunish zaruratini belgilaydi.

Ushbu jarayonni ijtimoiy antropologiyada mavjud zamonaviy yondashuvlar asosida koʻrib chiqsak, kasbiy bilimlar kundalik faoliyat, takroriy mehnat jarayonlari va bevosita ijtimoiy muloqot orqali shakllanadigan tajribaviy bilimlar majmui sifatida talqin qilinadi. Hunarmandchilik faoliyatiga xos bilimlar, jumladan kulolchilik faoliyatida mavjud boʻlgan ishlab chiqarish koʻnikmalar, material bilan ishlash malakasi va ishlab chiqarish jarayoniga oid nozik tafsilotlar ogʻzaki izohdan koʻra, amaliy ishtirok orqali oʻzlashtiriladi. Shu sababli kulolchilik bilimlari koʻproq koʻrib oʻrganish, takrorlash va tajriba qilish orqali uzatiladigan bilim turi sifatida namoyon boʻladi[13].

Antropologik tadqiqotlar hunarmandchilikka oid bilimlarning avloddan avlodga oʻtishi bevosita ijtimoiy muhitga bogʻliq ekanini koʻrsatadi. Kulolchilik faoliyatida bilim uzatish jarayoni muayyan kichik vaqt oraligʻida ta’minlanmaydi u uzoq muddatli ishtirok va tajriba yigʻish orqali amalga oshadi. Bu jarayonda bilim egasi bilan bilim oluvchi oʻrtasidagi munosabatlar rasmiy oʻqitish shakli olib borilmaydi. Bilimlar oʻtishi kundalik mehnat jarayonida shakllanadigan norasmiy oʻzaro ta’sirga asoslanadi. Mazkur holat kasbiy bilimlarni ijtimoiy tajriba mahsuli ekanini koʻrsatadi[14].

Kasbiy bilimlarning oʻtishida tanaviy tajriba alohida ahamiyat kasb qiladi. Kulolchilik faoliyatida materialning xususiyatlarini his qilish, loyning pishganlik darajasini aniqlash, olov bilan ishlashdagi muvozanatni saqlash kabi koʻnikmalar verbal tushuntirishdan koʻra, tananing bevosita tajribasi orqali shakllanadi. T. Ingold va R. Sennett ta’kidlaganidek, hunarmandchilik bilimlari bilishdan koʻra qila olishga yaqin boʻlib, bu bilim turi tanaviy xotira va amaliy tajribaga tayangan holda avloddan-avlodga oʻtadi[15].

[13] Ingold T. The Perception of the Environment: Essays on Livelihood, Dwelling and Skill. – London: Routledge, 2000. – 465 p.; Marchand T.H.J. Making Knowledge: Explorations of the Indissoluble Relation Between Mind, Body and Environment. – Oxford: Wiley-Blackwell, 2008. – 256 p.

[14] Lave J., Wenger E. Situated Learning: Legitimate Peripheral Participation. – Cambridge: Cambridge University Press, 1991. – 138 p.

[15] Ingold T. The Perception of the Environment: Essays on Livelihood, Dwelling and Skill. – London: Routledge, 2000. – 465 p.; Sennett R. The Craftsman. – New Haven: Yale University Press, 2008. – 326 p.

Shuningdek, kasbiy bilimlarning avloddan avlodga o‘tishi ijtimoiy tan olish va tajriba asosida baholanadi. Kulolchilik faoliyatida bilimning to‘liq egallanganligi rasmiy hujjat yoki diplom bilan tasdiqlanmaydi. Bajarilgan ish sifati, buyumning mustahkamligi va estetik jihatlari orqali ko‘rinadi. Shu jihatdan kasbiy bilimlar ijtimoiy muhitda sinovdan o‘tgan va jamoa tomonidan e’tirof etilgan holatda legitimlashadi.

Bu jarayon hunarmandchilik faoliyatida bilim avloddan avlodga o‘tishini doimiy ijtimoiy nazorat doirasida kechadigan amaliy jarayon sifatida talqin qilishga imkon beradi[16].

Mazkur tadqiqotda kulolchilik maktablarida mehnat taqsimoti va gender rollari masalasi ham muhim ahamiyat kasb qiladi, shu bois ularning nazariy asoslarini aniqlash va belgilash zarur hisoblanadi. Ana’anaviy hunarmandchilik tizimida mehnat faoliyatining tashkil etilishi ko‘pincha ijtimoiy-madaniy me’yorlar, urf-odatlar hamda jamiyatda shakllangan gender tasavvurlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Kulolchilik maktablari misolida ham ustoz-shogird an’anasi, ishlab chiqarish jarayonining bosqichlari va mehnat faoliyatining taqsimlanishi ko‘pincha erkaklar va ayollar jamiyatidagi ijtimoiy rollar bilan uyg‘un xolda shakllangan.

Shu nuqtai nazardan, tadqiqotda kulolchilik jarayonida erkaklar va ayollarning ishtiroki, ularning bajaradigan vazifalari, mehnat jarayonida o‘zaro munosabatlari hamda bu jarayonning tarixiy shakllanish omillari antropologik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Bunda gender antropologiyasi, ijtimoiy mehnat taqsimoti va an’anaviy hunarmandchilik tizimiga oid nazariy qarashlar metodologik asos sifatida xizmat qiladi. Mazkur yondashuv kulolchilik maktablarida mehnat faoliyatining iqtisodiy tomonlarini tushunish bilan bir qatorda ijtimoiy va madaniy jihatlarini ham anglash imkonini beradi.

Ijtimoiy antropologiyada mehnat taqsimoti va gender vazifalarini biologik farqlar bilan izohlashdan voz kechish xolati mavjud bo‘lib, unga asos bo‘lgan nazariy o‘zgarish XX asrning birinchi yarmida M. Mid tomonidan amalga ishlab chiqilgan va ilgari surilgan. Uning etnografik tadqiqotlarida erkak va ayol mehnat faoliyatidagi farqlar tabiiy zarurat

[16] Bourdieu P. Outline of a Theory of Practice. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – 248 p.

deb baholanmaydi. Balki, madaniy tasavvurlar va ijtimoiy me’yorlar mahsuli ekanini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Keyinchalik S. Ortner va M. Strathern tadqiqotlarida esa gender vazifalari ishlab chiqarish jarayonidagi qat’iy vazifalar bo‘lmay muayyan ijtimoiy-madaniy kontekstda shakllanadigan va vaqt o‘tishi bilan transformatsiyalanib boradigan tizim sifatida talqin qilindi[17]. Ushbu yondashuvning muhim natijasi shundaki, hunarmandchilik faoliyatlarida, jumladan kulolchilikda erkak va ayol mehnatining chegaralari universallikka ega emasligi, hududiy an’ana, iqtisodiy ehtiyoj va ijtimoiy maqom bilan belgilanishi ilmiy jihatdan isbotlandi. Mazkur nazariy asos kulolchilik maktablarida mehnat taqsimoti va gender vazifalarini biologik determinizm doirasidan chiqib ijtimoiy konstruksiya sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu yondashuv monografiyada erkak va ayol mehnatining funksional chegaralari hamda ularning kasbiy maqom bilan bog‘liqligini aniqlashga, mehnat taqsimoti va unda gender vazifalarining shakllanishini, shuningdek, kasbiy identitetning vujudga kelish tizimlarini tahlil qilish uchun metodologik asos vazifasini bajaradi.

Qayd etish mumkinki, tadqiqotda mehnat taqsimoti va gender vazifalarining ijtimoiy-antropologik talqini ham ahamiyatli sanalib, hunarmandchilik tarmoqlarini tadqiq qilishda samarali natijalarga erishilgan nazariyalar ishlab chiqilgan.

Xususan, ijtimoiy antropologiyada mehnat taqsimoti jamiyatda ishlab chiqarish jarayonining tashkiliy jihati sifatida qaralmay ijtimoiy munosabatlar, madaniy me’yorlar va gender tasavvurlarini aks ettiruvchi tizim sifatida talqin qilinadi. Hunarmandchilik faoliyatlarida, jumladan kulolchilik faoliyatida mehnat taqsimoti biologik farqlardan ko‘ra ko‘proq ijtimoiy tajriba, an’ana va madaniy tasniflar asosida shakllanadi. Shu bois erkak va ayol mehnatining ajratilishi tabiiy zarurat emas, balki tarixan qaror topgan ijtimoiy-madaniy konstruksiya sifatida namoyon bo‘ladi[18].

Antropologik tadqiqotlar hunarmandchilikda gender vazifalari ishlab chiqarish jarayonining turli bosqichlarida namoyon bo‘lishini

[17] Mead M. Sex and Temperament in Three Primitive Societies. – New York: William Morrow & Company, 1935. – 356 p.; Ortner S. B. Is Female to Male as Nature Is to Culture? // Feminist Studies. – 1974. – Vol. 1, No. 2. – P. 5–31.; Strathern M. The Gender of the Gift: Problems with Women and Problems with Society in Melanesia. – Berkeley: University of California Press, 1988. – 384 p.

[18] Ortner S.B. Is Female to Male as Nature Is to Culture? // Feminist Studies. – 1974. – Vol. 1, No. 2. – P. 5–31.; Moore H.L. Feminism and Anthropology. – Cambridge: Polity Press, 1988. – 226 p.

koʻrsatadi. Kulolchilik faoliyatida mehnat jarayonining ayrim turlari xom ashyo tayyorlash, shakl berish, pishirish yoki bezash kabi bosqichlar muayyan gender bilan bogʻlab tasavvur qilinadi. Bu ajratish qat'iy va barcha jarayonlarga tegishli emas. Ya'ni universal xarakterga ega emas. Ushbu jarayon mahalliy ijtimoiy muhit, urf-odatlar va tarixiy tajriba bilan belgilanadi. Tushunish mumkinki, gender vazifalari kulolchilikda qat'iy biologik chegaralar bilan amalga oshmaydi moslashuvchan ijtimoiy normalar asosida shakllanadi[19].

Mehnat taqsimotining gender asosida tashkil etilishi ijtimoiy maqom va kasbiy obroʻ masalalari bilan ham chambarchas bogʻliq. Kulolchilik faoliyatida ayrim mehnat turlarining asosiy yoki ikkinchi darajali sifatida baholanishi gender tasavvurlariga tayangan holda shakllanadi. Natijada ishlab chiqarish jarayonidagi turli faoliyat shakllari iqtisodiy bilan bir qatorda ijtimoiy ahamiyat nuqtayi nazaridan ham turlicha baholanadi. Bu holat gender vazifalarining hunarmandchilik doirasida ijtimoiy tenglik yoki ierarxiyani shakllantirishdagi o'rnini ochib beradi[20].

Ijtimoiy antropologiyada gender vazifalari tarixiy sharoit va ijtimoiy jarayonlar ta'sirida transformatsiyalanib boruvchi tizim sifatida qaraladi. Kulolchilik faoliyatida ham zamonaviy iqtisodiy munosabatlar, bozor talablari va turizm omillari mehnat taqsimoti va gender vazifalariga bevosita ta'sir koʻrsatmoqda. Bu esa gender vazifalarining moslashuvchanligini koʻrsatadi[21].

Umuman olganda kulolchilik faoliyatidagi mehnat taqsimoti va gender vazifalari biologik hamda ijtimoiy tengsizlik nuqtayi nazaridan tashqari madaniy me'yorlar, kasbiy tajriba va tarixiy sharoitlar bilan bogʻliq holda tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv keyingi masalalarda kulolchilik faoliyatida kasbiy identitet va ijtimoiy maqomning shakllanish jarayonlarini tahlil qilish uchun zarur metodologik asos yaratadi.

Moddiy buyumlarning ramziy va semantik mazmunini tahlil qilish ijtimoiy va madaniy antropologiyada strukturaviy-semiotik hamda interpretativ yondashuvlar bilan bogʻliq holda rivojlangan. K. Levi-

[19] Strathern M. The Gender of the Gift. – Berkeley: University of California Press, 1988. – 375 p.
[20] Bourdieu P. Masculine Domination. – Stanford: Stanford University Press, 2001. – 133 p.
[21] Connell R.W. Gender. – Cambridge: Polity Press, 2002. – 120 p.

Stross[22] tomonidan ishlab chiqilgan strukturaviy tahlil buyumlar shakli va bezaklarini jamiyat tafakkurida mavjud bo‘lgan binar oppozitsiyalar va madaniy tasniflarning moddiy ifodasi sifatida talqin qilish imkonini berdi.

Ushbu yondashuvning asosiy ilmiy natijasi shundaki, moddiy madaniyat elementlari, jumladan kulolchilik buyumlari, jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi va dunyoqarashini aks ettiruvchi belgilar tizimi sifatida tushuntirildi.

Keyinchalik V. Tyorner va K. Girtslar[23] interpretativ antropologiya doirasida ramzlarni ijtimoiy ma’no tashuvchisi sifatida talqin qilib, buyumlarning shakl, bezak va rang tizimi orqali madaniy tajriba, marosimiy tasavvurlar va ijtimoiy qadriyatlar avloddan avlodga o‘tishini ilmiy jihatdan asoslab berdilar. Mazkur yondashuv kulolchilik buyumlarini madaniy matn sifatida o‘qish imkonini berib, monografiyada shakl, bezak va rang tizimining ramziy ma’nolarini tahlil qilish uchun metodologik asos vazifasini bajaradi.

Ijtimoiy antropologiyaning kasbiy identitet va ijtimoiy maqomni o‘rganish bilan bo‘g‘liq nazariyalari jamiyat va uning tarkibiy qismlarini atroflicha tadqiq qilish, voqelikni aniq hayot bilan bog‘lagan xolatda tushunish imkonini oshiradi.

Kulolchilik faoliyatida kasbiy identitet va ijtimoiy maqom masalasi kam e’tibor qaratilgan jihatlardan xisoblanadi.

Ijtimoiy antropologiyada kasbiy identitet shaxsning muayyan faoliyat turi bilan o‘zini anglash shakli bo‘lib, u kasbga oid bilim va ko‘nikmalar majmui bilan bir qatorda jamiyat tomonidan tan olinadigan ijtimoiy mavqe, obro‘ va ramziy maqom bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanadi. Kulolchilik faoliyatida kasbiy identitet shaxsning o‘z mehnati orqali jamiyatda tutgan o‘rni, ijtimoiy aloqalari va madaniy qadriyatlar tizimiga munosabati orqali namoyon bo‘ladi[24]. Shu jihatdan kulolning kimligi uning ishlab chiqargan mahsuloti, mehnat madaniyati va ijtimoiy tan olinishi bilan belgilanadi.

Antropologik tadqiqotlar kasbiy identitetning shakllanishi ijtimoiy muhit bilan doimiy o‘zaro ta’sirda kechadigan jarayon ekanini ko‘rsatadi.

---

[22] Леви-Строс К. Структурная антропология / К. Леви-Строс. – М.: Наука, 1985. – 536 с.

[23] Turner V. The Forest of Symbols: Aspects of Ndembu Ritual. – Ithaca: Cornell University Press, 1967. – 405 p.; Geertz C. The Interpretation of Cultures. – New York: Basic Books, 1973. – 470 p.

[24] Jenkins R. Social Identity. – London: Routledge, 1996. – 224 p.

Kulolchilik faoliyatida kasbiy identitet kundalik mehnat jarayonida, buyumlar sifati va uslubining ijtimoiy baholanishi orqali mustahkamlanadi[25]. Shaxsning o‘zini kulol sifatida tan olishi va jamiyat tomonidan tan olinishi bir-birini to‘ldiruvchi jarayon bo‘lib, bu holat kasbiy identitetning ijtimoiy xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi.

Kasbiy identitet ijtimoiy maqom bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Kulolchilik faoliyatida ijtimoiy maqom rasmiy lavozim yoki huquqiy maqom bilan belgilanmaydi. Mehnat natijasining sifati, buyumlarning jamiyatda qanchalik qadrlanishi va hunarmandning obro‘-e’tibori orqali belgilanadi. Shu sababli kulolchilik faoliyatida ijtimoiy maqom doimiy ravishda o‘zgarib, ijtimoiy muhit tomonidan baholanib boriladi[26]. Bu jarayon kasbiy faoliyatni ijtimoiy raqobat va o‘zini namoyon etish bilimlariga aylantiradi.

Ijtimoiy antropologiyada kasbiy identitet va maqomning shakllanishi ramziy tan olinishi bilan ham bog‘liq holda tahlil qilinadi. Kulolchilik faoliyatida ayrim buyumlar, uslublar yoki texnologiyalar ma’lum hudud yoki guruh bilan bog‘lab talqin qilinib, hunarmandning ijtimoiy mavqeini mustahkamlovchi ramziy belgilar vazifasini bajaradi[27]. Natijada kulolning kasbiy identiteti iqtisodiy, madaniy va ramziy ahamiyat kasb qiladi.

Kulolchilik faoliyatida kasbiy identitet va ijtimoiy maqom ijtimoiy munosabatlar, madaniy baholash va ramziy tan olish orqali shakllanadigan jarayon sifatida ham talqin qilinadi. Ushbu yondashuv kulolchilik buyumlarining shakl, bezak va rang tizimida mujassam bo‘lgan ramziy ma’nolarni hamda ularning madaniy xotira va hududiy identitet bilan bog‘liqligini tahlil qilish uchun muhimdir.

Kulolchilik buyumlarining shakl, bezak va rang tizimidagi ramziy ma’nolari ham ijtimoiy va madaniy antropologiyaning nigohida o‘ziga hos nazariyalarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

Xususan, ijtimoiy va madaniy antropologiyada moddiy buyumlarni jamiyatning ramziy tizimini ifodalovchi madaniy belgilar majmui sifatida talqin qiladilar. Shu nuqtayi nazardan kulolchilik buyumlarining shakli,

[25] Barth F. Ethnic Groups and Boundaries. – Boston: Little, Brown and Company, 1969. – 153 p.
[26] Weber M. Economy and Society. – Berkeley: University of California Press, 1978. – 1469 p.
[27] Bourdieu P. Distinction: A Social Critique of the Judgement of Taste. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1984. – 613 p.

bezagi va ranglar uyg‘unligi estetik tanlov mahsuli bo‘lishdan tashqari, muayyan madaniy tasavvurlar, tarixiy tajriba va ijtimoiy xotiraning moddiy ifodasi sifatida ko‘rinadi[28]. Antropologik tadqiqotlarda buyumlar jamiyatning o‘zini anglash shakllaridan biri bo‘lib, ular orqali madaniy ma’no uzatiladi va mustahkamlanadi.

Kulolchilik buyumlarining shakliy tuzilishi muayyan amaliy ehtiyojlarga moslashgan bo‘lsa-da, ularning barqaror takrorlanishi madaniy an’ananing mavjudligidan dalolat beradi. Antropologik yondashuvda shakl funksional qulaylik bilan bir qatorda jamiyatda qabul qilingan me’yor va tasniflarni ham ifodalaydi. Shu sababli muayyan hududda ishlab chiqarilgan kulolchilik buyumlarining shakliy o‘xshashligi madaniy xotiraning avloddan avlodga o‘tayotgan barqaror modeli sifatida qaraladi[29].

Bezak va naqsh tizimi esa kulolchilik buyumlarining eng muhim ramziy jihatini tashkil qiladi. Geometrik, o‘simliksimon yoki abstrakt naqshlar tasodifiy bezak unsurlari emas, albatta. Ular muayyan dunyoqarash, kosmologik tasavvurlar va ijtimoiy ramzlarning ifodasi xisoblanadi. Antropologik tadqiqotlarda bezak tizimi madaniy matn sifatida qaralib, u jamiyatning tarixiy tajribasi va qadriyatlarini vizual shaklda mujassamlashtiradi. Shu jihatdan kulolchilik bezaklari madaniy xotirani saqlovchi va qayta ishlab chiqaruvchi ramziy vosita vazifasini bajaradi[30].

Ranglar tizimi ham ramziy ma’noga ega bo‘lib, u estetik diddan tashqari madaniy tanlov mahsuli sifatida ham shakllanadi. Antropologik yondashuvda ranglar ijtimoiy tasnif, marosimiy tasavvurlar va hududiy farqlanishlarni ifodalovchi belgilar sifatida talqin qilinadi[31]. Kulolchilik buyumlarida muayyan ranglarning ustuvorligi tarixiy tajriba, ekologik sharoit va madaniy an’analar bilan bog‘liq holda shakllanib, hududiy identitetning vizual ifodasiga aylanadi.

Mazkur jihatlar kulolchilik buyumlarini madaniy xotira tashuvchisi sifatida talqin qilish imkonini beradi. Buyumlarning shakl, bezak va rang tizimi orqali jamiyat o‘z tarixiy tajribasini moddiy shaklda

[28] Geertz C. The Interpretation of Cultures. – New York: Basic Books, 1973. – 470 p.
[29] Gell A. Art and Agency: An Anthropological Theory. – Oxford: Clarendon Press, 1998. – 271 p.
[30] Douglas M. Natural Symbols: Explorations in Cosmology. – London: Barrie & Rockliff, 1970. – 168 p.
[31] Turner V. The Forest of Symbols: Aspects of Ndembu Ritual. – Ithaca: Cornell University Press, 1967. – 405 p.

mustahkamlaydi va uni kundalik hayotda takror vatakror namoyon qiladi. Shu tariqa kulolchilik buyumlari hududiy identitetni belgilovchi va madaniy xotirani saqlovchi ramziy tizim sifatida koʻrinish oladi.

Madaniy faoliyatlarning hududiy identitet bilan bogʻliqligini tushuntirishda ijtimoiy va madaniy antropologiyada madaniy xotira konsepsiyasi muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv J. Assmann[32] tomonidan ishlab chiqilib, jamiyatda tarixiy tajriba va madaniy qadriyatlarning avloddan avlodga oʻtishini barqaror ramzlar, an'analar va moddiy shakllar orqali amalga oshishini ilmiy jihatdan asoslab berdi. J, Assmannning asosiy ilmiy yutugʻi shundaki, u madaniy xotirani ijtimoiy guruhning oʻzini anglash va hududiy identitetini shakllantiruvchi tizim sifatida talqin qildi.

Keyinchalik P. Nora[33] tomonidan ilgari surilgan xotira makonlari (lieux de mémoire) konsepsiyasi ushbu jarayonni yanada aniqlashtirib, moddiy va ramziy obyektlar jamiyatning tarixiy xotirasini mujassamlashtiruvchi markaziy belgilar sifatida faoliyat yuritishini koʻrsatdi. Mazkur nazariy yondashuvlar doirasida kulolchilik buyumlari va kulolchilik maktablari muayyan hududning tarixiy tajribasi, estetik qarashlari va ijtimoiy oʻziga xosligini ifodalovchi madaniy xotira tashuvchilari sifatida talqin qilinib, monografiyada Rishton, Gʻijduvon va Xorazm kulolchilik an'analarini hududiy identitetni shakllantiruvchi omil sifatida tahlil qilish uchun metodologik asos boʻlib xizmat qiladi.

Mazkur monografiyada kulolchilik buyumlarining ramziy mazmuni madaniy xotira va hududiy identitetni shakllantiruvchi tizim sifatida ham talqin qilinadi. Ushbu yondashuv kulolchilik faoliyatining tarixiy davomiyligi va ijtimoiy qayta ishlab chiqarilish jarayonlarini tahlil qilish uchun nazariy asos boʻlib xizmat qiladi.

An'anaviy kasbiy faoliyatlarning tarixiy davomiyligini tushuntirishda ijtimoiy antropologiyada ijtimoiy tizimning yangidan tiklanishi konsepsiyasi muhim nazariy asos sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv P. Bourdieu tomonidan ishlab chiqilgan boʻlib[34], u madaniy va kasbiy faoliyatlarning uzluksizligi kundalik ijtimoiy faoliyatlar orqali

[32] Assmann J. Das kulturelle Gedächtnis. Schrift, Erinnerung und politische Identität in frühen Hochkulturen. – München: C.H. Beck, 1992. – 344 S.
[33] Nora P. Les lieux de mémoire. Vol. 1. – Paris: Gallimard, 1984. – 640 p.
[34] Bourdieu P. Outline of a Theory of Practice. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – 248 p.

doimiy ravishda o‘zgarib borishi bilan ta’minlanishini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Bourdieu’ning asosiy ilmiy yutug‘i shundaki, u habitus tushunchasi orqali kasbiy bilimlar, mehnat odatlari va estetik qarashlarning tanaviy tajriba va ijtimoiy muhitda mustahkamlanishini ko‘rsatdi.

Keyingi antropologik tadqiqotlarda[35] ushbu yondashuv rivojlantirilib, hunarmandchilik faoliyatlari ijtimoiy sharoitlarga moslashuvchi va doimiy ravishda transformatsiyaga uchrovchi jarayon sifatida talqin qilindi. Mazkur nazariy yondashuvlar doirasida kulolchilik faoliyatining uzoq tarixiy davrlar davomida saqlanib kelishi ustoz-shogird tizimi, tanaviy bilimlar va ijtimoiy tan olinishi orqali ta’minlanadigan ijtimoiy tizimning qayta tiklanuvchi tizim sifatida izohlanib, monografiyada an’anaviy kulolchilik maktablarining tarixiy barqarorligini tushuntirish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy va madaniy antropologiyada kulolchilik faoliyatining tarixiy davomiyligi masalasi ham ahamiyat kasb etib, sohani chuqur tahlil qilish jarayonida nazariyalar shakllanishini ta’minlagan.

Xususan, tarixiy davomiylik jamiyatda muayyan faoliyatlarning vaqt o‘tishi bilan saqlanib qolishi emas, ularning ijtimoiy sharoitlarga moslashgan holda o‘zgarib boruvchi jarayon sifatida ko‘riladi. Shu nuqtayi nazardan kulolchilik faoliyatining uzoq tarixiy davrlar davomida mavjud bo‘lib kelishi uning o‘zgarmasligi bilan emas, jamiyat ehtiyojlari, ijtimoiy munosabatlar va madaniy tasavvurlar bilan uyg‘unlashgan holda yangilanib borishi bilan izohlanadi[36]. Antropologik yondashuvda an’ana statik hodisa emas, ijtimoiy hayotga moslashtiriladigan jarayon sifatida qaraladi.

Kulolchilik faoliyatining tarixiy davomiyligi kundalik hayotda takrorlanadigan mehnat jarayonlari orqali ta’minlanadi. Har bir avlod kulolchilik faoliyatini o‘zlashtirishi bilan birga uni mavjud ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarga moslashtiradi. Shu jihatdan kulolchilik an’analari tarixiy meros sifatida saqlanib qolmaydi, ijtimoiy faoliyat jarayonida muntazam ravishda yangilanib, qayta tshkil qilinadi. Bu jarayon

[35] Giddens A. The Constitution of Society: Outline of the Theory of Structuration. – Cambridge: Polity Press, 1984. – 402 p.; Ingold T. The Perception of the Environment: Essays on Livelihood, Dwelling and Skill. – London: Routledge, 2000. – 465 p.

[36] Hobsbawm E., Ranger T. The Invention of Tradition. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – 320 p.

antropologiyada ijtimoiy tizimning yangitdan tiklanishi tushunchasi orqali izohlanadi[37].

Ijtimoiy tizimning yangitdan tiklanishi jarayonida tanlangan elementlar alohida ahamiyat kasb qiladi. Kulolchilik faoliyatida ayrim usullar, shakllar yoki texnologiyalar tarixiy tajribaning muhim qismi sifatida saqlanib qolsa, ayrimlari ijtimoiy ehtiyojlar va tashqi ta’sirlar natijasida o‘zgaradi yoki muomaladan chiqadi[38]. Shu sababli kulolchilik an’analari uzluksiz va bir xil davom etmay tanlanish xususiyatiga ega bo‘lib, jamiyatning muayyan davrdagi ustuvor qadriyatlari va ehtiyojlarini aks ettiradi.

Zamonaviy ijtimoiy antropologiyada an’anaviy kasbiy faoliyatlarning hozirgi holatini tahlil qilishda Globallashuv va madaniy transformatsiya nazariyalari ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, A. Appadurai, U. Hannerz va D. Harvey tadqiqotlarida[39] madaniy faoliyatlar global iqtisodiy, siyosiy va madaniy omillar bilan doimiy o‘zaro ta’sirda bo‘ladigan ochiq tizim sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuv kulolchilikni, moslashuv va talqin jarayonlarini boshdan kechirayotgan ijtimoiy-madaniy faoliyat sifatida tushuntirish imkonini beradi.

Mazkur nazariy yondashuvlar doirasida kuzatilganda ko‘rinadiki kulolchilik faoliyati zamonaviy bozor munosabatlari, turizm va madaniy siyosat ta’sirida muayyan transformatsiyaga uchramoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kulolchilik buyumlari kundalik foydalanish ehtiyojlaridan tashqari, namoyish, suvenir va ramziy mahsulot sifatida ham ishlab chiqarila boshlandi. Natijada ishlab chiqarish hajmi, buyumlarning shakli va bezagi tashqi auditoriya talablari bilan uyg‘unlashtiriladi. Antropologik nuqtayi nazardan bu jarayon kulolchilik faoliyatining uning ijtimoiy funksiyalarining kengayishi sifatida baholanadi.

[37] Giddens A. The Constitution of Society: Outline of the Theory of Structuration. – Cambridge: Polity Press, 1984. – 402 p.
[38] Bourdieu P. The Logic of Practice. – Stanford: Stanford University Press, 1990. – 333 p.
[39] Appadurai A. Modernity at Large: Cultural Dimensions of Globalization. – Minneapolis: University of Minnesota Press, 1996. – 229 p.; Hannerz U. Transnational Connections: Culture, People, Places. – London; New York: Routledge, 1996. – 206 p.; Hannerz U. Cultural Complexity: Studies in the Social Organization of Meaning. – New York: Columbia University Press, 1992. – 347 p.; Harvey D. The Condition of Postmodernity: An Enquiry into the Origins of Cultural Change. – Oxford: Blackwell, 1989. – 378 p.

Turizm omili kulolchilik maktablarining zamonaviy transformatsiyasida alohida o‘rin egallaydi. Turizm mahalliy madaniyatni namoyish etiladigan resursga aylantiruvchi ijtimoiy jarayon sifatida qaraladi. Bu holatda kulolchilik buyumlari hududiy madaniyatni ifodalovchi vizual va ramziy belgilardir. Shu bilan birga, nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishga qaratilgan davlat siyosati va institutsional tashabbuslar kulolchilikni rasmiy madaniy diskursga kiritib, uning ijtimoiy maqomini mustahkamlashga xizmat qiladi. Biroq bunday jarayonlar ayrim hollarda an’anaviy bilimlarning standartlashtirilishi va selektiv namoyishiga ham olib kelishi mumkin.

Shu tariqa, zamonaviy ijtimoiy jarayonlar kulolchilik faoliyatini an’anaviy kulolchilik maktablarining yangi sharoitlarga moslashuvini ta’minlovchi transformatsiya bo‘lib borayotgan tizimlar sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu yondashuv monografiyaning keyingi boblarida kulolchilik maktablarining zamonaviy holati, muammolari va rivojlanish istiqbollarini tahlil qilish uchun nazariy asos vazifasini bajaradi.

Zamonaviy antropologik tadqiqotlar kulolchilik faoliyatining tarixiy davomiyligi global jarayonlar bilan ham bevosita bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Bozor munosabatlari, turizm va madaniy siyosat omillari kulolchilik faoliyatining mazmuni va shakllariga ta’sir ko‘rsatib, an’anaviy faoliyatlarning transformatsiyasiga olib kelmoqda. Ya’ni kulolchilik faoliyati tarixiy tajribani to‘liq takrorlamaydi, uni zamonaviy sharoitda moslashtirish orqali yashab kelayotgan ijtimoiy jarayondir.

Kulolchilik faoliyatining tarixiy davomiyligi ijtimoiy tizimning yangidan tiklanishi jarayoni sifatida ham izohlanadi. Ushbu yondashuv an’anaviy kulolchilik maktablarining tarixiy shakllanishi, hududiy xususiyatlari va zamonaviy transformatsiyasini tarixiy-antropologik hamda etnologik tahlil qilish uchun nazariy asos yaratadi.

Hunarmandchilikning barcha tarmoqlari singari, zamonaviy ijtimoiy jarayonlar kulolchilik faoliyatida ma’lum o‘zgarishlarni keltirib chiqargan. Ushbu jarayonni kulolchilik faoliyatining transformatsiyasi sifatida baholash mumkin. Zamonaviy tadqiqotlarda an’anaviy faoliyatlar zamonaviy jarayonlarga qarama-qarshi qo‘yilmaydi. Ular bilan doimiy o‘zaro ta’sirda bo‘ladigan dinamik tizim sifatida ko‘riladi. Shu nuqtayi nazardan kulolchilik faoliyati ham zamonaviy jamiyatda Globallashuv,

bozor iqtisodiyoti, turizm va madaniy siyosat kabi omillar ta’sirida muayyan transformatsiya jarayonlarini boshdan kechirmoqda. Bu jarayon kulolchilik faoliyatining ijtimoiy vazifalari va mazmunining o‘zgarishiga olib kelmoqda.

Zamonaviy iqtisodiy munosabatlar sharoitida kulolchilik faoliyati iste’mol bozori bilan bevosita bog‘lanib, ishlab chiqarish hajmi, buyumlarning funksiyasi va estetik talablarga moslashishni talab qiladi. Antropologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bozor munosabatlari ta’siri doirasida kulolchilik buyumlari kundalik foydalanish vositasidan tashqari, ramziy va namoyish xarakteriga ega mahsulotga aylanishi ham mumkin. Bu holatda kulolchilik faoliyati iqtisodiy foyda va madaniy qadriyat o‘rtasidagi muvozanatni saqlash zarurati bilan yuzma-yuz keladi[40].

Bu borada turizm omili kulolchilik faoliyatining zamonaviy transformatsiyasida alohida o‘rin tutadi. Antropologik yondashuvda turizm mahalliy madaniyatni tashqi auditoriyaga namoyish etish vositasi sifatida qaralib, u an’anaviy faoliyatlarning tanlab ko‘rsatilishiga va talqin qilinishiga olib keladi. Kulolchilik bu jarayonda mahalliy madaniyatning vakili sifatida taqdim etilib, buyumlar estetik va ramziy jihatdan qayta shakllanishi mumkin. Shu bilan birga, turizm kulolchilik faoliyatining iqtisodiy barqarorligini ta’minlovchi omil sifatida ham namoyon bo‘ladi[41].

Zamonaviy ijtimoiy jarayonlar doirasida madaniy siyosat ham kulolchilik faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Nomoddiy madaniy merosni asrash va rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar kulolchilikni madaniy qadriyat sifatida institutsional tan olishga xizmat qiladi. Antropologik nuqtayi nazardan, bunday siyosiy va madaniy tashabbuslar kulolchilik faoliyatining ijtimoiy maqomini mustahkamlash bilan birga, uning mazmunini rasmiy fikr doirasida qayta belgilash jarayonini ham yuzaga keltiradi[42].

Zamonaviy ijtimoiy jarayonlar kulolchilik faoliyatining an’anaviy kulolchilik maktablarining yangi sharoitlarga moslashuvini ta’minlovchi transformatsion omillar sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuv keyingi

[40] Carrier J.G. Meanings of the Market: The Free Market in Western Culture. – Oxford: Berg, 1997. – 214 p.
[41] MacCannell D. The Tourist: A New Theory of the Leisure Class. – Berkeley: University of California Press, 1999. – 256 p.
[42] Smith L. Uses of Heritage. – London: Routledge, 2006. – 351 p.

boblarda kulolchilik maktablarining zamonaviy muammolari, rivojlanish istiqbollari va an’anaviylik hamda innovatsiya o‘rtasidagi uyg‘unlikni tahlil qilish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning nazariy asoslarini shakllantirishda keng foydalanilgan tadqiqot metodlarini qayd qilish lozim xisoblanib, ular orasoda Etnografik-dala va oral history yondashuvining zarurligini e’tirof etish o‘rinlidir.

Ijtimoiy antropologiya va etnologiyada an’anaviy hunarmandchilik faoliyatlarini tadqiq etishda yozma manbalar bilan cheklanish ko‘plab metodologik muammolarni yuzaga keltiradi. Kulolchilik faoliyati uzoq tarixiy davrlar davomida asosan og‘zaki an’ana, amaliy tajriba va kundalik mehnat jarayonida shakllanib kelganligi sababli, uning ijtimoiy-madaniy mazmuni yozma manbalarda to‘liq va tizimli aks etmagan. Tarixiy hujjatlar va yozma manbalar ko‘pincha hunarmandchilikni ikkilamchi xo‘jalik faoliyati sifatida qayd etib, kulolchilik faoliyatining ichki tizimlari, kasbiy tajriba va kundalik ijtimoiy munosabatlarini chetlab o‘tadi[43].

Antropologik tadqiqotlarda hunarmandchilikka oid bilimlar amaliy bilim sifatida talqin qilinadi. Bunday bilimlar bevosita faoliyat jarayonida, takroriy faoliyat va kuzatuv orqali shakllanadi. Kulolchilik faoliyatida mavjud bo‘lgan ko‘nikmalar, texnologik murakkabliklar va ishlab chiqarish bilan bog‘liq qarorlar ko‘pincha og‘zaki izohlanmaydi, balki amalda ko‘rsatish orqali uzatiladi[44]. Shu bois bunday bilimlarni yozma manbalar orqali rekonstruksiya qilish imkoni cheklangan bo‘lib, ularni faqat etnografik-dala tadqiqotlari yordamida aniqlash mumkin.

Etnografik-dala tadqiqoti kulolchilik faoliyatini uning tabiiy ijtimoiy muhitida kuzatish, hunarmandlarning kundalik faoliyati va o‘zaro munosabatlarini bevosita tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu yondashuv kulolchilik faoliyatini aniq ijtimoiy jarayon sifatida tushunishga xizmat qiladi. Antropologiyada dala tadqiqoti jamiyatning ichki mantiqini ochib beruvchi asosiy metod sifatida qaralib, u yozma manbalarda aks etmagan ijtimoiy tajribani ilmiy muomalaga kiritish imkonini yaratadi[45].

[43] Vansina J. Oral Tradition as History. – Madison: University of Wisconsin Press, 1985. – 258 p.
[44] Ingold T. The Perception of the Environment: Essays on Livelihood, Dwelling and Skill. – London: Routledge, 2000. – 465 p.
[45] Malinowski B. Argonauts of the Western Pacific. – London: Routledge, 1922. – 527 p.

og‘zaki tarix (Oral history) yondashuvi esa kulolchilik faoliyatining tarixiy davomiyligini va ijtimoiy xotirada saqlanib qolgan tajribalarni tiklashda muhim ahamiyat kasb qiladi. Og‘zaki tarix orqali ustozlar, tajribali hunarmandlar va ularning shogirdlari xotirasida saqlanib qolgan voqealar, kasbiy qarashlar va me’yorlar qayd etiladi. Ushbu ma’lumotlar rasmiy tarixiy hikoyalarda uchramaydigan, biroq hunarmandchilik faoliyatining ichki mantiqini tushunish uchun muhim bo‘lgan jihatlarni aniqlash imkonini beradi[46].

Mazkur monografiyada etnografik-dala va oral history yondashuvlari yozma manbalar bilan bir qatorda asosiy tadqiqot metodlari sifatida qo‘llaniladi. Bu yondashuvlar an’anaviy kulolchilik maktablarini tarixiy hujjatlar doirasidan tashqari, amaliy bilimlar, og‘zaki xotira va kundalik ijtimoiy tajriba asosida kompleks tahlil qilish imkonini beradi. Shu tariqa, tadqiqotda kulolchilik faoliyatining ijtimoiy-madaniy mazmunini to‘liq ochib berish uchun zarur metodologik asos yaratiladi.

Ushbu o‘rinda ta’kidlash lozimki, zamonaviy davrda axborot texnologiyalarining yangi bosqichda rivojlanishi kulolchilik maktablarini lokal joylashuvi omillarini aniqlash, ular tomonidan tayyorlanadigan maxsulotlarning bezak turi xususiyatlarini baholash kabi jarayonlarga ijobiy ta’sir qilib, bu borada yangi metodologiyalar ilgari surilmoqda.

Xususan, Kulolchilik san'ati bilan bog‘liq madaniy meros ob'ektlarini 3D skaynerlash (ob'ektning shakli va o‘lchamlarini aniq o‘lchab, kampyuterda qayta ishlanadigan raqamli modelini yaratish), geoinformatsion tizimlar yordamida xaritalashtirish, LiDAR (Masofani aniq o‘lchash uchun lazerdan foydalanadigan sensordir) texnologiyasi orqali kulolchilik markazlari yoki ob'ektlarini aniqlash, GIS (geografik axborot tizimi) asosida infratuzilmani qayta modellashtirish, ilmiy vizuallazatsiyalar va raqamli madaniy rekonstruksiyalar orqali kulolchilik san'ati haqidagi ma'lumotlar keng auditoriyaga taqdim qilish imkoniyatini yaratadi. Bu usullarning samaradorligi ayniqsa, yosh avlodning ma'naviyatini shakllantirish, dunyoqarashini o‘stirish, tarixiy tafakkurini zamonaviy media tilida tushntirishda ahamiyati kattadir. Shu jihatdan, madaniy merosni vuzial va raqamli formatlarga o‘tkazish

[46] Portelli A. The Death of Luigi Trastulli and Other Stories: Form and Meaning in Oral History. – Albany: SUNY Press, 1991. – 245 p.

kommunikativ meros sifatida zamonga moslashtirish ekanligini ta'kidlash lozim[47].

Zamonaviy madaniyatshunoslik va san'atshunoslik yondashuvlar orqali kulolchilik san'ati risolalari, hujjatlari, shajaralar, kulolchilik san'ati buyumlarining strukturalarini elektron tizimga kiritish, raqamlashtirish va semantik tahlil asosida dekodlash (Kodlangan ma'lumotlarni asl shakliga aylantirish) amaliyoti yo‘lga qo‘yilmoqda. Bu metodologik jarayonning asosiy afzalligi - san'at asarlarini konseptual jihatdan ko‘rish va ularning zamonaviy ijtimoiy-kognitiv xaritaga ta'sirini aniqlashdir. Kulolchilik bilan bog‘liq shajaralar, xujjatlar yoki manbalar matn ko‘rinishidan tashqari madaniy-kognitiv kodlar tizimi sifatida talqin qilish zamonaviy [48] tafakkurining yangi bosqichi hisoblanadi.

Yana bir muhim metodolik yondashuv bu komparativistik (taqqoslamali) tahlil metodidir. Kulolchilik madaniyati boshqa san'at sohalari kontekstida solishtirilib, madaniy differensual va umumiyliklar aniqlanmoqda. Bu yondashuv orqali kulolchilik san'atining universal va lokal xususiyatlari chuqurroq ochib beriladi. Ya'ni komparativ yondashuv orqali kulolchilik san'ati milliy bilan birga sivilizatsiyaviy kontekstida tahlil qilish [49] lozim.

Kulolchilik san'ati buyumlarini zamonaviy semantik va diskursiv metodlar orqali tahlil qilish, ularni faktalogik tahlil qilish bilan birga konseptual va mental jihatdan o‘rganishga zamin yaratmoqda[50]. Kulolchilik san'ati bilan bog‘liq manbalar va buyumlarni tahlil qilishda lingvosemiotik (muayyan matnlardagi va muomala vaziyatidagi shakl va mazmunining dialektik birligi) va diskursiv tetodlar qo‘llanilganda, ular ichidagi mafkuraviy, axloqiy va sivilizatsiyaviy kodlar ancha teran ochiladi.

Aslida san'at sohalarini hamda madaniy merosni me'yoriy inshootlar, yozuvlar, naqshlar, kutubxonalar, san'at buyumlari - zamonaviy arxetektura - tarixiy metodlar, fotogrammetriya va 3D modellashtirish texnologiyalari orqali o‘rganish tajribalari yo‘lga qo‘yilgan. Bu jarayon, ayniqsa, san'at durdonalari va madaniy

[47] Ergashev T. Raqamli tarix va vizual madaniyat. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – B. 139.
[48] Soleva R. Manbashunoslikda semantik tahlil metodlari. – Samarqand: Ma'rifat, 2021. – B. 126.
[49] Jo‘raev Sh. Madaniyatlar dialogi va tarixiy tafakkur. – Farg‘ona: Ilm ziyosi, 2021. – B. 87.
[50] Abdullaev R. Manbalar semiotikasi va tarix diskurs. – samarqand: Zarafshon, 2020. – B. 93.

yodgorliklarni restavratsiya qilishda, ularning asl funksional va semantik yuklamasini aniqlashda yordam bermoqda. Shuningdek, Me'yoriy yodgorliklarni fanlararo metodlar bilan tahlil qilish - ya'ni tarix, arxetektura, raqamli texnologiyalar va semiotikaning birlashuvi orqali - madaniyatni yangicha epistemologik asosda idrok qilishga imkon yaratadi [51].

Yana bir muhim komponenti - sotsiomadaniy tahlili orqali[52] kulolchilik san'ati (kulolchilik markazlari, ustaxonlar, kulolchilik charhi va boshqa ish qurollari, san'at buyumlari) jamiyatda qanday funksiyalar bajarganini, ularning zamonaviy madaniy ongdagi aksini aniqlash mumkin.

Sohaga axborot texnologiyalarini joriy qilish bo‘yicha ilgari surilgan metodologiyalar O‘zbekistonning barcha kulolchilik markazlariga olib borilgan ekspeditsiyalar, san'at buyumlarining raqamlashtirish loyihalari, muzeylardagi kulolchilik ekspozitsiyalarini qayta tuzib chiqish jarayonlarida ham faol qo‘llanilmoqda. Ayniqsa, GIS asosida kulolchilik san'ati markazlari, muzeylarini xaritalashtirish, raqamli kataloglar tuzish, QR-kodli kulolchilik markazlari bilan ishlash zamonaviy yondashuvlarning amaliy natijalaridandir. Ularni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali ko‘p qirrali madaniy voqyealik sifatida ifodalash - fanlararo metodlarining eng asosiy vazifasidir [53].

Mazkur tadqiqotda kulolchilik maktablari tomonidan tayyorlangan buyumlarni 3D modelini yaratish va u orqali sopolda aks etgan an’ana va ramiy matnlarni kelajak avlodga yatkazish, qolaversa, o‘rganuvchilar uchun doimiy tadqiqot manzilini yaratish monografiya uchun muhim jarayon sifatida qabul qilindi. Tadqiqot davomida Artisan3D nomli raqamli platforma yaratilib amaliyotga tatbiq qilindi.

Yuqorida bayon qilingan nazariy mulohazalar kulolchilik fenomenini ijtimoiy antropologiya va etnologiya doirasida moddiy buyumlar ishlab chiqarish faoliyati bilan bir qatorda jamiyatning kasbiy tajribasi, ijtimoiy munosabatlari va madaniy xotirasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab ijtimoiy-madaniy tizim sifatida talqin etish zaruratini

[51] Sa'dullaeva D. Tarixiy obidalar va zamonaviy texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2022. – B. 118.
[52] Matyoqubov I. Sotsioloiya va madaniy tarix. – Toshkent: Ma'naviyat, 2020. – B. 132.
[53] Usmonxo‘jaev A. Axborot texnologiyalari va tarixiy merosni targ‘ib qilish. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – B. 101.

asoslaydi. Ushbu yondashuv doirasida kulolchilik maktabi va an’anaviy kulolchilik maktabi tushunchalari norasmiy ijtimoiy institutlar sifatida qaralib, ular orqali kasbiy tajribaning avloddan avlodga o‘tishi, mehnat taqsimoti va gender vazifalarining shakllanishi, kasbiy identitet hamda ijtimoiy maqomning legitimatsiyasi jarayonlari tushuntiriladi. Shuningdek, kulolchilik buyumlarining shakl, bezak va rang tizimi madaniy kod va ramziy ma’no tashuvchisi sifatida talqin qilinib, ularning madaniy xotira va hududiy identitet bilan uzviy bog‘liqligi ijtimoiy-antropologik jihatdan asoslanadi. Ishning amaliy jihatini mustahkamlash maqsadida 3D modellashtirish ishlari olib borilib, alohida web platformada namoyishi yo‘lga qo‘yildi.

Mazkur tadqiqotning nazariy-metodologik asosini strukturaviy-funksional yondashuv tashkil qilib, ustivor ahamiyat kasb etgan. Ushbu yondashuv kulolchilik maktablarini jamiyat ichida muayyan ijtimoiy vazifalarni bajaruvchi tizim sifatida tahlil qilish imkonini yaratgan. Shu bilan birga, kasbiy bilimlarning shakllanishi va avloddan-avlodga o‘tishini tushuntirishda P. Bourdiyeu tomonidan ishlab chiqilgan faoliyat nazariyasi hamda habitus konsepsiyasidan foydalanilgan. Kulolchilik buyumlarining ramziy mazmunini tahlil qilishda esa strukturaviy-semiotik va interpretativ antropologiya yondashuvlari qo‘llanildi.

Umuman olganda yuqorida tahlil qilingan nazariy asoslar kulolchilik jarayonining tarixiy davomiyligi va ijtimoiy va madaniy jihatdan qayta tiklanishini, shuningdek, zamonaviy Globallashuv, bozor munosabatlari va turizm omillari ta’sirida yuz berayotgan transformatsiya jarayonlarini dinamik va moslashuvchan ijtimoiy jarayon sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Ayniqsa, yozma manbalarning cheklanganligi va amaliy bilim ustuvorligi sharoitida etnografik-dala hamda oral history yondashuvlarining qo‘llanilishi an’anaviy kulolchilik maktablarini empirik materiallar asosida o‘rganish uchun zarur metodologik poydevor yaratadi. Shu tariqa, ushbu paragrafda shakllantirilgan nazariy-metodologik yondashuvlar monografiyaning keyingi boblarida O‘zbekistonda an’anaviy kulolchilik maktablarining tarixshunosligi, shakllanish jarayonlari va ijtimoiy-madaniy funksiyalarini tizimli ravishda tahlil qilish uchun konseptual asos bo‘lib xizmat qiladi.

§ I.2. O‘zbekistonda kulolchilik maktablari tarixshunosligi

O‘zbek xalqi hunarmandchiligining yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblangan kulolchilik uzoq tarixiy tajriba va madaniy taraqqiyot jarayonini kuzatish imkonini beruvchi muhim soha sifatida ajralib turadi. Tarixiy davrlarda u xalq xo‘jaligida asosiy iste’mol mahsulotlarini yetkazib berganligi bois turli bosqichlarda tadqiqotchilar e’tiborida bo‘lib kelgan. Mazkur yo‘nalishga bag‘ishlangan va qariyb 170 yildan ortiq davr mobaynida chop etilgan ilmiy nashrlar ko‘lami nihoyatda keng bo‘lib, ularning barchasini bir tadqiqot doirasida to‘liq qamrab olish va tarixshunoslik masalalarini mukammal yoritish amalda murakkab hamda deyarli imkonsiz vazifa hisoblanadi.

Shu bois ishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, monografiya mavzusiga bevosita va bilvosita aloqador bo‘lgan tadqiqotlar xronologik hamda sohaviy tamoyillar asosida tizimlashtirilib, to‘rt guruhga ajratildi va ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi.

Xususan:

- XIX asr va XX asrning birinchi choragidagi tavsifiy tadqiqotlar;
- Sovet davri tadqiqotlari;
- 1991-yildan keyingi ilmiy tadqiqotlar;
- Xorijiy tadqiqotlar.

Qayd etish lozimki, ushbu tadqiqotlar arxeolog, etnograf va antropolog, san’atshunos, muzeyshunos va mintaqa xalqlari hayotiga qiziquvchi boshqa mutaxassislar tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, sohani har tomonlama tushunish, bugungi kungacha yetib kelgan taraqqiyot bosqichlarini aniqlash qolaversa, mazkur tadqiqotning asosiy vazifalaridan xisoblangan ijtimoiy-madaniy jarayonlarni ochish imkoniyatini yaratadi.

XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlariga oid kulolchilik masalalari tadqiq etilgan etnografik va arxeologik tadqiqotlarda muammoga yondashuv turlicha ahmiyat kasb etgan bo‘lib, ularni quyidagilarda kuzatish mumkin. Xususan, Rossiya imperiyasi mustamlakachiligining dastlabki yillarida sohaga bag‘ishlangan etnografik xarakter kasb etuvchi tadqiqotlar mahalliy aholi mashg‘ulotlari kesimida an’anaviy kulolchilik

munosabatlariga bo‘lgan tasodifiy yondashuvlar[54] kuzatilsa, ushbu davrning so‘nggi yillariga kelib tadqiqotlar amaliy ahamiyat kasb eta boshlagan[55].

Xronologik davr kesimida kuzatsak, 1850-1920 yillar doirasidagi nashrlar kulolchilikni turli bosqichlarda turlicha talqin qilganini kuzatish imkoniyatini oshiradi. Xususan, 1870-1890 - yillarda kulolchilik ko‘proq mintaqa aholisining umumiy xo‘jalik tizimi tarkibidagi oddiy ishlab chiqarish faoliyat sifatida tasvirlanadi[56]. Bu davr manbalarida kulolchilik ro‘zg‘or ehtiyoji va mahalliy bozorni ta’minlovchi hunar tarmog‘i kesimida qayd etiladi. Mazkur yondashuvning yaqqol misoli sifatida Turkiston o‘lkasidagi ishlab chiqarish ishlab chiqarishlarga bag‘ishlangan asar[57]da mintaqadagi ishlab chiqarish tarmoqlari doirasida umumlashtirilgan holda bayon qilinadi. Kulolchilik bu yerda mustaqil tadqiqot obyekti

[54] Хорошхин А. П Историко-этнографические этюды. Народы Средней Азии // Туркестанские ведомости (Бундан буён – ТВ.) – 1871. – №1; Ўша муаллиф. Сборник статей касающихся до Туркестанского края. Спб. 1876; Гребенкин А. Д. Узбеки // Русский Туркестан. Сборник изданный по поводу политехнической выставки. Вып. 2. – М., 1872. – С. 105–106; Ўша муаллиф. Родословная Мангитской Династии // Материалы для статистики Туркестанского края (Бундан буён – МСТК). – Ташкент, 1874. Вып.3. – С. 340–376; Наливкин В. П. Торговля пригонными баранами в Наманганском уезде // ТВ. – 1880. – №49; Ўша муаллиф. Киргизы Наманганского уезда // ТВ. – 1881. – №20; Наливкин В. П., Наливкина М. Очерк быта женщин туземного оседлого населения Ферганской долины. – Казань, 1886. – 245 с.; Ўша муаллиф. Положение вакфного дела в Туркестанском крае до и после его завоевания // Ежегодник Ферганской области. Т. III. Новый Маргелан, 1904. – С. 11–15; Наливкин В. П. Туземцы раньше и теперь. – Ташкент, 1913. – С. 178– 210; Ўша муаллиф. Краткая история Кокандского ханства. – Казань, 1886. – С. 120–131; Маев Н. А. Географический очерк Гиссарского края // Материалы для статистики Туркестанского края. (Бундан буён – МСТК). Вып. 5. – Спб., 1874. – 400 с.; Ўша муаллиф. Очерки Гиссарского края // ТВ. – 1876. – №5; Ўша муаллиф. Географический очерк Гиссарского края и Кулябского бекства // Известия ИРГО. Т. XII. Вып.4. Отд. 2. Географические известия. – Спб., 1877. – С. 349–363; Ўша муаллиф. Очерки горных бекств Бухарского ханства //МСТК. – Спб., 1879. Вып.5. – С. 212–249; Покотило Н. Н. Путешествие в центральную и восточную Бухару в 1886 г // Записки Русского географического общества (Бундан буён – ЗРГО). – Спб., 1889. – С. 480–502; Логофет Д. Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. Т. 1. – Спб., 1911; Ўша муаллиф. В горах и равнинах Бухары (Очерки Средней Азии.). – М., 1912.

[55] Технические производства в Туркестанском крае / М.И. Бродовский. – СПб., 1875. – 104 с.; Туркестанская выставка 1886 года / Н.А. Маев. – Ташкент, 1886. – 42 с.; Сборник материалов для статистики Сыр-Дарьинской области / под ред. и. д. секретаря Комитета И.И. Гейера. – Издание Сыр-Дарьинского областного статистического комитета. – Ташкент : Типо-литография С.И. Лахтина, 1891. – 326 с.; Кирпичников Н.А. Краткий очерк некоторых туземных промыслов Самаркандской области // Справочная книжка Самаркандской области. – Вып. V. – Самарканд, 1897.; Гейер И.И. Кустарные промыслы в Ташкенте // Русский Туркестан. – 1902. – № 166, 167, 171, 192, 203.; Кустарные промыслы в Ташкенте. Тетрадь I / И. Гейер, И. Назаров. – Ташкент, 1903.; Весь Русский Туркестан / И.И. Гейер. – Ташкент : С.Р. Конопка, 1908. – [4], 308, XXXII с. : ил., табл.; Головин Г. Кустарные промыслы Туркестана // Туркестанский сборник. – Т. 512. – Ташкент, 1909.; Хозяйство сартов Ферганской области / [В.И. Юферев]. – Ташкент, 1911.; Рисоля сартовских ремесленников: Исследование преданий мусульманских цехов / М. (М.Ф.) Гаврилов. – Ташкент, 1912. – 31 с.; Поспелов Ф. Кустарная промышленность в Каттакурганском уезде // Туркестанское сельское хозяйство. – 1912. – № 8.; Промышленные заведения Туркестанского края / В.В. Заорская, К.А. Александер. – Пг., 1915. – 560 с.; Опыт исследования гончарного и некоторых других кустарных промыслов в Туркестанском крае / В.К. Розвадовский. – Ташкент : тип. при Канц. турк. ген.-губ., 1916 (обл. 1915). – 58 с.

[56] Технические производства в Туркестанском крае … – 104 с.; Туркестанская выставка 1886 года … – 42 с.; Сборник материалов для статистики Сыр-Дарьинской области … – 326 с.; Кирпичников Н.А. Краткий очерк некоторых туземных промыслов Самаркандской области – Самарканд, 1897.

[57] Бродовский М. И. Технические производства в Туркестанском крае ... – 104 с.

sifatida ajratib koʻrsatilmaydi, aksincha, u xomashyo (gil), ishlab chiqarish usullari, mehnat quvazifalari (kulolchilik dastgohi), tayyor mahsulot turlari (idish-tovoq) kabi texnologik-amaliy maxsulot singari tavsiflanadi. Asarda ishlab chiqarilayotgan buyumning xoʻjalikdagi vazifalari va iste'mol bozoriga urgʻu beriladi. Bu holat kulolchilikning mazkur davr tarixshunosligida xoʻjalik tarmogʻi sifatida qabul qilinganligini koʻrsatadi.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, mazkur davrda lokal hududlar kesimida qayd etilgan toʻplamlarning paydo boʻlishi[58], ularda ham sohaga doir ma'lumotlarning aks ettirilishi, kulolchilik jarayonini tasvirlab berishga qaratilgan ishlardan tashqari manbaviy ahamiyatga ega statistik dalillarni vujudga kelishini ta'minlaydi.

1890-1910 yillarga kelib, manbalarning e'tibor markazi sezilarli darajada sohani har tomonlama tadqiq qilishga ixtisoslashadi. Jumladan, kulolchilik oila iqtisodiyotini asosiy tarmogʻi va maxsulotlar ustaxona mehnati natijalari sifatida qarala boshlanadi. Ya'ni hunar umumiy xoʻjalik ning bir boʻlagi boʻlishi bilan birga, uy xoʻjaligi daromadi, mehnat taqsimoti va bozor bilan munosabatlar kontekstida talqin qilina boshlaydi. Bu davr ma'lumotlari kulolchilikni kustar sanoati (uy-ustaxona ishlab chiqarishi) doirasida yoritilib, usta-shogird munosabatlari, oilaviy mehnat resurslari, buyurtma va savdo tizimlari kabi jihatlari koʻproq yoritiladi. Natijada kulolchilikning iqtisodiy funksiyasi bilan bir qatorda, uning ijtimoiy-iqtisodiy jihatidan muayyan me'yorlar bilan tartibga solinishi doirasida kasbiy qatlam, ustaxona, bozor tarmogʻi ham birmuncha aniqroq koʻrina boshlaydi.

Xususan, Toshkentdagi hunarmandchilik tarmoqlari qayd etilgan statistik toʻplamda[59] kulolchilik hunari umumiy xoʻjalik doirasidan chiqarilib, ustaxona shaklidagi mehnat tashkiloti xususan, ustoz-shogird, yordamchi mehnati, ish vaqti, ish rejimi tasvirlana boshlanadi. Bu borada asardan kulollar soat va kun davomida tayyorlanadigan maxsulot hajmiga qaramasdan ishlashi, yollanma ishchi va shogirdlarning vazifalari xaqidagi ma'lumotlarning aks ettirilishi bevosita uy-ustaxonasida tashkil etilgan ishlab chiqarishining ichki funksiyalari jumladan mehnat taqsimotiga ham e'tibor qaratilganligini anglatadi.

[58] Сборник материалов для статистики Сыр-Дарьинской области / Издание Сыр-Дарьинского областного статистического комитета ; под ред. И. И. Гейера. – Ташкент : Типо-литография С. И. Лахтина, 1891. – 326 с.
[59] Кустарные промыслы в Ташкенте. Тетрадь I / сост. И. И. Гейер, П. С. Назаров. – Ташкент, 1903. – 32 с.

1900-yillarga oid ma’lumotnoma (spravochnik) shaklidagi nashrlarda hunarmandchilik tarmoqlari xususan kulolchilik alohida hunar turi (кустарный va ремесла) sifatida ko‘rsatiladi[60]. Manbaning asosiy e’tibori mintaqaning ma’muriy-hududiy tuzilishi, aholi tarkibi, xo‘jalik tarmoqlari, savdo va sanoat faoliyatiga qaratilgan bo‘lib, undan o‘rin olgan ma’lumotlardan kulolchilikning jamiyat va iqtisodiy hayot doirasida barqaror, tan olingan hamda muayyan qoidalar asosida faoliyat yuritadigan tuzilmaga aylanish jarayonini kuzatish mumkin. Qolaversa, ushbu davrda e’lon qilingan bibliografik nashrda[61] Turkiston shaharlari ijtimoiy-iqtisodiy hayoti kontekstida taraqqiy etgan kulolchilik ajratib ko‘rsatiladi. E’tiborlisi shundaki, hunarmandchilik mahsulotlarini bozorga sotishda vositachilar qatlami ham shakllanganligini tasvirlanganligidir.

1909 yilga kelib, uy-ustahona hunarmandchiligiga bag‘ishlangan tadqiqotlarning vujudga kelishi va ularda kulolchilikning alohida hunarmandchilik ishlab chiqarishi sifatida aks ettirilishi, sohaga doir ma’lumotlarni ko‘proq qayd etilishi imkoniyatini yaratgan. Xususan, Turkistondagi hunarmandchilik sanoatiga bag‘ishlangan maqola[62]ning e’lon qilinishi kulolchilikning ayni davrni muhim mavzularidan biriga aylanganligini tasdiqlaydi. Maqolada Turkiston o‘lkasida XX asr boshlarida mavjud bo‘lgan hunarmandchilik tarmoqlari, jumladan kulolchilik, uy-ustaxona ishlab chiqarishi, kulolchilikning hududlar kesimida tarqalishi hamda mahsulotlarning mahalliy bozordagi o‘rni yoritiladi. Muallif uy-ustahonalarida ishlab chiqarishni mintaqa iqtisodiyotining muhim qismi sifatida baholab, hunarmandchilikning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini bayon qiladi.

1890-1910 yillar oralig‘ida nashr etilgan manbaviy ahamiyat kasb etuvchi ishlar kulolchilikni uy-ustaxona ishlab chiqarishi, mehnat jarayoni, oila daromadi, usta-shogird tizimi, hamda buyurtma, savdo, vositachilik kabi bozor munosabatlari bilan bog‘langan usta sanoati doirasida yoritiladi. Aynan shu davrda kulolchilik atrofida kasbiy qatlam, ustaxona infratuzilmasi va bozor tarmog‘i aniqroq ko‘rina boshlaydi.

[60] Весь Русский Туркестан : справочник. – Ташкент : С. Р. Конопка, 1908. – [4], 308, XXXII с.
[61] Весь Русский Туркестан : иллюстрированный справочник-путеводитель. – Ташкент : Типо-литография С. Р. Конопка, 1908. – [4], 308, XXXII с. : ил.
[62] Кустарные промыслы Туркестана // Туркестанский сборник. – Ташкент, 1909. – Т. 512. – С. 1–35.

Ushbu jarayon esa keyingi davrlarda kulolchilikning mustaqil tadqiqot obyektiga aylanishiga tajriba yaratadi.

Xususan, 1911 yilga kelib, xisobot tarzidagi ishlarda ham kulolchilik aholi xo‘jaligining alohida tarmog‘i sifatida aks eta boshlaydi. Mintaqada taftish ishlarini olib borgan K. Palen Turkiston o‘lkasi xo‘jaligi va boshqaruvi bo‘yicha e’lon qilgan xisobot to‘plamlari[63]ning maxsus bo‘limlari xalq xo‘jaligining tarmoqlari jumladan, mahalliy hunarmandchilik va uy-ustahonasi ishlab chiqarish bo‘yicha faktik ma’lumotlarni qamrab oladi. Mazkur xisobot asarlarining muammoga doir ahamiyatli jihati shundaki, materiallarda Turkiston shaharlarida hunarmandchilikning sex-mahalla bo‘yicha ixtisoslashuvi tilga olinadi. Xususan, ayrim kasblar vakillari odatda bir mahalla atrofida jamlanib yashagan va ushbu jarayon natijasida hudud nomi kasb turi bilan bog’liq xolatda tanilgan. Bu xaqida asrda Zingaran (misgarlar), Suzangaran (ignasoz/igna ustalari) qatori kulollar’ kabi mahalla nomlari qayd etiladi. Ushbu ma’lumotlardan kulollar guruhining shahar va qishloq tuzilmasida alohida ijtimoiy birlik sifatida kuzatish va kasbiy identitetning joy nomi orqali mustahkamlanishi sifatida baholashga imkon yaratadi.

Kulolchilikning mustaqil tadqiqot obyektiga aylanishiga yorqin misol V.K. Rozvadovskiy[64]ning Turkiston o‘lkasidagi kulolchilikka bag‘ishlangan asaridir. Tadqiqotda ustaxonalar faoliyatiga alohida e’tibor qaratilib, ishlab chiqarish jarayoni bosqichma-bosqich bayon qilinadi. Unda gil tuproqni qazib olish, tozalash va tayyorlash, buyumlarga maxsus charxda shakl berish, shakl berilgan yarim tayyor maxsulotni quritish hamda maxsus pechlarda pishirish jarayonlari ketma-ketligi aniq qayd etiladi. Muallif ayrim joylarda ishlatiladigan gil turi, pishirish uchun yoqilg‘i tanlovi hamda pechning tuzilishidagi farqlarni ham ko‘rsatib o‘tishga harakat qiladi. Bu orqali ustaxonalarning ishlab chiqarish jarayonidagi hududiy farqlarini ko‘rsatishga urinadi. Bu esa kulolchilikni o‘ziga xos ishlab chiqarish texnologiyasiga ega tizim sifatida anglash boshlanganini tasdiqlaydi.

[63] Пален К. К. Материалы к характеристике народного хозяйства в Туркестане : в 2 ч. – Санкт-Петербург : Сенат. тип., 1911.; Пален К. К. Отчет по ревизии Туркестанского края, произведенной по высочайшему повелению сенатором гофмейстером графом К. К. Паленом. – Санкт-Петербург : Сенат. тип., 1909–1911.

[64] Опыт исследования гончарного и некоторых других кустарных промыслов в Туркестанском крае / В. К. Розвадовский. – Ташкент : тип. при Канц. турк. ген.-губ., 1916 (обл. 1915). – [2], 58 с

Ushbu o‘rinda qayd etish lozimki, 1912 yildan boshlab tarixshunoslikda yangi yo‘nalish kuzatiladi. Ushbu jarayonni kulolchilikning ma’naviy-institutsional tomonlari, ya’ni kasb odobi, ustoz-shogirdlik me’yorlari, risola va sex an’analari, kasbiy legitimatsiya shakllari ham tadqiqotchilar e’tiboridan o‘rin egallaydi. Xususan M. Gavrilov[65] tomonidan qayd etilgan materiallarda hunarmandlar orasida mavjud bo‘lgan kasb odobi, ustoz-shogirdlik munosabatlari, kasb kelib chiqishi haqidagi rivoyatlar hamda sex an’analari tilga olinadi. Hunar egalarining o‘z kasbini muqaddas yoki tarixiy shaxslar bilan bog‘lashga urinishlari qayd etilishi kulolchilikni kasbiy identitet va ijtimoiy mavqe bilan bog‘liq madaniy institut sifatida anglash boshlanganini ko‘rsatadi. Bu o‘zgarishlar kulolchilikni kasbiy identitet, axloqiy me’yorlar, marosimiy tasavvurlar va ijtimoiy maqom bilan bog‘langan murakkab madaniy institut sifatida kuzatishga imkon yaratadi.

Ko‘rinib turibdiki, 1910 yildan boshlab 1916 yillargacha bajarilgan ishlarda kulolchilik xo‘jalik qolaversa, hunarmandchilik xaqidagi ma’lumotlarning qo‘shimcha tarmog‘i maqomidan chiqib, mustaqil tadqiqot obyektiga aylanish jarayoniga o‘tadi. Bu davr asarlarida kulolchilik endi xo‘jalik va oila iqtisodiyoti yondashuviligi bilan bir qatorda texnologik tizim, kasbning tashkiliy modeli, ishlab chiqarish tizimi, mahsulot turlari, ustaxonalar geografiyasi kabi masalalarni maxsus tadqiq qiladi[66]. Eng muhimi, kulolchilikni bevosita tadqiq qilgan alohida izlanuvchilar shakllanadi, ular sohaga doir empirik materiallarni to‘plash, ularni hududlar doirasida taqqoslash va tasniflashga urinadi. Shu jihatdan mazkur davrda bajarilgan tadqiqotlar keyingi ilmiy izlanishlar uchun metodologik asos vazifasini bajaradi.

Umuman olganda, mazkur lokal davrlar kulolchilik tarixshunosligida rivojlanish dinamikasi mavjudligini ko‘rsatadi. Xususan, avval hunar xo‘jalik tizimining bir bo‘lagi sifatida qayd etiladi, so‘ngra u oilaviy iqtisodiyot va uy-ustaxona ishlab chiqarishi doirasida tahlil va

[65] Рисоля сартовских ремесленников : исследование преданий мусульманских цехов / М. Гаврилов. – Ташкент, 1912. – 31 с.

[66] Кустарные промыслы Туркестана / Головин Г. // Туркестанский сборник. – Т. 512. – Ташкент, 1909.; Поспелов Ф. Кустарная промышленность в Каттакурганском уезде // Туркестанское сельское хозяйство. – 1912. – № 8.; Хозяйство сартов Ферганской области / [В. И. Юферев]. – Ташкент, 1911. – 65 с.; Опыт исследования гончарного и некоторых других кустарных промыслов в Туркестанском крае / В. К. Розвадовский. – Ташкент : тип. при Канц. турк. ген.-губ., 1916 (обл. 1915). – [2], 58 сПромышленные заведения Туркестанского края / В. В. Заорская, К. А. Александер. – Пг., 1915. – 560 с.;

talqin qilinadi, navbatdagi bosqichda mustaqil tadqiqot obyektiga aylanib, maxsus kuzatish va tasniflashlar paydo bo‘ladi. nihoyat, hunarning ma’naviy-institutsional qirralari ham ilmiy muomala doirasida tahlilga tortiladi.

Shuni ham qayd etish lozimki, Rossiya imperiyasi davri tadqiqotlarida kulolchilik maktablari mustaqil madaniy hodisa sifatida emas, aksariyat xollarda ishlab chiqarish xo‘jalik tarmog‘i doirasida o‘rganilgan. Bunda imperiyaning iqtisodiy va ma’muriy siyosati muhim omil bo‘lib, tadqiqotlar asosan mintaqaning xomashyo salohiyati, ishlab chiqarish quvvati va bozor imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan edi. Natijada kulolchilikning estetik, ramziy va ijtimoiy-madaniy jihatlari ikkinchi darajali masala sifatida talqin qilinib, hunar ko‘proq iqtisodiy resurs sifatida baholangan.

Mazkur davrda olib borilgan iqtisodiy siyosat mahalliy aholining ishlab chiqarish faoliyatini imperiya bozor tizimiga moslashtirish, soliq bazasini kengaytirish va hunarmandchilik mahsulotlarini markaziy hududlarga yo‘naltirishga qaratilgan edi. Shu sababli kulolchilik maktablari statistik hisob-kitob va iqtisodiy tasnif obyekti sifatida o‘rganilgan. Bu holat o‘sha davr ilmiy qarashlarida kulolchilikning ijtimoiy-madaniy mohiyati to‘liq ochib berilmaganini ko‘rsatadi.

1920-1990 yillar davomida yuz bergan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar, shuningdek, jahon ilm-fanida yangi ilmiy yo‘nalishlarning shakllanishi hamda tadqiqot metodologiyalarining takomillashuvi ta’sirida O‘zbekiston hududidagi an’anaviy hunarmandchilik, jumladan kulolchilikni o‘rganish jarayoni yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu davr tadqiqotlarida kulolchilik, avvalo, xalq xo‘jaligi va ishlab chiqarish tizimining tarkibiy qismi sifatida talqin qilinib, uning iqtisodiy samaradorligi, mehnat jarayonlari hamda ishlab chiqarishning ijtimoiy tashkil etilishiga alohida e’tibor qaratildi. Shu bilan birga, etnografik ekspeditsiyalar va dala tadqiqotlarining kengayishi natijasida kulolchilikning mahalliy an’analari, ustaxona faoliyati, ustoz-shogird tizimi, mahsulot turlari hamda mintaqaviy maktablarning shakllanishi haqida muhim empirik ma’lumotlar jamlandi. Sovet davri tadqiqotlarida hunarmandchilik modernizatsiya va sanoatlashtirish jarayonlari bilan bog‘liq holda tahlil qilinib, an’anaviy ishlab chiqarish

shakllarining qisqarishi, qayta tashkil etilishi yoki yangi iqtisodiy sharoitlarga moslashuvi kabi jarayonlar ham yoritildi.

Sovet davri tarixshunosligida O‘zbekiston hududidagi an’anaviy hunarmandchilik, jumladan kulolchilikni tadqiq qilish bir yo‘nalishda emas, ilmiy qarashlarning asta-sekin o‘zgarib borishi, yangi fan tarmoqlarining paydo bo‘lishi jarayonida shakllandi. Mazkur davr adabiyotlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, tadqiqotlar dastlab kulolchilikni xalq xo‘jaligi tarkibidagi ishlab chiqarish faoliyati sifatida talqin qilishdan boshlanib[67], keyinchalik etnografik[68], san’atshunoslik[69] va madaniy merosni saqlash yo‘nalish[70]larigacha evolyutsion rivojlandi. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, Sovet davri adabiyotlarida etnografik, san’atshunoslik va madaniy merosni saqlashga doir yondashuvlar qat’iy ravishda faqat ma’lum bir bosqich bilangina cheklanmaydi. Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar davrning turli yillarida parallel ravishda olib borilgan. Biroq mazkur monografiyada manbalar davrlar bo‘yicha mutlaq

[67] Узбекистан за 15 лет: статистический сборник / Упр. нар.-хоз. учета УзССР. – Ташкент : Гостехиздат УзССР, 1939. – 122 с.; Народное хозяйство Узбекской ССР за 50 лет : сборник статистических материалов / Центральное статистическое управление при Совете министров УзССР. – Ташкент : Узбекистан, 1967. – 240 с.; Народное хозяйство Узбекской ССР в 1969 г. : статистический ежегодник / ЦСУ при Совете Министров УзССР. – Ташкент : Узбекистан, 1970. – 336 с.; Народное хозяйство Узбекской ССР за пятьдесят лет : юбилейный статистический ежегодник (1924–1974) / Центр. стат. упр. при Совете Министров УзССР. – Ташкент : Узбекистан, 1974. – 330 с.

[68] Сазонов М. В. К этнографии узбеков Южного Хорезма // Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. – Вып. I. – М., 1952. – С. 247–318.; Пещерев Е. М. Цехи гончаров у народов Средней Азии в конце XIX – начале XX века // Краткие сообщения Института этнографии АН СССР. – 1957. – Вып. XXVI. – С. 37–39.; Джаббаров И. М. Новые материалы к истории гончарного ремесла Хорезма // Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. Т. IV : Керамика Хорезма / под ред. С. П. Толстова, М. Г. Воробьёвой. – М. : Изд-во АН СССР, 1959. – С. 379–396.; Джаббаров И. М. Ремесло узбеков Южного Хорезма в конце XIX – начале XX вв. (историко-этнографический очерк) // Занятия и быт народов Средней Азии : Среднеазиатский этнографический сборник. – Л., 1971. – Вып. III. – С. 72–90.; Дервиз Г., Жадова Л. А., Жданко И., Митлянский Д. Современная керамика народных мастеров Средней Азии. – М. : Советский художник, 1974. – 234 с. : цв. ил.; Сазонова М. В. Традиционное хозяйство узбеков Южного Хорезма. – Л., 1978. – 95 с.; Кустарные промыслы в быту народов Узбекистана XIX–XX вв. / сост. Н. Содикова, Н. А. Аведова ; Музей истории народов Узбекистана им. М. Т. Айбека. – Ташкент : Изд-во Фан, Узбекской ССР, 1986. – 161 с.

[69] Рахимов М. К. Художественная керамика Узбекистана. – Ташкент : Изд-во Академии наук Узбекской ССР, 1961. – 243 с.; Гражданкина Н. С., Рахимов М. К., Плетнев И. Е. Архитектурная керамика Узбекистана : очерк исторического развития и опыт реставрации / отв. ред. Н. Н. Ноткин. – Ташкент : Фан, 1968. – 156 с. : ил.; Дервиз Г., Жадова Л. А., Жданко И., Митлянский Д. Современная керамика народных мастеров Средней Азии : альбом. – М. : Советский художник, 1974. – 234 с. : ил.; Сычева Е. Л. Декоративное искусство Средней Азии. – М. : [б. и.], 1980. – [сведения о страницах см. в эл. копии]. – Электрон. ресурс.; Гражданкина Н. С. Архитектурно-строительные материалы Средней Азии. – Ташкент : Узбекистан, 1989. – 208 с.

[70] Фахретдинова Д. А. Декоративно-прикладное искусство Узбекистана. – Ташкент, 1972. – 162 с.; Всесоюзная выставка произведений молодых художников «Ташкент-80» : каталог / сост. А. Г. Зуйкова, Т. Г. Зуйкова ; Союз художников Узбекской ССР, Союз художников СССР. – Ташкент, 1980.; Остонова Г. Сополдаги жилолар : [Ўзбекистон халқ рассоми кулол М. Туробов ҳақида] // Совет Ўзбекистони санъати. – 1980. – № 4. – Б. 20–21.; Фахретдинова Д. А. Декоративно-прикладное искусство Узбекистана. – Ташкент : Изд-во литературы и искусства им. Гафура Гуляма, 1980.; Кустарные промыслы в быту народов Узбекистана XIX–XX вв. / сост. Н. Содикова, Н. А. Аведова ; Музей истории народов Узбекистана им. М. Т. Айбека. – Ташкент : Изд-во Фан, Узбекской ССР, 1986. – 161 с.

ajratib qo‘yilmay, biz maqsad qilgan muammo va kulolchilikka bo‘lgan e’tibor dinamikasini ko‘rsatish nuqtai nazaridan tasniflandi.

1930-1940-yillarga oid tadqiqotlarda kulolchilik, avvalo, kustarishlab chiqarish tarmog‘i sifatida o‘rganilib, ustaxonalarning iqtisodiy holati, ishlab chiqarish hajmi, xomashyo ta’minoti va hunarmandlarning mehnat sharoiti kabi masalalar asosiy e’tibor markazida bo‘ldi. Bu davr ishlari hunarni ko‘proq iqtisodiy birlik sifatida kuzatib, uning jamiyat xo‘jalik tizimidagi o‘rnini aniqlashga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Natijada kulolchilik ishlab chiqarishning mahalliy shakli sifatida qayd etilib, uning iqtisodiy samaradorligi va tashkil etilishiga urg‘u berildi.

Bu borada 1930-yillarda nashr etilgan respublika statistik to‘plamlar va axolidan yozib olingan ma’lumotlar asosida olib borilgan tadqiqotlarga e’tibor qaratilganida ulardan o‘rin olgan materiallarda hunarmandchilik va mahalliy ishlab chiqarish tarmoqlari xalq xo‘jaligining alohida bo‘lagi sifatida ko‘rsatilgan, qolaversa uy-ustaxonalarning iqtisodiy ko‘rsatkichlari, ishlab chiqarish hajmi va band aholining ulushi haqida ma’lumotlar qayd etilgan. Bu manbalardan o‘rin olgan ma’lumotlardan kulolchilik mahalliy aholi ehtiyojini qondiruvchi ishlab chiqarish faoliyati sifatida tilga olinganligini anglash mumkin.

Xususan, V. V.Yekimov 1930-yilda Xorazm viloyatining Xiva tumanida to‘plagan dala ma’lumotlari asosida Kattabog‘ qishlog‘ida 1930-yili jami 15 nafar kulol faoliyat yuritganligi, lekin yoz faslida 5 nafarigina mazkur ishlab chiqarish bilan shug‘ullanganligi, qolgan 10 nafari iqtisodiy imkoniyatini boshqa mavsumiy yumushlarni bajarib ta’minlaganliklarini qayd etadi. Muallif kulolchilikning ishlab chiqarish quvvati va buyurtma tizimini ham ko‘rsatib, 1920-yil davomida marosim va katta tadbirlar uchun yuzlab idishlar, ayrim holatda mingtagacha buyum tayyorlanganligini ta’kidlab o‘tadi[71].

Mazkur ma’lumotlardan kulolchilik ishlab chiqarish hajmi ham barqaror bo‘lmaganligi, ishlab chiqarish hajmi buyurtma va mahalliy ehtiyojlarga qarab o‘zgarib turganligi, ayrim davrlarda esa katta marosimlar yoki yig‘inlar uchun yuzlab, hatto mingtagacha idish

[71] Екимова В. В. Гончарное производство в Хивинском районе (по материалам поездки в Узбекистан в 1930 г.) // Керамика Хорезма / под ред. С. П. Толстова, М. Г. Воробьёвой. – М. : Изд-во АН СССР, 1959. – С. 343–378.

tayyorlanganligi, buyurtma va bozor talablarining pasayishi sabab ishlab chiqarish hajmi pasayganligini anglash mumkin. Shu bilan birga, mazkur davrda sanoat usulida ishlab chiqarilgan metall va fayans buyumlarning bozorlarga kirib kelishi kulolchilik mahsulotlariga bo‘lgan talabning qisqarishiga ham olib kelganligini ham ta’kidlaydi. Bu o‘rganishlar kulolchilikning 1920-1930-yillarda uy-ustaxona shaklida, kichik ishlab chiqarish hajmiga ega bo‘lgan, bozordagi talab va iqtisodiy sharoitga bevosita bog‘liq kustar ishlab chiqarish tarmog‘i sifatida mavjud bo‘lganiga ishora qiladi.

Bozor munosabatlari doirasidagi xulosalarni V. Zikin tadqiqotlari asosida ham boyitish mumkin[72]. Muallif ma’lumotnoma tarkibidagi materiallarni tahlil qilar ekan, kulollarning iqtisodiy ahvoli hamda ishlab chiqarilgan mahsulotning bozorga sotish tizimlariga to‘xtaladi. Xususan, u tayyor buyum savdosidan tushgan daromadning taqsimlanish tartibini yoritib, mablag‘ning bir qismi ustaga, ikkinchi qismi esa vositachiga tegishli bo‘lganini qayd etadi. Mazkur mulohazalar kulollarning iqtisodiy faoliyati va bozor munosabatlari tizimidagi o‘rnini aniqlashda muhim manba sifatida ahamiyat kasb etadi.

Keyingi yillarda e’lon qilingan yillik statistik ma’lumotlarlarda[73] esa respublikadagi mahalliy sanoat va ishlab chiqarish kooperatsiyasi tarkibida faoliyat yuritgan mayda ustaxonalarning ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari, xomashyo bilan ta’minlanishi va iste’mol mollari ishlab chiqarishdagi o‘rni muntazam yoritilib boriladi. Mazkur ma’lumotlar kulolchilik ustaxonalarining faoliyati davlat iqtisodiy siyosati doirasida e’tirof etilganligi, hunarning rivoji ishlab chiqarish samaradorligi, rejalashtirish va aholining kundalik ehtiyojlarini ta’minlash masalalari bilan bog‘lab talqin qilinganini ko‘rsatadi.

Xususan, respublika xalq xo‘jaligi bo‘yicha 1930-yillar oxiri va 1940-yillar boshida e’lon qilingan statistik to‘plamlarda mahalliy sanoat hamda ishlab chiqarish kooperatsiyasi tizimida faoliyat yuritgan mayda ishlab chiqarish tarmoqlari, jumladan kulolchilik ustaxonalari ham iste’mol

[72] Зыкин В. Под двойным прессом (Восстание в Ташкенте в 1892 году т. н. «Холерный бунт») // Учёные записки Пермского государственного университета. Отдел общественных наук. – Пермь, 1931. – Вып. 2. – С. 315–352.

[73] Узбекистан за 15 лет : статистический сборник / Управление народнохозяйственного учета УзССР. – Ташкент : Гостехиздат УзССР, 1939. – 122 с.; Народное хозяйство Узбекской ССР : статистический сборник / Центральное статистическое управление УзССР. – Ташкент : Узбекистан, 1940.

mollari ishlab chiqarish tizimining tarkibiy qismi sifatida qayd etiladi. Ushbu yilliklarda kooperatsiyalar tarkibiga kiruvchi ustaxonalarning ishlab chiqarish hajmi, xomashyo bilan ta’minlanish holati, tayyor mahsulotlarning ichki bozorni ta’minlashdagi o‘rni va ishlab chiqarishga jalb etilgan aholining ulushi haqida ma’lumotlar muntazam berib boriladi.

Statistik materiallarda ayniqsa mahalliy ishlab chiqarishning aholini kundalik ehtiyoj buyumlari bilan ta’minlashdagi roli alohida ta’kidlanib, ishlab chiqarish kooperatsiyasi orqali ishlab chiqarilayotgan idish-tovoq, xo‘jalik buyumlari va boshqa maishiy mahsulotlar davlat rejalashtirish tizimi doirasida hisobga olingani anglashilai. Bu esa kulolchilik ustaxonalari faoliyati ham davlat iqtisodiy siyosati doirasida baholanganini, hunarning rivoji ishlab chiqarish samaradorligi va aholi ehtiyojlarini qondirish vazifalari bilan uzviy bog‘lab talqin qilinganini ko‘rsatadi.

Natijada, 1930-1940-yillarga oid statistik nashrlar kulolchilikni mahalliy ishlab chiqarish tizimining amaliy va iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan tarmog‘i sifatida qayd etganini ko‘rish mumkin. Bu holat kulolchilik ustaxonalari faoliyati iqtisodiy ko‘rsatkichlar, rejalashtirish va iste’mol mollari ishlab chiqarish kontekstida baholanganini tasdiqlaydi.

Shu tariqa, 1920-1940-yillar e’lon qilingan xo‘jalik-statistik materiallar kulolchilikni avvalo iqtisodiy ishlab chiqarish shakli sifatida baholab, uning mahalliy xo‘jalik tizimidagi o‘rni va ishlab chiqarish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan tarixshunoslik yondashuvi shakllanganini ko‘rsatadi.

1930-1950-yillardan boshlab Markaziy Osiyoda, jumladan O‘zbekistonda etnografik tadqiqotlar yangi bosqichga ko‘tarildi. Ilmiy izlanishlarda nazariy tavsifdan amaliy dala tadqiqotlariga o‘tish kuchaydi. Bu jarayon hunarmandchilik, xususan kulolchilikni o‘rganishda ham muhim burilish yasadi.

Mazkur davrda ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etilib, tadqiqotchilar bevosita hunarmandlar yashaydigan hududlarga safar qila boshladilar. Ilgari hunarmandchilik asosan tarixiy yoki iqtisodiy faoliyat sifatida umumiy tavsiflangan bo‘lsa, endilikda ustaxonalar faoliyati joyida kuzatildi, ishlab chiqarish jarayoni bosqichma-bosqich qayd etildi, ustalar

bilan suhbatlar o‘tkazildi va hunar sirlarining avloddan avlodga o‘tish tizimi o‘rganildi.

Bu esa kulolchilik tayyor mahsulot sifatida tasniflanishi bilan birga ishlab chiqarish jarayonining o‘zi, ustaning kundalik faoliyati, oilaviy mehnat munosabatlari va mahalla muhitidagi o‘rni bilan birga tahlil qilina boshladi. Dala tadqiqotlari orqali hunarmandchilikning yashovchanligi, iqtisodiy va ijtimoiy moslashuv tizimlari aniqlash imkoniyati paydo bo‘ldi.

Xususan, Xorazm vohasida 1937-1956-yillar davomida olib borilgan S.P. Tolstov va T.A. Jdankolar boshchiligidagi Xorazm arxeologik va etnografik ekspeditsiyasi alohida ahamiyat kasb etib muammo tarixshunosligi doirasida muhim xulosalarni shakllantiradi. Mazkur ekspeditsiyada arxeologik izlanishlar bilan birga etnografik kuzatuv ma’lumotlari ham tizimli yig‘ilgan. Shuningdek, ekspeditsiya natijalari (muammo doirasida bajarilgan ishlar 1950 yillardan boshlab) muntazam ravishda Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi ishlari seriyasida maxsus to‘plam[74], to‘plamga kiritilgan ilmiy maqolalar[75] va boshqa nashrlar[76] shaklida chop etilib borilgan.

Dastavval, S. P. Tolstov va M. G. Vorobyeva tahriri doirasida Xorazm arxeologo-etnografik ekspeditsiyasi ma’lumotlari asosida nashr etilgan Керамика Хорезма [77] to‘plamiga to‘xtalish lozim. Mazkur nashr Xorazm vohasining kulolchilik an’analarini tarixiy jarayonda kompleks tarzda o‘rganishga bag‘ishlangan muhim ilmiy tadqiqotlardan biri bo‘lib, unda kulolchilik ma’lumotlari arxeologik topilmalar sifatida qaraladi va uning

[74] Керамика Хорезма / под ред. С. П. Толстова, М. Г. Воробьёвой. – Москва: Изд-во АН СССР, 1959. – 398 с.
[75] Итина М. А. Первобытная керамика Хорезма // Керамика Хорезма / под ред. С. П. Толстова, М. Г. Воробьёвой. – Москва: Изд-во АН СССР, 1959. – С. 5–62. – (Труды ХАЭЭ; т. IV).; Воробьёва М. Г. Керамика Хорезма античного периода // Керамика Хорезма / под ред. С. П. Толстова, М. Г. Воробьёвой. – Москва: Изд-во АН СССР, 1959. – С. 63–220. – (Труды ХАЭЭ; т. IV).; Неразик Е. Е. Керамика Хорезма афригидского периода // Керамика Хорезма / под ред. С. П. Толстова, М. Г. Воробьёвой. – Москва: Изд-во АН СССР, 1959. – С. 221–260. – (Труды ХАЭЭ; т. IV).; Вактурская Н. Н. Хронологическая классификация средневековой керамики Хорезма (IX–XVII вв.) // Керамика Хорезма / под ред. С. П. Толстова, М. Г. Воробьёвой. – Москва: Изд-во АН СССР, 1959. – С. 261–342. – (Труды ХАЭЭ; т. IV).; Джаббаров И. М. Новые материалы к истории гончарного ремесла Хорезма // Керамика Хорезма / под ред. С. П. Толстова, М. Г. Воробьёвой. – Москва: Изд-во АН СССР, 1959. – С. 379–396. – (Труды ХАЭЭ; т. IV).
[76] Археологические и этнографические работы Хорезмской экспедиции 1945–1948 гг. / под ред. С. П. Толстова, Т. А. Жданко. – Москва: Изд-во АН СССР, 1952. – 652 с. – (Труды ХАЭЭ; т. I).;Археологические и этнографические работы Хорезмской экспедиции 1949–1953 гг. / отв. ред. С. П. Толстов. – Москва: Изд-во АН СССР, 1958. – 810 с.; Вактурская Н. Н. Раскопки городища Ургенч в 1952 г. // Археологические и этнографические работы Хорезмской экспедиции 1949–1953 гг. – Москва: Изд-во АН СССР, 1958. – С. 467–495.
[77] Керамика Хорезма / под ред. С. П. Толстова, М. Г. Воробьёвой. – Москва: Изд-во АН СССР, 1959. – 398 с.

ishlab chiqarish texnologiyasi, buyum shakllari, bezak tizimi hamda ularning tarixiy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilinadi.

To‘plamga kiritilgan M. A. Itina[78], M. G. Vorobyeva[79], E. E. Nerazik[80], N. N. Vakturskaya[81] hamda I. M. Jabbarov[82] maqolalarida Xorazm kulolchilik an’analari ibtidoiy davrdan o‘rta asrlargacha bo‘lgan uzluksiz tarixiy jarayon doirasida yoritilib, keramika namunalarining tipologik va xronologik tasnifi ishlab chiqiladi. Bu esa kulolchilik mahsulotlari orqali Xorazm hududida shahar madaniyati va xo‘jalik taraqqiyoti bosqichlarini aniqlash, shakl va bezak tizimidagi o‘zgarishlar asosida madaniy uzviylik hamda mintaqaviy xususiyatlarni belgilash imkonini beradi.

Shuningdek, to‘plam ma’lumotlarida kulolchilik buyumlari kundalik turmush, savdo va shahar hayoti bilan bog‘liq holda talqin qilinib, keramika mahsulotlari moddiy madaniyatning muhim ko‘rsatkichlaridan biri sifatida baholanadi. Unda ishlab chiqilgan shakl, bezak, texnologiya va buyumlarning funksional xususiyatlariga doir tasniflar keyingi davrlardagi, xususan XIX-XXI asrlarda kulolchilik maktablarida kuzatilgan transformatsiya jarayonlarini qiyosiy tahlil qilishda muhim metodik tayanch vazifasini bajaradi.

Xorazm arxeologo-etnografik ekspeditsiyasi faoliyati natijasida nashr etilgan ko‘p jildli ilmiy to‘plamlar O‘rta Osiyo, jumladan Xorazm vohasi moddiy madaniyati va hunarmandchilik tarixini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Ayniqsa, Xorazm ekspeditsiyasining 1945-1948 yillardagi arxeologik va etnografik ishlari va Xorazm ekspeditsiyasining 1949-1953 yillardagi arxeologik va etnografik ishlari[83]ekspeditsiya faoliyatining asosiy ilmiy natijalarini jamlagan fundamental to‘plamlar sifatida ajralib turadi. Ushbu asarlarda Xorazm hududidagi qadimgi va o‘rta asr shahar xarobalari, turar joylar, xo‘jalik inshootlari va moddiy madaniyat namunalarini o‘rganish bilan bir

[78] Итина М. А. Первобытная керамика Хорезма … 5–62.
[79] Воробьёва М. Г. Керамика Хорезма античного периода … – С. 63–220.
[80] Неразик Е. Е. Керамика Хорезма афригидского периода …– С. 221–260.
[81] Вактурская Н. Н. Хронологическая классификация средневековой керамики Хорезма …– С. 261–342.
[82] Джаббаров И. М. Новые материалы к истории гончарного ремесла Хорезма … – С. 379–396.
[83] Археологические и этнографические работы Хорезмской экспедиции 1945–1948 гг. / под ред. С. П. Толстова, Т. А. Жданко. – Москва: Издательство Академии наук СССР, 1952. – 652 с. – (Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции; т. I).; Археологические и этнографические работы Хорезмской экспедиции 1949–1953 гг. / отв. ред. С. П. Толстов. – Москва: Издательство Академии наук СССР, 1958. – 810 с. – (Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции; т. II).

qatorda, kulolchilik buyumlari ham muhim arxeologik material sifatida keng yoritiladi.

Mazkur to‘plamlarning o‘ziga xos jihati shundaki, unda kulolchilik topilmalari alohida buyum sifatida emas, balki arxeologik kompleks tarkibida, ya’ni turar joy, xo‘jalik binolari va shahar bosqichlari bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilinadi. Bu esa kulolchilik mahsulotlarini muayyan davrning iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti, aholi turmush tarzi hamda shahar infratuzilmasi bilan bog‘liq holda baholash imkonini beradi. Natijada kulolchilik ma’lumotlari orqali hududdagi madaniy qatlamlar, savdo aloqalari va xo‘jalik faoliyatining rivojlanish bosqichlari aniqlanadi.

Xususan, N. N. Vakturskayaning 1952-yilda Urganch shahar xarobasida olib borilgan qazish ishlariga bag‘ishlangan maqolasida shahar bosqichlaridan topilgan kulolchilik buyumlari stratigrafik jihatdan tahlil qilinib, ularning shakl, bezak va texnologik xususiyatlari asosida davrlar bo‘yicha farqlanishi ko‘rsatiladi. Ushbu tadqiqot shahar hayotining turli bosqichlarida kulolchilik mahsulotlarining o‘zgarishini aniqlashga xizmat qilib, Xorazm kulolchilik an’analarining evolyutsiyasini tiklashda muhim empirik asos yaratadi.

Mazkur nashrlarning asosiy yutug‘i shundaki, ular keng ko‘lamli arxeologik materiallarni tizimli ravishda jamlab, kulolchilikni hududning umumiy tarixiy taraqqiyoti bilan bog‘liq holda ko‘rsatadi hamda kulolchilik ma’lumotlari asosida madaniy jarayonlarni davrlashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, stratigrafik kuzatuvlar, topilmalarni kontekstual tahlil qilish hamda katta miqdordagi materiallarning ilmiy muomalaga kiritilishi keyingi tadqiqotlar uchun muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, mazkur ekspeditsiya natijalarining muammo tarixshunosligi nuqtai nazari bilan qaraganda ba’zi mulohazalarni ta’kidlash lozim. Xususan tadqiqotlarda kulolchilik asosan arxeologik topilmalar nuqtai nazaridan o‘rganilib, ustoz-shogird an’analari, ustaxona ichki tizimi, mehnat taqsimoti hamda hunarmandlarning ijtimoiy mavqei kabi etnografik va antropologik jihatlar kamroq yoritilgan.

Shu sababli, mazkur to‘plamlar Xorazm kulolchiligini tarixiy jarayonda o‘rganishda mustahkam arxeologik asos vazifasini bajarsa-da, kulolchilik maktablarining ijtimoiy-madaniy transformatsiyasini to‘liq

ochish uchun ularni keyingi davr etnografik va antropologik tadqiqot ma’lumotlari bilan birgalikda tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Kulolchilikni o‘rganishda san’atshunoslik yondashuvi avvalgi davrlarda[84] ham kuzatilgan bo‘lsada, 1960-1970-yillarga kelib monografiya muammosi doirasida ahamiyat kasb etib boshqa yo‘nalish tadqiqotlaridan ustunlik qila boshladi. Bu davr ilmiy ishlari[85] kulolchilik mahsulotlarini badiiy sopol buyumi doirasida o‘rganib, buyumlarning bezak tizimi, ranglar uyg‘unligi, kompozitsion xususiyatlari hamda mintaqaviy maktablarning uslubiy farqlariga e’tibor qaratgani bilan ahamiyatlidir. Mazkur tadqiqotlarda kulolchilik ishlab chiqarishdan ko‘ra ko‘proq xalq amaliy san’atining muhim yo‘nalishi sifatida baholandi. Natijada Rishton, G‘ijduvon, Xiva kabi markazlar alohida kulolchilik maktablari sifatida ilmiy muomalaga kiritilib, ularning uslubiy o‘ziga xosligi tavsiflandi.

Xususan, M. K. Rahimovning O‘zbekiston badiiy sopol buyumlari[86], L. A. Jadovaning O‘zbekiston zamonaviy sopol buyumlari[87], N. S. Grajdankina, M. K. Rahimov va I. E. Pletnyov muallifligidagi O‘zbekiston me’moriy sopol maxsulotlari[88]ga bag‘ishlangan asarlari hamda G. Derviz, L. Jadova, I. Jdanko va D. Mitlyanskiy tomonidan tuzilgan O‘rta Osiyo xalq ustalarining zamonaviy sopol buyumlari[89]ga bag‘ishlangan albomi ushbu yo‘nalishning shakllanishi va mustahkamlanishida muhim o‘rin tutadi.

Mazkur asarlar umumiy jihatdan kulolchilikni ishlab chiqarish yoki xo‘jalik faoliyati doirasida emas, balki xalq amaliy san’atining muhim

---

[84] Щербина-Крамаренко, Н. Н. Гончарное производство у туземцев Средней Азии // Искусство и художественная промышленность. – 1898. – № 3. – С. 200–201.; Денике, Б. П. Прикладное искусство Средней Азии. – М.–Л.: Государственное издательство, 1931. – 245 с

[85] Декоративно-прикладное искусство Узбекистана. – Ташкент: Ўзадабийнашр, 1960.; Алпатова И., Рахимов М. К. Художественная керамика Узбекистана. – Ташкент: Изд-во АН Узбекской ССР, 1961. – 243 с.;Жадова Л. А. Современная керамика Узбекистана. – Москва: Искусство, 1963. – 179 с.; Пугаченкова Г. А., Ремпель Л. И. История искусств Узбекистана с древнейших времен до середины девятнадцатого века. – Москва: Искусство, 1965. – 686 с.; Ташходжаев Ш. С. Художественная поливная керамика Самарканда: IX – начала XIII вв. – Ташкент: Фан, 1967. – 153 с.; Гражданкина Н. С., Рахимов М. К., Плетнёв И. Е. Архитектурная керамика Узбекистана (очерк исторического развития и опыт реставрации). – Ташкент: Фан, 1968. – 158 с. Воронов Н., Жадова Л. Искусство керамики. – Москва: Советский художник, 1970. – 296 с.; Миклашевский А. И. Технология художественной керамики: (Практическое руководство в учебных мастерских). – Ленинград: Издательство литературы по строительству, 1971. – 302 с.: ил.;

[86] Рахимов М. К. Художественная керамика Узбекистана. – Ташкент: Изд-во АН Узбекской ССР, 1961. – 243 с.;

[87] Жадова Л. А. Современная керамика Узбекистана. – Москва: Искусство, 1963. – 179 с.

[88] Гражданкина Н. С., Рахимов М. К., Плетнёв И. Е. Архитектурная керамика Узбекистана (очерк исторического развития и опыт реставрации). – Ташкент: Фан, 1968. – 158 с.

[89] Дервиз Г., Жадова Л., Жданко И., Митлянский Д. Современная керамика народных мастеров Средней Азии: альбом. – Москва: Советский художник, 1974. – 236 с.: ил.

tarmog‘i sifatida talqin qiladi. Tadqiqotlarda buyumlarning shakliy yechimi, bezak tizimi, ranglar uyg‘unligi, kompozitsion tuzilishi hamda mintaqaviy uslubiy farqlar asosiy tahlil obyekti sifatida namoyon bo‘ladi. Natijada kulolchilik mahsulotlari estetik qadriyat, badiiy tafakkur mahsuli va milliy madaniyat ifodasi sifatida baholanib, Rishton, G‘ijduvon, Xiva kabi markazlar alohida kulolchilik maktablari sifatida ilmiy muomalaga kirib keladi.

M.K. Rahimovning[90] tadqiqotida O‘zbekiston hududidagi kulolchilik markazlari uslubiy jihatdan taqqoslanib, shakl va ornament tizimidagi hududiy farqlar ko‘rsatib beriladi hamda kulolchilikning tarixiy ildizlari bilan zamonaviy badiiy yechimlari o‘rtasidagi uzviylik yoritiladi. L. A. Jadova esa zamonaviy ustalar ijodiga murojaat qilib, kulolchilikni an’anaviylik va zamonaviy estetik talablarga moslashuv jarayonida tahlil qiladi, bunda individual ustalar ijodi ham ilmiy e’tibor markaziga chiqadi. N.S. Grajdankina, M.K. Rahimov va I.Y. Pletnyov tadqiqotida[91] esa arxitektura bezagida qo‘llanilgan keramika namunalarini o‘rganish orqali bezak san’ati va kulolchilikning uzviy aloqasi ochib berilib, sirlangan koshinlar va bezak elementlari badiiy meros sifatida talqin qilinadi.

1974-yilda nashr etilgan G. Derviz, L. Jadova, I. Jdanko va D. Mitlyanskiy muallifligidagi Современная керамика народных мастеров Средней Азии [92] albomi esa mazkur jarayonni yanada rivojlantirib, kulolchilikni keng vizual materiallar asosida yoritadi hamda xalq ustalarining zamonaviy ijodini badiiy fenomen sifatida namoyish etadi. Ushbu nashr kulolchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonidan ko‘ra ko‘proq badiiy-estetik mezonlar asosida baholaydi, buyumlarning bezak tizimi, ranglar uyg‘unligi, kompozitsion yechimlari, shakl va sir bilan ishlash madaniyati kabi jihatlar markaziy o‘ringa chiqadi.

Albomning tadqiqotimiz uchun eng muhim xususiyati shundaki, u kulolchilikni xalq amaliy san’ati doirasida ko‘rib, mintaqaviy markazlarni (kulolchilik maktablarini) alohida badiiy-uslubiy fenomen sifatida tasvirlashga xizmat qiladi. Shu orqali Rishton, G‘ijduvon, Xiva kabi

[90] Рахимов М. К. Художественная керамика Узбекистана. – Ташкент: Изд-во Академии наук Узбекской ССР, 1961. – 243 с.

[91] Гражданкина Н. С., Рахимов М. К., Плетнёв И. Е. Архитектурная керамика Узбекистана (очерк исторического развития и опыт реставрации). – Ташкент: Фан, 1968. – 158 с.

[92] Дервиз Г., Жадова Л., Жданко И., Митлянский Д. Современная керамика народных мастеров Средней Азии: альбом. – Москва: Советский художник, 1974. – 236 с.: ил.

markazlarning uslubiy oʻziga xosligi (kolorit, ornamentika, kompozitsiya, shakl madaniyati)ni tarixshunoslikda mustahkamlashga yordam beradi va maktab tushunchasining san’atshunoslik talqinini kuchaytiradi.

1960-1970-yillar tadqiqotlarning asosiy yutugʻi shundaki, ular kulolchilikni estetik va san’atshunoslik mezonlari asosida baholab, mintaqaviy maktablarning badiiy oʻziga xosligini aniqlash hamda ularni milliy madaniyatning muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilishga xizmat qildi. Ayniqsa, bezak, rang va kompozitsiya tizimining ilmiy tahlil qilinishi keyingi tadqiqotlar uchun muhim metodik asos yaratdi hamda kulolchilik mahsulotlarini san’at asari sifatida baholash an’anasini shakllantirdi.

Shu bilan birga, ushbu asarlarning tarixshunoslik tahlili tadqiqotlarda kulolchilikning ishlab chiqarish muhiti, ustaxonada tashkil etilgan ishlash jarayonlari, ustoz-shogird tizimi, mehnat taqsimoti hamda hunarmandlarning ijtimoiy mavqei kabi ijtimoiy-antropologik jihatlariga kam e’tibor qaratiladi. Shuningdek, kulolchilikning iqtisodiy omillar, bozor munosabatlari va turizm bilan bogʻliq transformatsiyasi yetarli darajada ochib berilmagan.

Umuman olganda, 1960-1970-yillarda yaratilgan ushbu asarlar kulolchilikni san’atshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilishni ustuvor yoʻnalishga aylantirib, kulolchilik maktablarini badiiy-uslubiy tizim sifatida tushuntirishga xizmat qilgan hamda keyingi davr kulolchilik tadqiqotlarining ilmiy asoslarini shakllantirgan muhim tarixshunoslik bosqichini tashkil etadi.

1980-yillarga kelib Oʻzbekiston va umuman Markaziy Osiyoda kulolchilikni oʻrganish jarayonida 1960-1970-yillarda shakllangan san’atshunoslik yondashuvi davom ettirildi, biroq mazkur davr tadqiqotlarida muhim konseptual oʻzgarish yuz berib, avvalgi bosqichda kulolchilik asosan badiiy-estetik mezonlar asosida tavsiflangan boʻlsa, endilikda ilmiy adabiyotlarda[93] an’anaviy hunarmandchilik turlarining yoʻqolib borishi, ishlab chiqarishning sanoatlashtirilishi natijasida koʻplab

[93] Фахретдинова Д. А. Декоративно-прикладное искусство Узбекистана. – Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1980. – 184 с.; Фахретдинова Д. А. Искусство Узбекистана: традиции и современность. – Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1988. – 208 с.; Перспективы развития народных художественных промыслов местной промышленности Узбекистана: обзор. – Ташкент: УзНИИНТИ, 1988. – 29 с.; Народное прикладное искусство: актуальные вопросы истории и развития: сборник статей. – Рига: Зинатне, 1989. – 262 с.; Декоративное искусство СССР: журнал. – Москва, 1957–1991.;

mahalliy ustaxonalarning faoliyati qisqarayotgani hamda ayrim hududiy uslublarning unutilib borayotgani alohida qayd etila boshlandi.

Mazkur davrda chop etilgan san’atshunoslik va madaniyatshunoslik yo‘nalishidagi tadqiqotlarda kulolchilik buyumlari nafaqat badiiy mahsulot, balki tarixiy shakllangan madaniy an’ananing tashuvchisi sifatida talqin qilinib, ularni saqlash, ilmiy hujjatlashtirish va ommalashtirish zarurligi ta’kidlandi[94]. Xususan, ko‘rgazmalar tashkil etish, muzey fondlarini to‘ldirish, xalq ustalari ijodini kataloglashtirish, hududiy hunarmandchilik markazlarini ilmiy jihatdan qayd etish va yosh avlodni an’anaviy hunarlarga jalb qilish masalalari ilmiy hamda amaliy muhokama mavzusiga aylandi. Natijada kulolchilik mahsulotlari kundalik xo‘jalik buyumlari sifatidagi funksiyasidan tashqari, milliy madaniy merosning muhim elementi sifatida baholana boshladi.

Bu davr adabiyotlarida, ayniqsa, xalq amaliy san’atiga bag‘ishlangan nashrlarda hunarmandchilik markazlarining tarixiy ildizlari[95], ustalar sulolalari, bezak va shakl an’analari haqida ma’lumotlarni yig‘ish hamda ularni muzey va ko‘rgazma faoliyati orqali keng jamoatchilikka yetkazish masalalari[96] dolzarb yo‘nalish sifatida ilgari surildi. Shuningdek, ilmiy tadqiqotlarda kulolchilikning iqtisodiy ahamiyati bilan bir qatorda uning milliy identitetni ifodalovchi ramziy qiymati ham alohida e’tirof etildi[97].

Shu tariqa, 1980-yillar kulolchilik tarixshunosligida muhim o‘tish bosqichi sifatida namoyon bo‘lib, unda kulolchilik ishlab chiqarish faoliyatidan tashqari, madaniy merosni saqlash, an’analarni tiklash va hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash zarurati bilan bog‘liq masalalar ilmiy muomalaga faol kirib keldi. Bu jarayon keyinchalik mustaqillik davrida kulolchilik maktablarini tiklash va rivojlantirishga qaratilgan siyosiy hamda madaniy tashabbuslarning shakllanishi uchun muhim nazariy va konseptual asos vazifasini bajardi.

---

[94] Уварова Н. Оптимистическая настроенность выставки // Декоративное искусство СССР. – 1986. – № 7. – С. 1–5.; Воронов Н. В. Публицистическая керамика // Декоративное искусство СССР. – 1986. – № 7. – С. 17.; Белова К. Судьба Коломенского // Декоративное искусство СССР. – 1989. – № 4. – С. 11–15.; Духина И. Керамический город Александра Кудрявцева // Декоративное искусство СССР. – 1989. – № 4. – С. 45.

[95] Фахретдинова Д. А. Декоративно-прикладное искусство Узбекистана. – Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1980. – 184 с.

[96] Перспективы развития народных художественных промыслов местной промышленности Узбекистана: (обзор). – Ташкент: УзНИИНТИ, 1988. – 22 с.; Шклярук А. Ф. Модранская керамика. Выставки // Декоративное искусство СССР. – 1984. – № 1. – С. 44–45.

[97] Некрасова М. Место народного искусства в современной культуре // Декоративное искусство СССР. – 1987. – № 3. – С. 14.

Umuman olganda, Sovet davri tarixshunosligi kulolchilik masalalarini o‘rganish jarayonida bir necha bosqichni bosib o‘tdi. Jumladan dastlab kulolchilik xo‘jalik faoliyati sifatida talqin qilinsa, keyinchalik etnografik kuzatish obyekti, undan so‘ng badiiy-amaliy san’at fenomeni hamda nihoyat madaniy meros elementi sifatida qarala boshlandi. Aynan shu evolyutsiya keyingi davr tadqiqotlarida kulolchilikni ijtimoiy-madaniy transformatsiya jarayonlari doirasida tahlil qilish uchun muhim tarixshunoslik asosini yaratdi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda etnologiya, antropologiya va san’atshunoslik sohalarida yangi metodologik yondashuvlarning joriy etilishi hunarmandchilikni, jumladan kulolchilikni tadqiq etishda ham mazmuniy yangilanishlarni yuzaga keltirdi. Ilmiy izlanishlarda dala ma’lumotlariga tayangan empirik tahlil, madaniy merosni zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilish hamda mahalliy an’analarni ijtimoiy tizim sifatida tahlil qilish tendensiyasi kuchaydi. Natijada kulolchilik jarayoni faqat badiiy hunar sifatida emas, balki ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillar bilan uzviy bog‘liq murakkab tuzilma sifatida talqin etila boshlandi. Shu bilan birga, an’anaviy kulolchilik maktablari mustaqil ilmiy tadqiqot obyekti sifatida ajralib chiqib, hududiy maktablarga bag‘ishlangan dissertatsion izlanishlar ham yuzaga keldi.

Mustaqillik davri tarixiy jihatdan nisbatan qisqa bo‘lishiga qaramay, kulolchilik ko‘plab ilmiy ishlarning markaziy mavzusiga aylandi va mazkur sohani turli jabhalarini mintaqlar kesimida jarayoni hozirgi kunda ham davom etmoqda[98]. Shu bois, mazkur qismda muammoga doir

[98] Mamurov, A. Stages of development of Rishton pottery school // Scientific Journal of the Fergana State University. – 2024. – Vol. 30, No. 3. – Elektron resurs. – URL:https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/5026 (murojaat sanasi: 01.02.2026).; Ruziyev, N. Islom va Rishton kulolchilik san’atining rivojlanishi va o‘ziga xosligi // Elektron ilmiy maqola. – 2025. – Elektron resurs. – URL: https://inlibrary.uz/index.php/dptms/article/download/73756/75450/97060 (murojaat sanasi: 01.02.2026).; Ataeva, N. R. Istoriya goncharnogo iskusstvo Uzbekistana // Elektron ilmiy maqola. – 2023. – Elektron resurs. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/istoriya-goncharnogo-iskusstvo-uzbekistana (murojaat sanasi: 01.02.2026).; Usmanov, A. Nomoddiy madaniy meros kontekstida Farg‘ona vodiysi hunarmandchiligi // Obshchestvo i innovatsii (Society and Innovations). – 2025. – Elektron resurs. – URL: https://inlibrary.uz/index.php/socinov/article/download/111971/113597/159246 (murojaat sanasi: 01.02.2026).; Qudaybergenova, G. About Uzbekistan pottery art // Science and Research. – 2024. – Elektron resurs. – URL: https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/43602 (murojaat sanasi: 01.02.2026).; Ergashev, A. Kulolchilikning paydo bo‘lishi va bugungi kundagi ahamiyati // Science and Research. – 2024. – Elektron resurs. – URL: https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/48238 (murojaat sanasi: 01.02.2026).; Shomirzaev, M. K. National handicrafts of Uzbekistan and its social-economic significance // International Journal of Advanced Research and Publications. – 2020. – Elektron resurs. – URL: https://www.idpublications.org/wp-content/uploads/2020/08/Full-Paper-NATIONAL-HANDICRAFTS-OF-UZBEKISTAN-AND-ITS-SOCIAL-

tadqiqotlar etnologik-antropologik[99] hamda san’atshunoslik[100] yo‘nalishlari kesimida ko‘rib chiqilib, zamonaviy tarixshunoslikda shakllangan asosiy ilmiy yondashuvlarni aniqlash maqsad qilib olindi.

Ushbu o‘rinda qayd etish lozimki, muammoni sodda tushunish uchun mustaqillik davri tadqiqotlarida qo‘llanilgan metodlar va fan doirasida qamrab olingan muammo masalalarini taqqoslab ko‘rish, muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, san’atshunoslik yo‘nalishidagi ishlar asosan buyumning badiiy shakli va bezak tizimini tahlil qilishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, etnologik va antropologik tadqiqotlar kulol shaxsi, ustoz-shogird munosabatlari hamda ijtimoiy muhitni o‘rganishga e’tibor qaratilgan. So‘nggi yillar tadqiqotlarida esa kulolchilik maktablari ishlab chiqarish, ijtimoiy munosabatlar, bozor, meros siyosati va madaniy muhit o‘zaro bog‘liq yagona tizim sifatida talqin qilinmoqda. Bu esa tarixshunoslikda tadqiqot yo‘nalishlarining buyumdan ustaga, ustadan esa butun ijtimoiy-madaniy tizimni qamrab oluvchi tahlilga tomon transformatsiyalashganini ko‘rsatadi.

ECONOMIC-SIGNIFICANCE.pdf (murojaat sanasi: 01.02.2026).; Aliyeva, S. Sh. Osobennosti hudozhestvennogo stilya polivnoy keramiki Uzbekistana v kontekste formirovaniya islamskoy estetiki: semantika ornamental’nyh obrazov // Elektron ilmiy maqola. – 2018. – Elektron resurs. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-hudozhestvennogo-stilya-polivnoy-keramiki-uzbekistana-v-kontekste-formirovaniya-islamskoy-estetiki-semantika (murojaat sanasi: 01.02.2026).; UNESCO. Artistic ceramics of Uzbekistan // UNESCO Digital Library. – Elektron resurs. – URL: https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000189332 (murojaat sanasi: 01.02.2026).

[99] Intangible Cultural Heritage of Uzbekistan / R. Abdullaev, U. Tashmatov, J. Eshonqulov, A. Ashirov [va boshq.]. – Tashkent, 2017. – ISBN 978-9943-357-46-4.; Abdusalomov, B. U. Pottery traditions in Uzbekistan / B. U. Abdusalomov // Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. – 2022. – Vol. 8 (May). – P. 90–92. – ISSN 2795-7683. – Elektron resurs. – RL:;https://api.unilibrary.uz/storage/PublisherResourceFile/185821/images/1670393857-1.pdf (murojaat sanasi: 01.02.2026).; Эсонов, З. Ю. Фарғона водийси қишлоқ аҳолисининг ҳунармандчилик анъаналари (XIX аср охири – XX аср бошлари) : монография / З. Ю. Эсонов. – Фарғона : «Classic», 2023. – 160 б.; Худайбергенов, Ҳ. С. Хоразм кулолчилиги (этнологик тадқиқот) : илмий-маърифий нашр / Ҳ. С. Худайбергенов. – Тошкент : «Lesson Press» МЧЖ нашриёти, 2023. – 122 б. – ISBN 978-9943-9468-3-5.; Mamurov A. A. Rishton kulolchilik maktabining rivojlanish bosqichlari = Stages of development of Rishton pottery school // FarDU. Ilmiy xabarlar – Scientific journal of the Fergana State University. – 2024. – T. 30, № 3. – DOI: 10.56292/SJFSU/vol30_iss3_2t/a91.

Davlatova, S. Nomoddiy madaniy merosni muzeylarda saqlash va namoyish etish masalalari / S. Davlatova, D. Hamidova // «Nomoddiy madaniy meros fenomeni: askiya va qiziqchilik san’ati» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent : «Voris-nashriyot», 2025. – B. 117–123.

[100] Пугаченкова, Г. А. История искусств Узбекистана / Г. А. Пугаченкова, Л. И. Ремпель. – Ташкент : Издательство литературы и искусства им. Гафура Гуляма, 1982. – 432 с.; Азимов, Я. А. Народное декоративно-прикладное искусство Узбекистана / Я. А. Азимов. – Ташкент : Издательство литературы и искусства им. Гафура Гуляма, 1991. – 256 с.; Булатов, С. С. Народное прикладное искусство Узбекистана / С. С. Булатов. – Ташкент : Ўзбекистон, 1995. – 240 с.; Хакимов, А. А. Искусство Узбекистана XX века / А. А. Хакимов. – Ташкент : San’at, 2000. – 320 с.; Hakimov, A. A. Applied Arts of Uzbekistan / A. A. Hakimov. – Tashkent : Art Press, 2007. – 224 p.; Karimov, U. Traditional Crafts of Uzbekistan / U. Karimov. – Tashkent : Uzbekistan Publishing House, 2010. – 160 p.; Aliyeva, S. Sh. Osobennosti hudozhestvennogo stilya polivnoy keramiki Uzbekistana v kontekste formirovaniya islamskoy estetiki: semantika ornamental’nyh obrazov // Elektron ilmiy maqola. – 2018. – Elektron resurs. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-hudozhestvennogo-stilya-polivnoy-keramiki-uzbekistana-v-kontekste-formirovaniya-islamskoy-estetiki-semantika (murojaat sanasi: 01.02.2026).

Etnologik va antropologik tadqiqotlar tarixshunosligiga nazar tashlaganda, hunarmandchilik an’analarining jamiyat hayotidagi o‘rni, kasbiy bilimlarning uzatilish shakllari, ustoz-shogird munosabatlari, hunarmand oilalarining ijtimoiy mavqei hamda zamonaviy iqtisodiy muhitga moslashuv jarayonlari nazariy va empirik jihatdan yoritilib, mazkur masalalar tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishiga aylandi. Bunday izlanishlar dala tadqiqotlari, ustalar faoliyatini bevosita kuzatish, suhbat va intervyular hamda ustaxona faoliyatini hujjatlashtirish orqali olib borilib, kulolchilikning kundalik ijtimoiy faoliyatdagi aniq ko‘rinishini ochib berdi. Natijada ilgari yetarli darajada e’tibor qaratilmagan ijtimoiy omillar ilmiy muomalaga kiritilib, kulolchilik an’analari jamiyat hayotining muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilina boshlandi.

Zamonaviy metodologiyalar asosida olib borilgan tadqiqotlarda kulolchilik maktablarining ijtimoiy faoliyati, kasbiy uzluksizlik, hududiy an’analarning saqlanishi hamda yangi iqtisodiy va madaniy sharoitlarga moslashish jarayonlari empirik dalillar asosida ochib berildi. Xususan, H. S. Xudaybergenovning Xorazm kulolchiligiga bag‘ishlangan etnologik tadqiqotida[101] kulolchilik mahalliy ijtimoiy muhit, kasbiy merosning avloddan avlodga o‘tishi va ustalar jamoasining ichki tuzilmasi bilan bog‘liq holda tahlil qilinsa, Z. Yu. Esonovning Farg‘ona vodiysi hunarmandchilik an’analariga bag‘ishlangan monografiyasi[102]da kulolchilikning tarixiy rivoji va hunarmandchilikning kundalik hayotdagi o‘rni tarixiy-etnografik kontekstda yoritilib, hududiy maktablarning shakllanish omillari aniqlashtiriladi. Bu tadqiqotlar kulolchilikni alohida hunar emas, balki hududiy ijtimoiy-iqtisodiy muhit bilan uzviy bog‘liq madaniy jarayon sifatida tushunishga imkon beradi.

San’atshunoslik doirasida ham tadqiqotlar mazmunan kengayib, kulolchilik mahsulotlarining badiiy xususiyatlari bilan bir qatorda ularning tarixiy shakllanishi, hududiy uslubiy tafovutlari va zamonaviy dizayn o‘zgarishlari ham o‘rganila boshlandi. Natijada kulolchilik buyumlari zamonaviy iste’mol muhiti va bozor talablari bilan bog‘liq

[101] Xudaybergenov, H. S. Xorazm kulolchiligi (etnologik tadqiqot) … – 122 b.
[102] Esonov, Z. Yu. Farg‘ona vodiysi qishloq aholisining hunarmandchilik an’analari (XIX asr oxiri – XX asr boshlari) … – 160 b.

holda tahlil qilinib, turli Atlaslar[103], hunarmandchilik to‘plamlari[104] va Ya. A. Azimov[105], S. S. Bulatov[106] va A. A. Hakimov[107] kabi san’atshunoslarning ishlarida hududiy maktablar uslubi, ornamental tizim evolyutsiyasi, an’anaviy texnologiya va zamonaviy dizayn uyg‘unligi, shuningdek, kulolchilik mahsulotlarining yangi iste’mol muhitidagi funksional-badiiy talqini bilan bir qatorda interyer madaniyatidagi o‘zgarishlar, restoran va mehmonxona dizaynida milliy kulolchilik buyumlaridan foydalanishning kengayishi, mahsulotlarning eksport bozori talablariga moslashtirilishi hamda kulolchilik buyumlarining suvenirlashtirish jarayoni orqali turizm va madaniy brendning muhim unsuriga aylanishi masalalari ham tadqiqotlar markaziga chiqdi. Shu bilan birga, dizayn va bozor omillarining kuchayishi kulolchilik faoliyatining iqtisodiy asoslari, ishlab chiqarish hajmi, mahsulot assortimenti va ustaxona faoliyatining tashkil etilishiga ham ta’sir ko‘rsatib, kulolchilik maktablarining zamonaviy sharoitda qanday iqtisodiy va ijtimoiy transformatsiyaga uchrayotganini tarixshunoslik nuqtai nazaridan chuqurroq tahlil qilish zaruratini yuzaga keltirdi.

Umuman olganda, mustaqillik davrida mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar kulolchilik an’analarini o‘rganishda muhim natijalar qayd qilib, ilgari yetarlicha yoritilmagan jihatlarni to‘ldirdi. Biroq bozor munosabatlari, fan-texnologiya va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar ta’sirida kulolchilik maktablarining rivojlanish bosqichlari hamda zamonaviy hayotga moslashuvi jarayonini kompleks va uzluksiz tadqiq etish bilan bir qatorda, sohada hali yetarlicha yoritilmagan masalalar - kulolchilik faoliyatida gender vazifalarining o‘zgarishi, yosh ustalarning kasbga kirib kelishi va kasb davomiyligi muammolari, mehnat migratsiyasining hunarmandchilikka ta’siri, kulolchilik faoliyatining iqtisodiy modeli, ustaxona boshqaruvi va oilaviy ishlab chiqarish tizimidagi o‘zgarishlar hamda mahsulotlarning eksport bozori talablariga moslashuv jarayonlarini chuqur tahlil qilish hanuz dolzarb bo‘lib

[103] Atlas of Central Asian Artistic Crafts and Trades. Vol. I: Uzbekistan / International Institute for Central Asian Studies; scien. ed.: I. Kosakovskaya, K. B. Akilova; ed.: A. Khakimov, A. Akhmedov; aut. of the proj.: Sh. Mustafayev. – Tashkent : Sharq, 1999. – 223 p.
[104] O‘zbekiston badiiy hunarmandchiligi [Matn] / Nodir Binafsha…. – 420 b.
[105] Азимов, Я. А. Народное декоративно-прикладное искусство Узбекистана … . – 256 с.
[106] Булатов, С. С. Народное прикладное искусство Узбекистана … . – 240 с.;
[107] Хакимов, А. А. Искусство Узбекистана XX века … . – 320 с.; Hakimov, A. A. Applied Arts of Uzbekistan … .– 224 p.

qolmoqda. Mazkur monografiya aynan shu yo‘nalishni tizimli ravishda yoritishga qaratilgan.

Zamonaviy davrda O‘zbekistonning madaniy merosi, jumladan, an’anaviy kulolchilik maktablari xorijiy tadqiqotchilar va xalqaro ilmiy institutlar e’tiborini ko‘proq torta boshladi. Ushbu jarayon jahon xalqlarining madaniy an’analariga qiziqishning ortishi, global ilmiy va madaniy aloqalarning kengayishi, xalqaro madaniy meros dasturlarining faollashuvi hamda O‘zbekistonning ochiq madaniy hamkorlik siyosati bilan chambarchas bog‘liq kechdi. Avvalgi davrda kulolchilik asosan arxeologik yoki umumiy san’at tarixi doirasida tilga olingan bo‘lsa, 1990-yillardan so‘ng xalqaro ilmiy muhitda bu soha tirik an’ana, hunarmandchilik faoliyati va mahalliy ijtimoiy hayot bilan uzviy bog‘liq madaniy hodisa sifatida talqin qilina boshlandi.

Xorijiy tadqiqotlarda O‘zbekiston kulolchilik maktablari, ayniqsa Rishton, G‘ijduvon va Xorazm kulolchilik an’analari ko‘proq e’tibor markaziga chiqib, ularning texnologiyasi, bezak tizimi, ustoz-shogird an’analari hamda zamonaviy bozor sharoitida rivojlanish jarayonlari tahlilga tortildi. Bunda kulolchilik faqat badiiy buyum ishlab chiqarish jarayoni sifatida emas, balki mahalliy jamoa hayoti, kasbiy uzluksizlik va madaniy identitet bilan bog‘liq tizim sifatida yoritildi.

Xorijiy tadqiqotlarni ularda qo‘llangan yondashuv va ko‘tarilgan muammolardan kelib chiqib etnologik-antropologik[108] hamda san’atshunoslik[109] va muzeyshunoslik[110] yo‘nalishlariga ajratish mumkin, bunday tasnif tadqiqotlarning qamrovi va rivojlanish dinamikasini aniqroq ko‘rish hamda ularni o‘zaro qiyoslash imkonini beradi.

---

[108] Sugimura, T. Islamic and Chinese Ceramics of Central Asia in the 15th Century // Blue of Samarkand: Proceedings of the International Symposium on Revitalization of Traditional Ceramic Techniques in Central Asia (Samarkand, Uzbekistan, 6–9 June 2000). – Tashkent : UNESCO, 2000. – P. 38–46.; Kikuta, H. A master is greater than a father: rearrangements of traditions among Muslim artisans in Soviet and Post-Soviet Uzbekistan // Research in Economic Anthropology. – 2009. – P. 89–122. – DOI: 10.1108/S0190-1281(2009)0000029006.;;Kikuta, H. Venerating the pir: patron saints of Muslim ceramists in Uzbekistan // Central Asian Survey. – 2017. – Vol. 36, No. 2. – P. 195–211. – DOI: 10.1080/02634937.2016.1261801.; Kikuta, H. The differentiated authenticities of Rishton pottery in Uzbekistan // The Central Asian World / ed. by J. Féaux de la Croix, M. Reeves. – London : Routledge, 2023. – P. 642–657. – DOI: 10.4324/9781003021803-51.

[109] Vandiver, P. B. Craft Knowledge as an Intangible Cultural Property: A Case Study of Samarkand Tiles and Traditional Potters in Uzbekistan // MRS Online Proceedings Library. – 2004. – Vol. 852. – P. 305–326. – DOI: 10.1557/PROC-852-OO7.1.; UNESCO. Artistic ceramics of Uzbekistan // UNESCO Digital Library. – Elektron resurs. – URL: https://unesdoc.unesco.org/ark%3A/48223/pf0000189332 (murojaat sanasi: 01.02.2026).

[110] UNESCO. Blue of Samarkand: International Symposium on Revitalization of Traditional Ceramic Techniques in Central Asia (Samarkand, Uzbekistan, 6–9 June 2000) : proceedings / final report. – Tashkent : UNESCO, 2000. – Elektron resurs.; UNESCO. Project for the Revival of Medieval Ishkor Alkaline Vegetable Glaze (“The Blue of Samarkand”) : description (UNESCO Intangible Cultural Heritage). – Elektron resurs.

Etnologik va antropologik yo‘nalishda bajarilgan ishlar mazkur tadqiqotda maqsad qilingan masalalarni bevosita yoritishga xizmat qilgani sababli, dastavval aynan shu yo‘nalishdagi nashrlar tahliliga murojaat qilish maqsadga muvofiq deb bildik.

Xorijiy ilmiy nashrlarda e’lon qilingan etnologik va antropologik yo‘nalishdagi tadqiqotlar asosan kulolchilikning ijtimoiy tuzilishi, kasbiy bilimlarning avloddan-avlodga o‘tishi, ustaxona muhitining shakllanishi hamda mahalliy hunarmandchilik an’analari saqlanish tizimlarini o‘rganishga qaratilgan[111]. Mazkur izlanishlarda kulol shaxsining jamiyatdagi o‘rni, ustalar jamoasining ichki tuzilishi, oila doirasida hunarning davomiyligi, kasbiy identitetning shakllanishi hamda zamonaviy iqtisodiy muhitga moslashish jarayonlari empirik kuzatuvlar va dala ma’lumotlari asosida talqin qilinadi. Xususan, xalqaro konferensiyalar doirasida e’lon qilingan maqolalarda Rishton va G‘ijduvon kulolchiligi misolida ustaxona faoliyatining zamonaviy iqtisodiy sharoitga moslashuvi, yosh ustalarning kasbga kirib kelish jarayoni hamda hunarmandchilikning turizm va madaniy industriya bilan bog‘lanishi masalalari yoritiladi[112].

G‘ijduvon kulolchilik an’analari va Narzullayevlar sulolasi faoliyati misolida olib borilgan tadqiqotlar ustoz-shogird tizimining zamonaviy sharoitda ham saqlanib qolayotganini, biroq ishlab chiqarish hajmi, mahsulot assortimenti va savdo shakllaridagi o‘zgarishlar ta’sirida yangi shakllarga moslashayotganini ko‘rsatadi[113]. Rishton kulolchiligi bo‘yicha tayyorlangan xalqaro ilmiy anjuman ma’lumotlarida e’lon qilingan xorijiy olimlar maqolalarida hududiy maktablarning tarixiy shakllanishi bilan birga ularning bugungi kundagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy ahamiyati ham ochib beriladi. Masalan, mazkur materiallarda Rishton ustalarining

[111] UNESCO. Blue of Samarkand: International Symposium on Revitalization of Traditional Ceramic Techniques in Central Asia (Samarkand, Uzbekistan, 6–9 June 2000) … . Elektron resurs.; UNESCO. Project for the Revival of Medieval Ishkor Alkaline Vegetable Glaze (“The Blue of Samarkand”) … .Elektron resurs.

[112] UNESCO. Blue of Samarkand: International Symposium on Revitalization of Traditional Ceramic Techniques in Central Asia (Samarkand, Uzbekistan, 6–9 June 2000) … . Elektron resurs.; Zhamilova, G., Gusarova, N. Traditional ceramics of Central Asia in contemporary cultural processes // Journal of Social Studies. – 2024. – Elektron resurs. – URL: https://journalss.org/index.php/new/article/view/9268 (murojaat sanasi: 01.02.2026).; Ruziev, N., Ikromova, M. Cultural and artistic features of Uzbek pottery traditions // International Journal of Social Science Research. – 2022. – Elektron resurs. – URL: https://inlibrary.uz/index.php/social-science/article/view/xxxxx (murojaat sanasi: 01.02.2026).

[113] UNESCO. Blue of Samarkand: International Symposium on Revitalization of Traditional Ceramic Techniques in Central Asia (Samarkand, Uzbekistan, 6–9 June 2000) … . Elektron resurs.; Zhamilova, G., Gusarova, N. Traditional ceramics of Central Asia in contemporary cultural processes … (murojaat sanasi: 01.02.2026).; Ruziev, N., Ikromova, M. Cultural and artistic features of Uzbek pottery traditions … . (murojaat sanasi: 01.02.2026).

oilaviy ustaxona doirasida ishlab chiqarish an’analarini saqlagan holda mahsulot turlarini kengaytirib, turizm va tashqi bozor talablari asosida yangi shakl hamda dizayn yechimlarini joriy etayotgani qayd etiladi[114]. Bu ishlar kulolchilikni alohida hunar emas, balki mahalliy jamoa hayoti, oilaviy ishlab chiqarish tizimi va kasbiy uzluksizlik bilan bog‘liq murakkab ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilishga imkon yaratadi.

Shuningdek, UNESCO doirasida amalga oshirilgan tadqiqot va hisobotlarda Markaziy Osiyo, jumladan O‘zbekiston kulolchilik an’analari nomoddiy madaniy merosning muhim qismi sifatida ko‘rib chiqilib, hunarmandchilikni saqlash, restavratsiya qilish, ustalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va xalqaro miqyosda targ‘ib etish masalalari alohida ta’kidlanadi[115]. Masalan, hisobotda Samarqand va boshqa tarixiy markazlarda an’anaviy sirlangan sopol texnologiyalarini tiklash, ustalarni tayyorlash va hududiy ustaxonalarni qo‘llab-quvvatlash zarurligi alohida qayd etiladi[116]. Bu yondashuv kulolchilikni faqat tarixiy hodisa sifatida emas, balki saqlanishi va rivojlantirilishi zarur bo‘lgan tirik madaniy meros sifatida talqin qilishga xizmat qilib, kulolchilik maktablarining zamonaviy transformatsiyasini ijtimoiy va madaniy jarayonlar kontekstida tushunishga imkon beradi.

San’atshunoslik yo‘nalishidagi tadqiqotlarda ham tadqiqotimiz uchun muhim bo‘lgan dizayn evolyutsiyasi, bezak tizimi, texnologik an’analar hamda zamonaviy bozor talablari ta’sirida yuz berayotgan o‘zgarishlar kabi masalalar mavjud bo‘lib, ularni tarixshunoslik doirasida izchil tahlil qilish zarur hisoblanadi

San’atshunoslik yo‘nalishidagi xorijiy tadqiqotlarda esa kulolchilik mahsulotlarining badiiy xususiyatlari, bezak tizimi, rang va ornament evolyutsiyasi hamda zamonaviy dizayn jarayonlaridagi o‘zgarishlar asosiy tahlil obyekti sifatida maydonga chiqadi. Xususan, zamonaviy tadqiqotlarda Rishton maktabiga xos ko‘k-yashil rang gammasi, ishqoriy sir texnologiyasining saqlanib qolishi hamda an’anaviy islimiy va

[114] UNESCO. Blue of Samarkand: International Symposium on Revitalization of Traditional Ceramic Techniques in Central Asia (Samarkand, Uzbekistan, 6–9 June 2000) … . Elektron resurs.; Zhamilova, G., Gusarova, N. Traditional ceramics of Central Asia in contemporary cultural processes … (murojaat sanasi: 01.02.2026).; Ruziev, N., Ikromova, M. Cultural and artistic features of Uzbek pottery traditions … . (murojaat sanasi: 01.02.2026).

[115] UNESCO. Blue of Samarkand: International Symposium on Revitalization of Traditional Ceramic Techniques in Central Asia (Samarkand, Uzbekistan, 6–9 June 2000): Proceedings. – Tashkent : UNESCO Office, 2000. – 5-7 p.

[116] UNESCO. Blue of Samarkand: International Symposium on Revitalization of Traditional Ceramic Techniques in Central Asia … . – 6 p.

geometrik ornamentlarning yangi kompozitsion yechimlar bilan uyg‘unlashuvi alohida qayd etiladi[117]. Bunda Rishton kulolchilik maktabi, ayniqsa, sirlangan sopol buyumlarning rang tizimi va bezak an’analari bilan xalqaro san’atshunoslar e’tiborini tortmoqda.

Xorijiy muzeylar fondlariga kelib tushayotgan zamonaviy Rishton keramika namunalari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar kulolchilik faoliyatida an’ana va innovatsiya uyg‘unlashib borayotganini ko‘rsatadi. Masalan, Tsaritsyno davlat muzey-qo‘riqxonasi fondiga qabul qilingan zamonaviy Rishton buyumlari tahlilida ustalar an’anaviy naqsh tizimini saqlagan holda zamonaviy interyer va suvenir bozori talablariga moslashtirilgan yangi shakl va funksional yechimlarni qo‘llayotgani qayd etiladi[118]. Tadqiqotchilar ustalar tomonidan qadimiy ornament va texnologiyalarni saqlagan holda zamonaviy iste’mol bozori talablari asosida yangi shakl va dizayn yechimlarini qo‘llash jarayonini alohida ta’kidlaydilar.

Shu bilan birga, xalqaro ko‘rgazmalar va muzey kataloglari ma’lumotlari kulolchilik buyumlarining san’at asari sifatida global madaniy makonga kirib borayotganini, natijada hunarmandchilik mahsulotlari milliy madaniy meros namunasi bilan birga eksportbop san’at obyekti sifatida ham talqin qilina boshlaganini ko‘rsatadi. Xususan, Yevropa va Rossiya muzeylarida tashkil etilgan ko‘rgazmalarda Rishton va G‘ijduvon kulolchiligi namunalarining zamonaviy dizayn talqinlari milliy an’ana va global iste’mol bozori o‘rtasidagi uyg‘unlashuv mahsuli sifatida namoyish etilayotgani qayd etiladi[119].

Xorijiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, 1991 yildan keyingi davrda O‘zbekiston kulolchilik maktablari xalqaro ilmiy muhitda e’tirof etilib, Rishton, G‘ijduvon va Xorazm kabi hududiy markazlar nafaqat an’anaviy hunarmandchilik maskani, balki zamonaviy madaniy meros va kreativ industriya elementlari sifatida ham tadqiqot maydoniga aylangan. Shu bilan birga, mavjud izlanishlarning katta qismi alohida maktablar, ustalar sulolalari yoki buyumlarning badiiy xususiyatlarini yoritish bilan chegaralanib, kulolchilik maktablarining ijtimoiy-madaniy

[117] Ofitserova, E. Traditional ceramics of Central Asia in modern cultural space // Journal of Social Studies. – 2025. – Elektron resurs. – URL: https://journalss.org/index.php/new/article/view/9268 (murojaat sanasi: 01.02.2026).
[118] Ofitserova, E. Traditional ceramics of Central Asia in modern cultural space (murojaat sanasi: 01.02.2026).
[119] Tsaritsyno Museum. Ceramics of Central Asia: exhibition catalogue. – Moscow : Tsaritsyno Museum-Reserve, 2023. – Elektron resurs. – URL: https://tsaritsyno-museum.ru (murojaat sanasi: 01.02.2025).

transformatsiyasi, ishlab chiqarish va bozor munosabatlariga moslashuvi, kasbiy uzluksizlikning yangi shakllari hamda global madaniy jarayonlar ta’sirida yuz berayotgan o‘zgarishlarni o‘zaro bog‘liq tizim sifatida kompleks tahlil qilish hali yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston kulolchilik maktablarini o‘rganish tarixshunosligi XIX asr oxiridan boshlab xo‘jalik-tavsifiy qaydlardan jumladan, ishlab chiqarish va bozor ehtiyoji doirasida boshlangan bo‘lsa, keyinchalik uy-ustaxona tizimi, kasbiy institutlar, xususan, ustoz-shogird, mehnat taqsimoti, bozor munosabatlari, texnologik jarayon va ramziy-me’yoriy jabhalarni qamrab olgan holda bosqichma-bosqich kengaydi. Sovet davrida iqtisodiy-statistik va ekspeditsiyalarga (arxeologik-etnografik) asos mustahkamlangan, mustaqillik yillarida esa etnologik-antropologik hamda san’atshunoslik yondashuvlari kuchayib, kulolchilik tirik an’ana va ijtimoiy-madaniy tizim sifatida talqin qilina boshladi, xorijiy tadqiqotlarda esa merosni boshqarish, muzeylashtirish va global bozor va turizm masalalari bilan bog‘liq muammolar ko‘proq ko‘tarildi. Biroq, maktablarning ijtimoiy-madaniy transformatsiyasini tizimli va kompleks tahlil qilish cheklandi.

Mazkur monografiya aynan shu tarixshunoslikdagi bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilib, kulolchilik maktablarining tarixiy shakllanishi bilan bir qatorda ularning zamonaviy ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sharoitdagi transformatsiya jarayonlarini yagona tizim doirasida tahlil qilishni maqsad qiladi va ushbu jarayon O‘zbekistondagi an’anaviy kulolchilik maktablarining bugungi rivojlanish qonuniyatlarini antropologik kontekstda ochib berishga xizmat qiladi.

Umuman olganda kulolchilik fenomenining nazariy talqini hamda uning tarixshunoslikdagi o‘rni atroflicha tahlil qilinishi sohaning ijtimoiy-madaniy hodisa sifatidagi mohiyati, shakllanish bosqichlari va ilmiy o‘rganilish darajasi mavjud tadqiqotlar asosida ko‘rib chiqildi. Tarixiy va etnografik materiallarni tahlil qilish jarayoni kulolchilikning nafaqat ishlab chiqarish turi, balki madaniy meros va kasbiy institut sifatidagi ahamiyatini aniqlash asnosida quyidagi xulosalarni ishlab chiqish imkonini berdi.

1850-1920 yillar oralig‘idagi manbalarda kulolchilik asosan tashqi kuzatuv va xo‘jalik tavsifi doirasida yoritilib, hunar xo‘jalik tarmog‘i sifatida qayd etiladi. Gil, dastgoh, yoqilg‘i, mahsulot turlari va bozor talabi kabi ko‘rsatkichlar ustunlik qiladi, natijada kulolchilik buyumlar orqali tasvirlanadi, ijtimoiy munosabatlar esa ikkilamchi ahamiyatda qoladi. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida tasvir doirasi kengayib, uy-ustaxona ishlab chiqarishi, oila daromadi, buyurtma va savdo munosabatlari e’tiborga olinadi. 1910-1916 yillarda esa kulolchilik texnologiyasi, ustaxona modeli va ustoz-shogirdlik qoidalariga alohida e’tibor qaratilishi hunarni madaniy-amaliy tizim sifatida anglash bosqichini boshlab beradi. Bu davrda manbalar buyum dan jarayon ga, jarayon dan institut ga tomon evolyutsiya qiladi.

1920-1990 yillarda kulolchilik tarixshunosligi bir necha o‘zaro bog‘liq yo‘nalishda rivojlanadi. Iqtisodiy-statistik yondashuv hunarni ishlab chiqarish tizimining tarkibiy qismi sifatida talqin qilib, hajm, xomashyo, mehnat resurslari va kooperatsiya ko‘rsatkichlariga urg‘u beradi. Ekspeditsiyaviy (arxeologik-etnografik) tadqiqotlar sopol materiallari asosida tarixiy davrlashtirish va tipologiyalarni ishlab chiqib, hududiy madaniyat davomiyligini ko‘rsatadi. 1960-1970 yillardan boshlab san’atshunoslik yondashuvi kuchayib, maktab tushunchasi badiiy-uslubiy kategoriya sifatida barqarorlashib rang, ornament va kompozitsiya asosiy tahlil mezoniga aylanadi.

Sovet davrida kulolchilik asosan ishlab chiqarish yoki badiiy mahsulot sifatida yoritilib, ustaxonaning ichki ijtimoiy tashkiloti xisoblangan ustoz-shogird munosabatlarining kundalik tizimlari, oilaviy mehnat taqsimoti, hunarmandning mahalla ichidagi mavqei, kasbiy identitetni aks etishi jarayoniga nisbatan kam e’tibor qaratildi.

1991 yildan keyin kulolchilikni o‘rganishda metodologik yaqinlashuv kuchayib, tadqiqotchi ustaxona ichiga kirib bordi dala kuzatuvi, suhbat, intervyu, ustaning kundalik ish jarayoni va ustaxona iqtisodiyoti kabi empirik materiallar asosiy dalil sifatida qabul qilindi. Shu bilan kulolchilik faqat badiiy meros emas, balki zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda yashab turgan amaliy tizim sifatida talqin qilina boshladi.

Etnologik-antropologik yo‘nalishlarda ustoz-shogird instituti, kasbiy bilimlarning avloddan avlodga o‘tishi, hunarmand oilalari va jamoalarining ijtimoiy mavqei, hududiy an’ananing davomiyligi kabi masalalar kengroq yoritiladi. San’atshunoslik tadqiqotlari esa maktablarning uslubiy xaritasini aniqlashtirib, ornament va dizayn evolyutsiyasini tahlilga tortdi.

Mustaqillik davri adabiyotlarining muhim natijasi shundaki, kulolchilik maktablari endi alohida ro‘yxat sifatida emas, balki hududiy an’ana, kasbiy uzluksizlik, bozor, turizm va dizayn talablarining o‘zaro ta’siri natijasida shakllanayotgan ijtimoiy-madaniy tizim sifatida tahlil qilindi.

Xorijiy tadqiqotlar O‘zbekiston kulolchilik maktablarini zamonaviy muammolar kesimida tahlil qilib, etnologik-antropologik ishlar ustaning kasbiy hayoti, uzatish tizimlari, mahalliy jamoa va autentiklik ning ijtimoiy ishlab chiqilishi kabi masalalarga e’tibor qaratgan bo‘lsa, san’atshunoslik ishlarida rang-ornament tizimi, sir texnologiyasi va uslubiy tafovutlar yetakchi o‘ringa chiqdi. Muzeyshunoslik yo‘nalishidagi kataloglar, ko‘rgazmalar va UNESCO doirasidagi materiallar hunarni madaniy meros sifatida tan olish, hujjatlashtirish va ommalashtirish kontekstida tahlil qildi. Xorijiy adabiyotlarda kulolchilikning bir vaqtni o‘zida tirik faoliyat , san’at obyekti va meros resursi sifatida talqin qildi.

Xorijiy tadqiqotlar asosan alohida maktab, usta sulolasi yoki buyum estetikasiga urg‘u berilib, maktablarning ijtimoiy-madaniy transformatsiyasi yani bozor munosabatlari va ustaxona boshqaruvi, gender hamda yosh ustalar masalasi, migratsiya ta’siri, eksportga moslashuv, meros diskurslarining faoliyatga ta’siri nisbatan kam tahlil qilindi.

Kulolchilik tarixshunosligi manbalarida xo‘jalik tavsifi dan boshlangan jarayon asta-sekin uy-ustaxona ishlab chiqarishi ning ijtimoiy tizimlarini ko‘rsatishga, keyin maktabni badiiy-uslubiy fenomen sifatida tushuntirishga, nihoyat esa hunarni bozor, meros va madaniy siyosat bilan bog‘langan tirik ijtimoiy-madaniy tizim sifatida talqin qilishga tomon tadrijiy rivojlanib bordi.

II BOB. O‘ZBEKISTONDA KULOLCHILIK MAKTABLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH JARAYONLARI

§ II.1. O‘zbekiston hududida kulolchilik an’analarining shakllanishi va tarixiy taraqqiyoti

O‘zbekiston hududida kulolchilik an’analari qadimiy tarixga ega bo‘lib, arxeologik qazishmalar natijasida aniqlangan sopol buyumlar kulolchilik ishlab chiqarishining ilk bosqichlari aynan neolit davrida yuzaga kelganini ko‘rsatadi[120]. Xususan, Joytun, Kaltaminor, Sazog‘on, Hisor madaniyatlari hamda Ustyurt hududidagi neolit manzilgohlaridan topilgan sopol buyumlar kulolchilikning oddiy maishiy ehtiyojlardan kelib chiqqan holda shakllanib, asta-sekin ishlab chiqarish tajribasi va texnologik ko‘nikmalar tizimiga aylanganini tasdiqlaydi.

Xususan, Uchashchi va Ayoqagitma kabi yodgorliklardan topilgan sopol buyumlar hududda kulolchilik an’analari neolit davrining ilk bosqichlaridayoq paydo bo‘lganini, ushbu buyumlar, asosan, oziq-ovqatni tayyorlash, saqlash va iste’mol qilish jarayonlariga xizmat qilgan bo‘lib, ular insonlarning o‘troq hayot tarziga o‘tishi, xo‘jalik faoliyatining murakkablashuvi va maishiy madaniyatining rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq holda yuzaga kelganligi atroflicha yoritilgan[121].

Mazkur holatni tarixiy-madaniy jarayonlar doirasida tahlil qilganda, mintaqada kulolchilik namunalari shakl, bezak uslubi va tayyorlash texnologiyasi jihatidan quyi Zarafshon, Amudaryo quyi oqimi hamda Qizilqum hududlarida yashagan Kaltaminor jamoalari sopol buyumlari bilan umumiy ahamiyat kasb etganligini kuzatish mumkin[122]. Bu holat Sazog‘on madaniyatida ham kuzatilib, o‘xshashliklar tasodifiy hodisa emas, balki ilk dehqonchilik va ovchi-yig‘uvchi jamoalar o‘rtasida mavjud bo‘lgan madaniy aloqalar, tajriba almashinuvi va texnologik bilimlarning hududlararo tarqalishi bilan bog‘liq tarixiy jarayon sifatida baholanishi lozim.

Anglash mumkinki, O‘zbekiston hududida kulolchilik ishlab chiqarishi nafaqat xo‘jalik ehtiyojlaridan kelib chiqqan amaliy faoliyat, balki ilk ijtimoiy-madaniy tajribaning muhim tarkibiy qismi sifatida

[120] Холматова, З.Н. Neolithic ceramics of Uzbekistan in the research system of the world's first pottery works // British Journal of Global Ecology and Sustainable Development. – 2025. – Vol. 36. – P. 46–50.
[121] Yuqoridagi asar… 47-bet.
[122] Yuqoridagi asar… 48-bet.

shakllangan. Bu jarayonni nafaqat texnologik yutuq, balki bilimlarning avloddan-avlodga o‘tishi, mehnat taqsimoti va jamoaviy identitet shakllanishi bilan bog‘liq madaniy jarayon sifatida kuzatish lozim. Yana bir muhim jihat neolit davrida yuzaga kelgan ushbu an’analar keyingi bronza davrida yanada murakkablashib, shakliy xilma-xillik va texnologik takomillashuv orqali davom etgan.

Bronza davriga kelib kulolchilik an’analari sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilgan[123]. Sopollitepa aholi manzilgohlarida kulolchilik buyumlari tayyorlash texnologiyasi barqarorlashib, pishirish jarayoni takomillashgan. Shuningdek, idishlarning sifati oshgan va shakl hamda bezak jihatidan xilma-xillik yuzaga kelgan. Bu o‘zgarish kulolchilikning tasodifiy maishiy faoliyat emas, balki muayyan tajriba va ko‘nikmaga tayangan ixtisoslashgan hunarmandchilikka aylana boshlaganini ko‘rsatadi. Ushbu jarayonlardan jamiyat ichida ba’zi guruhlarning aynan sopol buyum tayyorlash bilan muntazam shug‘ullanganini anglash mumkin.

Mazkur davrida dehqonchilik va chorvachilikning kengayishi bilan bir qatorda hunarmandchilik ham mustaqil xo‘jalik tarmog‘i sifatida shakllana boshlaydi. Kulolchilik buyumlari kundalik ovqat tayyorlash, oziq-ovqat saqlash va xo‘jalik ehtiyojlarini ta’minlashda keng qo‘llaniladi. Shu bilan birga, sopol idishlar jamiyatning estetik qarashlari va ichki tartibini aks ettiruvchi moddiy madaniyat namunasiga aylanadi. Bezak elementlarining ko‘payishi va shakliy mukammallikning ortishi kulolchilikning nafaqat amaliy, balki madaniy ahamiyat kasb eta boshlaganini bildiradi.

Bronza davridan Xorazm mintaqasida ham kulolchilik an’analari uzluksiz davom etgani arxeologik tadqiqotlardan ma’lum[124]. Miloddan avvalgi II ming yillikdan boshlab turli manzilgohlarda sopol buyumlarning keng tarqalishi kulolchilikning barqaror ishlab chiqarish tizimiga aylanganini ko‘rsatadi. Bu jarayon hunarmandchilikning mahalliy iqtisodiy hayotga chuqur kirib borgani va kundalik turmushning ajralmas qismiga aylanganini anglatadi.

[123] Асқаров, А.А. Сополлитепа. – Ташкент: Фан, 1977. – 160 б.
[124] Толстов, С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. – Москва: Издательство МГУ, 1948. – 352 с.

Antik davrga kelib sopol buyumlar ishlab chiqarish yanada takomillashib, shahar tipidagi manzilgohlar va qal’alarda turli hajm va shakldagi idishlar, yirik xo‘jalik idishlari va kundalik iste’mol buyumlari keng tarqaladi. Ushbu jarayon kulolchilikning shahar iqtisodiyotiga barqaror kirib borganini ko‘rsatadi.

Ilk o‘rta asrlarda esa bezakli va sirlangan sopol buyumlar ishlab chiqarish keng yoyilib, ustaxona qoldiqlari va ishlab chiqarish izlari kulolchilikning shahar iqtisodiy hayotida muhim tarmoqqa aylanganini tasdiqlaydi. Bu bosqichda kulolchilik xo‘jalik ehtiyojini qondirish bilan birga estetik va madaniy talabni ham ifodalovchi soha sifatida namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda, kulolchilik O‘zbekiston hududida neolit davrida paydo bo‘lib, bronza davrida ixtisoslashgan hunarmandchilik bosqichiga o‘tgan. Keyinchalik esa shahar madaniyati bilan uyg‘unlashgan holda iqtisodiy va madaniy tizimning ajralmas qismiga aylangan ko‘p bosqichli tarixiy jarayon sifatida shakllangan. Mazkur uzluksizlik keyingi davrlardagi an’anaviy kulolchilik maktablari shakllanishining tarixiy asosini tashkil etadi.

Ushbu o‘rinda yana bir muhim jihatga e’tibor qaratish zarur. Arxeologik manzilgohlardan topilgan dalillar kulolchilik taraqqiyoti jarayonida insonning olovni nazorat qilish va yuqori haroratni boshqarish borasida katta tajriba to‘plaganini ko‘rsatadi. Bu tajriba keyinchalik hunarmandchilikning boshqa tarmoqlari shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratgan.

Xususan, kulolchilikda xumdon qurish, haroratni barqaror ushlab turish va yoqilg‘ini to‘g‘ri tanlash kabi ko‘nikmalar metallurgiya hamda shishasozlikning texnologik asosiga aylangan. Temir va shisha eritish jarayoni ham nazorat qilinadigan kuchli olovni talab qilgani sababli, kulollarning issiqlikni tartibga solish va o‘choq konstruksiyasini takomillashtirish borasidagi amaliy tajribasi mazkur sohalarning shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

Mazkur tarixiy taraqqiyot jarayoni Markaziy Osiyoning boshqa yirik shahar markazlarida ham kuzatiladi. Ellinistik davrga oid Afrosiyob qazishmalaridan olingan materiallar Samarqand hududida kulolchilik ishlab chiqarishi yuqori ixtisoslashgan hunarmandchilik darajasiga

koʻtarilgan[125]. Bu davrga oid sopol buyumlarning aksariyati kulolchilik charxida tayyorlangan boʻlib, idishlarga silliqlash va angob bilan ishlov berish usullari keng qoʻllanilgan. Yupqa devorli idishlarning paydo boʻlishi esa texnologik malakaning sezilarli darajada oshgan.

Sopol ishlab chiqarish majmualarida mahalliy an’anaviy shakllar bilan bir qatorda ellinistik madaniy muhit ta’sirida kirib kelgan yangi shakl va bezak unsurlarining uygʻunlashuvi kuzatiladi. Bu holat kulolchilikning nafaqat texnologik jihatdan, balki madaniy jihatdan ham ochiq va moslashuvchan tizim boʻlganini anglatadi. Shunday qilib, bronza davrida shakllangan ixtisoslashuv jarayoni antik davrga kelib shahar madaniyati bilan uygʻunlashgan holda yanada murakkablashib, kulolchilikni yuksak darajadagi kasbiy hunarmandchilik bosqichiga olib chiqqan.

Afrosiyob materiallari ellinistik davr shaharlarida kulolchilik hunarmandchiligining yuqori darajada rivojlanganini koʻrsatgan boʻlsa, bu jarayon keyingi bosqichlarda Fargʻona vodiysining yirik shahar markazlaridan biri boʻlgan Quva (tarihiy Qubo) manzilgohi misolida ham izchil davom etgani kuzatiladi. Mazkur yodgorlikda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari ilk oʻrta asrlarga kelib shahar kulolchilik ishlab chiqarishi yanada takomillashganini tasdiqlaydi.

Quvadan aniqlangan sopolmajmualar shakl va bezak jihatidan xilma-xilligi, idishlarning sifatli pishirilgani hamda sirtiga ishlov berish usullarining murakkablashgani bilan ajralib turadi. Bu davrda kulolchilik mahsulotlari nafaqat kundalik maishiy ehtiyojlarni qondirgan, balki shahar iqtisodiy hayotining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Ayrim topilmalar ishlab chiqarish jarayonining ixtisoslashgan ustaxonalar doirasida tashkil etilganini, hunarmandlar ma’lum texnologik an’ana va malakaga tayangan holda faoliyat yuritgan.

Quva shahristonida olib borilgan qazishmalarni stratigrafik jihatdan tahlil qilish natijalari sopol buyumlarning turli madaniy qatlamlarga mansubligini aniqlash imkonini beradi[126]. Turli davrlarga oid uy-joy va xoʻjalik inshootlari qoldiqlari bilan bir qatorda topilgan sopol buyumlar shaharning uzoq vaqt davomida uzluksiz yashab kelganini, kulolchilik

[125] Шишкин В.А. – Афрасиаб – сокровищница древней культуры. Ташкент: Фан, 1966. – 37 с.
[126] Ахраров, И. Раскопки городища Кува в 1973 г. // История материальной культуры Узбекистана (ИМКУ). – Ташкент: Фан, 1975. – Вып. 11. – С. 45–58.

ishlab chiqarishi esa tarixiy bosqichlar davomida izchil rivojlanganini koʻrsatadi. Bu holat kulolchilikni vaqtinchalik hunar emas, balki shahar ijtimoiy tuzilmasining barqaror tarkibiy qismi sifatida talqin etishga asos yaratadi.

VII-VIII asrlarga oid sopol buyumlar tahlili esa shakliy turlar, bezak elementlari va tayyorlash texnologiyasining avvalgi davrlarga nisbatan murakkablashganini koʻrsatadi[127]. Idishlarning aksariyati kulolchilik charxida tayyorlangan boʻlib, ayrim namunalarda sirtni silliqlash va angob bilan qoplash usullarining qoʻllanishi kuzatiladi. Bu esa ishlab chiqarish jarayonida texnologik tajriba va estetik mezonlarning uygʻunlashganini bildiradi. Anglash mumkinki, Afrosiyob manzilgohi kabi kulolchilik nafaqat xoʻjalik ehtiyojiga xizmat qilgan, balki shahar madaniyatining vizual va ramziy ifodasiga ham aylangan.

Ushbu oʻrinda qayd etish joizki, Afrosiyob va Quva manzilgohlarida aniqlangan angoblangan va sirlangan sopol buyumlar kulolchilik faoliyatining yangi, murakkab bosqichga oʻtgan. Sir va angob berish texnologiyasi maxsus bilim, tajriba va amaliy koʻnikmalarni talab etgan. Bu esa kulolchilik jarayonida mahoratning avloddan avlodga uzatilganini va muayyan texnologik tajriba shakllanganini koʻrsatadi.

Shu bilan birga, barcha buyumlar sirlanmaganligi ishlab chiqarish ichida ichki tabaqalanish mavjud boʻlganini bildiradi. Ayrim ustaxonalar yoki ustalar ma’lum turdagi mahsulotlarni, xususan sirlangan idishlarni tayyorlashga ixtisoslashgan.

Ijtimoiy-madaniy nuqtai nazardan, bu holat kulolchilikni oddiy xoʻjalik faoliyatidan koʻra murakkabroq, ichki mehnat taqsimotiga ega hunarmandchilik tizimi sifatida namoyon etadi. Aynan shu bosqichda kulolchilik maktablari shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlar vujudga kelgan.

Yana bir muhim jihat shundaki, shahristondan topilgan sopol buyumlar kundalik ehtiyoj bilan bir qatorda savdo-iqtisodiy almashinuv jarayonlarida ham muhim o’rin tutgan[128]. Bu holat kulolchilik

[127] Вархотова Д.П. Керамика VII–VIII вв. городища Кува // История материальной культуры Узбекистана (ИМКУ). – Ташкент: Фан, 1976. – Вып. 12. – С. 96–110.

[128] Ахраров, И. Раскопки городища Кува в 1973 г…. – С.45-56.; Вархотова Д.П. Керамика VII–VIII вв. городища Кува …- С. 96–110.

mahsulotlarining mahalliy iste’moldan tashqari, iqtisodiy makonda ham muomalada bo‘lganini ko‘rsatadi.

Farg‘ona vodiysining yirik shahar markazlaridan biri hisoblangan Axsikent materiallarida ham shu kabi jarayonlar kuzatiladi[129]. Bu yerda aniqlangan sopolmajmualar turli hajm va vazifadagi idishlarning ko‘pligi, sirtga ishlov berish usullarining murakkablashuvi hamda bezak tizimining boyligi bilan ajralib turadi. Kulolchilik mahsulotlari endilikda faqat maishiy ehtiyojni qondiribgina qolmasdan, balki estetik talab va ijtimoiy maqomni ham ifodalovchi omilga aylangan.

Axsikent kulolchilik maxsulotlaridagi silliqlangan yuzalar, angob bilan ishlov berish, ayrim hollarda rangli bezak unsurlarining qo‘llanishi kulollarning texnologik tajribasi boyib borganini ko’rsatadi. Kulolchilik maxsulotlarini ishlab chiqarish esa shahar bozor tizimi bilan uzviy bog‘liq holda rivojlangan. Natijada, sopol buyumlar oddiy iste’mol buyumidan asta-sekin ijtimoiy mavqe va estetik didni ifodalovchi buyumga aylanib borgan.

Zarafshon vohasi Poykent shahristonida olib borilgan qazishmalar natijasida aniqlangan sirlangan va bezakli sopol buyumlar kulolchilik texnologiyasining yangi bosqichga ko‘tarilganidan dalolat beradi. Poykentdan topilgan IX-X asrlarga oid sopol namunalarda idishlar sirtiga sir berish, rang va naqsh uyg‘unligini yaratish usullarining keng qo‘llanilgan[130]. Bu jarayon kulollarning texnologik imkoniyatlari sezilarli darajada kengaygani va ishlab chiqarishda estetik mezonlar muhim o‘rin egallay boshlaganini ko‘rsatadi. Sirlangan va bezakli buyumlar madaniy qarashlarning ifodasiga xizmat qilgan. Ranglarning uyg‘unligi, geometrik va o‘simliksimon naqshlarning qo‘llanishi esa mahalliy badiiy an’analar bilan bir qatorda madaniy aloqalarning mavjudligini ham aks ettirgan.

---

[129] Xayitova Sh.M. Farg‘ona vodiysi kulol hunarmandlari haqida ayrim tahlillar (Axsikent kulolchilik va hunarmandchiligi misolida) // Образование и наука в XXI веке : международный научно-образовательный электронный журнал. – 2025. – № 63–3 (т. 2), июнь. – С. 633–641. – ISSN 2782-4365.; Анарабаев А Стратиграфическое изучение Шахристана I городища Эски Ахси // ИМКУ. Вып. 25, Ташкент, 1990. С. 71–86 (соавтор О. Инваткина).; Анарабаев А, С. Ильясова Раскопки ремесленного квартала на городище Эски Ахси // ИМКУ. Вып. 27, Самарканд, 1996. С. 166–176.; Анарабаев А Изучение одного из ремесленных кварталов средневекового Ахсикента // ИМКУ. Вып. 30, Самарканд, 1999. С. 57–68..

[130] Шишкин В. А. Археологические работы 1937 г. В Западной ЧАСТИ Бухарского оазиса. Изд. УзФАН. Ташкент.1940.- С. 54.; Мирзаахмедов Д.К., Омельченко А.В., Торгоев А.И., Сапаров Н.Ж., Смирнова Л.О., Мирзаахмедов Н.Д., Собиров А.Н., Горин В.В., Мокробородов А.В., Кушпин С.И. Работы Бухарской археологической экспедиции в 2013–14 гг. // Археологические исследования в Узбекистане 2013–2014 года. – Вып. 10. – Самарканд, 2016. – С. 248–266.

Yuqoridagi mulohazani davom ettirishda avval, yana bir muammoga e’tibor qaratish o‘rinlidir. Ko‘rinib turibdiki, kulolchilik tarixini o‘rganishda arxeologik topilmalar muhim ilmiy manba hisoblanadi, chunki ular sopol buyumlar ishlab chiqarishining qadimiy ildizlari, texnologik jarayonlar evolyutsiyasi hamda turli davrlarda qo‘llanilgan shakl va bezak an’analari haqida muayyan tasavvur beradi. Qazilmalar natijasida aniqlangan ustaxona qoldiqlari, kulol pechlari, yarim tayyor mahsulotlar hamda turli davrlarga oid sopol parchalari muayyan hududda kulolchilik ishlab chiqarishi mavjud bo‘lganini tasdiqlaydi va ishlab chiqarishning rivojlanish bosqichlarini aniqlash imkonini beradi. Shu jihatdan arxeologik materiallar kulolchilikning tarixiy taraqqiyotini rekonstruksiya qilishda muhim daliliy asos vazifasini bajaradi.

Biroq mazkur topilmalar kulolchilik maktablarining ijtimoiy tuzilishi, kasbiy an’analarining uzluksizligi va hunarmandchilik jamoalarining ichki tashkil topish jarayonini to‘liq yoritib bera olmaydi. Chunki arxeologik materiallar, asosan, mahsulotning tashqi ko‘rinishi va ishlab chiqarish texnologiyasini aks ettiradi, ammo ustoz-shogird tizimi, hunarmandlar sulolalarining davomiyligi, kasbning mahalla hayotidagi o‘rni hamda hududiy madaniy identitet shakllanishi kabi omillarni bevosita ko‘rsatib bermaydi. Natijada sopol buyumlarning topilishi muayyan hududda ishlab chiqarish mavjud bo‘lganini bildirsa-da, u yerda mustaqil kulolchilik maktabi shakllanganini aniq tasdiqlash uchun yetarli dalil bo‘la olmaydi.

Shu sababli kulolchilik maktablari tarixini aniqlashda arxeologik topilmalar muhim boshlang‘ich manba bo‘lsa-da, ularni etnografik kuzatuvlar, yozma manbalar, ustalar sulolalari xotiralari hamda hunarmandchilik an’analarining davomiyligi shuningdek, tegishli davr ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti va boshqa omillar haqidagi ma’lumotlar bilan uyg‘un holda tahlil qilish zarur. Faqat shundagina kulolchilik ishlab chiqarishining mavjudligi bilan kulolchilik maktabining ijtimoiy-madaniy institut sifatida shakllanishi o‘rtasidagi farqni aniq ko‘rsatish mumkin bo‘ladi.

O‘rta asrlarga kelib kulolchilik ishlab chiqarishi texnologik jihatdan takomillashib, sirlangan sopol keng qo‘llanila boshlaydi. Shu bilan birga sopol mahsulotlar kundalik ehtiyoj doirasidan chiqib, me’moriy bezak

tizimida ham muhim o‘rin egallaydi. Ayniqsa, bino va inshootlarni bezashda qo‘llanilgan koshinchilikning rivojlanishi kulolchilikning alohida ixtisoslashgan tarmoqqa aylanadi. Me’moriy obidalar qurilishi va ularni bezash uchun zarur bo‘lgan sirlangan sopol parchalari, koshin va boshqa keramika elementlariga doimiy ehtiyoj mavjudligi sababli, kulolchilik ustaxonalarida ishlab chiqarish jarayoni murakkablashdi. O’z navbatida rang uyg‘unligi, bezak kompozitsiyasi hamda pishirish texnologiyasini takomillashtirish ustalardan yuqori mahorat talab qilgan. Natijada koshin tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi ustalar yirik shaharlar atrofida jamlanib, tajriba va texnologik usullar ustozdan shogirdga uzatilgan. Bu esa hududiy an’analarning barqarorlashuvi uchun muhim zamin yaratgan.

Kulolchilik bilan bog‘liq jarayonni jadallashtirgan omillardan biri sifatida Buyuk Ipak yo‘li orqali shakllangan keng savdo makonining vujudga kelishi hisoblanadi. Xalqaro savdo yo‘llari chorrahasida joylashgan Samarqand, Buxoro, Poykent, Axsikent va boshqa shaharlarda nafaqat mahalliy hunarmandlar mahsulotlari, balki uzoq hududlardan olib kelingan buyumlar ham muomalada bo‘lgan[131]. Savdo aloqalarining kengayishi natijasida kulolchilik mahsulotlariga talab ortib, ularning uzoq masofalarga tarqalishi ustalarda yondashuvlarni o’zgartirishga undagan. Shu bilan birga, import mahsulotlarning, jumladan Xitoy chinnilari kabi yuqori sifatli buyumlarning shahar bozorlarida paydo bo‘lishi mahalliy kulollar uchun kuchli raqobat muhiti yaratgan. Bu esa idishlarning shakli, bezagi va pishirish sifatini yaxshilash, sir texnologiyalarini takomillashtirish hamda mahsulotning tashqi ko‘rinishiga alohida e’tibor qaratilishiga olib kelgan.

Ipak yo‘lining yirik karvon yo‘llari bilan bir qatorda, mintaqa ichidagi savdo yo‘laklari ham mahsulot almashinuvini kuchaytirgan. Farg‘ona vodiysi va Zarafshon vohasidagi shaharlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar kulolchilik mahsulotlari va texnologik tajribaning tezroq tarqalishiga imkon bergan. Natijada ayrim markazlarda mahsulot shakli, bezak elementlari, rang tanlovi hamda sir qo‘llash usullarida hududiy xususiyatlar asta-sekin barqarorlashib borgan.

[131] Samarkand – Crossroads of Cultures // UNESCO Silk Roads Programme. – [Elektron resurs]. – URL: https://en.unesco.org/silkroad/content/samarkand (murojaat qilingan sana: 03.01.2026).

Temuriylar davrida rivojlangan sirlangan kulolchilik an’analari XVI asr davomida ham uzluksiz saqlanib, keyingi davrlar taraqqiyotiga zamin yaratgan. Xususan, Toshkentning XV-XVI asrlarga oid sopol buyumlari tahlili texnologiya va uslubiy an’analarning uzluksiz rivojlanib borganini ko‘rsatadi. Natijada XVII-XIX asrlar kulolchilik taraqqiyotida hududiy xususiyatlar mustahkamlanib[132], keyinchalik ilmiy adabiyotda kulolchilik maktablari sifatida ta’riflangan markazlarning shakllanishi uchun tarixiy asos yuzaga kelgan.

San’atshunoslarning qayd etishicha sirlangan sopol rivojlanishining keyingi yirik bosqichi XVII asrdan boshlab davom etgan va bu davr ichida XVII-XIX asrlar alohida bosqich sifatida ajratilishi talqin qilingan. Shu jarayonda ayrim shahar markazlarida kulolchilik mahsulotlari shakli, bezak tizimi va texnologik xususiyatlari barqarorlasha boshlaydi. Xususan, Buxoro hududining XVIII asr ikkinchi yarmi - XIX asr birinchi yarmiga oid sirlangan sopol buyumlari maxsus tadqiqot mavzusi sifatida ko‘rilgan[133].

O‘rta asr shaharlarida kulolchilik an’analari va koshinchilik natijasida yuzaga kelgan texnologik tajriba keyingi davrlarda ham uzluksiz davom etgan. Arxeologik va san’atshunoslik tadqiqotlarida qayd etilishicha, XVII-XIX asrlarda Turkiston hududida sirlangan sopol buyumlar ishlab chiqarish an’anaviy kulolchilikning so‘nggi bosqichi sifatida saqlanib qolgan va ayrim hududlarda yanada murakkablashgan[134]. Bu davr sopol buyumlarida idishlarning shakliy xilma-xilligi, sirtiga rangli sir berish hamda bezak kompozitsiyalarining barqarorlashuvi kuzatiladi. Bu esa kulolchilikning ishlab chiqarish tajribasi uzilmaganini ko‘rsatadi.

XVIII-XIX asrlarda Markaziy Osiyoda kulolchilik ham shahar iqtisodiy hayotining muhim tarkibiy qismi bo‘lib qoladi. Aynan shu davrda kulolchilik ishlab chiqarishi yirik siyosiy va savdo markazlari atrofida ko‘proq jamlanib, ayrim hududlarda o‘ziga xos bezak va rang uslublari

[132] Алиева, С. Ш. IX – XXI аср боши Ўзбекистон сирланган кулолчилиги ривожланишининг асосий босқичлари ва бадиий хусусиятлари: санъатшунослик фанлари бўйича фан доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент: Санъатшунослик институти, 2018. – 71 б.

[133] Мирзаахмедов Д. К. Бухарская поливная керамика второй половины XVIII – первой половины XIX вв. // История материальной культуры Узбекистана. – Ташкент: Фан, 2002. – Вып. 33. – С. 112–128.

[134] Рахманов, Ш. Р.Туркистон ҳудудида XVII–XIX асрларга оид сирланган сопол буюмлар таҳлили // Ўзбекистон археологияси. – 2021. – № 3. – Б. 31–41.

shakllanadi[135]. Natijada mahsulotlarning bezak repertuari, rang tanlovi hamda kompozitsion yechimlari hududdan hududga farqlanib, regional uslubiy belgilar mustahkamlanadi.

Shu bilan birga, XVII-XIX asrlarda koshinchilik kulollarning alohida ixtisoslashgan guruhlari faoliyatini ta’minlagan. Xorazm vohasi va boshqa hududlarda me’moriy obidalarni bezashda qo‘llanilgan rangli koshinlar tayyorlash an’analari ustaxona tizimida uzluksiz davom etgan[136]. Bunday buyurtma asosidagi ishlab chiqarish texnologik tajribaning saqlanishi va avloddan-avlodga o‘tishini ta’minlagan.

XIX asrga kelib Farg‘ona vodiysi, Buxoro-Samarqand vohasi hamda Xorazm hududlarida sirlangan sopol mahsulotlarning rang palitrasi, naqsh tizimi va shakl an’analari o‘zaro farqlana boshlagan. Keyinchalik kulolchilik maktablari deb atalgan hududiy yo‘nalishlarning shakllanishi aynan shu jarayonga borib taqaladi[137].

Shu bilan birga, maktab tushunchasini faqat uslubiy farqlar yoki mahsulot hajmining ortishi bilan cheklash yetarli emas. Ijtimoiy-madaniy antropologik yondashuvda kulolchilik maktabi, avvalo, kasbiy bilim va ko‘nikmalarning uzluksiz uzatilish tizimi, ustoz-shogird an’anasining barqarorlashuvi hamda muayyan hudud doirasida shakllangan madaniy identitetning ifodasi sifatida qaraladi.

Masalan, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Farg‘ona vodiysidagi Rishton kulolchilik markazida sirlangan idishlar ishlab chiqarish keng yoyilib, kulollar sonining ko‘pligi va ustaxonalarning mahalla muhitida faoliyat yuritishi hunarning ijtimoiy asosga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Bu yerda kulolchilik nafaqat ishlab chiqarish sohasi, balki mahalliy jamoa ichida maqom, obro‘ va madaniy o‘zlikni belgilovchi omilga aylangan.

Demak, kulolchilik maktabining shakllanishi alohida iste’dodli ustalar faoliyati bilan emas, balki hunarmandchilikning mahalla va ustaxona muhitida ijtimoiy institut sifatida mustahkamlanishi, kasb

---

[135] Алиева, С. Ш. IX – XXI аср боши Ўзбекистон сирланган кулолчилиги ривожланишининг асосий босқичлари ва бадиий хусусиятлари: санъатшунослик фанлари бўйича фан доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент: Санъатшунослик институти, 2018. – 71 б.

[136] Xudaybergenov H. Xorazm kulolchiligI (etnologik tadqiqot). – Toshkent : «Lesson Press» MCHJ nashriyoti, 2023. – 12-34 betlar.

[137] Ўзбекистон кулолчилигидаги метаморфозалар: индивидуаллик ва анъаналар // San’at. Ўзбекистон Бадиий академияси журнали. – 2015. – № 3. – [Elektron resurs]. – URL: https://sanat.orexca.com/2012/2012-3/metamorphoses-in-the-ceramics-of-uzbekistan-individuality-and-tradition/ (murojaat qilingan sana: 03.02.2026).

sirlarining tizimli avloddan avlodga o‘tishi va mahsulotlarda hududiy badiiy-uslubiy belgilarning barqarorlashuvi bilan bog‘liq holda talqin qilinishi lozim.

Umuman olganda bizning fikrimizcha, XV-XVIII asrlar davomida shaharlashuvning kuchayishi, ichki savdo aloqalarining kengayishi hamda hunarmandchilik mahallalarining shakllanishi natijasida kulolchilik ishlab chiqarishi ijtimoiy jihatdan barqaror tizimga aylangan. Aynan shu davrda ustoz-shogird munosabatlari mustahkamlanib, kasb sirlarini saqlash va uzatish tizimlari an’anaviy tus olgan, mahsulotlarda esa rang, naqsh va shakl jihatidan hududiy xususiyatlar ajralib chiqa boshlagan. Keyinchalik Rishton , G‘ijduvon , Xiva kabi nomlar bilan tanilgan kulolchilik markazlarining asosiy belgilari aynan shu tarixiy jarayonda shakllangan.

Shu bois kulolchilik maktablarining paydo bo‘lishini ijtimoiy-antropologik ma’noda XV-XVIII asrlar bilan bog‘lash ilmiy jihatdan asoslidir. XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida esa bu maktablar manbalarda alohida hududiy yo‘nalishlar sifatida qayd etila boshlaydi[138]. Ularning uslubiy farqlari yanada ravshanlashadi. Demak, mazkur davr maktablarning shakllanishi yakunlanib, mustaqil hududiy an’analar uzil-kesil qaror topdi.

XIX asr oxiri - XX asr boshlariga kelib kulolchilik maktablari ishlab chiqarish faoliyatidan tashqariga chiqib, mahalliy jamoalarning ijtimoiy-madaniy tuzilmasi bilan uzviy bog‘liq hodisaga aylanadi. Kulolchilik ma’lum hudud, avlod va ustoz-shogird zanjiri orqali uzatiladigan barqaror ijtimoiy institut sifatida namoyon bo‘ladi[139]. Hunar oilaviy meros, kasbiy identifikatsiya va jamoaviy xotira bilan chambarchas bog‘lanib, mahalliy madaniy o‘zlikni shakllantiruvchi omillardan biriga aylanadi.

Sirlangan sopol mahsulotlarda oq yaltiroq sir, ultramarin, biryuza, qora va to‘q yashil ranglarning qo‘llanilishi faqat texnologik yutuq emas, balki muayyan estetik qarashlar va ramziy tasavvurlar bilan bog‘liq hodisadir. Rang tanlovi ko‘pincha mahalliy did muhitini, diniy-axloqiy tasavvurlarni hamda kundalik hayot estetikasini aks ettiradi.

[138] Щербина-Крамаренко, Н. Н. Гончарное производство у туземцев Средней Азии // Искусство и художественная промышленность. – 1898. – № 3. – С. 200–201.; Денике, Б. П. Прикладное искусство Средней Азии. – М.–Л.: Государственное издательство, 1931. – 245 с.

[139] Щербина-Крамаренко, Н. Н. Гончарное производство у туземцев Средней Азии …- С. 200–201.

Oʻsimliksimon naqshlarning ustunligi esa tabiat, baraka va hayotiylik haqidagi qarashlar bilan uzviy bogʻliq boʻlib, buyumlarni maʼnaviy mazmun bilan boyitadi. Qadimiy motivlarning saqlanib qolishi esa madaniy uzluksizlikni, yaʼni anʼanaviy bilim va tasavvurlarning avloddan-avlodga oʻtib kelayotganini anglatadi.

Kulolchilik maktablari shu tariqa nafaqat mahsulot ishlab chiqaruvchi markazlar, balki mahalliy identitetni shakllantiruvchi va mustahkamlovchi madaniy maydon sifatida namoyon boʻladi. Har bir hududning oʻziga xos rang palitrasi, bezak kompozitsiyasi va ishlov uslubi jamoaning estetik qarashlari hamda ijtimoiy oʻzini anglash jarayonining ifodasiga aylanadi. Natijada, sopol buyumlar moddiy madaniyat namunasi boʻlish bilan birga, ijtimoiy mavqe, did va madaniy xotirani mujassam etuvchi ramziy buyum sifatida shakllanadi.

Mazkur holatlar XIX asr oxiriga kelib Turkiston hududida kulolchilik faoliyati barqaror ijtimoiy-madaniy tizim sifatida yashab kelganini koʻrsatadi. Ishlab chiqarish jarayonida asrlar davomida shakllangan texnologik koʻnikmalar va badiiy tasavvurlar bir avloddan ikkinchisiga uzatilgan. Natijada hunar nafaqat iqtisodiy faoliyat, balki merosiy bilim shakliga aylangan. Ustaxonalar muhitida shakllangan tajriba jamoaviy xotira va kasbiy identitetni mustahkamlovchi omil vazifasini bajargan.

Sirlangan sopol buyumlarda yorqin ranglar hamda yaltiroq sir qatlamining qoʻllanishi mahalliy ustalarning estetik tafakkuri va kompozitsion tafovutlarni his qilish qobiliyatini namoyon etadi. Rang uygʻunligi va bezak tuzilmasi mahsulotning tashqi jozibasini oshirish bilan birga, uni ijtimoiy muhitda maʼlum bir didiy mezon bilan bogʻlaydi. Oʻsimliksimon naqshlarning ustunligi diniy-estetik tasavvurlar va mahalliy badiiy qarashlarning uygʻunlashgan shaklini ifodalaydi. Qadimiy motivlarning davomiyligi esa anʼananing uzluksizligini, madaniy qatlamlarning bir-biriga singib borishini koʻrsatadi.

Shu tariqa, kulolchilik mahsulotlari moddiy ehtiyojni qondirish bilan cheklanmay, ramziy mazmun kasb etgan madaniy buyumga aylangan. Ular orqali jamoaning estetik dunyoqarashi, tarixiy xotirasi va oʻziga xoslik hissi namoyon boʻlgan. XIX asr oxirida kulolchilik ishlab chiqarishi iqtisodiy faoliyat doirasidan chiqib, mintaqaning madaniy merosini

mujassam etuvchi va ijtimoiy o‘zini anglash jarayonida muhim o‘rin tutuvchi san’at sohasi sifatida faoliyat yuritgan.

Mazkur ma’lumotlar kulolchilik markazlarini faqat ishlab chiqarish nuqtai nazaridan emas, balki ijtimoiy makon sifatida talqin qilish imkonini beradi. Hududiy markazlarning barqarorlashuvi u yerda shakllangan kasbiy jamoalarning mustahkamligini, ustoz-shogird an’analarining uzluksizligini hamda hunarning mahalliy identitet bilan uyg‘unlashganini anglatadi. Har bir markaz o‘ziga xos rang palitrasi, bezak kompozitsiyasi va ishlov uslubi orqali ajralib turgan, bu esa kulolchilik mahsulotlarini hududiy madaniy belgi darajasiga ko‘targan.

Samarqand, G‘ijduvon va Rishton atrofida shakllangan ishlab chiqarish muhiti ustaxona tizimi orqali tashkil etilgan. Bu yerda mehnat taqsimoti, tajriba almashinuvi va kasbiy ijtimoiylashuv jarayonlari muntazam kechgan. Ustaxona nafaqat ishlab chiqarish joyi, balki ijtimoiy muloqot va bilim uzatish maydoni sifatida ham faoliyat yuritgan. Shu tariqa hunar amaliy ko‘nikma bilan birga, ma’lum axloqiy-me’yoriy qadriyatlar va estetik mezonlarni ham shakllantirgan.

Shahar hayotida kulolchilikning muhim hunarmandchilik tarmog‘i sifatida namoyon bo‘lishi uning iqtisodiy ahamiyati bilan birga, ijtimoiy mavqeini ham belgilagan. Kulol ustalar mahalla va bozor tizimi bilan uzviy aloqada bo‘lib, ularning mahsulotlari kundalik turmushning ajralmas qismi sifatida keng tarqalgan. Natijada, kulolchilik markazlari hududiy ishlab chiqarish birliklari bilan cheklanmay, ijtimoiy tuzilma, madaniy o‘zini anglash va estetik qarashlarni shakllantiruvchi muhim madaniy institutga aylangan.

Farg‘ona vodiysida kulolchilik bilan shug‘ullanadigan bir qator ustahonalar bo‘lsa ham, Rishton uzoq vaqtdan buyon yetakchi o‘rinni egallab kelgan. Bu jarayonni faqat ishlab chiqarilgan buyumlar sonining ko‘pligi bilan izohlash biroz tor yondashuvni ko‘rsatish bo‘ladi. Rishton ustahonalarida o‘ziga xos texnologiya va estetik an’analar shakllantirgan bo‘lib, bu hududda ishlatiladigan ishqorli sir texnologiyasi va ko‘k-yashil ranglarning ustuvorligi Rishton kulolchiligini boshqa mintaqalardan ajratib turuvchi muhim belgilar hisoblanadi. Shuningdek, bu yerda yaratilgan naqsh va shakllar boshqa hudud kulollarining faoliyatiga ham ta’sir qilib, Rishtonni Farg‘ona vodiysi kulolchilik an’analarining muhim

markazlaridan biriga aylantirgan albatta[140]. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida bu hududda koʻplab ustaxonalar faoliyat yuritgani, hunarning oilaviy va mahalliy jamoa doirasida mustahkam ijtimoiy asosga ega boʻlganini koʻrsatadi. Sirlangan sopol buyumlarning keng hududlarga tarqalishi esa Rishton mahsulotlarini mintaqaviy almashinuv tarmogʻining muhim unsurlaridan biriga aylantirgan.

Rishton an'analari asosida shakllangan rang tanlovi, sir ishlovining oʻziga xos usullari va bezak kompozitsiyasi boshqa bazi mintaqalar uchun andoza vazifasini bajargan. Bu jarayonni madaniy ta'sir va estetik diffuziya hodisasi sifatida talqin qilish mumkin. Ya'ni, kulolchilik uslubi orqali ma'lum bir hududning didiy mezonlari va badiiy qarashlari boshqa jamoalarga ham singib borgan.

Shu tariqa, Rishton nafaqat ishlab chiqarish markazi, balki mintaqaviy kulolchilik madaniyatini shakllantiruvchi markaziy oʻchoq sifatida namoyon boʻladi. Bu yerda yuzaga kelgan tajriba va an'analar ustoz-shogird zanjiri, savdo aloqalari va jamoaviy madaniy xotira orqali kengayib, butun Fargʻona vodiysi kulolchiligida barqaror estetik maktabning shakllanishiga zamin yaratgan.

Kulolchilik buyumlarining hududiy farqlari rang va bezak tizimi orqali ham aniqlanadi[141]. Fargʻona vodiysi va unga yaqin hududlarda ishlab chiqarilgan buyumlarda koʻk rang va uning turli tuslari nisbatan ustunlik qilgani kuzatilsa, Samarqand-Buxoro vohasi kulolchiligida yashil, jigarrang va sariq ranglar koʻproq qoʻllanganligi koʻzga tashlanadi. Ushbu rang palitrasi hududlar kesimida shakllangan estetik did, xomashyo imkoniyatlari hamda texnologik tajriba bilan uzviy bogʻliq boʻlib, kulolchilik maktablarining badiiy jihatdan bir-biridan farqlanishini ta'minlagan.

Mazkur rang ustuvorliklari tasodifiy hodisa emas, balki mahalliy ijtimoiy-madaniy muhit bilan chambarchas aloqador jarayon sifatida namoyon boʻladi. Rang va bezak tanlovi orqali jamoaning estetik qarashlari, tabiat bilan bogʻliq tasavvurlari hamda diniy-badiiy me'yorlari ifodalanadi. Shu tariqa sopol buyumlar faqat maishiy buyum emas, balki

[140] Кюбель Е. Л. Среднеазиатская керамика в собрании Российского этнографического музея (коллекционные сборы 1900–1912 гг.). – Санкт-Петербург : Российский этнографический музей, 2012. – С. 404–433.
[141] Кюбель Е. Л. Среднеазиатская керамика в собрании Российского этнографического музея (коллекционные сборы 1900–1912 гг.)….- С. 404–433.

hududiy oʻziga xoslikni aks ettiruvchi madaniy belgi vazifasini ham bajargan.

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida aynan mana shu hududiy xususiyatlarning barqarorlashuvi kulolchilik ishlab chiqarishining yangi bosqichga oʻtganini koʻrsatadi. Alohida ustalar faoliyatidan tashqari, ma’lum hududlarda shakllangan ustaxona muhitlari rang, naqsh va texnologik yondashuv jihatidan izchil an’anani yuzaga keltirgan. Keyinchalik ilmiy adabiyotlarda kulolchilik maktablari sifatida talqin etilgan yoʻnalishlarning asosiy shakllanish jarayoni aynan shu davrga toʻgʻri keladi.

Samarqand, Toshkent, Andijon, Xoʻjand, Buxoro hamda Fargʻona vodiysidagi Rishton kabi markazlarning shakllanishi shahar muhitida hunarmandchilikning ijtimoiy tuzilma bilan uygʻunlashganini yaqqol koʻrsatadi[142]. Ushbu hududlarda kulolchilik ustaxonalari koʻpincha ma’lum mahalla yoki kasbiy guruhlar doirasida joylashib, oʻziga xos kasbiy hamjamiyatlarni yuzaga keltirgan. Bu muhitda mehnat jarayoni, bilim va koʻnikmalarning avloddan avlodga oʻtishi, estetik mezonlarning shakllanishi jamoaviy tajriba va ustoz-shogird an’analari asosida davom etgan.

Mazkur shaharlarning savdo yoʻllariga yaqin joylashgani kulolchilik mahsulotlarining almashinuv jarayonlarida faol ishtirok etishiga imkon yaratgan. Samarqand va Buxoro kabi yirik markazlarda ishlab chiqarilgan buyumlar keng bozor tarmogʻi orqali boshqa hududlarga tarqalgan boʻlsa, Rishton va Andijon atrofida shakllangan uslubiy xususiyatlar Fargʻona vodiysi doirasida estetik ta’sir koʻrsatgan. Mahsulotlarning hududlararo harakati bilan birga, bezak motivlari, rang talqinlari va texnologik yondashuvlar ham madaniy muloqot vositasiga aylangan.

Bunday sharoitda sopol buyumlar kundalik turmush buyumidan koʻproq ma’noga ega boʻlib, jamoaning oʻzini anglash jarayonida ramziy ahamiyat kasb etgan. Har bir hududga xos rang va kompozitsiya orqali mahalliy did, tarixiy xotira hamda madaniy an’ana moddiy shaklda ifodalangan. Natijada Samarqand, Toshkent, Andijon, Xoʻjand, Buxoro va Rishton kabi markazlar iqtisodiy faollik bilan bir qatorda, hududiy

[142] Денике, Б. П. Прикладное искусство Средней Азии…. – 245 с.

identitet va madaniy uzviylikni mustahkamlovchi ijtimoiy-madaniy institut sifatida faoliyat yuritgan.

XIX asr oxiriga kelib kulolchilik mahsulotlarida texnologik ishlov va rang uyg‘unligining pasayish holatlari ham sezila boshlagan. Biroq an’anaviy bezak va rang tanlash madaniyati to‘liq yo‘qolib ketmagan. Ushbu jarayon esa kulolchilik an’analari yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda muayyan transformatsiyaga uchraganini tushunish mumkin[143].

Bunday o‘zgarishlar kulolchilik muhitida iqtisodiy moslashuv jarayonlarini kuchaytirgan. Savdo aloqalarining kengayishi va zavod usulida ishlab chiqarilgan arzon sanoat mahsulotlarining mahalliy bozorlarga kirib kelishi an’anaviy hunarmandchilikning raqobat sharoitini o‘zgartirgan. Natijada ayrim ustalar ishlab chiqarish hajmini oshirish, vaqtni tejash va xarajatlarni kamaytirishga intilgan. Bu esa ba’zi hollarda bezak kompozitsiyasining soddalashuvi, sir ishlovining tezlashtirilishi yoki mahsulotning umumiy sifat ko‘rsatkichlariga ta’sir etgan.

Shu bilan birga, mazkur jarayonni faqat inqiroz yoki pasayish sifatida talqin qilib bo‘lmaydi. Bozor sharoitining o‘zgarishi kulollardan yangi estetik talablarni hisobga olishni, mahsulotni xaridor ehtiyojiga moslashtirishni ham talab qilgan. Natijada ayrim ustaxonalarda an’anaviy naqsh va rang tizimi saqlangan holda, shakl va funksiyada yangilanish elementlari paydo bo‘lgan.

Bu holat kulolchilikni dinamik va moslashuvchan madaniy tizim sifatida namoyon etadi. Hunar ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar ta’sirida o‘zgarishga yuz tutgan bo‘lsa-da, uning asosiy estetik va ramziy bosqichlari to‘liq yo‘qolmagan. Kulolchilik an’analari o‘zining tarixiy ildizlarini saqlagan holda, modernizatsiya jarayonlariga moslashgan murakkab ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida shakllanib borgan. Shu bilan birga, ko‘p asrlik ustoz-shogird an’analari asosida shakllangan bezak uslublari, rang tanlash tajribasi va mahalliy estetik qarashlar to‘liq yo‘qolib ketmagan, balki yangi sharoitlarga moslashgan holda saqlanib qolgan. Bu holat kulolchilik san’ati tashqi iqtisodiy va ijtimoiy ta’sirlarga

[143] Денике, Б. П. Прикладное искусство Средней Азии.... – 245 с.

qaramay, madaniy merosning muhim qismi sifatida saqlanib qolganini kuzatish mumkin.

O‘zbekistonda kulolchilik maktablarining XX asr 20-80-yillardagi rivojlanish jarayonini ijtimoiy-madaniy antropologik nuqtai nazardan tahlil qilish ushbu davrni oddiy iqtisodiy qayta tashkil etish bosqichi sifatida emas, balki kasbiy identitet va madaniy faoliyatlarning talqin etilish davri sifatida ko‘rish imkonini beradi. Bu yillarda kulolchilik nafaqat ishlab chiqarish tizimi, balki ma’lum ijtimoiy munosabatlar, bilim uzatish tizimlari va ramziy qadriyatlar majmui sifatida o‘zgarishga yuz tutdi.

Sovet hokimiyati o‘rnatilgach, an’anaviy ustaxona atrofida shakllangan oilaviy va mahalliy kasbiy hamjamiyatlar yangi tashkiliy shakllar — kooperativ va artel tizimlari orqali qayta tuzildi. Bu jarayon ustoz-shogird an’anasiga asoslangan norasmiy bilim uzatish tizimini rejalashtirilgan va normativlashtirilgan ishlab chiqarish muhiti bilan almashtirdi. Natijada kulolning kasbiy maqomi ham o‘zgara boshladi: u avvalgidek mahalla doirasida mustaqil hunarmand sifatida emas, balki kollektiv mehnat tizimining bir bo‘lagi sifatida talqin qilindi.

1920-1930-yillarda yuz bergan dastlabki qayta tashkil etishlar kulolchilikni yangi iqtisodiy tartibga moslashtirishga qaratilgan bo‘lsa, 1940-1950-yillarda ishlab chiqarish ideologik va madaniy siyosat bilan ham chambarchas bog‘landi. Bu davrda an’anaviy bezak va shakllar ma’lum darajada standartlashtirildi, hunar esa xalq amaliy san’ati tushunchasi doirasida talqin qilina boshladi. 1960-1980-yillarga kelib esa kulolchilik bir tomondan sanoatlashtirilgan ishlab chiqarish muhiti ta’sirida shakllansa, ikkinchi tomondan milliy madaniyatni namoyish etuvchi ramziy soha sifatida qayta qadrlana boshladi.

Shu tariqa XX asrning mazkur bosqichlari kulolchilik maktablarining tashkiliy shakli bilan birga, ularning ijtimoiy mazmunini ham o‘zgartirdi. Hunar amaliy faoliyatdan tashqari, ideologik va madaniy siyosat doirasida talqin etilgan ijtimoiy institutga aylandi. Bu jarayon kulolchilikni moslashuvchan, o‘z ichki an’analarini saqlagan holda yangi ijtimoiy tuzilma bilan o‘zaro ta’sirga kirisha olgan murakkab madaniy tizim sifatida namoyon etadi.

XX asrning 20-yillaridan boshlab mintaqada yuz bergan siyosiy va iqtisodiy siljishlar kulolchilikni faqat xo‘jalik faoliyati sifatida emas, balki ijtimoiy faoliyat sifatida ham izdan chiqargan murakkab jarayonni yuzaga keltirdi. Ishlab chiqarishning izdan chiqishi, xomashyo ta’minotidagi uzilishlar va an’anaviy bozor aloqalarining buzilishi ustaxonalar faoliyatini cheklab qo‘ydi. Bu sharoitda ko‘plab kulollar yangi iqtisodiy tartibga moslashish, kooperativ shakllarga qo‘shilish yoki hunarni vaqtincha tark etish kabi qarorlar qabul qilishga majbur bo‘lgan.

Mazkur davrni kulolchilik maktablarining kengayishi emas, balki ularning omon qolish strategiyalari bilan tavsiflash to‘g‘riroq bo‘ladi. An’anaviy ustaxona — bu faqat ishlab chiqarish joyi emas, balki bilim uzatish, kasbiy identitet shakllanishi va mahalliy ijtimoiy aloqalar mustahkamlanadigan makon edi. Iqtisodiy beqarorlik aynan shu ijtimoiy zanjirning uzilishi xavfini tug‘dirgan[144]. Ustoz-shogird tizimining izdan chiqishi esa hunarning avlodlararo davomiyligiga tahdid solgan.

Etnografik kuzatuvlar[145] ayrim hududlarda, xususan Buxoro va unga tutash vohalarda, hunarmandchilikning qisqarib, ba’zi kasb turlarining faqat mahalliy ehtiyoj doirasida saqlanib qolganini ko‘rsatadi. Bu jarayon kulolchilikning jamoaviy ishlab chiqarishdan ko‘ra, cheklangan ijtimoiy muhitda yashab qolgan an’anaviy faoliyatga aylanganini anglatadi.

Shunga qaramay, aholi gavjum shaharlarda, ayniqsa qadimiy hunarmandchilik an’analari kuchli bo‘lgan markazlarda, kam sonli bo‘lsa-da ustaxonalar faoliyati davom etgan. Bu ustaxonalar yangi siyosiy-iqtisodiy sharoitga moslashgan holda, hunarning asosiy texnologik va estetik bosqichlarini saqlab qolishga harakat qilgan. Natijada, dastlabki sovet davri kulolchilik uchun inqiroz davri bo‘lish bilan birga, uning ichki ijtimoiy barqarorligini sinovdan o‘tkazgan bosqich sifatida namoyon bo‘ladi.

1920-yillarning oxiri va 1930-yillarda hunarmandchilikni kooperativ shaklga o‘tkazish siyosati kulolchilikning ijtimoiy tuzilmasiga bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Normativ hujjatlarda artellar a’zolarining shaxsiy mehnati asosida korxonalarni yuritishi, ishlab chiqarish vositalaridan

[144] Фахретдинова Д. А. Декоративно-прикладное искусство Узбекистана. – Ташкент: Издательство литературы и искусства им. Гафура Гуляма, 1972. – С. 46-50.
[145] Сухарева О. А. Бухара XIX – начала XX века: Позднефеодальный город и его население. – М.: Наука, 1966. – 327 с.

birgalikda foydalanishi va mahsulotni jamoaviy tarzda sotishi belgilangan bo‘lsa-da, faoliyatda bu tizim hunarning avvalgi ijtimoiy tashkil topish shaklini sezilarli darajada o‘zgartirdi[146]. Ustaxona endi mustaqil oilaviy makon emas, balki rejalashtirilgan ishlab chiqarish birligiga aylandi.

1930-yillarda tizimni yanada qat’iy ixtisoslashtirish, markazlashgan rahbarlikni joriy etish va kooperativlarni qayta tashkil etish choralari hunarmandchilikni boshqariladigan xo‘jalik tarmog‘iga aylantirdi. Bu jarayon kulolning ijtimoiy maqomiga ham ta’sir etdi: u avvalgi mustaqil ustadan ko‘ra kooperativ a’zosi sifatida kollektiv mehnat sub’ekti maqomini oldi[147]. Natijada ustoz-shogird an’anasiga asoslangan erkin bilim uzatish jarayoni ma’lum darajada institutsional nazorat doirasiga kiritildi.

Kooperativ tizim mahsulot ishlab chiqarishda standartlashuvni kuchaytirdi. Davlat buyurtmasi asosida ishlab chiqariladigan buyumlar turi va shakllarining soddalashuvi kulolchilikni ommaviy ehtiyojga yo‘naltirilgan tarmoqqa aylantirdi. Shu bilan birga, ayrim hududlarga xos bezak va shakl xilma-xilligining qisqarishi mahalliy estetik tafovutlarning kamayishiga olib keldi. Rang va kompozitsion yondashuvlar umumiy talabga moslashtirilib, kulolchilik mahsulotlari asta-sekin hududiy madaniy imzo dan ko‘ra, yagona xo‘jalik tizimining mahsulotiga aylana boshladi.

Biroq bu jarayonni biryoqlama baholab bo‘lmaydi. Kooperativ tizim ayrim markazlarda ishlab chiqarishning barqarorlashuvi va hunarning iqtisodiy jihatdan saqlanib qolishiga ham xizmat qilgan. Shu tariqa, 1920-1930-yillardagi qayta tashkil etish jarayoni kulolchilikni bir vaqtning o‘zida ham institutsional cheklov, ham yangi yashash tizimi bilan ta’minlagan murakkab ijtimoiy-madaniy o‘zgarish bosqichi sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga, kulolchilikning butunlay yo‘qolib ketishiga yo‘l qo‘yilmadi. Aksincha, ayrim markazlarda hunarmandchilikni saqlab qolish maqsadida ishlab chiqarish jarayonlari qayta tashkil qilindi. Ba’zi tajribali ustalar yangi tizim doirasida faoliyatini davom ettirib, an’anaviy

[146] Положение о промысловой кооперации : утв. постановлением ЦИК СССР, СНК СССР от 11 мая 1927 г. // СЗ СССР. 1927. № 26. Ст. 280.

[147] Постановление Совета Народных Комиссаров Союза ССР. Об организационном строительстве промысловой кооперации (утверждено Политбюро ЦК ВКП(б) 23.II.1932 г.). Архив: РГАСПИ. Ф. 17. Оп. 3. Д. 873. Л. 35–36. Электронный ресурс // Проект «Исторические Материалы».

texnologiya va bezak elementlarini imkon qadar saqlab qolishga harakat qildilar (ushbu xaqida hududiy kulolchilik maktablari tarixiga bag‘ishlangan qismda batafsil yoritiladi). Natijada kulolchilik maktablari o‘zining asosiy texnologik tajribasini saqlab qolgan holda yangi iqtisodiy sharoitga moslashishni boshladi.

Ushbu o‘rinda kulolchilik ana’nalarini saqlanib qolishida muhim tutgan omillarga ham e’tibor qaratish lozim xisoblanib, bu jarayonni turli ko‘rgazma va muzey faoliyatlarining tashkil etilishi bilan ham izohlash mumkin. Xususan, Toshkentda 1927-yildayoq ustalar asarlarining eng yaxshi namunalari ko‘rgazmasi tashkil etilganligi, keyinchalik u doimiy faoliyati yo‘lga qo‘yilganligi, 1938-yilga kelib, uy-ustasi hunarmandchiligi muzeyi ochilib, kulolchilikka doir buyumlar ham namoyish etila boshlaganini rasmiy ma’lumotlar tasdiqlaydi[148].

Yuqorida qayd qilingan ma’lumotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, mazkur davr kulolchilik maktablari tarixida uzilishdan ko‘ra, murakkab o‘zgarishlar (transformatsiya) bosqichi bo‘lib o‘tganligini tushunish mumkin. Chunki, ishlab chiqarish shakllari o‘zgargan bo‘lsa-da, hududiy an’anaviy ustalar jamoalari va hunar tajribasi to‘liq yo‘qolib ketmagan, balki yangi sharoitga moslashgan holda o‘z faoliyatini davom ettirgan.

Shu tariqa, 1920-1930-yillar kulolchilik maktablarining tashkiliy va iqtisodiy jihatdan qayta shakllanish davri bo‘lib, keyingi bosqichlarda ularning davlat tizimi doirasida barqarorlashuvi uchun zamin yaratdi.

1940-1950-yillarga kelib yuz bergan tarixiy jarayonlar tarixiy zarurat sabab kulolchilik maktablarining saqlanib qolishi va ishlab chiqarishning barqarorlashuvi kuzatiladi.

1940-yillar boshida boshlangan Ikkinchi jahon urushi mintaqa iqtisodiy hayotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatganligi barchaga ma’lum. Bu holat haqida manbalarda ham alohida qaydlar bor. Xususan, Ikkinchi jahon urushining boshlanishi xo‘jalik vaziyatining o‘zgarishiga turtki bo‘ldi deb qayd etiladi[149]. Manbada izohlanishicha urush sharoitida yoqilg‘i

[148] Государственный музей прикладного искусства Узбекистана, Ташкент // Дирекция по строительству, реконструкции и капитальному ремонту объектов при Кабинете Министров Республики Узбекистан: официальный сайт. – URL: https://dkm.gov.uz/ru/gosudarstvennyj-muzej-prikladnogo-iskusstva-uzbekistana-taskent (murojat vaqti: 05.12.2025).

[149] Исламов Ф. И. ЗАО «АПАРТАК» – предприятие по открытой разработке угля на Ангренском буроугольном месторождении // Горный вестник Узбекистана. – 2008. – № 1 (январь–март). – С. 3–8.

resurslariga bo‘lgan ehtiyoj ortgani sababli, respublikada energiya va yoqilg‘i ta’minoti muammolari yuzaga kelgan. Natijada energiya va yoqilg‘iga bevosita bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish sohalarida, jumladan markazlashgan kulolchilik ustaxonalarida ham ishlab chiqarish hajmi qisqarishi kuzatilgan.

Shu bilan birga, kulolchilik buyumlari kundalik turmush ehtiyojlari uchun zarur xisoblanganligi sababli ishlab chiqarish butunlay to‘xtab qolmadi. Metall buyumlar ishlab chiqarishning urush ehtiyojlariga yo‘naltirilishi natijasida ayrim hududlarda sopol idishlarga bo‘lgan talab aksincha ortgan. Bu esa an’anaviy kulolchilik faoliyatini saqlab qolishga imkoniyat yaratdi.

Urushdan keyingi yillarda mamlakat iqtisodiyotini tiklash jarayonida hunarmandchilik tarmoqlariga ham e’tibor qaratila boshladi. Kooperativ va artel tizimlari qayta faoliyat ko‘rsata boshladi, ishlab chiqarish asta-sekin barqarorlashdi. Kulolchilik ustaxonalari kundalik ehtiyojga mo‘ljallangan buyumlar ishlab chiqarishni davom ettirib, aholining maishiy talabini qondirishda muhim rol o‘ynadi.

Bu xaqida Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi materiallarida qayd etilishicha, o‘rganilayotgan davrda ham Xiva va unga tutash hududlarda kulolchilik ishlab chiqarishi davom etgan bo‘lib, mahalliy ustalar faoliyati ishlab chiqarishning asosiy tashuvchisi sifatida saqlanib qolgan. Xususan, tadqiqotda Xiva hududida kulolchilik ishlab chiqarishida idish-tovoqlar tayyorlashning mahalliy an’anaviy shakllari saqlanib qolgan deb ta’kidlanadi[150].

Shuningdek, ekspeditsiya natijalari e’lon qilingan materiallarda Xorazm hududida kulolchilik hunarining tarixiy davomiyligi va ishlab chiqarish markazlarining faoliyati qayd etilib, Xorazm hududida kulolchilik hunari barqarorligini saqlagan holda ayrim aholi manzillarida faoliyat yuritishda davom etgan i ko‘rsatiladi[151].

Mazkur ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, sovet davrining 1940-1950-yillarida kulolchilik ishlab chiqarishi to‘xtab qolmagan, balki yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitga moslashgan holda davom etgan. Shu sabab,

[150] Екимова В. В. Гончарное производство в Хивинском районе // Керамика Хорезма / Отв. ред. С. П. Толстов. – М.: Изд-во АН СССР, 1959. – С. 344–378.
[151] Джаббаров И. М. Новые материалы к истории гончарного ремесла Хорезма // Керамика Хорезма / Отв. ред. С. П. Толстов. – М.: Изд-во АН СССР, 1959. – С. 379–396.

kulolchilik maktablarida yuz bergan jarayonlarni hunarmandchilikning inqirozi sifatida emas, balki ishlab chiqarishning yangi sharoitga moslashuvi bilan bog‘liq transformatsiya bosqichi sifatida baholash mumkin.

Qolaversa tushunish mumkinki, mazkur davr ishlab chiqarish jarayonida badiiy bezakdan ko‘ra funksional jihatlar ustunlik qilgan, ustalar mahsulotni tez va ko‘proq miqdorda tayyorlashga majbur bo‘lgani sababli bezak tizimi soddalashgan, ayrim hududiy uslubiy tafovutlar esa kamaygan. Biroq ta’kidlash kerakki, texnologik tajriba va ustachilik an’analari uzilmagan holda davom etgan.

1940-1950-yillar kulolchilik maktablari tarixida muhim o‘tish davri sifatida namoyon bo‘ladi. Bu davrda maktablar yangi sharoitda yashab qolish imkoniyatini topib, keyingi o‘n yilliklarda yuz beradigan madaniy va badiiy tiklanish jarayonlariga zamin yaratdi va an’anaviy maktablarni davrlar almashinuviga ko‘prik bo‘lib xizmat qildi. Natijada, ushbu bosqich kulolchilik maktablarining to‘liq yo‘qolib ketishining oldi olingan, ustalar tajribasi va ishlab chiqarish an’analari esa keyingi avlodlarga yetib kelishiga xizmat qilgan muhim davr deb xisoblash mumkin.

1960-1980-yillarini kulolchilik tarixida kulolchilik maktablari ning badiiy jihatda tiklanishi va ilmiy doiralarda e’tirof etilishi davri deb xisoblash mumkin. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida 1960-yillardan boshlab mamlakatda madaniy merosga bo‘lgan qiziqishning ortishi va xalq amaliy san’atiga e’tiborning kuchayishi natijasida an’anaviy hunarmandchilik tarmoqlarini tiklash va rivojlantirishga qaratilgan ishlar faollashganligini qayd etish o‘rinlidir. Bu jarayon kulolchilik markazlari faoliyatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatganligi hamda ilgari asosan kundalik ehtiyoj buyumlari ishlab chiqarishga ixtisoslashga ustahonalar faoliyatida badiiy yo‘nalishning qayta jonlanganida kuzatiladi.

1970-yillarga kelib, kulolchilik maktablarini badiiy tiklanish va ilmiy e’tirof davri sifatida ko‘rish, faqat mahalliy jarayonni kuzatuvi natijalari emas, balki umumittifoq miqyosida xalq badiiy hunarmandchiligini qo‘llab-quvvatlash siyosati va ijtimoiy talab ortishi bilan ham izohlash mumkin. Jumladan, etnolog N.S. Korolyova xalq badiiy promysllari[152]ni

[152] Xalq badiiy promysllari- bu an’anaviy hunarmandchilik asosida yaratiladigan, estetik bezak va badiiy xususiyatlarga ega bo‘lgan xalq amaliy san’ati mahsulotlari ishlab chiqarish tizimi. U mahalliy xomashyo, qadimiy texnologiyalar va avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan hunarmandchilik an’analari asosida tayyorlanadigan buyumlar

rivojlantirishga katta e’tibor qaratilganini, natijada turli mahsulotlar qatori sopol ishlab chiqarish hajmi ham sezilarli darajada ko‘payganini qayd etadi[153]. Muallif bu jarayonni sopol buyumlarda aks etgan san’atga qiziqishning ortishi, turizmning rivoji va zamonaviy insonning ma’naviy ehtiyojlari kengayishi bilan bog‘laydi[154]. Kuzatish mumkinki, kulolchilik markazlarida yuz bergan badiiy yo‘nalishning taraqqiyoti va hududiy maktab sifatida ahamiyat kasb etishi aynan ushbu davrning ijtimoiy-madaniy jarayonlariga mos keladi.

Mazkur davr xaqida mulohazani davom ettirib aytish mumkinki, kulolchilik mahsulotlari faqat maishiy buyum sifatida emas, balki milliy badiiy merosning muhim qismi sifatida ham qadrlana boshlanganini alohida qayd etish o‘rinlidir. Turli daraja va yo‘nalishdagi ko‘rgazmalar, respublika va ittifoq miqyosidagi san’at tadbirlari shuningdek, muzey fondlarini boyitish jarayonlari kulolchilik buyumlariga nisbatan qiziqishni oshirdi. Natijada ayrim kulolchilik markazlari mahsulotlari san’at asari sifatida namoyish qilinib, ularning hududiy uslubiy xususiyatlariga e’tibor kuchaydi.

Xususan, 1960-1980-yillarda kulolchilik buyumlari maishiy ehtiyoj doirasidan chiqib, xalq amaliy san’ati va milliy badiiy merosning muhim qismi sifatida ko‘proq qadrlana boshlaganini N.S. Korolyova so‘nggi yillarda bunday buyumlarga mamlakat ichida ham, xorijda ham qiziqish oshgani, bunga esa aholining farovonligi ortishi va zamonaviy insonning ma’naviy ehtiyojlari doirasining kengayishi omil bo‘lganini anglatuvchi fikrlar tasdiqlaydi[155]. Tushunish mumkinki, kulolchilik mahsulotlari endi shunchaki kundalik buyum emas, balki qoliplangan sanoat mahsulotiga raqobat sifatida qo‘yiladigan, milliy an’anani saqlovchi badiiy qadriyat sifatida ham ko‘rilgan.

Yana bir jihatdan, bu jarayonni ko‘rgazma va muzey institutining kuchayishi natijasida qaralganida Toshkentdagi amaliy san’at muassasasining 1960-yilda O‘zbekiston amaliy san’atining doimiy

majmuini ifodalaydi. Shuningdek, xalq badiiy promysllari tarkibiga kulolchilik, zargarlik, yog‘och o‘ymakorligi, to‘qimachilik, kashtachilik, gilamdo‘zlik kabi xalq amaliy san’ati tarmoqlari kiradi.

[153] Королева Н. С. Развитие национальных традиций в современных художественных промыслах СССР // Советская этнография. – 1972. – № 5. – С. 39.

[154] Королева Н. С. Развитие национальных традиций в современных художественных промыслах СССР … . – С. 48.

[155] Королева Н. С. Развитие национальных традиций в современных художественных промыслах СССР …- С. 39–50.

koʻrgazmasi[156] maqomida yuritilgani va 1970-yilda rekonstruksiya qilingani amaliy san’at namunalarini muntazam namoyish etish hamda fondlarni boyitish jarayonlari kuchayganini koʻrsatadi. Natijada kulolchilik markazlari mahsulotlari koʻrgazma-muzey peshtoqlarida san’at asari sifatida koʻproq namoyish qilinib, ularning hududiy-uslubiy xususiyatlariga e’tibor ortganini ilmiy asosda qayd etish mumkin.

Shu davrda etnograf va san’atshunos olimlar tomonidan Oʻzbekiston hududidagi hunarmandchilik turlarini oʻrganish ishlari kengayib, kulolchilik buyumlarining texnologiyasi, bezak tizimi va tadqiqot uchun yana bir ahamiyatli jihati xisoblangan kulolchilik buyumlarining hududiy farqlari ilmiy jihatdan tahlil qilina boshladi. Aynan shu tadqiqotlarda ayrim hududiy markazlar alohida kulolchilik maktablari sifatida qayd etilib, ularning tarixiy taraqqiyoti va uslubiy xususiyatlari tavsiflandi.

Xususan, L. A. Jadova 1960-yillar boshidagi holatni tahlil qilar ekan, kulolchilik markazlari maktab sifatida uzluksiz yashab kelayotgan va bir vaqtning oʻzida oʻzaro tajriba almashuvi orqali yangilanib borayotgan tizim ekanini tushuntiradi[157]. Tadqiqotchi Oʻzbekistonda qadimdan shakllangan mahalliy kulolchilik xususiyatlari saqlanib qolganini va ular zamon talablariga mos ravishda rivojlanishda davom etayotganini ta’kidlaydi. Bu holat kulolchilik maktablari tarixini oʻzgarmas an’ana sifatida emas, balki uzoq davomiylik va doimiy yangilanish uygʻunligida shakllangan jarayon sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Shuningdek, 1960-yillarda kulollar faoliyatida uchta an’anaviy bezak ishlab chiqarishasi keng qoʻllanilgani qayd etiladi. Bu esa bezak texnologiyasi kulolchilik maktablarini bir-biridan farqlovchi muhim amaliy mezon ekanini koʻrsatadi. Shu bois maktablar rivoji koʻpincha butunlay yangi uslublarning paydo boʻlishi orqali emas, balki mavjud ishlab chiqarish repertuar doirasida uslubiy izlanishlar va mahalliy talqinlarning kuchayishi orqali yuz berganini koʻrish mumkin.

Kulolchilik maktablarini ajratib turuvchi muhim jihatlardan yana biri bezak tizimi, ya’ni ornament va rang uygʻunligidir. Bezaklarning asosini koʻpincha oʻsimliksimon va geometrik naqshlar tashkil etsa-da,

[156] Государственный музей прикладного искусства Узбекистана, Ташкент // Дирекция по строительству, реконструкции и капитальному ремонту объектов при Кабинете Министров Республики Узбекистан: …. (murojat vaqti: 05.12.2025).
[157] Жадова Л. А. Современная керамика Узбекистана. – М.: Искусство, 1963. – 179 с.: ил.

har bir maktabning o‘ziga xosligini aynan rang tanlovi va kompozitsiya tamoyillari belgilab beradi. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida shakllangan rang uyg‘unliklari keyingi davrlarda ham davom etgani, transformatsiya jarayoni uzilish tarzida emas, balki mavjud estetik an’analarning davomiyligi asosida kechganini belgilaydi.

Bundan tashqari, kulolchilik maktablari o‘rtasida doimo tajriba almashuvi mavjud bo‘lgan. Mahalliy xususiyatlar saqlanib qolgan bo‘lsa-da, ustalar o‘rtasidagi muloqot yangi elementlarning kirib kelishiga va mavjud an’analarning talqin qilinishiga sabab bo‘lgan. Demak, kulolchilik maktablarining rivoji ajralgan holda emas, balki o‘zaro aloqalar va ta’sirlar muhitida shakllangan.

Ayrim hududiy maktablar o‘rtasidagi farqlar esa bevosita dekor tamoyillari, rang va kompozitsiya xususiyatlarida namoyon bo‘ladi. Bu tafovutlar faqat naqsh yoki shakl farqi bilan emas, balki hududlarning tarixiy va madaniy rivojlanish yo‘li bilan ham bog‘liqdir. Shu bois kulolchilik maktablari hududiy identitetni ifodalovchi, tarixiy tajriba va madaniy muhit bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan an’anaviy hunarmandchilik tizimi sifatida namoyon bo‘ladi.

Nihoyat, tadqiqotchi Toshkent misolida ayrim kulolchilik markazlarining tarixan nisbatan kech shakllanganiga qaramay, keyinchalik yangilik izlash va badiiy tajriba maydoniga aylanganini ko‘rsatadi[158]. Bu holatdan shuni anglash mumkinki, kulolchilik maktablari faqat qadimiy an’ana davomchilari sifatida emas, balki zamon talablariga javoban yangi yo‘nalishlar ishlab chiqadigan ijodiy markazlar sifatida ham shakllangan.

Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmi, xususan 1960-1980-yillar davomida ayrim kulolchilik markazlari faqat maishiy ehtiyoj uchun mo‘ljallangan buyumlar ishlab chiqarish doirasidan chiqib, badiiy izlanishlar, shakl va bezakdagi tajribalar, yangi kompozitsion yechimlar yaratiladigan hududiy markazlarga aylana boshlaydi. Natijada kulolchilik asta-sekin kundalik ehtiyoj buyumlaridan tashqari, ko‘rgazma, interyer bezagi va san’at asari sifatida ham qadrlanadi.

Bu jarayondan kulolchilik maktablarining transformatsiyasi uzluksiz davom etib kelganligi, an’anaviy ishlab chiqarisha va uslublar

[158] Жадова Л. А. Современная керамика Узбекистана. … – 179 с.: ил

zamonaviy badiiy izlanishlar bilan uyg‘unlashganini ko‘rsatadi. Shu tariqa ayrim hududlar an’anani saqlovchi markaz bo‘lib qolgan bo‘lsa, boshqalari yangi yo‘nalishlarni shakllantiruvchi tajriba maydoniga aylangan. Bu esa kulolchilik maktablari rivojini bir xil jarayon sifatida emas, balki hududiy sharoit, ustalar ijodi va davr talablari bilan belgilanadigan ko‘p qirrali madaniy jarayon sifatida talqin qilish imkonini beradi.

1970 yillarda ham mintaqa kulolchiligi avvalgi davrlardan bir qadar zamonaviyroq ahamiyat kasb etganligi, bu davrda yirik kulolchilik maktablari lokallashib, identifikatsiya jarayoni kuchayganligini kuzatish mumkin (bu xaqida II.2.paragrafda atroflicha mulohaza qayd etilgan). Muammoni yoritishga xizmat qiluvchi bir qator tadqiqotlarda O‘zbekiston hududida faoliyat olib borgan kulolchilik markazlari mintaqaviy guruhlar ko‘rinishida ajratib ko‘rsatilgan.

Xususan, 1974-yilgi albomda[159] O‘zbekiston bo‘yicha kulolchilik markazlari uch yirik mintaqaviy guruh hamda bu guruhlar 20 ga yaqin kulolchilik markazlariga ajratilgan. Manbadan o‘rin olgan yana bir ahamiyatli ma’lumot bu, kulolchilik buyumlarning xususiyatidan kelib chiqib, sirlangan sopol (Поливная керамика), sopol o‘yinchoqlar (Керамическая игрушка) va qo‘lda yasaladigan (Лепная) keramika turlariga klassifikatsiya qilingan va bu jarayonni kulolchilik maktablari ni faqat maishiy idishlar bilan cheklamay, badiiy-ixtisoslashgan turlar bo‘yicha ham tushuntirib berish maqsadi bo‘lganini tushunish mumkin.

Biroq ushbu davrda ishlab chiqarishning davlat tizimi doirasida tashkil etilishi mahsulotlarni ma’lum darajada standartlashtirish jarayonini ham kuchaytirdi. Ko‘plab ustaxonalar ko‘rgazma va savdo uchun mo‘ljallangan mahsulotlarni ko‘proq ishlab chiqara boshladi, bu esa ayrim hollarda an’anaviy shakl va bezaklarning soddalashishiga ham olib keldi. Shunga qaramay, tajribali ustalar tomonidan hududiy bezak va texnologik an’analarni saqlab qolishga intilish davom etdi.

Natijada, 1960-1980-yillar kulolchilik maktablari tarixida ikki tomonlama jarayon kuzatishimiz mumkin. Xususan, bir tomondan, maktablarning badiiy meros sifatida e’tirof etilishi va ilmiy muomalaga kirishi kuchaygan bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa, ishlab chiqarishning

[159] Дервиз Г., Жадова Л., Жданко И., Митлянский Д. Современная керамика народных мастеров Средней Азии: альбом. – М.: Советский художник, 1974. – 236 с.: ил.

sanoatlashuvi sabab ayrim mahalliy uslubiy tafovutlar qisqaradi. Biroq, shunga qaramay, aynan mazkur davrda kulolchilik markazlari nomi ilmiy adabiyotlarda mustahkamlanib, ularning hududiy uslublari tasniflanishi ilmiy jihatidan ahamiyati ortgan. Yuqoridagi tahlillar, mazkur davr kulolchilik maktablarining ilmiy e'tirof etilishi va milliy madaniy meros tarkibida mustahkam o'rin egallash davri sifatida baholashni ko'rsatadi.

1980-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab mamlakat iqtisodiy tizimida yuzaga kelgan inqiroz holati ko'plab ishlab chiqarish sohalari qatori hunarmandchilik faoliyatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Markazlashgan ta'minot tizimining izdan chiqishi, davlat buyurtmalarining kamayishi va iqtisodiy aloqalarning zaiflashuvi natijasida kulolchilik ustaxonalari faoliyatida ham beqarorlik kuchaydi.

Avvalgi davrlarda artel va ishlab chiqarish birlashmalari orqali tashkil etilgan kulolchilik ustaxonalari iqtisodiy qo'llab-quvvatlashdan mahrum bo'la boshladi. Ko'plab ustalar barqaror buyurtmalar yo'qligi sababli ishlab chiqarish hajmini kamaytirishga majbur bo'ldi. Ayrim hududlarda ustaxonalarning faoliyati vaqtincha to'xtagan yoki ustalar boshqa daromad manbalarini izlashga majbur bo'lgan.

Shu bilan birga, bozor munosabatlariga o'tish jarayonining boshlanishi ayrim ustalar uchun yangi imkoniyatlarni ham yaratdi. Ba'zi hududlarda ustalar mustaqil ravishda mahsulot ishlab chiqarib, uni to'g'ridan-to'g'ri bozorga chiqarishga kirishdi. Natijada kulolchilik mahsulotlarining shakli va bezaklarida xaridor didiga moslashish jarayoni kuchaydi.

Mazkur davrda kulolchilik maktablarining faoliyati ikki xil yo'nalishda rivojlanganligini kuzatish mumkin. Jumladan, ayrim markazlarda an'anaviy ishlab chiqarish susayib, ustalar soni kamaygan bo'lsa, boshqa hududlarda esa ustalar yangi iqtisodiy sharoitga moslashib, an'anaviy tajribani saqlab qolishga harakat qildilar. Bu jarayon Mustaqillik davrida hunarmandchilikni qayta tiklash jarayoni uchun muhim tajriba bosqichi bo'lib xizmat qildi. Shu o'rinda qayd etish kerakki, bu davrda yuzaga kelgan iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay, ustalar an'anani saqlab qolishga harakat qilganligi ahamiyatli sanalib va to'plangan tajribalar hunarmandchilikning keyingi tiklanishiga zamin yaratdi.

Shu nuqtai nazardan, keyingi bosqichda alohida kulolchilik markazlarining qaysi davrdan boshlab ilmiy adabiyotlarda mustaqil maktab sifatida e’tirof etilishi hamda ularning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan hududiy, iqtisodiy va madaniy omillarni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan tarixiy jarayonlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston hududida kulolchilik maktablarining shakllanishi uzoq muddat davom etgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar natijasi sifatida yuzaga kelgan. Kulolchilikning o‘zi qadimiy hunarmandchilik turi xisoblanib, kulolchilik maktablarining shakllanishini ijtimoiy-antropologik yondashuv doirasida aynan XV-XVIII asrlar bilan bog‘lash ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi. XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida esa bu maktablar aniq hududiy nomlar bilan tanilib, manbalarda qayd etila boshlaydi hamda ularning uslubiy farqlari yanada ravshanlashadi.

Mazkur davrda hunarmandchilik ishlab chiqarishining bozor bilan bog‘lanishi, ustalar sulolalarining shakllanishi, texnologik tajribaning uzluksiz davom etishi va bezak an’analarining barqarorlashuvi natijasida ayrim hududlarda o‘ziga xos uslubiy xususiyatlarga ega kulolchilik markazlari shakllanadi. Aynan shu jarayon keyinchalik bu markazlarning alohida kulolchilik maktablari sifatida tan olinishi uchun tarixiy zamin yaratgan.

XX asrning 20-30-yillaridan boshlab esa siyosiy va iqtisodiy tizimdagi tub o‘zgarishlar kulolchilik faoliyatining tashkiliy tuzilishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Hunarmandchilikni kooperativ va artel tizimiga jalb etish jarayoni ustaxonalarning iqtisodiy faoliyatini qayta tashkil etgan bo‘lsa-da, an’anaviy ishlab chiqarish mustaqilligini chekladi hamda ayrim hududiy uslubiy farqlarning qisqarishiga olib keldi. Shunga qaramay, usta jamoalari tomonidan hunarning asosiy texnologik tajribasi saqlanib qoldi.

1940-1950-yillarda yuz bergan urush va urushdan keyingi iqtisodiy tiklanish jarayoni kulolchilik maktablari faoliyatiga qiyinchiliklar olib kelgan bo‘lsa-da, kundalik ehtiyoj buyumlariga bo‘lgan talab sababli ishlab chiqarish to‘liq to‘xtab qolmadi. Aynan shu davrda kulolchilik markazlari minimal darajada bo‘lsa ham o‘z faoliyatini davom ettirib, keyingi badiiy tiklanish bosqichi uchun zamin yaratdi.

1960-1980-yillarda esa kulolchilik buyumlariga xalq amaliy san’ati namunasi sifatida e’tibor kuchayib, ilmiy tadqiqotlar va ko‘rgazmalar orqali ayrim kulolchilik markazlari mustaqil maktablar sifatida qayd etila boshladi. Aynan shu davrda hududiy uslublar ilmiy adabiyotlarda tizimlashtirilib, kulolchilik maktablari tushunchasi mustahkamlandi. Shu bilan birga, ishlab chiqarishning davlat tizimi doirasida standartlashuvi ayrim mahalliy bezak va shakl xilma-xilligini qisqartirgan bo‘lsa-da, tajribali ustalar tomonidan an’anaviy uslubiy xususiyatlarni saqlab qolishga intilish davom etdi.

§ II.2. Mustaqillik davrida milliy hunarmandchilik siyosati va kulolchilik maktablarining qayta tiklanishi omillari

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi milliy qadriyatlar, an’analar va madaniy merosga bo‘lgan munosabatni tubdan o‘zgartirdi. Xususan, milliy hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash, uni iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab an’anaviy kasb-hunar turlarini tiklash, ustoz-shogird an’analarini saqlab qolish, hududiy maktablarni qo‘llab-quvvatlash va hunarmandlarni ijtimoiy-iqtisodiy rag‘batlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy va institutsional asoslar shakllantirildi.

Mazkur jarayon kulolchilik maktablari faoliyatida ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ldi. Sovet davrida cheklangan yoki ikkinchi darajali soha sifatida qaralgan ayrim an’anaviy uslublar va texnologiyalar mustaqillik yillarida qayta tiklandi, hududiy identitet va maktab an’analari yangicha mazmunda rivojlana boshladi. Davlat tomonidan hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash tizimlarining joriy etilishi, turizm va eksport salohiyatining kengayishi kulolchilik maktablarining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qildi.

Ushbu davrda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar natijasida hunarmandchilik faoliyatining huquqiy maqomi mustahkamlandi, ustalar faoliyatini rasmiylashtirish, ularga soliq va kredit imtiyozlari berish, mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarga chiqarish uchun zarur

infratuzilmani yaratish tizimlari shakllantirildi[160]. Bu jarayon natijasida kulolchilik faoliyati norasmiy ishlab chiqarish shaklidan kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikning muhim yo‘nalishiga aylana boshladi.

Mazkur davrda kulolchilik tarixini to‘la tushunish uchun 1991-1997 yillarni alohida yoritish maqsadga muvofiq xisoblanadi. Mustaqillikning ilk yillarida mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy hayotida yuz bergan tub o‘zgarishlar an’anaviy hunarmandchilik tarmoqlariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Sovet davrida xalq badiiy hunarmandchiligi, jumladan kulolchilik faoliyati ko‘proq markazlashgan ishlab chiqarish, davlat ta’minoti hamda nazorat tizimi bilan bog‘liq holda rivojlangan[161] bo‘lsa, mustaqillikdan keyingi dastlabki yillarda mazkur tizimlar bosqichma-bosqich o‘z faoliyatini to‘xtata boshladi. Natijada ko‘plab ustaxonalar avval mavjud bo‘lgan tashkiliy va iqtisodiy tayanchlardan mahrum bo‘lib, yangi bozor sharoitlariga mustaqil moslashishga majbur bo‘ldi.

1990-yillarning boshlarida mamlakatda yuzaga kelgan iqtisodiy qiyinchiliklar, ishlab chiqarish aloqalarining uzilishi va savdo tizimining qayta shakllanishi kulolchilik faoliyatida ham sezilarli o‘zgarishlarni keltirib chiqardi. Ko‘plab hududlarda davlat rejasi asosida faoliyat yuritayotgan ustalar mahsulotni sotish, xomashyo topish hamda ustaxona faoliyatini saqlab qolish masalalariga doir turli muammolarga duch keldi. Shu sababli kulolchilik mahsulotlari ko‘proq mahalliy bozorlargagina sotilib, ushbu jarayon ayrim joylarda ishlab chiqarishning hajmi qisqarishiga bazilarida esa vaqtincha to‘xtab qolishiga olib keldi.

Mazkur davrni faqat inqiroz nuqtai nazaridan baholash bir tomonlama yondashuv bo‘ladi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayoni kulollarga mustaqil faoliyat yuritish, oilaviy ustaxonalarni rivojlantirish va mahsulotni bevosita iste’molchiga yetkazish imkoniyatini ham yaratdi. Natijada ayrim hududlarda kulolchilik an’analari ustalar oilalari doirasida saqlanib qoldi. Aynan shu ichki davomiylik keyinchalik an’anaviy kulolchilikning qayta tiklanishi va rivojlanishi uchun muhim tayanch vazifasini bajargani tabiiydir.

---

[160] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san’atini yanada rivojlantirishni davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida: Farmon, PF–1741, 31.03.1997 // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/168968 (murojaat sanasi: 15.12.2025).

[161] Совет Министров РСФСР. О развитии народных художественных промыслов в РСФСР: постановление от 22 октября 1975 г. № 570 (с изм. и доп. от 27.08.1984 № 373). – Москва, 1975. – URL: https://www.economics.kiev.ua/download/ZakonySSSR/data03/tex14354.htm (дата обращения: 05.02.2026).

1990-yillarning oʻrtalariga kelib jamiyatda milliy qadriyatlarga e’tibor kuchayishi, tarixiy madaniy merosni tiklashga boʻlgan intilish ham hunarmandchilik jumladan, kulolchilik sohasiga nisbatan munosabatning asta-sekin oʻzgarishiga olib keldi. Kulolchilik mahsulotlari nafaqat maishiy buyum, balki milliy an’analarning ifodasi sifatida qayta qadrlanib tiklana boshlandi.

Bu jarayon hududiy misollarda yanada aniqroq namoyon boʻladi. Xususan, Xorazm viloyatining Honqa tumani Madir qishlogʻida olib borilgan dala kuzatuvlari shuni koʻrsatadiki, kulolchilik faoliyati toʻliq toʻxtab qolmagan boʻlsa-da, sezilarli darajada qisqarish va yoʻqotishlarni boshdan kechirgan. 1990-yillarning boshlarida Madir Zangori kulolchilik maktabi davomchisi sifatida Odil Matchonov faoliyat boshlaydi. Ustaning eslashicha, ayni davrda asosan badya va chanoq kabi maishiy buyumlar koʻproq tayyorlangan.

Mahalliy ogʻzaki xotiralarga koʻra, avval XX asr boshlarida Madir qishlogʻida 40 dan ortiq kulolchilik ustaxonalari faoliyat yuritgan boʻlsa, 1980 yillar oxiriga kelib, ularning aksariyati mintaqada sanoat maxsulotlarining ulushi ortishi xisobiga yopilib, hozirgi kunga kelib atigi bittasi saqlanib qolgan. Bu holat mustaqillikning dastlabki yillarida hunarmandchilik sohasida yuzaga kelgan iqtisodiy qiyinchiliklar va buyurtmalar kamayishi bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, 1990-yillarning oʻrtalariga kelib ayrim hududlarda tiklanish jarayoni ham kuzatildi. Masalan, Shovot tumanida istiqomat qiluvchi Ozod Sultonov koshin tayyorlash yoʻnalishida muayyan natijalarga erishdi. Natijada viloyat hududida qurilayotgan binolar uchun koshinlarga talab ortib, kulolchilik maktablari mahsulot turlarini kengaytira boshladi. Mazkur jarayon Madir maktabida ham koshin ishlab chiqarishning yoʻlga qoʻyilishiga turtki boʻldi.

Boshqa hududlarda ham shunga oʻxshash vaziyat kuzatilgan. Jumladan, Odil Rahimovning qayd etishicha, 1987-1990-yillar Kattabogʻ kulollari uchun sinovli davr boʻlgan. Bu yillarda kulolchilik buyumlariga buyurtmalar kamaygan, natijada ayrim ustalar vaqtincha boshqa mehnat faoliyati bilan shugʻullanishga majbur boʻlgan. Mazkur misollar shuni koʻrsatadiki, mustaqillikning dastlabki bosqichida kulolchilik maktablari ogʻir iqtisodiy sharoitni boshdan kechirgan boʻlsa-da, ichki davomiylik va

ustalar sa’y-harakati keyingi tiklanish jarayonlari uchun muhim asos bo‘lib xizmat qilgan.Shu bilan birga, qayd etish lozimki, sohani tizimli qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan normativ tizimlarning yetishmasligi ayrim hududiy maktablarning saqlanib qolishini qiyinlashtirayotgan edi.

Shunday bo’lsada an’anaviy jarayonlarni saqlab qolgan hunarmandchilik markazlari bozor munosabatlariga tez moslashib, xalqaro darajada e’tirof etila boshlandi. Xususan, Buxoro hunarmandlari tomonidan 1995 yilga kelib, Umrboqiy meros hunarmandlar uyushmasi tuzildi[162]. Ahamiyatli jihati uyushma vitse prezidentlari orasida Usta kulol Alisher Narzullayev o‘rin olganligidir.

Shuningdek, O‘zbekiston San’at muzeyi qoshida Rishton ustalarining Moviy afsona mavzusidagi yirik retrospektiv ko‘rgazmasi tashkil etildi. Mazkur ko‘rgazma Rishton kulolchilik maktabining tarixiy rivojlanish bosqichlari, badiiy-uslubiy xususiyatlari hamda an’anaviy naqsh va ranglar tizimini keng jamoatchilikka namoyish etish nuqtai nazaridan muhim madaniy voqea bo‘ldi. Shu bilan birga, 1994-1996 yillarda Yaponiyaning O‘zbekistondagi elchixonasi tashabbusi bilan bir qator rishtonlik kulollar Yaponiyadagi ishlab chiqarish markazlari faoliyati bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ldilar[163]. Mazkur tajriba almashinuvi nafaqat texnologik jarayonlarni o‘rganish, balki milliy kulolchilik an’analarini xalqaro miqyosda targ‘ib qilish va zamonaviy ishlab chiqarish sharoitlariga moslashtirish jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etdi.

Tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, 1991-1997 yillar davomida kulolchilik tarixi markazlashgan ishlab chiqarish tizimidan bozor sharoitlariga moslashish, ustoz-shogird an’analarini oilaviy doiradagina saqlab qolish hamda milliy hunarmandchilikni qayta qadrlash jarayonlari bir vaqtning o‘zida kechgan murakkab o‘tish bosqichi sifatida namoyon bo‘ldi. Aynan ushbu davr tajribasi hunarmandchilikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash zaruratini yuzaga keltirib, 1997-

[162] “Boysun-bahori” folklor festivalini “Jahon sivilizatsiyasida Boysunning moddiy va ma’naviy madaniyati” mavzusidagi Xaltsaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi ilmiy maqolalar tuplami / S. Tursunov. - T.: “Yosh avlod matbaa”, 2022. B. 245-250.

[163] Турдаалиев А. O‘zbekiston badiiy kulolchilik maktablari // Finland, Helsinki international scientific online conference “Sustainability of Education Socio-Economic Science Theory”. – Helsinki, 2021. –B. 232–233.

yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti farmoni[164] bilan sohaning institutsional rivojlanishiga asos yaratildi.

1997-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san’atini davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan farmoni mamlakatda hunarmandchilik sohasini rivojlantirishning yangi bosqichini boshlab berdi. Mazkur hujjat mustaqillikning dastlabki yillarida shakllangan iqtisodiy va ijtimoiy qiyinchiliklar natijasida zaiflashgan an’anaviy kasb-hunar tarmoqlarini qayta tiklash uchun zarur huquqiy hamda tashkiliy asoslarni yaratdi.

Farmon doirasida hunarmandchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ustalar uchun ishlab chiqarish sharoitlarini yaxshilash, mahsulotlarni sotish va targ‘ib qilish tizimini yo‘lga qo‘yish hamda yosh avlodni hunarmandchilikka jalb etish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Natijada kulolchilik ustaxonalari faoliyati bosqichma-bosqich tiklana boshladi, avvalgi davrda qisqarib ketgan ishlab chiqarish hajmi asta-sekin barqarorlasha boshladi.

Shuningdek, davlat tomonidan hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlashning yo‘lga qo‘yilishi kulolchilik faoliyatining ijtimoiy maqomiga ham ta’sir ko‘rsatdi. Ustalar faoliyati nafaqat iqtisodiy faoliyat turi, balki milliy madaniy merosni saqlovchi muhim ijtimoiy institut sifatida baholana boshladi. Bu esa hunarmandchilikka nisbatan jamiyatdagi munosabatning o‘zgarishiga, yoshlarning ushbu kasbga qiziqishi ortishiga zamin yaratdi.

Mazkur davrda kulolchilik faoliyatining qayta jonlanishida mahalliy hokimiyat organlari, madaniyat muassasalari hamda turizm infratuzilmasi bilan bog‘liq tashabbuslar ham muhim rol o‘ynadi. Tarixiy kulolchilik markazlarida ustaxonalarning qayta faoliyat boshlashi, 1995 yildan boshlab hunarmandlar ko‘rgazmalari va festivallarning uzluksiz tashkil etilishi, Xususan,

1997 yildan so‘ng yanada jonlanganini kulolchilik mahsulotlariga bo‘lgan talabning ortishidan ham anglash mumkin[165].

---

[164] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san’atini yanada rivojlantirishni davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida: Farmon, PF–1741, 31.03.1997 // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/168968 (murojaat sanasi: 15.12.2025).

[165] Dala yozuvlari. Xorazm viloyati Yangiariq tumani. Kattabog‘ MFY. 2025 yil.

Shu tariqa, 1997-yildan keyingi davr kulolchilik maktablarining saqlanib qolishidan rivojlanish bosqichiga o‘tish jarayoni bilan tavsiflanadi. Bu jarayon keyingi yillarda qabul qilingan davlat qarorlari hamda hunarmandchilikni iqtisodiy va madaniy rivojlanishning muhim omili sifatida qo‘llab-quvvatlash siyosati bilan yanada mustahkamlandi. Mazkur jarayonning hududiy ko‘rinishlari esa keyingi paragrafda alohida kulolchilik maktablari misolida ko‘rib chiqiladi.

1997-yilda mamlakatda amaliy san’at va hunarmandchilikni rivojlantirishga qaratilgan muhim tashkiliy tuzilmalar - O‘zbekiston Badiiy akademiyasi hamda Hunarmand xalq hunarmandlari uyushmasining tashkil etilishi kulolchilikning keyingi taraqqiyotida muhim o‘zgarishlarni keltirib chiqardi.

Xususan, O‘zbekiston Badiiy akademiyasining tashkil etilishi[166] tasviriy va amaliy san’at turlarini, shu jumladan kulolchilikni ham yagona badiiy siyosat doirasida rivojlantirish imkonini yaratdi. Akademiya faoliyati natijasida kulolchilik faqat xo‘jalik faoliyati yoki maishiy buyum ishlab chiqarish sohasi sifatida emas, balki milliy madaniy merosning badiiy ifodasi sifatida ham baholana boshladi. Bu jarayon kulolchilik maktablarining tarixiy-badiiy xususiyatlarini o‘rganish, ularni targ‘ib qilish hamda ustalar faoliyatini ijodiy san’at yo‘nalishi sifatida e’tirof etilishiga xizmat qildi. Natijada kulollarning jamiyatdagi ijtimoiy mavqei oshib, ularning faoliyati milliy madaniyatni ifodalovchi muhim ijodiy soha sifatida ko’rila boshladi.

Bu davrda kulolchilik nafaqat maishiy ehtiyojni qondiruvchi hunar, balki milliy madaniy merosning badiiy ifodasi sifatida qayta qadrlana boshladi. Ayniqsa, hududiy maktablarning an’anaviy bezak tizimi, ramziy tasvirlar va tarixiy kompozitsiyalar orqali milliy o‘zlikni ifodalash jarayoni kuchaydi[167].

Masalan, Rishton kulolchiligida chamasi xalqiy un tamoyili[168] asosida hayvonot va antropomorfik tasvirlar, shuningdek ilon izi , qush izi

[166] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san’atini yanada rivojlantirishni davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida: Farmon, PF–1741, 31 mart 1997 yil // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/-168968 (murojaat sanasi: 05.02.2026).

[167] Турдаалиев А. O‘zbekiston badiiy kulolchilik maktablari // Finland, Helsinki international scientific online conference “Sustainability of Education Socio-Economic Science Theory”. – Helsinki, 2021. – B. 230–233.

[168] Rishton kulolchiligida xalqiy un tamoyili xalqona ruh, xalqona uslub deb ham izohlanadi. Ushbu tushuncha kulolchilik buyumlarining shakli, bezagi va ranglarida xalqning an’anaviy didi, kundalik turmushi va estetik qarashlari aks etishini bildiradigan tamoyil xisoblanadi.

kabi bezak elementlari qayta faol qo‘llanildi. Bu naqshlar oddiy bezak emas, balki xalq tasavvuri va qadimiy mifologik qarashlarning badiiy talqini sifatida namoyon bo‘ldi. G‘urumsaroy maktabida esa bezaklarning nafisligi va texnologik an’analar saqlanishi orqali Farg‘ona vodiysi kulolchilik merosi davom ettirildi. Buxoro-Samarqand maktabida afrosiyob uslubidagi naqshlar va islimiy ornamentlar tarixiy madaniy qatlam bilan uzviy bog‘liq holda rivojlantirildi.

Xorazm kulolchiligida arabeska va girih naqshlari, ko‘k va oq rang uyg‘unligi orqali hududiy maktabning o‘ziga xosligi saqlab qolindi. Shovot va Madir hududlarida koshin ishlab chiqarishning qayta jonlanishi esa kulolchilikni me’moriy meros bilan bevosita bog‘lab, uning amaliy-badiiy ahamiyatini kengaytirdi. Shuningdek, Toshkent chinni zavodida va boshqa markazlarda milliy naqshlarning sanoat mahsulotlarida qo‘llanilishi kulolchilik bezaklarining zamonaviy talqinini yuzaga keltirdi.

Ayni davrda ayrim ustalar — masalan, B. Barotboev tomonidan yaratilgan syujetli laganlarda afsonaviy va folklor obrazlarining tasvirlanishi kulolchilikni plastika va tasviriy san’at bilan yaqinlashtirdi.

Bu jarayon kulolchilik buyumini oddiy idish emas, balki milliy xotira va badiiy tafakkur tashuvchisi darajasiga olib chiqdi.

Shu bilan bir qatorda, 1997-yilda hunarmandchilik faoliyatini tashkil etish va qo‘llab-quvvatlash maqsadida Hunarmand uyushmasining tashkil etilishi[169] kulolchilik ustaxonalarining iqtisodiy va tashkiliy jihatdan tiklanishida muhim rol o‘ynadi. Xususan, qabul qilingan qarorlari asosida hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash tizimining shakllanishi natijasida kulolchilik ustaxonalarini xomashyo, asbob-uskunalar bilan ta’minlash, mahsulotlarni sotish hamda hunarmandlarning ko‘rgazma-savdo tadbirlarida ishtirokini kengaytirish uchun zarur tashkiliy sharoitlar yaratildi. Prezident farmonida mahalliy hokimiyat organlari zimmasiga hunarmandlarga ishlab chiqarish va savdo faoliyatini yo‘lga qo‘yishda amaliy yordam ko‘rsatish vazifasi yuklatilgani kulolchilik ustaxonalarining iqtisodiy jihatdan tiklanishiga imkon berdi. Buning natijasi sifatida hunarmandchilik markazlarida ustaxonalar faoliyati jonlanganligi, jumladan, birgina 1997-1998 yillarda Hunarmand

[169] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. “Hunarmand” uyushmasi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida: Qaror, 282-son, 4 iyun 1997 yil // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/-540056 (murojaat sanasi: 05.02.2026).

uyushmasining Buxoro viloyati bo‘limida 700 nafardan ortiq hunarmand faoliyat yuritgani hamda tarixiy markaz hududida 200 dan ortiq ustaxona va savdo nuqtalari shakllangani qayd etiladi[170]. Bu jarayonda kulolchilik ustaxonalari ham qayta faoliyat boshlagan bo‘lib, G‘ijduvon va Buxoro kulollari mahsulotlari ichki turizm hamda savdo yarmarkalarida kengroq namoyish etila boshladi. Biroq an’anaviy kulolchilik faoliyatini tiklash uchun ma’lum vaqt va davlatning qo‘llab quvvatlovi yanada ko‘proq zarur edi.

1997-yildan keyingi davrda kulolchilik taraqqiyoti ketma-ket uch bosqich orqali rivojlanganligi kuzatiladi, xususan, 1998-2016, 2018-2022 va 2023 yillardan hozirgi kungacha bo‘lgan bosqichlardagi o‘zgarishlar shular jumlasidandir. 1998-2016 yillar davomida an’anaviy kulolchilik ustahonalarida modernizatsiya jarayonlari amalga oshirildi. Mazkur yillarda aksariyat ustalar o‘z ustahonalarini zamonaviy dastgohlar bilan qayta jihozlash, o‘z mahsulotlariga bozor topish ishlari bilan band bo‘ldilar. Xususan, G‘ijduvon kulolchilik maktabi davomchilari Alisher va Abdulla Narzullayevlar sayyohlar uchun uy muzeylarini tashkul etish, Rishton tumani Tohirjon Xaydarov ustahonasini va muzeyini tashkil qilish ishlarini amalga oshirganliklari shular jumlasidandir.

Navbatdagi bosqichda 2017-yilda qabul qilingan normativ hujjatlar[171] alohida ahamiyat kasb etib, ular doirasida hunarmandchilik mahsulotlarini eksport qilish, xorijiy ko‘rgazma va yarmarkalarda targ‘ib qilish, ustalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimlarini kengaytirish kabi vazifalar belgilandi.

Xususan, 2017-yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Farg‘ona viloyatining Marg‘ilon va Qo‘qon shaharlari hamda Rishton tumanida hunarmandchilikni rivojlantirishga qaratilgan

[170] “Boysun-bauori” folklor festivalini “Jauon sivilizatsiyasida Boysunning moddiy va ma’naviy madaniyati” mavzusidagi Xaltsaro ilmiyamaliy konferentsiyasi ilmiy matsolalar tuplami … . B. 245-250.

[171] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Farg‘ona viloyatining Marg‘ilon, Qo‘qon shaharlari va Rishton tumanida hunarmandchilikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: Qaror, 687-son, 2 sentabr 2017 yil // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 2017. – URL: https://lex.uz/docs/3326544 (murojaat sanasi: 08.10.2025).; O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida: Farmon, PF–5242, 17 noyabr 2017 yil // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/-3416134 (murojaat sanasi: 08.10.2025); O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Hunarmand” uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: Qaror, PQ–3393, 17 noyabr 2017 yil // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/-3416129 (murojaat sanasi: 08.10.2025).

qarori[172] qabul qilinishi va Qarorda Rishton tumani qadimdan kulolchilik markazi sifatida shakllangan hududlardan biri ekanligi e'tirof etilib, bu yerda hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun zarur tashkiliy va infratuzilmaviy sharoitlar yaratish vazifalari belgilanganligi alohida ahamiyatga ega. Bu borada, ustaxonalar faoliyatini kengaytirish, ishlab chiqarish obyektlarini rekonstruksiya qilish, hunarmandlar uchun qulay mehnat sharoitlarini yaratish, zarur kommunikatsiya va xizmat koʻrsatish infratuzilmasini rivojlantirish kabi chora-tadbirlar kulolchilik faoliyatining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilganligini e'tirof etish oʻrinlidir. Kelgusi yillarda ham mazkur tadbir uzliksiz oʻtkazilishi ta'minlandi.

Mazkur qaror hamda hunarmandchilikni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati doirasida Rishton tumanida Xalqaro kulolchilik markazi barpo etilib, hududda kulolchilik faoliyatini zamonaviy infratuzilma asosida rivojlantirish imkoniyati yaratildi. Markaz hududida 20 ta ikki qavatli kulollar xonadoni, ustaxona va savdo doʻkonlari, Rishton tarixi muzeyi hamda xizmat koʻrsatish obyektlari tashkil etilib, qariyb 250 ta yangi ish oʻrni yaratildi. Shuningdek, Rishton kulollari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni Birlashgan Arab Amirliklari, Turkiya, Rossiya, Chexiya va Markaziy Osiyo davlatlariga eksport qilish yoʻlga qoʻyildi. Markazda Hunarmand uyushmasining tuman boʻlimi va oʻquv markazining joylashtirilishi esa ustoz-shogird an'analarini davom ettirish hamda yoshlarni hunarga jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirdi[173].

2018-yilda qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining Xalqaro hunarmandchilik festivalini oʻtkazish boʻyicha qarori[174] Oʻzbekistonda hunarmandchilik mahsulotlarini, jumladan kulolchilik an'analarini xalqaro miqyosda targʻib etishning yangi bosqichini boshlab berdi. Mazkur qaror asosida festivalni tashkil etish va yuqori saviyada oʻtkazish uchun respublika byudjeti hamda boshqa manbalar hisobidan tashkiliy va

[172] Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Fargʻona viloyatining Margʻilon, Qoʻqon shaharlari va Rishton tumanida hunarmandchilikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida: Qaror, 687-son, 2 sentabr 2017 yil // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 2017. – URL: https://lex.uz/docs/3326544 (murojaat sanasi: 08.10.2025).

[173] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Rishton tumanidagi Xalqaro kulolchilik markaziga tashrifi haqida axborot // Prezidentning rasmiy veb-sayti. – Toshkent, 2021. – URL: https://president.uz/oz/lists/view/4136 (murojaat sanasi: 06.10.2025).

[174] Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Xalqaro hunarmandchilik festivalini oʻtkazishning tashkiliy chora-tadbirlari toʻgʻrisida: Qaror, 960-son, 27 noyabr 2018 yil // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 2018. – URL: https://lex.uz/docs/4082140 (murojaat sanasi: 06.10.2025).

madaniy tadbirlarni moliyalashtirish koʻzda tutilib, festival infratuzilmasi va tashkiliy ishlarini amalga oshirish uchun zarur mablagʻlar ajratilishi belgilandi. Ajratilgan mablagʻlar hisobidan koʻrgazma maydonlari tayyorlanib, hunarmandlar mahsulotlarini keng miqyosda namoyish etish, savdo rastalarini tashkil etish hamda xorijiy ishtirokchilarni jalb etish ishlari yoʻlga qoʻyildi.

Festival doirasida Rishton, Gʻijduvon va Xiva kulollari oʻz mahsulotlarini xalqaro miqyosda namoyish etish imkoniyatiga ega boʻlib, bu esa milliy kulolchilik maktablarining keng targʻib qilinishiga xizmat qildi. Natijada kulolchilik mahsulotlariga boʻlgan talab ortib, ustaxonalar faoliyatining iqtisodiy barqarorligi mustahkamlandi hamda yoshlarning kulolchilik kasbiga qiziqishi oshdi.

2019-2022-yillarda hunarmandchilikni hududiy rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar[175] kulolchilik tarixida navbatdagi muhim bosqichni yuzaga keltirdi. Hududlar kesimida hunarmandchilik yoʻnalishlarini ixtisoslashtirish, savdo infratuzilmasini rivojlantirish, hunarmandchilik mahsulotlarini doimiy aniqizatsiya qilish uchun maxsus savdo maydonlarini tashkil etish ishlari kengaydi.

Xususan, 2019-2021-yillarda hunarmandchilikni rivojlantirish siyosatida avvalgi bosqichlardan farqli ravishda sohani nafaqat infratuzilma va ishlab chiqarish jihatidan qoʻllab-quvvatlash, balki uni xalqaro madaniy-iqtisodiy maydonga faol olib chiqish hamda institutsional qoʻllab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan yangi tizimlar joriy etildi.

2019-yildagi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni[176] bilan Xalqaro hunarmandchilik festivalini muntazam ravishda oʻtkazib borish davlat siyosatining doimiy yoʻnalishiga aylantirildi. Avvalgi davrda hunarmandchilik koʻproq ichki infratuzilmani tiklash va ustaxonalar faoliyatini jonlantirishga qaratilgan boʻlsa, mazkur farmondan soʻng milliy

[175] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti. Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qoʻllab-quvvatlashga doir qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida: Qaror, PQ–4539, 28 noyabr 2019 yil // Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 2019. – URL: https://lex.uz/docs/4622088 (murojaat sanasi: 05.02.2026).; Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti. Hunarmandchilik faoliyatini qoʻllab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida: Qaror, PQ–77, 30 dekabr 2021 yil // Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 2021. – URL: https://lex.uz/docs/5807559 (murojaat sanasi: 05.02.2026).

[176] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti. Xalqaro hunarmandchilik festivalini oʻtkazib borishga oid chora-tadbirlar toʻgʻrisida: Farmon, PF–5841, 03.10.2019 yil // Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 2019. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-4535422 (murojaat sanasi: 06.02.2026).

hunarmandchilik mahsulotlarini, jumladan kulolchilik an’analarini xalqaro miqyosda targ‘ib etish, xorijiy ustalar va ekspertlar bilan tajriba almashish, eksport salohiyatini kengaytirish ustuvor vazifaga aylandi. Natijada Rishton, G‘ijduvon va Xiva kulollari mahsulotlari xalqaro ko‘rgazmalar va festival maydonlarida namoyish etila boshladi hamda kulolchilik hududiy brend sifatida shakllanish jarayoni tezlashdi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni asosida Qo‘qon shahrida Xalqaro hunarmandchilik festivali tashkil etildi va u hunarmandlar uchun yirik uchrashuv va tajriba almashish maydoniga aylandi. 2019-yil 10-15-sentabr kunlari o‘tkazilgan festivalda dunyoning 83 ta davlatidan vakillar qatnashdi. 29 yo‘nalish bo‘yicha 191 nafar xorijiy hunarmand ishtirok etdi hamda 8 ta nominatsiya bo‘yicha 24 nafar g‘olib taqdirlandi[177]. Ushbu festival hunarmandchilikning xalqaro miqyosda tan olinishi, milliy an’analarni namoyish etish va ustalar o‘rtasida tajriba almashish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qildi.

2021-yildagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori[178] esa hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash tizimini yangi bosqichga olib chiqdi. Agar avvalgi hujjatlar asosan ishlab chiqarish va savdo infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lsa, mazkur qaror sohani institutsional va iqtisodiy jihatdan barqarorlashtirish, ustalar faoliyatini rag‘batlantirish, turizm va xizmat ko‘rsatish tizimi bilan integratsiyani kuchaytirishga qaratildi.

Mazkur qarorning natijalari sifatida qayd etish mumkinki, hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash tizimlashtirilib, usta-shogird an’anasi kengaya boshladi. Ushbu jarayonni raqamlarda kuzatsak, usta hunarmandlar 7 barobar, shogirdlar 9 barobar ko‘payib, sohada bandlar 230 ming nafarga yetdi. Milliy katalogga 340 nafar usta kiritildi va turizm reyestriga 1,5 mingga yaqin hunarmand qo‘shildi.

Shu tariqa, 2019-2022-yillar kulolchilik tarixida hunarni saqlab qolish bosqichidan xalqaro miqyosda targ‘ib qilish va iqtisodiy barqaror tizimga aylantirish bosqichiga o‘tish davri sifatida tavsiflanadi. Natijada

[177] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Xalqaro hunarmandchilik festivalini o‘tkazib borishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida: Farmon, PF–5841, 03.10.2019 yil // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 2019. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-4535422 (murojaat sanasi: 06.02.2026).

[178] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Hunarmandchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: Qaror, PQ–77, 30.12.2021 yil // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 2021. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-5807559 (murojaat sanasi: 06.02.2026).

kulolchilik maktablari nafaqat an’anaviy hunar markazlari, balki hududiy iqtisodiyot, turizm va milliy madaniyatni targ‘ib qiluvchi zamonaviy ijtimoiy-madaniy markazlarga aylana boshladi.

Natijada Rishton, G‘ijduvon, Xiva kabi tarixiy kulolchilik markazlarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni doimiy savdo nuqtalari orqali sotish imkoniyati kengayib, ustaxonalar faoliyatining iqtisodiy barqarorligi kuchaydi. Kulolchilik mahsulotlari hududiy brend sifatida shakllanib, turistik marshrutlarning muhim tarkibiy qismiga aylandi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirish siyosati nafaqat iqtisodiy faoliyatni kengaytirish, balki milliy madaniy merosni saqlash va uni kelajak avlodlarga yetkazishga qaratilgan tizimli islohotlar bilan boyidi. Ayniqsa, 2023-yildan boshlab davlat siyosatida yo‘qolib ketish xavfi doirasida qolgan an’anaviy hunar turlarini tiklash va ularni qo‘llab-quvvatlash ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi[179].

Kulolchilik maktablari misolida bu jarayon yaqqol ko‘zga tashlanadi. Rishton, G‘ijduvon, Xiva, Urgut va boshqa hududlardagi kulolchilik markazlarida ustoz-shogird an’analari asosida faoliyat qayta jonlandi, yangi ustaxonalar tashkil etilib, xalqaro festival va forumlar o‘tkazilishi davom etmoqda.

Shuningdek, ushbu siyosat doirasida hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash tizimi yanada kuchaytirildi. Xalq amaliy san’ati ustalarining Milliy katalogi tuzilib, unda yetuk ustalar, ularning yo‘nalishlari va ijod namunalari jamlandi. Bundan tashqari, turizm sohasida faoliyat yuritayotgan hunarmandlar ro‘yxati shakllantirilib, ularning faoliyati tartibga solindi va keng jamoatchilikka tanitildi. Bu esa hunarmandlarning mehnatini qadrlash, ularni qo‘llab-quvvatlash hamda mahsulotlarini ichki va tashqi bozorga olib chiqish imkoniyatlarini kengaytirdi[180]. Ushbu tizim orqali hunarmandchilik maktablari, ustalar sulolalari, hududiy uslublar, bezak an’analari hamda ishlab chiqarish texnologiyalarini ro‘yxatga olish, ularni tizimli hujjatlashtirish va targ‘ib qilish imkoniyatlari yaxshilandi.

[179] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Aholini hunarmandchilikka jalb qilish va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida: Farmon, PF–91, 12.06.2023 yil // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 2023. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-6490321 (murojaat sanasi: 10.11.2025).

[180] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Aholini hunarmandchilikka jalb qilish va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida: Farmon, PF–91, 12.06.2023 yil // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 2023. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-6490321 (murojaat sanasi: 10.11.2025).

Bu jarayon hunarmandchilikni individual ustalar faoliyati doirasidan chiqarib, davlat tomonidan muhofaza qilinadigan madaniy resurs darajasiga koʻtarilishiga xizmay qildi.

Davlat tomonidan hunarmandlarni iqtisodiy qoʻllab-quvvatlash tizimlarining kengaytirilishi ham mazkur jarayonning muhim omiliga aylandi. Milliy katalog va reyestrga kiritilgan ustalar uchun soliq imtiyozlari, eksport xarajatlarini qisman qoplash, madaniy meros obyektlarida ustaxona tashkil etish imkoniyatlari yaratilishi hunarmandchilik faoliyatining iqtisodiy barqarorligini mustahkamladi. Ushbu jarayon ham hunarmandchilik bilan shugʻullanayotgan ustalar va shogirdlar sonini orttirib, yoshlarning milliy kasb-hunarlarga qiziqishini kuchayishiga muhim omillardan biri boʻldi.

Mazkur chora-tadbirlar natijasida kulolchilik faoliyati oddiy ishlab chiqarish yoki savdo sohasi sifatida emas, balki milliy identitet va madaniy merosni ifodalovchi muhim ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida e’tirof etila boshlandi. Shu bois an’anaviy kulolchilik maktablari bugungi kunda nafaqat iqtisodiy daromad manbai, balki hududiy madaniy brend, turistik jozibadorlik omili va milliy merosni saqlash vositasi sifatida ham ahamiyat kasb etmoqda.

Oʻrganilayotgan davrda milliy hunarmandchilik siyosatining yangi bosqichi doirasida kulolchilik sohasini tizimli qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan aniq tashkiliy va huquqiy tizimlar shakllantirilmoqda. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 28-yanvardagi 41-son qarori bilan Rishton an’anaviy kulolchiligi tarixi nodavlat muzeyini tashkil etish belgilandi[181]. Mazkur qaror kulolchilikni nafaqat ishlab chiqarish sohasi, balki tarixiy-madaniy meros sifatida asrash, ilmiy oʻrganish va keng jamoatchilikka targʻib etish yoʻnalishidagi muhim amaliy qadam sifatida baholanishi mumkin.

Qarorga muvofiq, muzey Fargʻona viloyati Rishton tumanidagi mavjud bino negizida tashkil etilib, uning asosiy vazifalari sifatida muzey ashyolari va kolleksiyalarini aniqlash, toʻplash va saqlash, madaniy-ma’rifiy hamda ilmiy-ta’lim faoliyatini yoʻlga qoʻyish, yoshlarni ustoz-shogird an’analari asosida hunarga oʻrgatish, kulolchilikning tarixiy rivoji

[181] Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Rishton an’anaviy kulolchiligi tarixi muzeyi faoliyatini yoʻlga qoʻyish toʻgʻrisida: 2025-yil 28-yanvar, 41-son //https://lex.uz/docs/-7345780 Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – Kuchga kirish sanasi: 29.01.2025.

va insoniyat sivilizatsiyasidagi o‘rnini yoritish kabi yo‘nalishlar belgilandi. Shuningdek, ekspozitsiyalarni tashkil etishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish hamda xorijiy muzeylar bilan hamkorlikni rivojlantirish vazifalari ham ko‘zda tutilgan.

Mazkur qaror doirasida ishchi guruh tuzilib, muzey konsepsiyasini ishlab chiqish, fond xavfsizligini ta’minlash, moddiy-ishlab chiqarish bazani mustahkamlash, homiylik mablag‘larini jalb etish va muzeyni zamonaviy interfaol texnologiyalar bilan jihozlash kabi vazifalar yuklatildi. Bu holat kulolchilik merosini saqlash jarayonining rejalashtirilgan va tizimli shaklga ega bo‘layotganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, qarorda ustoz-shogird an’anasini rivojlantirish masalasiga alohida e’tibor qaratilib, yoshlarni kulolchilik hunariga o‘rgatayotgan ustalarga hamda mustaqil faoliyat boshlayotgan shogirdlarga subsidiya ajratish tizimlari belgilandi. Xususan, ustalarga shogird tayyorlash va zarur xomashyo xaridi uchun bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdorida mablag‘ ajratish, shogirdlarga esa mustaqil faoliyatni boshlash uchun xarajatlarning 50 foizigacha (biroq belgilangan limitdan oshmagan holda) subsidiya berish tavsiya etildi. Bu esa kulolchilik maktablarining avlodlararo uzluksizligini iqtisodiy jihatdan ham mustahkamlashga qaratilgan muhim choradir.

Umuman olganda, 2025-yildagi mazkur qaror Rishton kulolchilik maktabini tarixiy meros, ta’limiy makon va zamonaviy iqtisodiy faoliyat markazi sifatida rivojlantirishga xizmat qiluvchi kompleks yondashuvni namoyon etadi. Bu jarayon milliy hunarmandchilik siyosatining yangi bosqichga o‘tayotganini hamda kulolchilikning davlat darajasida qo‘llab-quvvatlanayotgan ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylanganini ko‘rsatadi. Qaror ijrosi natijasida esa Bugungi kunga kelib, kulolchilik buyumlarini namoyishiga bag‘ishlangan muzeylar soni 20 taga yetdi[182].

So‘ngi yillarda hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlashga doir davlat siyosati faqat iqtisodiy rag‘batlantirish ko‘rinishida emas, balki madaniy merosni saqlash va hududiy an’ana(brend)larni tiklashga xizmat qiluvchi madaniy siyosat yo‘nalishi sifatida ham mustahkamlanmoqda. Ushbu jarayonni, avvalo, normativ hujjatlarda hunarmandchilikka madaniyatning ajralmas qismi doirasida e’tibor qaratilishi va madaniy

[182] Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Rishton tumani, 2025 yil.

tadbirlar (festival, koʻrgazma, konferensiyalar) roʻyxatining hukumat miqiyosida tasdiqlanishi kuzatish ahamiyatlidir. Xususan, Rishton tumanida Kulollar sayli milliy kulolchilik mahsulotlari koʻrgazma-yarmarkasini tashkil etish , Yangiariq kulolchilik markazida Kulollar sayli milliy kulolchilik mahsulotlari koʻrgazma savdosini tashkil etish , shuningdek har yili kamida ikki marotaba Hududlarda kulolchilik mahsulotlarini keng ommaga targʻib etish hamda ularning milliy iftixor ramzi sifatida har bir xonadonga kirib borishini taʼminlash maqsadida har bir hududda kulolchilik sayillarini oʻtkazish chora tadbirlarining[183] belgilanganligi kabi misollarni yuqoridagi fikrlar tasdigʻi sifatida eʼtirof etish mumkin, albatta.

Qolaversa, 2025-yil sentyabr oyida Rishtonda oʻtkazilgan II Xalqaro kulolchilik forumi doirasida Rishton World Crafts City (Jahon hunarmandlar shahri) unvoni bilan eʼtirof etilganligi[184] Rishton kulolchilik maktabining hududiy brend sifatida xalqaro miqyosda tan olinishi mamlakatda olib borilayotgan madaniy siyosatning amaliy natijalaridan biridir.

Hunarmandchilikning ommalashayotganligini aniq raqamlarda kuzatib qayd etish mumkinki, III Xalqaro hunarmandchilik festivali va II Xalqaro kulolchilik forumiga 47 davlatdan arizalar kelib tushgan, jami 170 nafar xorijiy hunarmand roʻyxatdan oʻtgan va ular orasidan 24 nafari Rishton kulolchilik forumiga qatnashganlar. Mahalliy hunarmandlardan jami 371 nafar hunarmand roʻyxatdan oʻtib, ularning 22 nafari Rishton forumida oʻz maxsulotlari bilan qatnashganlar[185]. Bu raqamlar kulolchilikning mahalliy va xalqaro miqiyosida targʻib qilinishi va festival-forum tadbirlarini uzluksiz va risoladek oʻtkazilishi natijasida jonlanayotganligini koʻrsatadi.

Hunarmandchilikni ommalashtirish siyosatining amaliy natijalarini respublika miqyosida tashkil etilayotgan koʻrgazma va madaniy tadbirlar misolida ham kuzatish mumkin. Xususan, Turizm qoʻmitasining rasmiy maʼlumotlariga koʻra, 2025-yil noyabr oyida oʻtkazilishi rejalashtirilgan

[183] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti. Hunarmandchilik faoliyatini qoʻllab-quvvatlash va rivojlantirishga oid chora-tadbirlar toʻgʻrisida: Farmon. – Toshkent, 2023. – URL: https://lex.uz/docs/-6490321 (murojaat qilingan sana: 06.02.2026).

[184] Rishton tumani hokimligi. Rishton shahrining “World Crafts City” maqomiga sazovor boʻlgani toʻgʻrisida rasmiy axborot. – 2025. – URL: https://gov.uz/en/rishton/news/view/87503 (murojaat qilingan sana: 06.01.2026).

[185] “Hunarmand” uyushmasi. III Xalqaro hunarmandchilik festivali va II Xalqaro kulolchilik forumi ishtirokchilari haqida maʼlumot. – 2024. – URL: https://handicraftman.uz (murojaat qilingan sana: 08.01.2026).

hunarmandchilik ko‘rgazmasida mamlakatning turli hududlaridan 120 nafar hunarmand ishtirok etishi, 200 dan ortiq turdagi hunarmandchilik mahsulotlari namoyish qilinishi hamda tashrif buyuruvchilar uchun amaliy mahorat darslari tashkil etilishi nazarda tutilgan[186].

Mazkur ko‘rgazma formati hunarmandchilik mahsulotlarini oddiy savdo obyekti sifatida taqdim etishdan farqli ravishda, ularni madaniy meros namunasi sifatida namoyish etish, shuningdek, tashrif buyuruvchilarni ishlab chiqarish jarayoni bilan tanishtirish va amaliy tajriba orttirish imkonini yaratishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Shu bois, bunday tadbirlar hunarmandchilikni madaniy namoyish va ta’limiy tajriba bilan uyg‘unlashtirish orqali uning ijtimoiy va madaniy ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazishning samarali tizimi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

An’anaviy hunarmandchilik maktablari va sulolaviy kasb an’analarini saqlash masalasi so‘nggi yillarda davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylandi. Xususan, normativ hujjatlarda xalq amaliy san’ati ustalarining faoliyatini tizimli ravishda ro‘yxatga olish hamda ularni qo‘llab-quvvatlash tizimlarini yaratish vazifalari belgilandi. Jumladan, Xalq amaliy san’ati ustalarining milliy katalogi doirasida qadimiy hunarmandlar sulolalarining davomchilari bo‘lgan ustalarni aniqlash, ularning faoliyatini ro‘yxatga olish va mazkur reyestrni doimiy ravishda yangilab borish vazifasi alohida ko‘rsatib o‘tilgan[187].

Mazkur tizim an’anaviy hunarmandchilik maktablari va uslublarini saqlashning muhim institutsional asosi bo‘lib xizmat qiladi. Chunki ustalar sulolalari, hududiy maktablar va uslubiy xususiyatlarni tizimli ravishda aniqlash hamda rasmiy reyestrga kiritish orqali hunarmandchilik an’analari hujjatlashtiriladi va yo‘qolib ketishining oldi olinadi. Shu tariqa, an’anaviy kulolchilik maktablari va boshqa hunarmandchilik yo‘nalishlari faqat iqtisodiy faoliyat sohasi sifatida emas, balki milliy madaniy merosning tarkibiy qismi sifatida davlat tomonidan muhofaza qilinadigan tizimga aylanmoqda.

---

[186] O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi. Hunarmandchilik ko‘rgazmasi tashkil etilishi to‘g‘risida rasmiy axborot. – 2025. – URL: https://gov.uz/oz/uzbektourism/news/view/104914 (murojaat qilingan sana: 06.02.2026).

[187] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Hunarmandchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: Farmon (PF–91). – Toshkent, 12.06.2023. – URL: https://lex.uz/docs/-6490321 (murojaat qilingan sana: 06.02.2026).

An’anaviy hunarmandchilik maktablari va sulolaviy kasb an’analarini saqlash masalasi so‘nggi yillarda davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylandi. Xususan, normativ hujjatlarda xalq amaliy san’ati ustalarining faoliyatini tizimli ravishda ro‘yxatga olish hamda ularni qo‘llab-quvvatlash tizimlarini yaratish vazifalari belgilandi. Jumladan, Xalq amaliy san’ati ustalarining milliy katalogi doirasida qadimiy hunarmandlar sulolalarining davomchilari bo‘lgan ustalarni aniqlash, ularning faoliyatini ro‘yxatga olish va mazkur reyestrni doimiy ravishda yangilab borish vazifasi alohida ko‘rsatib o‘tilgan[188].

Mazkur tizim an’anaviy hunarmandchilik maktablari va hududiy uslublarni saqlashning muhim institutsional asosi bo‘lib xizmat qiladi. Chunki ustalar sulolalari, maktablar va uslubiy xususiyatlarni tizimli ravishda aniqlash hamda rasmiy reyestrga kiritish orqali hunarmandchilik merosi hujjatlashtiriladi va uzluksiz davomiyligi ta’minlanadi. Natijada an’anaviy kulolchilik maktablari va boshqa hunarmandchilik yo‘nalishlari faqat iqtisodiy faoliyat sohasi sifatida emas, balki milliy madaniy merosning muhofaza qilinadigan muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanmoqda.

Bundan tashqari, hunarmandchilik faoliyatini tarixiy muhit bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan tizimlar ham joriy etilmoqda. Tegishli normativ hujjatlarda xalq amaliy san’ati ustalarining Milliy katalogi hamda turizm sohasida faoliyat yurituvchi subyektlar reyestrini davlat xizmatlari platformalari bilan integratsiyalash vazifalari belgilangan[189]. Ushbu tizim amaliy jihatdan hunarmandlar, jumladan kulollar faoliyatini tarixiy hududlar va madaniy meros obyektlari joylashgan maskanlarda yo‘lga qo‘yish imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada tarixiy markazlarda hunarmandchilik ustaxonalari, ko‘rgazma va savdo maydonlarini rivojlantirish orqali an’anaviy hunarmandchilik markazlarini jonlantirish, turistlar oqimini kengaytirish hamda tarixiy-madaniy muhitning iqtisodiy va ijtimoiy faolligini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yuzaga kelmoqda. Shu tariqa, madaniy meros obyektlari bilan bog‘liq tizimlar

[188] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Hunarmandchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: Farmon (PF–91). – Toshkent, 12.06.2023. – URL: https://lex.uz/docs/-6490321 (murojaat qilingan sana: 06.02.2026).

[189] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Hunarmandchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: Farmon (PF–91). – Toshkent, 12.06.2023. – URL: https://lex.uz/docs/-6490321 (murojaat qilingan sana: 06.02.2026).

kulolchilik kabi an’anaviy kasb turlarini zamonaviy rivojlanish jarayonlariga mos holda qo‘llab-quvvatlashning muhim amaliy omiliga aylanmoqda.

Keltirilgan misollar shuni ko‘rsatadiki, kulolchilik maktablarini jonlantirishda davlat siyosati, festival, forum, ko‘rgazma va reyestr kabi tadbirlar amaliy natija beradi. Sulolaviy reyestrni doimiy yangilash esa (Milliy katalog doirasida) yo‘qolib borayotgan uslub va maktablarni saqlashning institutsional asosini ta’minlaydi.

§ II.3. O‘zbekiston hududiy kulolchilik maktablarining shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari

O‘zbekiston hududi qadimdan to hozirgacha ustoz-shogird tizimi asosida shakllangan kulolchilik san’ati rivojlanib kelgan muhim madaniy makonlardan biri hisoblanadi. Turli tarixiy davrlarda shahar va vohalar iqtisodiy, madaniy hamda savdo aloqalarining rivoji ta’sirida o‘ziga xos kulolchilik an’analarini vujudga keltirgan. Ushbu jarayonlar natijasida shakli, bezagi, ishlab chiqarish texnologiyasi hamda ijtimoiy vazifasi bilan bir-biridan farq qiluvchi qator hududiy kulolchilik maktablari shakllandi.

Hududiy kulolchilik maktablarining shakllanishi murakkab tarixiy jarayon bo‘lib, u tabiiy resurslar mavjudligi, aholining kundalik ehtiyoji, savdo yo‘llarining shakllanishi, shahar madaniyatining rivojlanishi hamda ustoz-shogird an’analarining uzluksiz davom etishi bilan chambarchas bog‘liq xisoblanadi. Ayniqsa, sifatli tuproq (gil, kulol tilida soz) zahirasining mavjudligi, sirlash va bezak berish uchun tabiiy o‘simliklar (kulollar tili bilan - giyoh) va yoqilg‘i resurslari kulolchilik markazlarining barqaror rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Shu sababli kulolchilik maktablari asosan soz tuproq homashyosi mavjud bo‘lgan va tayyor maxsulotni sotish imkoniyatiga ega tarixiy shaharlar va hunarmandchilik rivojlangan aholi punktlari atrofida shakllangan.

Tarixiy manbalarda Movarounnahr hududidagi kulolchilik an’analari qadimgi davrlardan boshlab rivojlanganligi qayd etilsada[190] hududiy maktablarning shakllanishi aniq ko‘rsatilmagan. Mavjud materiallar asosan o‘rta asrlar davrida shahar madaniyatining rivoji bilan

[190] Толстов, С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. – Москва: Издательство МГУ, 1948. – 352 с.; Асқаров, А.А. Сополлитепа… – 160 б.

uzviy bog‘liq holda kechganligini anglatadi[191]. Savdo yo‘llari, xususan Buyuk ipak yo‘li orqali amalga oshgan iqtisodiy va madaniy almashinuv jarayonlari kulolchilik buyumlari shakli, bezagi hamda texnologiyasining boyishiga olib kelgan. Natijada turli hududlarda mahalliy did, turmush tarzi va estetik qarashlarni aks ettiruvchi mustaqil kulolchilik maktablari shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

Keyingi tarixiy davrlarda, xususan XIX asrning ikkinchi yarmi hamda XX asr boshlarida sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi, yangi xo‘jalik tizimining shakllanishi hamda siyosiy o‘zgarishlar hunarmandchilik sohasiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatib, bazi hududlarda kulolchilik an’analari tushkunlikni boshdan kechirgan bo‘lsa, boshqa hududlarda esa ustoz-shogird an’analari orqali hunar saqlanib qolgan. XX asrning ikkinchi yarmida hunarmandchilikni markazlashtirilgan ishlab chiqarish tizimiga moslashtirish jarayonlari kuzatilgan bo‘lsa, mustaqillik davridan boshlab milliy hunarmandchilikni qayta tiklash va rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati natijasida ko‘plab tarixiy kulolchilik markazlari faoliyati yana jonlana boshladi.

Ana shu tarixiy jarayonlar natijasida O‘zbekiston hududida shakllangan kulolchilik maktablari bugungi kunda ham shakllanish omillari, tarixiy taraqqiyot bosqichlari hamda mahalliy ijtimoiy-madaniy muhit bilan uzviy bog‘liq holda bir necha hududiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi. Jumladan, Farg‘ona kulolchilik maktabi Rishton, G‘urumsaroy va Andijon kabi lokal maktablari bilan bog‘liq holda rivojlangan bo‘lsa, Buxoro-Samarqand maktabi Samarqand, Urgut, G‘ijduvon hamda ayrim lokal markazlar an’analari asosida shakllangan. Xorazm kulolchilik maktabi Madir va Kattabog‘ qishloqlari kulolchilik an’analari bilan bog‘liq bo‘lib, Toshkent va Shahrisabz kulolchilik an’analari ham alohida hududiy yo‘nalish sifatida rivojlanib kelmoqda.

Shu bois hududiy kulolchilik maktablarining rivojlanishini o‘rganishda ularning faqat texnologik yoki bezak xususiyatlarini emas, balki shakllanish omillari, tarixiy taraqqiyot bosqichlari hamda mahalliy ijtimoiy-madaniy muhit bilan bog‘liqligini tahlil qilish muhim hisoblanadi. Ushbu qismda O‘zbekiston hududida shakllangan asosiy kulolchilik maktablari qadimiyligi, bugungi kunda ko‘pchilik tomonidan tan

[191] Шишкин В.А. – Афрасиаб – сокровищница древней культуры… – 37 с.

olinganligi va ustoz shogird va boshqa an’analarning tiklanishi nuqta’i nazaridan kelib chiqib, Rishton, G‘ijduvon, Xiva, Samarqand, Urgut, Toshkent, Andijon, G‘urumsaroy va Shahrisabz kulolchilik an’analarining shakllanishi hamda tarixiy rivojlanish bosqichlari ketma-ketlikda yoritiladi.

Ushbu o‘rinda yana bir muloazaga e’tibor qaratish lozim. Xususan, hududiy kulolchilik an’analarini tadqiq etishda ilmiy adabiyotlarda kulolchilik markazi va kulolchilik maktabi atamalari turlicha qo‘llanib kelgani kuzatiladi. Ayrim tadqiqotlarda ushbu tushunchalar sinonim tarzda ishlatilgan bo‘lsa, boshqa manbalarda ular mazmunan farqlanadi. Mazkur tadqiqotda ushbu atamalarni aniqlashtirish va ularni bir xil metodologik asosda qo‘llash muhim deb hisoblanadi.

Tadqiqot doirasida kulolchilik markazi deganda, muayyan hududda kulolchilik ishlab chiqarishi tarixan yuqori darajada rivojlangan, ustaxonalar va hunarmandlar to‘plangan, xomashyo bazasi hamda mahsulotlarni tarqatish va savdo tizimi shakllangan geografik-iqtisodiy makon tushuniladi. Bunday hududlarda kulolchilik mahalliy xo‘jalik hayotining muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘riladi.

Kulolchilik maktabi esa muayyan hudud yoki ustalar guruhi faoliyati doirasida shakllangan, buyum shakllari, bezak tizimi, ranglar palitrasi, sir tayyorlash hamda pishirish texnologiyasi kabi belgilar orqali farqlanadigan va ustoz-shogird an’analari vositasida avloddan-avlodga uzatiladigan barqaror stilistik hamda texnologik xususiyatlar majmuasini anglatadi.

Shu bois tadqiqot davomida kulolchilikning hududiy joylashuvi, ishlab chiqarish muhitini tavsiflashda kulolchilik markazi atamasi, uslubiy va texnologik an’analarni ifodalashda esa kulolchilik maktabi tushunchasidan foydalanish lozim deb topiladi.

Farg‘ona vodiysi Markaziy Osiyoning qadimiy hunarmandchilik hududlaridan biri bo‘lib, bu yerda sopol buyumlar ishlab chiqarish uzoq tarixiy davr davomida shakllangan. Arxeologik va tarixiy ma’lumotlar[192] Farg‘ona vodiysida kulolchilik ilk o‘rta asrlardan boshlab keng rivojlanganini ko‘rsatadi. XIX asrga kelib esa vodiyning turli hududlarida

[192] Пещерева Е. М. Гончарное производство Средней Азии. – М.; Л.: Изд-во АН СССР, 1959.

kulolchilikning alohida markazlari shakllanib[193], ular orasida Rishton ishlab chiqarish hajmi yuqoriligi va mahsulot sifati jihatidan ajralib turishi bilan farqlangan.

Shu bilan birga, tadqiqotchilar qayd etishicha, kulolchilik buyumlarining shakllari va turlari ko‘p jihatdan aholining kundalik turmush ehtiyojlari bilan bog‘liq holda shakllanib, uzoq davr davomida deyarli yirik o‘zgarishlarga uchramagan. Bu holat Rishton kulolchilik maktabining tarixiy davomiyligini tushunishda muhim omil hisoblanadi.

Rishton kulolchilik maktabining shakllanishi bir necha tarixiy bosqichlarda kechgan. Ilk davrda mahalliy ehtiyojlar uchun oddiy sopol buyumlar ishlab chiqarilgan bo‘lsa, Qo‘qon xonligi davriga kelib ishlab chiqarish kengayib, Rishton Farg‘ona vodiysida sirlangan sopol buyumlar tayyorlashning asosiy markazlaridan biriga aylangan. Bu davrda Rishton ustalari tomonidan tayyorlangan moviy rang ustun bo‘lgan sopol buyumlar mintaqaning boshqa hududlariga ham keng tarqalgan[194].

Rishtonning kulolchilik markazi sifatida shakllanishida uning Farg‘ona vodiysidagi savdo yo‘llari va yirik aholi punktlariga yaqin joylashuvi muhim rol o‘ynagan. Mahalliy ustalar tayyorlagan sopol buyumlar nafaqat Rishton atrofidagi qishloqlar, balki Qo‘qon, Marg‘ilon, Namangan va Andijon hududlariga ham tarqalib, Rishtonni mintaqadagi yirik kulolchilik mahsulotlari ta’minotchisiga aylantirgan[195]. Bu esa hududda ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishi hamda ustaxonalar sonining ko‘payishiga zamin yaratgan.

Hududning tabiiy sharoiti ham maktab shakllanishida muhim rol o‘ynagan. Rishton atrofida sifatli soz tuproq zahiralarining mavjudligi hamda ishqorli sir tayyorlash an’analari rivojlanganligi natijasida buyumlarda moviy, zangori va oq rang uyg‘unligiga asoslangan o‘ziga xos koloristik maktab[196] shakllangan. Tadqiqotlarda aynan ishqorli sir texnologiyasi Farg‘ona vodiysi, xususan Rishton kulolchilik maktabining asosiy texnologik belgisi sifatida ko‘rsatiladi.

---

[193] Муйдинова Д. М. Художественная керамика Ферганской долины XIX века и взаимосвязь школ // Риштанская керамика: вчера, сегодня, завтра: материалы международной научно-практической конференции. – Фергана, 2023. – С. 39–41.

[194] Кодзаева Л. Вчера и сегодня риштанской школы керамики // Риштанская керамика: вчера, сегодня, завтра: материалы международной научно-практической конференции. – Фергана, 2023. – С. 24–39.

[195] Пещерева Е. М. Гончарное производство Средней Азии… – 355 с.

[196] Кодзаева Л. Возрождение ишкаринской школы керамики..– С. 24–39.

Rishton maktabida ishlab chiqarilgan buyumlar orasida lagan, kosa, koʻza, suv idishlari hamda turli xoʻjalik buyumlari muhim oʻrin tutgan. Kulolchilik mahsulotlarini ilmiy jihatdan tasniflashda ular odatda kundalik ovqatlanish idishlari, suyuqlik tashish va saqlash buyumlari hamda oziq-ovqatni uzoq muddat saqlash uchun moʻljallangan idishlar guruhiga ajratiladi[197]. Ushbu tasnif Rishton buyumlarining shakllari ham aholining maishiy ehtiyojlariga mos ravishda rivojlanganini koʻrsatadi.

XIX asrga kelib Rishton kulolchilik markazida ishlab chiqarish jarayonida aniq ixtisoslashuv shakllangan boʻlib, ustalar tayyorlaydigan mahsulot turiga qarab bir necha yoʻnalishga boʻlingan. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, ayrim kulollar yirik hajmli xoʻjalik buyumlari — xum va koʻzalar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan boʻlsa, boshqa ustalar kundalik foydalaniladigan kosa, lagan va turli roʻzgʻor buyumlarini tayyorlash bilan shugʻullangan. Shuningdek, ayrim ustalar nafis bezakli idishlar hamda saroy va diniy inshootlar uchun moʻljallangan sirlangan sopol buyumlar tayyorlashga ixtisoslashgan[198] guruhni tashkil etgan.

Bunday ixtisoslashuv ishlab chiqarish jarayonining ma’lum darajada tizimlashganini, kulolchilik maktabida mehnat taqsimoti shakllanganini hamda buyumlar sifatining barqaror saqlanishiga xizmat qilganini koʻrsatadi. Natijada Rishton kulolchilik maktabi nafaqat hududiy ishlab chiqarish markazi, balki ichki ishlab chiqarish tuzilmasiga ega boʻlgan mustaqil hunarmandchilik tizimi sifatida rivojlangan.

XX asr boshlaridan sanoat mahsulotlarining keng tarqalishi natijasida qoʻl mehnatiga asoslangan kulolchilik buyumlariga boʻlgan talab kamayib, an’anaviy hunarmandchilik markazlarining ayrimlarida ishlab chiqarish susaygan[199]. XX asrning oʻrtalariga kelib kulolchilik ishlab chiqarishi ayrim hududlarda artel va kooperativ shakllarga birlashtirildi hamda hunarmandlar faoliyati rejalashtirilgan ishlab chiqarish tizimiga moslashtirildi. Bu jarayon an’anaviy ustaxonalarning qisqarishiga sabab boʻlgan boʻlsa-da, koʻplab ustalar yangi sharoitda ham an’anaviy bezak va texnologiyalarni saqlab qolishga harakat qilganlar.Tadqiqotlarda

[197] Пещерева Е. М. Гончарное производство Средней Азии… – 355 с.

[198] Ахмедов К., Ахроров П., Пулатова Г. Ангарский и Искандер-кулудинский ангобный центр Риштана // Риштанская керамика: вчера, сегодня, завтра: материалы международной научно-практической конференции. – Фергана, 2023. – С. 5–8.

[199] Кодзаева Л. Возрождение ишкаринской школы керамики // *Риштанская керамика: вчера, сегодня, завтра*: материалы международной научно-практической конференции. – Фергана, 2023. – С. 24–39.

turmush tarzi va xo‘jalik ehtiyojlarining o‘zgarishi idishlar shakli hamda ishlab chiqarish tizimiga ham ta’sir ko‘rsatishi qayd etiladi[200]. Rishton kulolchiligida ham ayrim davrlarda mahsulot sifati pasaygan bo‘lsa-da, ustoz-shogird an’anasi orqali asosiy texnologik va bezak xususiyatlari saqlanib qolgan.

Keyingi davrda mahalliy ustalar va hunarmandlar sa’y-harakatlari natijasida Rishton kulolchilik an’analari yana tiklanib, hududiy maktab faoliyati jonlangan[201]. Bu jarayon kulolchilik maktabining uzluksiz rivojlanishida muhim bosqich bo‘ldi.

Rishton kulolchilik maktabining barqarorligi, avvalo, hunarning ustoz-shogird va sulolaviy qadriyatlarning avloddan-avloda o‘tishi bilan bog‘liq bo‘lib, XX asrning ikkinchi yarmida Rishton maktabida an’analarga sodiq, lekin individual uslubga ega bo‘lgan ustalar avlodi shakllangan. L. Kodzaeva[202] ularning katta avlodini Ibrahim Kamilov, Ashurali Yuldashev, Kimsanboy Ganijonov, Sharofiddin Yusupov kabi ustalar nomi bilan qayd etadi.

Shuningdek, sulolaviy davomiylikning muhim ko‘rinishi sifatida, xalqaro muzey kolleksiyalari misolida ham Rishton ustalarining oilaviy maktab yaratganligi e’tirof etiladi. Xususan, Varshavadagi Osiyo va Tinch okeani muzeyi to‘plamida Rishtonning yirik ustalaridan biri Ibragimjon Kamilov asarlari borligi va u o‘z maktabini yaratgani, shuningdek ajdodlari (avlodi) oilaviy an’anani davom ettirayotgani ta’kidlanadi[203]. Bu dalillar esa Rishtonda hunarning faqat markaz darajasida emas, balki sulolaviy meros asosida yashab kelayotgan maktab sifatida mustahkamligini tasdiqlaydi.

XX asr oxiriga kelib, Rishton kulolchiligida yangi avlod ustalari yetishib chiqdi. L. Kodzaevaning ta’kidlashicha, 1980-yillarda kulolchilik san’atiga kirib kelgan rishtonlik ustalar avlodi professional san’at muhitiga moslashib, hunar tarixini o‘rganish, arxeologik materiallar va muzey kolleksiyalariga tayanish, hamda an’anani ijodiy talqin qilishga intilgan. Ushbu avlod vakillari sifatida Alisher Nazirov, Muzaffar Saidov,

[200] Пещерева Е. М. Гончарное производство Средней Азии... – 355 с.
[201] Назиров А. Традиционная риштанская керамика: проблемы и решения // Риштанская керамика: вчера, сегодня, завтра: материалы международной научно-практической конференции. – Фергана, 2023. – С. 113–116.
[202] Кодзаева Л. Возрождение ишкаринской школы керамики… – С. 24–39.
[203] Кодзаева Л. Возрождение ишкаринской школы керамики… – С. 24–39.

Rustam Usmonov, Muhammadali Tadjaliyev, Ismoiljon Kamilov va boshqalar qayd etilgan[204].

Muallif ularning nomlari XX asr oxiri - XXI asr boshlarida xalq amaliy san'ati tarixiga kirgani va asarlari O'zbekiston hamda xorij muzey to'plamlariga kirib borgani haqidagi ma'lumotlarni ochiqlaydi.

Demak, Rishton maktabida sulolaviy davomiylikni kamida ikki qatlamda ko'rish mumkin bo'lib[205], birinchisi katta avlod ustalari (XX asrning ikkinchi yarmi) hududiy maktabning an'anaviy qadriyatlarini ushlab turgan ustalar bo'lsa, ikkinchisi mustaqillik davri avlodi (1980-yillar va undan keyin, XX asr oxiri - XXI asr boshlarida) an'anani ilmiy-manbaviy izlanishlar bilan mustahkamlab, ijodiy yangilanish orqali davom ettirgan ustalar.

Shunday qilib, Rishton kulolchilik maktabining shakllanishi tabiiy xomashyo sharoiti, ishlab chiqarish tajribasi va sulolaviy hunar uzluksizligi bilan bog'liq holda kechgan. Ishqorli sir asosidagi moviy rang ustunligi, bezak kompozitsiyasining o'ziga xosligi hamda ishlab chiqarishning ixtisoslashgan tuzilmasi Rishton maktabini O'zbekiston hududiy kulolchilik an'analari tizimida mustaqil va barqaror maktab sifatida ajratib turuvchi asosiy xususiyatlarni tashkil etadi.

O'zbekiston hududiy kulolchilik maktablari tizimida Buxoro vohasida joylashgan G'ijduvon kulolchilik maktabi ham muhim o'rin tutib, tadqiqotlarda XVI Buxoro-Samarqand kulolchilik maktabining asosiy markazlari qatorida tilga olingan[206]. Bu esa G'ijduvonning tarixan voha miqyosida muhim hunarmandchilik markazlaridan biri bo'lganini ko'rsatadi.

Kulolchilikning hududda uzoq vaqt saqlanib kelishi sopol buyumlarning kundalik turmush ehtiyojlari bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi bilan izohlanadi. Xususan, etnografik tadqiqotlarda[207] idish shakllari va turlarining mahalliy xo'jalik ehtiyojlari ovqat tayyorlash, saqlash va tashish jarayonlari bilan uzviy bog'liq bo'lgani sababli ular uzoq davr davomida barqaror shaklda saqlanib kelishi ta'kidlanadi. Shu

[204] Кодзаева Л. Возрождение ишкаринской школы керамики… – С. 24–39.
[205] Krzywicka K. Works of Rishtan masters from the Uzbek ceramics collection of the Asia and Pacific Museum in Warsaw // Риштанская керамика: вчера, сегодня, завтра: материалы международной научно-практической конференции. – Фергана, 2023. – С. 91–95.
[206] O'zbekiston an'anaviy kulolchilik san'ati haqida maqola to'plami. – T., 2023. – Б.
[207] Пещерева Е. М. Гончарное производство Средней Азии... 3-6 betlar.

bois G‘ijduvonda kulolchilik maktabining shakllanishi ham shahar va bozor muhitining ehtiyojlari bilan bog‘liq tarixiy jarayon sifatida talqin qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Hududda mavjud bo‘lgan sifatli tuproq zahiralari kulolchilik ishlab chiqarishining barqaror rivojlanishiga imkon yaratgan bo‘lib, mahalliy ustalar sir tayyorlash, bezak berish va buyumlarni pishirish texnologiyalarini avloddan-avlodga uzatib kelganlar, natijada hududda mustahkam ishlab chiqarish an’anasi shakllangan.

G‘ijduvon kulolchilik maktabi uslubiy jihatdan boshqa markazlardan sezilarli farq qiladi. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, Buxoro-Samarqand maktabiga xos buyumlarda qo‘rg‘oshinli sir, shuningdek sarg‘ish-yashil hamda jigarrang ranglar ustunlik qiladi va bu xususiyat ayniqsa G‘ijduvon kulolchiligida keng qo‘llaniladi[208]. Naqshlarda geometrik va stilizatsiyalashgan o‘simliksimon elementlar sodda, ammo ifodali kompozitsiyada bajariladi. Bundan tashqari, G‘ijduvon ustalarining naqshlarni ko‘pincha mo‘yqalam orqali bajarishi ham hudud maktabining muhim texnologik belgilaridan biri hisoblanadi[209]. Shu tariqa qo‘rg‘oshinli sir, jigarrang-yashil rang palitrasi hamda sodda, an’anaviy bezak kompozitsiyasi G‘ijduvon kulolchilik maktabining asosiy identifikatsion xususiyatlarini tashkil etadi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida G‘ijduvon kulollarining faoliyatida ishlab chiqarish ixtisoslashuvi shakllangan. Peshcherova kulolchilik buyumlarini pishirish, dasturxonni bezash, suv tashish va saqlash idishlari kabi funksional guruhlarga ajratadi[210]. Bu yondashuv G‘ijduvon ustaxonalarida ham mahsulot turlari turmush ehtiyojlariga mos ravishda ishlab chiqarilganini ko‘rsatadi.

XX asrning o‘rtalarida hunarmandchilik ishlab chiqarishining artel va kooperativ tizimiga o‘tkazilishi an’anaviy ustaxonalarning qisqarishiga olib kelgan bo‘lsa-da, hunar oilaviy ustaxonalarda davom ettirilgan. Peshcherova xo‘jalik va turmush sharoitlaridagi o‘zgarishlar idish turlari hamda ishlab chiqarish tizimiga ta’sir ko‘rsatganini qayd etadi. Shu

[208] Baratbayev B. M. O‘zbekiston kulolchilik san’atida badiiy kulolchilik san’ati maktablari tarixi // Uzbek Scholar Journal. – 2024. – № 28 (may). – B. 4–6.
[209] Baratbayev B. M. O‘zbekiston kulolchilik san’atida badiiy kulolchilik san’ati maktablari tarixi …– B. 4–6.
[210] Пещерева Е. М. Гончарное производство Средней Азии…4-6 betlar.

jarayon G‘ijduvon kulolchiligida ham mahsulot assortimentining qisman o‘zgarishiga olib kelgan.

G‘ijduvon kulolchiligida sulolaviy davomiylik muhim rol o‘ynagan. Ayniqsa XX asr oxiri va mustaqillik davrida aka-uka Alisher va Abdulla Narzullayevlar tomonidan hudud kulolchilik an’analari saqlab qolingan hamda rivojlantirilgan[211]. Ularning faoliyati natijasida an’anaviy texnologiyalar tiklanib, yosh kulollar tayyorlash yo‘lga qona boshlagan.

Mustaqillik davrida milliy hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash siyosati kuchayib, 1990-yillardan boshlab an’anaviy hunarmandchilikni rivojlantirish davlat darajasida qo‘llab-quvvatlandi. Bu jarayon G‘ijduvonda ham ustaxonalar faoliyatining jonlanishiga, ustalarning ko‘rgazmalar va festivalarda faol qatnashishiga zamin yaratdi.

Shunday qilib, G‘ijduvon kulolchilik maktabi tabiiy xomashyo sharoiti, sulolaviy hunar davomiyligi hamda mahalliy turmush ehtiyojlari asosida shakllanib, o‘ziga xos rang, sir va bezak xususiyatlariga ega bo‘lgan hududiy kulolchilik maktabi sifatida tarixiy taraqqiyot jarayonida barqaror rivojlanib kelgan.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan materiallar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston hududida shakllangan kulolchilik maktablari umumiy tarixiy ildizlarga ega bo‘lishiga qaramay, ularning rivojlanish yo‘li mahalliy tabiiy sharoit, savdo va xo‘jalik muhiti hamda hududiy madaniy an’analar ta’sirida turlicha shakllangan.

Rishton kulolchilik maktabida ishlab chiqarishning uzluksiz saqlanishi, ayniqsa ishqorli sir tayyorlash texnologiyasining avloddan-avlodga o‘tishi va ustoz-shogird an’anasining uzilmasligi muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Natijada Rishton kulollari buyumlarida rang va sirlash texnologiyasining barqarorligi, shakl va bezaklarning an’anaviyligi saqlanib qolgan. Bu maktabning rivojlanishida tabiiy xomashyo resurslari hamda ishlab chiqarish texnologiyasining uzluksizligi hal qiluvchi rol o‘ynagan.

G‘ijduvon kulolchilik maktabining rivojlanishi esa ko‘proq Buxoro vohasining tarixiy savdo va madaniy muhiti bilan bog‘liq holda shakllangan. Bu hudud buyumlarida rang-barang bezak kompozitsiyalari, o‘simliksimon naqshlarning ustunligi hamda bezakning ifodaviyligi

[211] Baratbayev B. M. O‘zbekiston kulolchilik san’atida badiiy kulolchilik san’ati maktablari tarixi… – B. 4–6.

kuchliroq rivojlangan. Shuningdek, kulolchilik sulolalarining saqlanib qolishi va zamonaviy davrda ularning faoliyati an’analarning uzluksizligini ta’minlab kelmoqda.

Taqqosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, Rishton maktabida ishlab chiqarish texnologiyasi va sir tayyorlash an’anasining saqlanishi yetakchi omil bo‘lsa, G‘ijduvon maktabida esa bezak kompozitsiyasi va badiiy ifodaning rivojlanishi muhim rol o‘ynagan. Shu bois har ikki maktab umumiy kulolchilik an’analari doirasida shakllangan bo‘lsa-da, mahalliy ijtimoiy-madaniy muhit ta’sirida o‘ziga xos yo‘nalishda rivojlangan.

Natijada O‘zbekiston hududiy kulolchilik maktablari bir tomondan umumiy tarixiy an’analarni saqlagan holda, ikkinchi tomondan, mahalliy sharoit va madaniy muhit ta’sirida turlicha badiiy va texnologik xususiyatlarga ega bo‘lgan mustaqil hududiy yo‘nalishlar sifatida shakllanganligi kuzatiladi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonning boshqa tarixiy hunarmandchilik markazlari qatori Buxoro shahrida ham kulolchilik an’analarini qayta tiklash jarayonlari faollashdi. XX asr davomida Buxoro kulolchilik maktabining ayrim texnologik va badiiy xususiyatlari deyarli unutilgan bo‘lsa-da, mustaqillikdan keyingi davrda mahalliy ustalar tomonidan tarixiy merosni qayta tiklashga qaratilgan izlanishlar kuchaydi. Natijada Buxoro hududida yangi avlod kulollari shakllanib, ular tarixiy maktab an’analarini qayta jonlantirishga harakat qila boshladilar.

Bu jarayonda usta Abduvohid Karimov faoliyati alohida e’tiborga loyiqdir. U yoshligidan kulolchilik bilan shug‘ullanib, dastlab mahalliy ustalardan, keyinchalik esa G‘ijduvon kulolchilik maktabining yetuk namoyandalaridan saboq olib, an’anaviy texnologiyalarni chuqur o‘rganishga kirishgan. Ta’lim jarayonida O‘zbekiston hududiy kulolchilik maktablari tarixini o‘rganish davomida Buxoro kulolchilik maktabining tarixiy an’analari deyarli uzilib qolganini anglab, u ushbu maktabni qayta tiklashni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi sifatida belgilaydi[212].

2006 yildan boshlab usta Buxoroda ustaxona tashkil etib, tarixiy manbalarda tilga olinadigan Buxoro ishqorli sir texnologiyasini tiklash ustida ilmiy-amaliy tajribalar olib boradi. Bu jarayonda tarixiy manbalar, arxeologik topilmalar va ustoz kulollar tajribasi asosida ishqorli sir

[212] Dala yozuvlari. Buhoro viloyati, Buhoro shahri. Mirzo Fayoz ko‘chasi, 2025 yil.

tayyorlash texnologiyasi qayta sinab koʻrilib, qadimiy Buxoro sopol buyumlariga xos boʻlgan moviy rangli sirni tiklashga muvaffaq boʻlinadi. Shu bilan birga, tarixiy obidalardagi koshinga oid bezak elementlarini qayta tiklash, naqsh va rang uygʻunligini amaliy tajribalar orqali tiklash yoʻnalishida ham izlanishlar olib borilgan[213].

Natijada Buxoroda nafaqat an'anaviy sopol buyumlar ishlab chiqarish, balki tarixiy koshinga oid sir va bezak texnologiyalarini qayta tiklashga qaratilgan yangi ijodiy yoʻnalish shakllandi. Ustaning xalqaro koʻrgazmalar, ilmiy-amaliy loyihalar va madaniy tadbirlardagi faol ishtiroki Buxoro kulolchilik an'analarining zamonaviy bosqichda yana e'tibor qozonayotganini koʻrsatadi.

Shunday qilib, mustaqillik davrida Buxoroda yangi avlod kulollarining shakllanishi, tarixiy texnologiyalarni qayta tiklashga qaratilgan ilmiy-amaliy izlanishlar hamda ustaxonalarning tiklanishi natijasida Buxoro kulolchilik an'analari yana jonlana boshlaganini kuzatish mumkin. Bu jarayon hududiy kulolchilik maktablarining ijtimoiy-madaniy muhit bilan uzviy bogʻliqligini yana bir bor tasdiqlaydi hamda Buxoro kulolchilik maktabining zamonaviy bosqichdagi tiklanish jarayonini ifodalaydi.

XIX asr oxiriga kelib Oʻzbekiston hududiy kulolchilik maktablari tizimida Xorazm vohasi sopol buyumlar ishlab chiqarish qadimdan rivojlangan hududlardan biri sifatida ajralib turadi. Tadqiqotlarda voha aholisi orasida kulolchilikning keng tarqalganligi hamda vaqt oʻtishi bilan bu hunar mahalliy xoʻjalik tizimining muhim qismiga aylangani tadqiqotlardan ma'lum[214].

Keyingi tarixiy davrda, xususan Rossiyadan chinni mahsulotlar kirib kelishi natijasida mahalliy kulollar bozori ma'lum darajada susaygan. Biroq arzon sopol idishlarga talabning saqlanib qolishi va me'moriy bezaklarda kulolchilik mahsulotlarining keng qoʻllanilishi kulolchilikning uzluksiz rivojlanishini ta'minlagan.

XX asr davomida yuz bergan siyosiy-iqtisodiy oʻzgarishlar, ayniqsa hunarmandchilik ishlab chiqarishining artel tizimiga moslashtirilishi

[213] Dala yozuvlari. Buhoro viloyati, Buhoro shahri. Mirzo Fayoz koʻchasi, 2025 yil.

[214] Екимова В. В. Гончарное производство в Хивинском районе // Керамика Хорезма / Отв. ред. С. П. Толстов. – М.: Изд-во АН СССР, 1959. – С. 344–378.; Джаббаров И. М. Новые материалы к истории гончарного ремесла Хорезма // Керамика Хорезма / Отв. ред. С. П. Толстов. – М.: Изд-во АН СССР, 1959. – С. 379–396.

natijasida koʻplab ustaxonalar faoliyati qisqargan. Shunga qaramay, ayrim kulol oilalarida hunar uzilmagan holda davom etib, sulolaviy an’ana orqali ishlab chiqarish tajribasi saqlanib qolgan[215]

XX-asrning 20-yillaridan boshlab kulollar mehnatini tashkil etishga e’tibor kuchaygani, boshqa hududlardagi singari Xorazmda ham ustaxonalar, oʻquv-ishlab chiqarish tizimlari va qisqa kurslar yoʻlga qoʻyilgani, kulollar tayyorlash hamda malakani oshirish ishlari amalga oshirilgani koʻrsatiladi. Avval mahalliy-oilaviy tizimda uzatilgan hunar endi qisman tashkiliy va oʻquv tizimlari bilan qoʻllab-quvvatlana boshlagan.

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, Xorazm kulolchilik maktabining asosiy markazlari sifatida aynan Madir va Kattabogʻ qishloqlari mavjud boʻlgan. Xorazm kulolchilik maktabining shakllanishida vohaning tabiiy-geografik sharoiti muhim rol oʻynagan. Amudaryo deltasi hududlarida mavjud gil bosqichlari sopol buyumlar ishlab chiqarish uchun zarur xomashyo bazasini yaratgan, savdo yoʻllari bilan bogʻliq iqtisodiy muhit esa kulolchilik mahsulotlariga doimiy ehtiyojni ta’minlagan[216].

Xorazm kulolchilik maktabining yana bir muhim xususiyati — buyumlarda funksionallik ustuvorligi boʻlib, mahalliy ustalar kundalik foydalanish uchun moʻljallangan mustahkam idishlar tayyorlashga e’tibor qaratganlar. Shu sababli voha kulollari mahsulotlari bezakdan koʻra amaliy jihatdan qulayligi bilan ajralib turadi[217].

Bu markazlarda uslubiy farqlanish ustalar ijodi misolida ham koʻrinadi. Xususan, Madirda faoliyat yuritgan usta R. Matchonov buyumlarda toʻq ranglarga moyilligi, Kattabogʻdagi S. Otajonov esa oq angobdan koʻproq foydalanishi bilan tavsiflanadi. Bu ma’lumotlardan Xorazm maktabining mahalliy markazlar orqali ichki differensiallashuvini anglash mumkin. XX-asrning 80-yillarida kulolchilik markazlarida ishlar birmuncha susaygan. Biroq, keyingi davrda qayta tiklanish uchun usta-shogird omillari saqlangan.

---

[215] Екимова В. В. Гончарное производство в Хивинском районе // Керамика Хорезма / Отв. ред. С. П. Толстов. – М.: Изд-во АН СССР, 1959. – С. 344–378.;Джаббаров И. М. Новые материалы к истории гончарного ремесла Хорезма // Керамика Хорезма / Отв. ред. С. П. Толстов. – М.: Изд-во АН СССР, 1959. – С. 379–396.

[216] Екимова В. В. Гончарное производство в Хивинском районе // Керамика Хорезма / Отв. ред. С. П. Толстов. – М.: Изд-во АН СССР, 1959. – С. 344–378.; Дервиз Г., Жадова Л., Жданко И., Митлянский Д. Современная керамика народных мастеров Средней Азии: альбом. – М.: Советский художник, 1974. – 236 с.: ил.

[217] Дервиз Г., Жадова Л., Жданко И., Митлянский Д. Современная керамика народных мастеров Средней Азии: альбом. – М.: Советский художник, 1974. – 236 с.: ил.

Mustaqillik davridan boshlab esa Xorazm vohasida kulolchilik an’analarini qayta tiklashga qiziqish ortib, mahalliy ustalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda tarixiy buyum shakllarini qayta tiklash jarayonlari faollashdi. Zamonaviy etnologik tadqiqotlar[218] vohada kulolchilik an’analari va ularning zamonaviy transformatsiyasini ilmiy asosda yoritib bermoqda.

1990-yillarda O‘zbekistonda an’anaviy qadriyatlarga e’tibor kuchaygani kuzatiladi. 1995-yildagi 1-Respublika yarmarkasida turli kulolchilik maktablari vakillari ishtirok etib, Xorazm vakili sifatida R. Matchonovning usta guvohnomasini qo‘lga kiritgan. Shu tariqa Madir va Kattabog‘ qishloqlari uzoq vaqt davomida kulolchilik an’analari saqlanib qolgan asosiy markazlar sifatida e’tirof etiladi[219].

Yuqoruda qayd etilganidek, mazkur hududlarda kulolchilikning saqlanib qolishida sulolaviy davomiylik muhim ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa Madir qishlog‘ida kulolchilik oilaviy hunar sifatida avloddan-avlodga o‘tib kelgan, ustaxonalar bir necha avlod vakillari tomonidan boshqarilib, hunar sirlarini o‘rgatish ustoz-shogird an’anasi orqali amalga oshirilgan[220]. Natijada texnologik tajriba, buyum shakllari va bezak usullari uzoq vaqt davomida oilalar doirasida saqlanib qolgan. Kattabog‘ hududida ham kulolchilik oilaviy ustaxonalar faoliyati asosida rivojlangan bo‘lib, bu yerda ishlab chiqarilgan sopol buyumlar asosan kundalik ehtiyojlarga xizmat qilgan. Sulolaviy davomiylik tufayli buyum shakllari va ishlab chiqarish tajribasi barqaror saqlangan[221].

Shu tariqa, Xorazm kulolchilik maktabi Madir va Kattabog‘ markazlari doirasida mahalliy tabiiy sharoit, iqtisodiy ehtiyojlar hamda sulolaviy hunarmandchilik an’analari bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan hamda uzoq tarixiy davr davomida ustoz-shogird an’anasi orqali saqlanib qolgan hududiy kulolchilik maktabi sifatida rivojlangan.

Samarqandda kulolchilik neolit davridan buyon mavjud bo’lib, uning eng rivojlangan davrlari eramizning IX-XII asrlariga to’g’ri keladi. Bu davrda shahar Markaziy Osiyo kulolchilik ishlab chiqarishining muhim

[218] Худайбергенов Х. С. Хоразм кулолчилиги (этнологик тадқиқот). – Тошкент: Lesson Press, 2023. – 122 б.
[219] Худайбергенов Х. С. Хоразм кулолчилиги (этнологик тадқиқот). – Тошкент: Lesson Press, 2023. – 122 б.
[220] Екимова В. В. Гончарное производство в Хивинском районе // Керамика Хорезма / Отв. ред. С. П. Толстов. – М.: Изд-во АН СССР, 1959. – С. 344–378.
[221] Джаббаров И. М. Новые материалы к истории гончарного ремесла Хорезма // Керамика Хорезма / Отв. ред. С. П. Толстов. – М.: Изд-во АН СССР, 1959. – С. 379–396.

markazlaridan biriga aylangan[222]. Sanoat ishlab chiqarishi rivojlangan davrga kelib esa ushbu soha ancha susayib, so'nggi o'n yilliklarda uning ayrim ko'rinishlari hatto yo'qolib ketish xavfi doirasida qolgani kuzatiladi.

Bu holat Samarqand kulolchiligi shakllanishida uch asosiy omil hal qiluvchi bo'lganini ko'rsatadi: birinchidan, Zarafshon vodiysida yuqori sifatli gil zaxiralarining mavjudligi; ikkinchidan, shaharning qadimdan yirik savdo markazi sifatida rivojlanishi; uchinchidan, shahar aholisining yuqori madaniy va maishiy ehtiyojlari kulolchilik mahsulotlariga doimiy talabni ta'minlab kelgan. Natijada kulolchilik mahalliy iqtisodiy hayotning barqaror qismiga aylangan.

A.M. Belenitskiy[223] X asr yozma manbalariga tayanib, Samarqand kulolchilik uyushmalarida asosiy rolni usta-oqsoqol egallaganligini, unda usta bilan birga xalfa va shogirdlar ham faoliyat yuritganini ta'kidlaydi. Bu holat kulolchilikning ustoz-shogird va sulolaviy tizim orqali uzluksiz davom etganini ko'rsatadi.

Buxoro-Samarqand badiiy kulolchilik maktabi xalq ustalari Zarafshon vodiysi hududlarida, ya'ni Samarqand va Buxoro atroflarida, shuningdek Janubiy O'zbekistonda ijod qilganlar. Ushbu maktab tarkibiga Samarqand, Urgut, G'ijduvon, Shahrisabz, Kitob, Denov, Sherobod hamda Qoratov, Umerton va Uba kabi mahalliy markazlar kiradi[224]. Bu markazlar bezak va ornamental uslub jihatidan bir-biriga yaqin bo'lsa-da, har bir shahar va ustaning o'z rang majmuasi, koloriti va kompozitsiyasi bilan farqlanadi.

Samarqand kulolchilik maktabining badiiy asoslari Temuriylar san'atiga emas, balki Afrosiyob sopol an'analariga borib taqaladi[225]. Afrosiyob sopolining ornamental tuzilishi, rang uyg'unligi va shakllar tizimi zamonaviy Samarqand kulollari ijodida ham ma'lum darajada saqlanib qolgan. Samarqand sopol buyumlari O'zbekistonning boshqa hududlari kulolchiligidan o'z koloriti va bezak tizimi bilan farq qiladi. Bu holat Samarqand kulolchilik maktabida badiiy an'analar to'liq uzilib ketmaganini, balki turli tarixiy davrlarda mahalliy ustalar ijodi orqali qayta ishlanib, yangi sharoitga moslashib saqlanib kelganini ko'rsatadi.

[222] Беленицкий й А. М. Организация ремесла в Самарканде XV – XVI вв. КСИИМК, VI. Москва, 1940. С. 46.
[223] Беленицкий й А. М. Организация ремесла в Самарканде XV – XVI вв. КСИИМК, VI. Москва, 1940. С. 46.
[224] Квертфельд Э. Керамика Ближнего Востока. Л., 1947. С. 134.
[225] Тошходжаев Ш.С. Художественная поливная керамика Самарканда. Ташкент: Фан, 1967ю С. 23.

Samarqand ustalari bezakni ko’pincha chizma uslubida ishlab, keyin uni rangli sir bilan qoplashgan. Yashil-sariq hamda yashil-jigarrang rang uyg’unligi keng qo’llanilgan bo’lib, olachipor deb ataluvchi buyumlar ayniqsa mashhur bo’lgan. Arxeologik va ilmiy adabiyotlarda bu turdagi sopol buyumlar marmarsimon deb atalgan[226]. Ularning bezaklari Samarqandda ayri bahor , ya’ni bahor buluti nomi bilan yuritilgan[227]. Biroq, sobiq ittifoq davridagi iqtisodiy va ijtimoiy o’zgarishlar natijasida mazkur an’anaviy uslub asta-sekin yo’qolib borgan.

XIX asr o’rtasida Samarqandda kulolchilik hali ham muhim hunarmandchilik sohasi bo’lib qolgan. 1860 yilda shaharda 37 ta kulolchilik ustaxonasi faoliyat yuritgani qayd etiladi[228]. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida buyumlarni sirlashda qo’rg’oshinli sir bilan birga ishqorli sir ham qo’llanilib, ko’k va yashil rangli naqshlar ishlatilgan. O’zbekiston Davlat san’at muzeyida Samarqandda ishlangan ko’k-moviy rangli kir yuvish tog’orasi saqlanishi ham bu an’ananing mavjudligini ko’rsatadi[229]. Biroq XX asr o’rtalaridan keyin bunday mahsulotlar ishlab chiqarilishi to’xtagan. Bu raqam Samarqandda kulolchilik nafaqat hunarmandchilik, balki shahar iqtisodiyotining muhim tarmog’i bo’lganini ham ko’rsatadi. Bu davrda kulolchilik mahsulotlari nafaqat mahalliy aholi, balki savdo orqali qo’shni hududlarga ham tarqalgan.

Samarqand uchun an’anaviy jigarrang-sarg’ish mahsulotlarni so’nggi xalq ustalaridan biri Umar Jo’raqulov tayyorlagan. Keyinchalik u loydan noan’anaviy haykaltaroshlik kompozitsiyalar yaratishga o’tib, Samarqand mayda terrakota maktabining shakllanishiga sababchi bo’lgan[230].

Samarqand kulolchilik maktabining asoschilaridan biri sifatida usta Umar Jo’raqulov (1894-1973) tilga olinadi. U uch yuz yillik kulollar sulolasi davomchisi bo’lib, kulolchilik sirlarini bolaligidan egallagan va keyinchalik hunarmandchilik ta’limi tizimida ham faoliyat yuritgan[231].

---

[226] Тошходжаев Ш.С. Художественная поливная керамика Самарканда. Ташкент: Фан, 1967ю С. 23.
[227] Пугаченкова Г.А. Щедевры Средней Азии. Ташкент., 1986. С. 209.
[228] Обзор Самаркандской области за 1901 год, Самарканд, – 1902. – С. 13.
[229] : Ҳакимов А., Файзиев В. Ўзбекистон давлат санъат музейи ноёб ҳазинасидан. Ўзбекистон амалий санъати. – Тошкент: Бақтрия пресс, 2014. – Б. 20.
[230] Ҳақимов А. Ўзбекистон санъат тарихи. Қадимги давр, ўрта асрлар, ҳозирги замон. Тошкент: Zilol buloq, 2022. – Б. 331.
[231] Алтунянц С. У гончарного круга // Правда Востока. 1978 йил 8 июля.

1970 yilda Samarqandda chinni buyumlar ishlab chiqarish fabrikasi ishga tushirilishi bilan kulolchilik yangi tashkiliy shaklga ega bo'ldi. Bu yerda Qurbon Sharapov, Ilhom Vohidov, Abdurahim Muxtorov va boshqa ustalar faoliyat ko'rsatgan. Mazkur ustaxonalar mayda plastika badiiy maktabining shakllanishiga turtki berdi. Abdurahim Muxtorov ijodida milliy loy o'yinchoqlar yaratilishi keng tarqaldi va bu an'ana keyinchalik uning nabirasi Zarif Muxtorov tomonidan ham davom ettirildi[232].

Hozirgi kunda Samarqand ustaxonalarida ishlab chiqarilayotgan sopol buyumlar asosan kundalik ehtiyojlarga mo'ljallangan bo'lib, ularda qadimiy ornamental tizim va poetik shakllar to'liq saqlanib qolmagani kuzatiladi. Ayrim hollarda buyumlar sifati ham pasaygan. Biroq, maktabning ayrim markazlarida an'anaviy uslubni tiklashga qaratilgan ijodiy harakatlar davom etmoqda. Bu holat Samarqand kulolchilik maktabida an'anaviy badiiy tizimdan bozor talabiga moslashish jarayoni kechayotganini ko'rsatadi. Ayrim hollarda mahsulot sifati pasayishi kuzatilsa-da, bu jarayon an'ananing to'liq yo'qolishi emas, balki yangi iqtisodiy sharoitga moslashish bosqichi sifatida baholanishi maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy ustalar ijodida an'anaviy kulolchilikning ikki asosiy yo'nalishi — kosagarlik va ko'zagarlik saqlanib qolgan. Samarqand laganlarining shakli, devorlarining tik ko'tarilishi va tashqi qayrilishi uning mahalliy xususiyatini ko'rsatadi. Ko'zalar shakli esa boshqa markazlarnikiga o'xshash bo'lsa-da, har bir usta o'z uslubi va o'lchamlari bilan ajralib turadi. Samarqandda sut va qatiq saqlash uchun ishlatiladigan idishlar chuvati ko'za nomi bilan ma'lum.

Shu tariqa Samarqand kulolchilik maktabi Afrosiyob an'analari, sulolaviy hunarmandchilik tizimi va mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar asosida shakllangan bo'lib, keyingi davrlarda muayyan inqiroz bosqichlarini boshdan kechirgan. Biroq mazkur an'analar Zarafshon vodiysi hududidagi boshqa kulolchilik markazlari, jumladan Urgut kulolchilik maktabining shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatgan.

Zarafshon vodiysida joylashgan Urgut qadimdan Samarqand vohasining muhim hunarmandchilik markazlaridan biri sifatida tanilgan bo'lib, kulolchilik ham hudud aholisi turmushida muhim o'rin

[232] Алтунянц С. У гончарного круга // Правда Востока. 1978 йил 8 июля.

egallagan[233]. Tarixiy manbalar tahlilidan kelib chiqib aytish mumkinki, Urgut alohida kulolchilik markazi sifatida kamroq tilga olinishi, uning uzoq vaqt davomida Samarqand kulolchilik muhiti bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanganligi bilan izohlash mumkin. Xususan, Buxoro-Samarqand maktabi ning asosiy markazlari qatorida Samarqand, Urgut, G‘ijduvon va Uba keltiriladi.

Hududda kulolchilikning shakllanishida tabiiy omillar muhim rol o‘ynagan. Urgut tumani yerlarida mavjud bo‘lgan gil konlari hamda yoqilg‘i manbalari sopol buyumlar ishlab chiqarish uchun qulay sharoit yaratgan. Shuningdek, Urgutning Samarqandga yaqinligi ustalar o‘rtasida tajriba almashinuvi va texnologik uslublarning ko‘chib o‘tishiga imkon bergan. Natijada hududda kulolchilik an’analari mahalliy ehtiyojlar bilan uyg‘unlashgan holda rivojlangan.

Urgut aholisi uzoq vaqt davomida dehqonchilik va savdo bilan shug‘ullanganligi sababli kundalik xo‘jalik buyumlariga ehtiyoj yuqori bo‘lgan. Bu esa kulollarning ishlab chiqarishini doimiy talab bilan ta’minlagan. Kulolchilik hunari ustoz-shogird an’analari asosida oilaviy tarzda davom etgan bo‘lib, hunar ko‘pincha sulolaviy yo‘l bilan avloddan avlodga o‘tgan[234].

Urgut kulollari tomonidan ishlab chiqarilgan buyumlar asosan kundalik foydalanishga mo‘ljallangan kosa, lagan, ko‘za hamda suv saqlash idishlaridan iborat xisoblanadi[235]. Ushbu buyumlar shaklan amaliy ehtiyojlarga mos ravishda ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning asosiy vazifasi uzoq muddatli foydalanishga mo‘ljallangan xo‘jalik buyumlari tayyorlashdan iborat bo‘lgan.

Bezak va texnologik jihatdan Urgut buyumlari Samarqand-Buxoro maktabiga yaqin bo‘lsa-da, kompozitsiya soddaroq hamda amaliy yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. Buyumlarda ko‘pincha qo‘rg‘oshinli sir qo‘llanilib, yashil, sarg‘ish va jigarrang rang uyg‘unligi ustunlik qilgan. Naqshlar esa geometrik va o‘simliksimon elementlarning sodda, ammo

[233] Shomirzaev M. Kh., Dosyarov Kh. Ch., Xusanov O‘. S., Avazov J. D., Shaymardonova N. Q. National handicrafts of Uzbekistan and its social-economic significance // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – Vol. 8, No. 8, Part III. – P. 52–56. – ISSN 2056-5852.
[234] Dala yozuvi. 2025 yil iyul oyi.
[235] Dala yozuvi. 2025 yil iyul oyi.

muvozanatli joylashtirilishi orqali bajarilgan[236]. Bu esa buyumlarning kundalik foydalanish uchun moʻljallanganini koʻrsatadi.

XX asr davomida hududda yuz bergan iqtisodiy va ijtimoiy oʻzgarishlar kulolchilik faoliyatiga ham taʼsir koʻrsatgan. Markazlashtirilgan ishlab chiqarish tizimining joriy etilishi natijasida anʼanaviy ustaxonalar faoliyati qisqarib, ayrim hollarda hunar uzilish xavfi doirasida qolgan. Shunga qaramay, ayrim ustalar orqali kulolchilik anʼanalari saqlanib qolgan.

Mustaqillik yillaridan boshlab milliy hunarmandchilikni tiklash va rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati natijasida Urgut hududida ham kulolchilikka qiziqish ortib, mahalliy ustalar faoliyati jonlana boshladi. Turli hunarmandchilik yarmarkalari va koʻrgazmalarda Urgut ustalarining ishtiroki mahalliy anʼanani saqlab qolish va qayta tiklashga xizmat qilmoqda. Xususan, 1995-yildagi 1-Respublika yarmarkasida turli maktab vakillari qatorida Urgutdan Namoz va Noʻmon Oblokulovlar ishtirok etgani va Usta guvohnomasi bilan taqdirlangani qayd etiladi. Umumiy tavsif kontekstida (Buxoro-Samarqand yoʻnalishi uchun) qoʻrgʻoshinli sir hamda sargʻish-yashil va jigarrang ranglar muhimligi aytiladi; bu fikr Urgutni ham oʻz ichiga olgan hududiy maktabning badiiy-texnologik fonini beradi[237].

Shu tariqa Urgut kulolchilik maktabi Samarqand kulolchilik anʼanalari asosida shakllangan boʻlsa-da, vaqt oʻtishi bilan mahalliy ehtiyoj va ijtimoiy-madaniy muhit taʼsirida oʻziga xos amaliy yoʻnaltirilgan kulolchilik yoʻnalishini shakllantirgan hududiy maktab sifatida rivojlanib kelgan. Mazkur hududiy anʼana keyingi qismda koʻrib chiqiladigan boshqa Zarafshon vodiysi kulolchilik markazlari bilan qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.

Toshkent kulolchilik maktabi XIX-XX asrlarda Oʻzbekistonning boshqa kulolchilik markazlaridan nisbatan alohida yoʻnalishda rivojlangan. Shaharning Koʻkcha mahallasida shakllangan kulolchilik markazi Fargʻona vodiysi hamda Samarqand-Buxoro kulolchilik

[236] Dala yozuvi. 2025 yil iyul oyi.

[237] Shomirzaev M. Kh., Dosyarov Kh. Ch., Xusanov Oʻ. S., Avazov J. D., Shaymardonova N. Q. National handicrafts of Uzbekistan and its social-economic significance // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – Vol. 8, No. 8, Part III. – P. 52–56. – ISSN 2056-5852.

maktablari ta’sirida vujudga kelgan[238] bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan o‘ziga xos mahalliy uslubiy xususiyatlarni ham shakllantirgan.

Xususan Toshkent kulolchilik maktabining shakllanishida poytaxt shahri sifatidagi iqtisodiy va madaniy muhit muhim rol o‘ynagan. Shaharda turli hududlardan kelgan ustalar faoliyat yuritgani sababli turli kulolchilik maktablari an’analari o‘zaro uyg‘unlashib, natijada aralash, biroq mahalliy ehtiyojlarga moslashgan yangi yo‘nalish shakllangan.

Toshkent kulollarining bezak tizimida Rishton ustalariga xos ayrim naqsh elementlari uchrasa-da, texnologik jihatdan asosan qo‘rg‘oshinli sir keng qo‘llanilgan. Rang tanlashda esa Buxoro-Samarqand maktabiga xos yashil va sarg‘ish rang uyg‘unligi ustunlik qilgan[239]. Toshkent kulollari mahsulotlari asosan shahar bozorlari orqali aholiga yetkazilgan. Bu holat Toshkent kulolchilik ishlab chiqarishi qishloq xo‘jaligi ehtiyojlariga emas, balki ko‘proq shaharlik iste’molchilar talabiga moslashganini ko‘rsatadi. Shu sababli buyumlar shakli va bezagi ham ko‘proq shahar turmush tarziga moslashgan holda rivojlangan.

XIX asr oxirlariga kelib Rossiyaning markaziy hududlaridan keltirilgan fabrika mahsulotlari bilan raqobat kuchayishi natijasida mahalliy kulolchilik ishlab chiqarish hajmi kamayib, mahsulot sifati ham pasaya boshlagan. Mazkur jarayon an’anaviy hunarmandchilikning sanoat ishlab chiqarishi bilan raqobatda iqtisodiy jihatdan zaiflashganini ko‘rsatadi. Natijada ayrim ustalar boshqa kasblarga o‘tgan, kulolchilik esa faqat ayrim sulolalar doirasida saqlanib qolgan. Shu davrda faoliyat ko‘rsatgan mashhur ustalar qatorida Muhammad va Turob Miraliyevlar, Usta Olim ota Arifxanov hamda Toshpo‘lat Nurmuhamedov nomlari tilga olinadi[240].

Toshkent kulolchilik maktabining rivojida ustoz-shogird an’anasi muhim rol o‘ynagan. Ushbu maktabning eng yirik namoyandalaridan biri Muhiddin Rahimov hisoblanadi. U yoshligidan bobosi Salim ota qo‘lida hunar o‘rganib, keyinchalik 1918-yilda Toshkentda ochilgan hunarmandlik san’ati maktabida ta’lim olgan. Bu yerda u kulolchilik texnologiyasi, sir tayyorlash, sopol pishirish usullari hamda materialshunoslik bo‘yicha chuqur bilimlarni egallagan. 1923-yilda

[238] Hakimov A. O’zbekiston hunarmandchiligi. – Toshkent: Fan, 2023. – B. 28-29.
[239] Hakimov A. O’zbekiston hunarmandchiligi. – Toshkent: Fan, 2023. – B. 28-29.
[240] Hakimov A. O’zbekiston hunarmandchiligi. – Toshkent: Fan, 2023. – B. 28-29.

Moskvada o‘tkazilgan qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilik ko‘rgazmasida Turkiston Respublikasi vakili sifatida qatnashgani uning san’atkor sifatidagi mavqeini mustahkamlagan[241].

Muhiddin Rahimov nafaqat kulol, balki tadqiqotchi sifatida ham faoliyat yuritib, O‘zbekiston kulolchilik markazlarining tarixiy xususiyatlari, texnologiyasi hamda bezak tizimlarini ilmiy jihatdan tahlil qilgan. Uning tadqiqotlarida Rishton, Samarqand, G‘ijduvon, Shahrisabz, Kattaqo‘rg‘on va Xiva kulolchilik markazlarining o‘ziga xosligi keng yoritilgan[242]. Rahimov faoliyati Toshkent kulolchiligida muhim burilish yasab, hunarning faqat amaliy emas, balki ilmiy o‘rganiladigan san’at turi sifatida ham qaralishiga olib kelgan. Bu esa kulolchilik an’analarining ilmiy asosda tiklanishiga xizmat qilgan. U an’anaviy idish shakllarini saqlagan holda yangi kompozitsion yechimlar yaratgan, portretli sovg‘a buyumlar hamda bezak buyumlarini ishlab chiqargan.

M.Rahimovning faoliyati natijasida Toshkent kulolchiligida an’anaviy bezak bilan zamonaviy керамика uslublarining uyg‘unlashuvi yuzaga kelgan. U shuningdek, Toshkentdagi mehmonxona, Ko‘kaldosh madrasasi, Samarqanddagi Tillakori madrasasi va Amir Temur maqbarasini restavratsiya qilish ishlarida ham qatnashgan.

Toshkent kulolchilik maktabining muhim texnologik xususiyatlaridan biri naqshlarning sopol buyumga sir berilishidan avval chizma usulida tushirilishidir. Bu texnologik usul Toshkent kulolchiligida bezakni aniq va barqaror tushirish imkonini bergan bo‘lib, shaharlik buyurtmachilarning didiga mos ravishda murakkab kompozitsiyalar yaratishga xizmat qilgan. M. Rahimov ijodining keyingi bosqichlarida esa boshqa hududiy maktablar tajribasi ham ijodiy tarzda o‘zlashtirilganini ko‘rish mumkin[243].

Muhiddin Rahimov kulollar sulolasining davomchisi sifatida uning o‘g‘li Akbar Rahimov ham bu an’anani davom ettirdi. U an’anaviy shakl, sir va bezak uslublarini qayta tiklash, qadimgi kulolchilik texnologiyalarini tadqiq etish hamda faoliyatga joriy qilish bilan shug‘ullandi[244]. U

[241] Umarov A. Xumdon harorati // O’zbekiston adabiyoti va san’ati gazetasi. 1994 yil 25 noyabr.
[242] Boymurodova K. Sizga havasim keladi // Ishonch gazetasi. 2007 yil 6 mart.
[243] Toshnazarov B. Sulolaning kenja vakili: A. Rahimov // O’zbekiston adabiyoti va san’ati gazetasi. 2001 yil 11 may.
[244] Taktosh R. Yana bir yangi muzey // O’zbekiston adabiyoti va san’ati gazetasi. 1994 yil 28 oktyabr.

Somoniylar davri bezak an’analarini va Amir Temur davriga xos Yolg‘on chinni deb atalgan sopol uslubini qayta tiklashga muvaffaq bo‘ldi.

Akbar Rahimov tomonidan 1994-yilda Muhiddin Rahimov uy-muzeyi hamda 2006-yilda Rahimovlar kulolchilik studiyasining ochilishi[245] Toshkent kulolchilik an’analarining institutsional shaklda davom etishiga xizmat qildi. Mazkur ustaxona va studiyalarning tashkil etilishi kulolchilikning oilaviy hunardan madaniy merosni saqlash va targ‘ib qilish tizimiga aylanish jarayonini ko‘rsatadi. Sulolaning keyingi vakillari, jumladan Alisher Rahimov ijodida ham an’anaviy va zamonaviy kulolchilik uslublarining uyg‘unligi kuzatiladi.

Toshkent kulolchilik maktabi rivojida Mamajonovlar sulolasi vakillari - Mahmud va Abduvohid Mamajonovlarning ham hissasi katta bo‘lib, ular ko‘plab shogirdlar tayyorlab, milliy kulolchilikning zamonaviy shakllarini rivojlantirishga hissa qo‘shgan[246]. Ularning ishlari ko‘plab xalqaro ko‘rgazmalarda namoyish etilgan hamda me’moriy obidalarni bezash ishlarida ham keng qo‘llanilgan.

Bugungi kunda Toshkent kulolchilik maktabi an’anaviy hunarmandchilik, zamonaviy san’at va turizm ehtiyojlari tutashgan muhitda rivojlanmoqda. Bu esa maktabning tarixiy an’analarini saqlab qolish bilan birga, yangi badiiy shakllar paydo bo‘lishiga ham zamin yaratmoqda.

Shu tariqa Toshkent kulolchilik maktabi boshqa hududiy maktablarga nisbatan shaharlik madaniy muhit, ustoz-shogird an’analari va zamonaviy керамика san’ati ta’sirida shakllanib, an’anaviy hunarmandchilik bilan zamonaviy san’at elementlarini uyg‘unlashtirgan o‘ziga xos yo‘nalish sifatida rivojlanib kelgan. Mazkur jarayon keyingi qismda ko‘rib chiqiladigan boshqa hududiy kulolchilik markazlari bilan qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.

Farg‘ona vodiysida shakllangan kulolchilik an’analari tarkibida Andijon kulolchilik markazi alohida yo‘nalish sifatida ko‘riladi. Tadqiqotlarda u Farg‘ona an’anaviy badiiy kulolchilik maktabi doirasidagi markazlardan biri ekani, biroq Rishton bilan qiyoslanganda Andijonda ustalar soni nisbatan kamligi hamda zamonaviy uslublarning ta’siri

[245] Taktosh R. Yana bir yangi muzey // O’zbekiston adabiyoti va san’ati gazetasi. 1994 yil 28 oktyabr.
[246] Obidova D. Usta kulol san’ati gazetasi // O’zbekiston adabiyoti va san’ati gazetasi. 2006 yil 22 dekabr.

kuchliroq ekani qayd etiladi[247]. Shunga qaramay, Andijon markazida tarixan shakllangan texnologik va badiiy tajriba hududiy muhit bilan uzviy bog‘liq holda yashab kelayotgani kuzatiladi.

Andijon shahri Farg‘ona vodiysining janubi-sharqiy qismida joylashgan bo‘lib, tarixan yirik savdo va transport markazlaridan biri hisoblangan. Shu sababli hududda maishiy ehtiyojlarga xizmat qiluvchi kulolchilik buyumlariga talab barqaror saqlanib, kulolchilik uzoq vaqt davomida shahar xo‘jalik hayotining muhim tarkibiy qismi sifatida rivojlangan[248].

Tadqiqotlarda qayd etilishicha, Farg‘ona vodiysi kulolchilik markazlari yagona hududiy madaniy makon sifatida shakllangan bo‘lib, Andijon, Namangan, Qo‘qon va Rishton kabi markazlar o‘zaro kuchli badiiy va texnologik aloqada rivojlangan[249]. Bu esa Andijon kulolchiligi mustaqil markaz bo‘lishi bilan birga, umumiy vodiy an’analari doirasida shakllanganini ko‘rsatadi.

Shakllanish omillari nuqtayi nazaridan Andijon kulolchiligida xomashyo bazasi va hududlararo aloqalar muhim o‘rin tutadi: manbalarda andijonlik ustalar mahalliy oq tuproqni asosiy xomashyo sifatida ishlatishi, tarkibni mustahkamlash hamda angob sifatida qo‘llash maqsadida Tojikiston hududidagi Isfara qizil gili va Qirg‘izistonning Nookat tumani atrofidagi tog‘ etaklaridan olinadigan temir aralash qizil tuproqdan ham foydalangani keltiriladi[250]. Bu holat Andijon kulolchiligida mahalliy resurs va mintaqaviy xomashyo kombinatsiyasi orqali texnologik barqarorlikka erishilganini anglatadi.

XIX asr Andijon kulolchilik hayotida yetakchi ustalar tilga olinadi: xususan, Xalil Azimov (1838-1925), shuningdek Alimboy Xoja (1830-1900) va uning o‘g‘li Qasim (1850-1920) kabi ustalar nomi qayd

[247] Madaminovna D. M. Andijan Pottery Centre and The Creative Way of The Masters // The European Journal of Arts. – 2024. – No. 4. – P. 106–110. – DOI: 10.29013/EJA-24-4-106-110. – Электрон ресурс. – URL: https://ppublishing.org/media/uploads/journals/article/Arts-4_p106-110.pdf (мурожаат қилинган сана: 09.02.2026).
[248] Дервиз Г., Жадова Л., Жданко И., Митлянский Д. Современная керамика народных мастеров Средней Азии: альбом. – М.: Советский художник, 1974. – 236 с.: ил.
[249] Дервиз Г., Жадова Л., Жданко И., Митлянский Д. Современная керамика народных мастеров Средней Азии: альбом. – М.: Советский художник, 1974. – 236 с.: ил.
[250] Madaminovna D. M. Andijan Pottery Centre and The Creative Way of The Masters // The European Journal of Arts. – 2024. – No. 4. – P. 106–110. – DOI: 10.29013/EJA-24-4-106-110. – Электрон ресурс. – URL: https://ppublishing.org/media/uploads/journals/article/Arts-4_p106-110.pdf (мурожаат қилинган сана: 09.02.2026).

etilgan[251]. Bu ma’lumotlar Andijonda kulolchilikning sulolaviy va ustaxonalar atrofida rivojlanganini asoslash uchun ishlatilishi mumkin. Shu bilan birga, XX asrda va keyingi davrlarda Andijon kulolchilik tajribasi ko‘proq markaz (ustalar va ustaxonalar atrofida) ko‘rinishida saqlanib qolganini ko‘rsatadigan dalillar ham bor: Andijon viloyat Tarix va madaniyat muzeyi fondida Andijon hududidan topilgan turli davrlarga oid sopol buyumlar alohida davrlashtirish asosida taqdim etilishi, XIX-XX asr ustalarining ishlari amaliy san’at bo‘limida saqlanishi keltiriladi[252]. Bu esa Andijon kulolchiligini faqat ishlab chiqarish emas, balki madaniy xotira va muzeylashtirish tizimlari orqali uzluksiz qo‘llab-quvvatlanayotgan hodisa sifatida talqin qilish imkonini beradi.

XX asr o‘rtalariga kelib Andijon, Namangan va ayrim qo‘shni markazlarda kulolchilik saqlanib qolgan bo‘lsa-da, ishlab chiqarish hajmi qisqargan va buyumlarning badiiy sifati pasayganligi kuzatiladi. Bunga sanoat mahsulotlari kirib kelishi hamda hunarmandchilik ustaxonalari iqtisodiy raqobatga bardosh berishda qiynalgani sabab bo‘lgan.

Andijon maktabiga xos buyumlarda sariq-jigarrang va yashil ranglar uyg‘unligi keng qo‘llanilib, lagan va kosalar asosan o‘simliksimon naqshlar bilan bezatilgan. Naqshlar ko‘pincha jigarrang kontur bilan chizilib, butun buyum yuzasiga, jumladan, chet qismlariga ham yoyilgan. Bezakda mayda grafika emas, balki rangli va yirik kompozitsion tasvir ustunlik qiladi, shtamp usulida gul va yulduzsimon elementlardan ham keng foydalanilgan[253].

Bu xususiyat Andijon buyumlarining kundalik foydalanishga mo‘ljallanganligini ko‘rsatadi, ya’ni bezakdan ko‘ra buyumning amaliy vazifasi ustuvor bo‘lgan. Shu jihatdan Andijon kulolchiligida dekorativlik bilan birga maishiy ehtiyojlarga moslashuv kuchli saqlanib qolganini kuzatish mumkin.

---

[251] Madaminovna D. M. Andijan Pottery Centre and The Creative Way of The Masters // The European Journal of Arts. – 2024. – No. 4. – P. 106–110. – DOI: 10.29013/EJA-24-4-106-110. – Электрон ресурс. – URL: https://ppublishing.org/media/uploads/journals/article/Arts-4_p106-110.pdf (мурожаат қилинган сана: 09.02.2026).

[252] Kambarov M.K. To expand the understanding of the development of ceramics to students of the educational areas of fine and applied arts (Andijon viloyati Tarix va madaniyat muzeyi fondidagi kulolchilik namunalari haqida maqola) // American Journal of Pedagogical and Educational Research. – 2024. – Vol. 31. – Электрон ресурс. – URL: https://media.neliti.com/media/publications/607856-to-expand-the-understanding-of-the-devel-4d0b7663.pdf (мурожаат қилинган сана: 09.02.2026).

[253] Dala yozuvi 2025 yil iyul.

Manbalarda Andijon viloyatining mashhur ustalaridan biri sifatida Abduvahob Yunusov nomi tilga olinadi[254]. U o‘z o‘g‘illari bilan birgalikda faoliyat yuritib, sulolaviy kulolchilik an’analarini davom ettirgan. Yunusov ustaxonasida yaratilgan laganlarda ishqoriy sir doirasida kobalt va firuza ranglarning yorqin uyg‘unligi qo‘llanilib, bezak kompozitsiyasida Rishton kulolchilik maktabining rivojlangan davr uslubi ta’siri seziladi.

Kosalar keng yoyilgan chet qismi bilan ajralib turib, oq fon ustiga yashil-ko‘k rangda ishlangan naqshlar marganets bilan chizilgan konturlar orqali kuchli kontrast hosil qiladi. Manbada keltirilgan namunalar Andijon maktabiga xos xochsimon kompozitsion bo‘linish hamda o‘simliksimon bezaklarning uyg‘unligi orqali hududiy uslubning shakllanganini ko‘rsatadi.

So‘nggi davr mahsulotlarida jigarrang-sariq ranglar hamda yashil qo‘shimcha ohanglar keng qo‘llanila boshlagani qayd etiladi. Xodjidiyaev aka-ukalari kabi ustalar ijodida ham Yunusov maktabi ta’siri kuzatiladi[255].

Mahalliy ijtimoiy-madaniy muhit bilan bog‘liqlik masalasida mustaqillik yillarida ustoz-shogird tizimi va institutlar ko‘magida faol ustaxonalar mavjudligi alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, 2024-yilda Oltinko‘l tumani Jalabek qishlog‘ida yashovchi, kulollar sulolasining 14-avlodi sifatida ta’riflangan usta Mirzabahrom Abduvahobovning xonadonidagi ustaxona faoliyati, uning Hunarmand uyushmasi ko‘magida ta’mirlangani va ustaxonaga zamonaviy jihozlar topshirilgani haqida rasmiy xabar berilgan. Xabarda usta ayni paytda ustoz-shogird an’anasi asosida shogirdlar tayyorlayotgani ham qayd etiladi[256]. Ilmiy maqolada esa Mirzabahrom Abduvahobov Andijon kulolchilik markazida bugungi ijodiy jarayonni ifodalovchi muhim shaxs sifatida tilga olinib, amaliy tahlilning so‘nggi usta fenomeni orqali olib borilishi ko‘rsatiladi[257]. Demak, mustaqillik davrida Andijon kulolchilik an’analari sulola va ustaxona hamda institut ko‘magi uchligi asosida tiklanish va davomiylikka erishayotganini dalillash mumkin.

---

[254] Дервиз Г., Жадова Л., Жданко И., Митлянский Д. Современная керамика народных мастеров Средней Азии: альбом. – М.: Советский художник, 1974. – 236 с.: ил.

[255] Дервиз Г., Жадова Л., Жданко И., Митлянский Д. Современная керамика народных мастеров Средней Азии: альбом. – М.: Советский художник, 1974. – 236 с.: ил.

[256] Ubaydullayev F., Umrzoqov Z. (surat). Usta kulolga kulolchilik dastgohlari topshirildi // O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (O‘zA / UZA). – 2024. – 8-oktabr. https://uza.uz/posts/643393 (murojaat qilingan sana: 09.02.2026).

[257] Muydinova D. M. Andijan Pottery Centre and The Creative Way of The Masters // The European Journal of Arts. – 2024. – No. 4. – P. 106–110. – DOI: 10.29013/EJA-24-4-106-110.

Mustaqillik yillarida milliy hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati Andijon viloyatida ham kulolchilik an’analarining qayta tiklanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi[258]. Natijada hududda faoliyat yuritayotgan mavjud yagona kulol usta uchun zarur shart-sharoitlar yaratilib, ustaxonalarning moddiy-ishlab chiqarish bazasini mustahkamlashga e’tibor qaratila boshlandi.

Manbalarda qayd etilishicha, Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan usta kulollardan biri Mirzabahrom Abduvahobov ustaxonasining faoliyati ham davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, zamonaviy kulolchilik dastgohlari bilan ta’minlangan. Bu holat hunarmandchilikni rivojlantirish siyosatining amaliy natijasi sifatida kulolchilik ishlab chiqarish jarayonini zamonaviy ishlab chiqarish vositalar bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qilayotganini ko‘rsatadi[259].

Shuningdek, Andijon shahrida joylashgan ayrim kulol ustaxonalarining turistik marshrutlar tarkibiga kiritilishi hunarmandchilikni faqat ishlab chiqarish sohasi sifatida emas, balki madaniy merosni namoyish etuvchi va sayyohlik infratuzilmasining muhim tarkibiy qismi sifatida ham rivojlanayotganini ko‘rsatadi[260]. Bu esa zamonaviy bosqichda kulolchilik maktablarining iqtisodiy va madaniy funksiyalari kengayib borayotganidan dalolat beradi.

Natijada Andijon kulolchilik maktabi an’analari mustaqillik davrida yangi sharoitlarga moslashgan holda saqlanib qolib, hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash siyosati, turizm infratuzilmasi va mahalliy ustalar faoliyati orqali davom ettirilmoqda. Mazkur jarayon hududiy kulolchilik maktablarining zamonaviy bosqichdagi rivojlanish xususiyatlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Farg’ona vodiysi hududida Rishton, Andijon kabi yirik kulolchilik markazlari qatorida tabiiy ishqorli sir asosida tayyorlanadigan sopol mahsulotlari bilan ajralib turadigan G’urumsaroy kulolchilik markazi ham muhim o’rin tutadi.

---

[258] Ubaydullayev F., Umrzoqov Z. (surat). Usta kulolga kulolchilik dastgohlari topshirildi // O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (O‘zA / UZA). – 2024. – 8-oktabr. https://uza.uz/posts/643393 (murojaat qilingan sana: 09.02.2026).

[259] Ubaydullayev F., Umrzoqov Z. (surat). Usta kulolga kulolchilik dastgohlari topshirildi // O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (O‘zA / UZA). – 2024. – 8-oktabr. https://uza.uz/posts/643393 (murojaat qilingan sana: 09.02.2026).

[260] Andijon viloyatidagi turistik marshrut obyektlari ro‘yxati // O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (Lex.uz). – Elektron resurs. – URL: https://lex.uz/mact/-5339469 (murojaat qilingan sana: 09.02.2026).

G’urumsaroy markazi shakllanishida mahalliy tabiiy muhit hal qiluvchi omil bo’lgan. Manbada qishloq tuprog’ining tozaligi va olovga chidamliligi, havoning changsizligi bilan birga, tog’ va tog’oldi hududlarda o’sadigan qirqbo’g’in hamda gulak o’simliklari tabiiy sir olishda muhim xomashyo sifatida qayd etish mumkin. Shuningdek, Chodaksoy bo’ylaridagi toshlardan olinadigan tabiiy bo’yoqlar ham mahalliy koloritni shakllantirgan omil sifatida qayd etish o‘rinlidir.

G’urumsaroy markazi Farg’ona vodiysida Rishtondan keyingi mashhur markaz sifatida tilga olinadi. Unga taxminan XVIII asr boshlarida mahalliy Usta Kulol Kuhiy asos solgani qayd etiladi[261]. Bu bosqichda markazning ustaxonalar tizimi mahalliy resurslar va bozor talabiga mos holda shakllangan.

Keyingi bosqichda markazda sulolaviy va ustoz-shogird an’analari orqali kulolchilik faoliyati davom etgan. Usta Kuhiy avlodidan Mullo Shermuhammad Muhammad Murod o’g’li kulol domla va tovoqchi qori nomi bilan mashhur bo’lib, asosan xalq iste’moli uchun kosa, tovoq, piyola, ko’za, xum, tandir va sopol quvur kabi buyumlar tayyorlagani bayon etiladi[262].

XX asrning o‘rtasi va ikkinchi yarmida markazda ustalar faoliyati jadallashgan. Akademik A. Hakimov[263] ma’lumotlariga ko‘ra 1960-1980 yillarda G‘urumsaroyda bir qator ustalar ishlagan. Bu davrda markazda jami 14 nafar kulol faoliyat yuritganini ko‘rsatadi. Bu raqam G‘urumsaroyda kulolchilikning jamoaviy ishlab chiqarish muhiti shakllanganini tasdiqlaydi.

G‘urumsaroy misolida kulolchilik faqat badiiy faoliyat sifatida emas, balki mahalliy turmush tarzi va ijtimoiy mavqe bilan bog‘liq hunar sifatida namoyon bo‘ladi. Mullo Shermuhammad haqida keltirilgan ma’lumotlarda uning ma’rifiy-diniy faoliyati bilan birga, asosiy tirikchilik manbai kulolchilik ekani alohida ta’kidlanadi[264]. Bu holat markazda hunarning ijtimoiy qadri va iqtisodiy ahamiyatini ko‘rsatadi.

G‘urumsaroy kulollarining barkash, nimbarkash, nimtavoq, qaymoqdon, kosa, piyola, qo‘shquloq, katta ko‘zalagancha kabi

[261] Ўзбекистон санъати. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 62-64.
[262] Муҳаммад Яҳёхон Ҳуқандий. Ҳўқандий латиф манoқиби (Тазкира). Тошкент: Movarounnahr, 2018. - Б. 295-297.
[263] Ҳакимов А. Ўзбекистон ҳунармандчилиги. – Тошкент: Очун, 2023. – Б. 448.
[264] Муҳаммад Яҳёхон Ҳуқандий. Ҳўқандий латиф манoқиби (Тазкира). Тошкент: Movarounnahr, 2018. - Б. 295-297.

mahsulotlari bejrimligi va ranglarining tiniqligi bilan mashhur ekani qayd etiladi[265]. Bezak tizimida oq-moviy va oq-koʻk tus ustunligi, zoomorf va oʻsimliksimon unsurlardan foydalanish maktabning ajralib turadigan belgilaridan sanaladi. Naqshlarda Chorbarg , Gajjaklar , Tuya koʻz , Bodomcha , Larzana , Ilon yoʻli kabi mahalliy namuna nomlarining qayd etilishi Gʻurumsaroy ornamentikasida barqaror uslubiy lugʻat shakllanganini anglatadi[266].

Gʻurumsaroy markazining boshqa markazlardan eng muhim farqi tabiiy ishqorli sir texnologiyasida namoyon boʻladi. Manbada gulak va qirqboʻgʻin oʻsimliklarini kuydirib kuli olish, uni oqtosh bilan ma’lum nisbatda aralashtirish, yuqori haroratda eritish, hosil boʻlgan qattiq massani maydalash-elakdan oʻtkazish-suv va ohak bilan suyultirish bosqichlari orqali suyuq sir tayyorlash jarayoni batafsil bayon qilingan[267]. Bu texnologik zanjir Gʻurumsaroy kulolchiligida tabiiy xomashyo-an’anaviy bilim-ustaxona faoliyati uzviyligi saqlanganini koʻrsatadi.

XX asrning 70-yillarida markazda faol ustalar qatorida Mahmud tovoqchi Rahimov nomi alohida ta’kidlanadi; uning ijodida Gʻurumsaroy moviy keramikasi uslubi shakllangani, tovoqlarida kompozitsiya aniqligi kuzatilishi va naqshni bir necha asosiy guruhga ajratish mumkinligi qayd etiladi[268]. Uning ishlarida bezakning monumentalligi, soddalik va zangori kolorit ustunligi, ayrim namuna asarlar xalqaro muzeyda namoyish etilgani ta’kidlanadi.

Maqsudali Turopov ijodida esa an’anaviy Gʻurumsaroy uslubi saqlangan holda bezak va shakl tanlashda erkinlik, rangtasvir-akvarelli talqin kuchaygani va u shogirdlar tayyorlagani qayd etiladi[269]. Unga YUNESKO tomonidan Jahon ustasi sertifikati berilgani toʻgʻrisidagi ma’lumot markaz an’analarining xalqaro miqyosda ham e’tirof etilganini koʻrsatadi.

---

[265] Хакимов А. А. Современное декоративное искусство республик Средней Азии (к проблеме традиций и новаторства). – Ташкент. - Издательство Фан,. - 1988. – С. 88.

[266] [266] Буваев В. Ғурумсарой кулолчилик мактаби // "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal / ISSN 2181-063X Volume 3 Issue 4 / December 2022. – p. 707.

[267] Буваев В. Ғурумсарой кулолчилик мактаби // "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal / ISSN 2181-063X Volume 3 Issue 4 / December 2022. – p. 707.

[268] Жаббаров Б.Ғ. Ғурумсарой кулолчилик марказига хос бўлган технологик жараён // Ғурумсарой бадиий кулолчилик мактаби қадимий анъаналарини қайта тиклаш ва бадиий кулолчилик таълим йўналишида юқори малакали кадрлар тайёрлаш истиқболлари мавзусидаги Халқаро анжуман материаллари. – Наманган., 2025. – Б. 29.

[269] Хакимов А. А. Современное декоративное искусство республик Средней Азии (к проблеме традиций и новаторства). – Ташкент. - Издательство Фан,. - 1988. – С. 88.

G‘urumsaroy sirlangan buyumlaridagi o‘ziga xos ko‘zgu naqsh tamoyili (naqshning bir vaqtda fon va bezak vazifasini bajarishi, ko‘k-oq unsurlarning navbat bilan fon-naqsh roliga o‘tishi) markazning ajratib turuvchi estetik kodi sifatida ta’riflanadi. Shuningdek, XX asrning 70-yillarida Rishton ustalaridan Sharofiddin Yusupov G‘urumsaroyga kelib mahalliy uslubni o‘rgangani haqidagi ma’lumot markazlararo badiiy almashinuvning amaliy misoli sifatida ahamiyatlidir[270].

Hozirgi davrda esa Vahobjon Buvayev G‘urumsaroy an’analarini davom ettiruvchi usta sifatida tilga olinadi. U XIX asr oxiri - XX asr boshlariga oid mahalliy buyumlar kolleksiyasini to‘plab, markazning mumtoz qonuniyatlarini o‘rganib ijodiy o‘zlashtirayotgani, shakl va naqsh unsurlarini ehtiyotkorona talqin etish orqali shaxsiy-ijodiy yangilik kiritayotgani qayd etiladi[271]. U bezakda chorbarg , bo‘tsimon , gultoji xo‘roz , islimi gul , chetan kabi yo‘sinlarning variantlarini, hoshiyada esa geometrik va o‘simliksimon shakllarni keng qo‘llayotgani ta’kidlanadi.

Shu tariqa, G‘urumsaroy kulolchilik markazi tabiiy resurslar va ishqorli sir texnologiyasiga tayanilgan holda shakllangan; XVIII asrdan boshlangan tarixi XX asrda ustalar ijodi orqali uslubiy tizimga aylangan; mustaqillik yillarida esa ustoz-shogird, kolleksiya-tadqiq-tiklash tizimlari orqali markaz an’analari qayta jonlanayotgan alohida lokal kulolchilik markazi sifatida baholanishi mumkin.

Qashqadaryo vohasida shakllangan Shahrisabz kulolchilik maktabi mahsulotlari iliq ranglar ustunligi hamda erkin rangtasvir bezaklari bilan ajralib turadi. Bu maktab uchun zarhal va to‘q sariq rangli bezaklarning qo‘llanishi xos bo‘lib, ayniqsa mayda, yassi laganlarning keng tarqalganligi kuzatiladi. Bunday buyumlarning asosiy yuzasi yumaloq medalonlar bilan bezatilib, ular orasiga uchbarg va to‘pbarggul shaklidagi bezak elementlari joylashtirilgan[272].

Shahrisabz ustalari yassi idishlar bilan bir qatorda maishiy ehtiyojlar uchun mo‘ljallangan, sut va turli oziq-ovqat mahsulotlarini saqlashga xizmat qiluvchi cho‘zinchoq shakldagi idishlar ham

[270] Хакимов А. Керамики Гурумсарай: локальные особенности и судьба традиции // Ғурумсарой бадиий кулолчилик мактаби қадимий анъаналарини қайта тиклаш ва бадиий кулолчилик таълим йўналишида юқори малакали кадрлар тайёрлаш истиқболлари мавзусидаги Халқаро анжуман материаллари. – Наманган., 2025. – Б. 3.

[271] Буваев В. Ғурумсарой кулолчилик мактаби // "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal / ISSN 2181-063X Volume 3 Issue 4 / December 2022. – p. 709.

[272] Ҳакимов А. Ўзбекистон санъати тарихи. – Тошкент., 2022. – Б. 446.

tayyorlashgan. XX asr oʻrtalarida bu markaz sirlangan kulolchilik anʼanalarini mashhur ustalar K. Hazratqulov, U. Rustamov va A. Muzaffarovlar ijodida davom etgani qayd etiladi[273].

Shahrisabz kulolchilik maktabining shakllanishida sulolaviy uzviylik ham muhim oʻrin tutadi. Rustom bobo Egamberdiyev kulolchilikda mustaqil maktab yaratgan ustalardan biri sanaladi. Keyinchalik Karim kulol, Muzaffar kulol va Axat kulollar ushbu anʼanani davom ettirganlar. Ayniqsa, Axat kulol Muzaffarov tomonidan tayyorlangan kosa, koʻza, piyola hamda uy-roʻzgʻor buyumlari keng tarqalgan. Uning oʻgʻli Zayniddin Muzaffarov ham ushbu hunarni davom ettirib, mahalliy sopol buyumlarning sifat jihatidan qoʻrgʻoshin va tabiiy moddalar asosidagi sir bilan ishlov berilishi ularni boshqa hudud mahsulotlaridan ajratib turishini taʼkidlaydi[274].

Baʼzi hollarda ustalar laganlarga katta hajmdagi baliq tasvirlarini ham tushirishgan. Bu esa zoomorf bezaklarning ham muhim oʻrin tutganini koʻrsatadi. Qashqadaryo vohasida kulolchilik anʼanaviy ravishda ikki yoʻnalishga — kosagarlik va koʻzagarlikka boʻlingan. Kosagar ustalar lagan, kosa, tovoq, togʻora va piyola kabi buyumlar tayyorlagan boʻlsa, koʻzagar ustalar turli hajmdagi koʻza, xum, xumcha, qoʻshquloq va boshqa idishlar ishlab chiqarganlar[275].

Shahrisabzda yirik hajmdagi xumlarning kam ishlab chiqarilganligi mahalliy tuproq tarkibida mayda toshlarning koʻpligi bilan izohlanadi. Natijada katta idishlar quritish jarayonida yorilib ketgan.

Mahalliy kulollar buyum tayyorlashda mola, kamarcha, harosh, yogʻoch taroq, kapcha, charm qalam va boshqa anʼanaviy asboblardan foydalanganlar. Pishirish jarayoni katta xumdonlarda amalga oshirilgan[276].

Sopol buyumlar sirli va sirlanmagan turlarga ajralgan. Sirlanmagan buyumlarga tandir, yirik xumlar va ayrim maishiy idishlar kirgan boʻlsa, qolgan mahsulotlar rangli naqshlar bilan bezatilib, qisman yoki toʻliq sirlangan. Sir tayyorlashda oq qum, oq tosh, qalay va mis oksidlari, kobalt,

[273] Ҳакимов А. Ўзбекистон санъати тарихи. – Тошкент., 2022. – Б. 446.
[274] Тўраев Х. Кулоллар сулоласи // Ишонч. 2005 йил 1 апрель.
[275] Ҳамидова М. XVIII – XX аср бошларида Шаҳрисабз воҳаси кулолчилиги тарихидан // Мозийдан садо. – 2008. – №4. – Б. 12
[276] Давлатова С. Ўзбек анъанавий ҳунармандчилиги тарихий жараёнлар контекстида (Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудлари мисолида) тарихий-этнологик тадқиқот. – Тошкент., 2018. – Б. 139.

shuningdek qirqbo‘g‘in, choroynak, sartirnoq kabi o‘simliklardan foydalanilgan. Sirning idishga yaxshi singishi uchun o‘simlik ishqori qo‘llanilgan.

Shahrisabz vohasi sirlangan idishlar ishlab chiqarish markazlaridan biri bo‘lib, bu yerda Samarqand va Buxoro maktablari ta’sirida sariq-jigarrang rangli sirlangan buyumlar ishlab chiqarilgan. Qarshi kulollari esa boshqa rang va bezak uslubiga ega mahsulotlar tayyorlaganlar. Ayrim buyumlarda ilon tasvirlari qo‘llanib, bu bezaklar Markaziy Osiyoning boshqa hududlaridagi zoomorf naqshlar bilan uyg‘unlik kasb etgan.

Kosagar ustalar sirli idishlarni bezashda me’moriy bezaklarda keng qo‘llaniladigan mehrobi islimiy, modahil, gajak, panjara kabi naqsh elementlaridan ham foydalanganlar. Bu bezaklarning ayrimlari qadimiy e’tiqodiy va marosimiy qarashlar bilan bog‘liq holda shakllangan.

Voha kulolchiligida mahalliy xususiyatlar bilan bir qatorda butun Markaziy Osiyo hududiga xos umumiy an’analar ham mujassam bo‘lib, ayniqsa Buxoro va Samarqand maktablari ta’siri sezilib turadi. Bu esa qo‘shni hududlar bilan savdo aloqalari hamda ustoz-shogird an’analarining hududlararo almashinuvi bilan bog‘liq holda shakllangan deb baholanadi.

Sovet davrida kulolchilik yo‘qolib ketmagan, biroq keyinchalik sanoat asosidagi chinni va fayanc mahsulotlarining ommalashuvi sabab an’anaviy kulolchilik mahsulotlarining maishiy hayotdagi o‘rni qisqara boshlagan.

Voha kulolchiligida sirlanmagan idishlarga bo‘rtma naqsh berish keng tarqalgan bo‘lib, zoomorf va ramziy belgilar — ilon, ayol siymosi, qo‘chqor shoxi kabi tasvirlar qo‘llangan. XVIII asr oxiri — XX asr boshlarida Qarshi hududida ishlab chiqarilgan ayrim buyumlarda yulduzsimon va o‘simliksimon naqshlar qo‘llanilgan[277].

Shahrisabz kulolchiligida geometrik va o‘simliksimon naqshlar uyg‘unligi kuzatiladi. Masalan, zulfak, sergul naqshlari keng uchrasa, boshqa hududlarda jiydagul, butagul, bodomcha yoki panjagul kabi bezak elementlari ustunlik qiladi.

Shogirdlik an’analari haqida ayrim manbalarda 17-20 yoshdan boshlanishi qayd etilsa-da, amaliy tajribalar kulolchilik hunari ko‘pincha

[277] Пугаченкова Г.А. Очиқ осмон остидаги музей. Т. 1981. 15-бет

bolalikdan oʻrgatilganini koʻrsatadi. Qashqadaryo vohasida ham bolalar yoshligidan ustaxona muhitiga jalb qilingan[278].

Mahalliy ustalar orasida Karim Hazratqulov alohida e'tirof etilib, u Shahrisabz kulolchiligining oʻziga xos maktabini yaratgan ustalardan biri sifatida tilga olinadi. 1943 yilda Shahrisabzda oʻquv-ishlab chiqarish badiiy kombinati ishga tushirilgani esa kulolchilikni tizimli ravishda rivojlantirishga xizmat qilgan.

Yuqorida koʻrib chiqilgan Rishton, Gʻijduvon, Xorazm, Samarqand, Urgut, Toshkent, Andijon, Gʻurumsaroy va Shahrisabz kulolchilik maktablarining tarixiy rivojlanishi shuni koʻrsatadiki, Oʻzbekiston hududida kulolchilik markazlari yagona madaniy an'ana doirasida shakllangan boʻlsa-da, ularning rivojlanish yoʻli hududiy tabiiy sharoit, ijtimoiy-iqtisodiy muhit hamda mahalliy hunarmandchilik sulolalarining uzviy davomiyligi bilan chambarchas bogʻliq holda kechgan.

Avvalo, kulolchilik maktablarining shakllanishida tabiiy omillarning hal qiluvchi oʻrin tutgani kuzatiladi. Rishton, Gʻurumsaroy va Xorazm hududlarida sifatli gil konlari hamda sir tayyorlash uchun zarur boʻlgan tabiiy xom ashyoning mavjudligi kulolchilikning uzluksiz rivojlanishiga zamin yaratgan. Aksincha, ayrim hududlarda tuproq tarkibining yirik hajmli buyumlar tayyorlashga mos kelmasligi ishlab chiqarish koʻlamiga ta'sir koʻrsatgan.

Ikkinchi muhim omil sifatida savdo yoʻllari va shahar madaniyati bilan bogʻliqlik namoyon boʻladi. Samarqand, Buxoro va Toshkent kabi yirik savdo markazlarida kulolchilik mahsulotlari keng iste'mol qilinib, bozor talabiga mos ravishda buyum shakllari va bezak uslublari takomillashgan. Bu markazlarda ishlab chiqarish faqat maishiy ehtiyojni emas, balki savdo va almashinuv tizimini ham ta'minlagan.

Kulolchilik maktablarining barqaror saqlanib qolishida sulolaviy hunar davomiyligi alohida ahamiyat kasb etadi. Rishton, Gʻijduvon, Samarqand va Gʻurumsaroy markazlarida ustoz-shogird tizimi orqali hunar avloddan avlodga oʻtib, texnologik tajriba va bezak an'analari saqlanib qolgan. Ayrim hududlarda esa, ayniqsa XX asr oʻrtalarida sanoat mahsulotlarining keng tarqalishi natijasida ustaxonalar faoliyati susayib, ayrim mahalliy uslublar yoʻqolish xavfi doirasida qolgan.

[278] Развадовский В.К. Исследование гончарного и некотор.... – № 6. – С. 641.

XX asr davomida kulolchilikning artel va zavod tizimiga moslashtirilishi an’anaviy ishlab chiqarish jarayonlarining soddalashishiga olib kelgan bo‘lsa-da, ayrim markazlarda ustalar an’anaviy usullarni saqlab qolishga muvaffaq bo‘lgan. Mustaqillik davridan boshlab esa milliy hunarmandchilikni qayta tiklashga qaratilgan davlat siyosati natijasida ko‘plab tarixiy kulolchilik markazlari yana jonlana boshladi.

Bugungi kunda hududiy maktablar orasida eng barqaror saqlanib qolgan markaz sifatida Rishton kulolchilik maktabi e’tirof etilsa, G‘ijduvon, G‘urumsaroy, Shahrisabz va Andijon hududlarida ham an’analarni tiklash va yangi ustalar avlodini tayyorlash jarayonlari kuzatilmoqda. Toshkent va Samarqand maktablarida esa an’anaviy kulolchilik zamonaviy badiiy keramika bilan uyg‘unlashib, yangi yo‘nalishlar shakllanmoqda.

Umuman olganda, O‘zbekiston hududiy kulolchilik maktablari tarixiy taraqqiyot jarayonida tabiiy muhit, savdo-iqtisodiy sharoit hamda mahalliy ijtimoiy-madaniy an’analar ta’sirida shakllanib, turli davrlardagi siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlarga moslashgan holda bugungi kungacha yetib kelgan. Mazkur maktablarning zamonaviy rivojlanish jarayonlari esa milliy madaniy merosni saqlash hamda hududiy identitetni mustahkamlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tadqiqotning mazkur bobi XIX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida kulolchilik maktablarining vujudga kelishi va tarixiy taraqqiyoti, hududiy xususiyatlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy sharoit bilan bog‘liq o‘zgarishlari tahlil qilinib, arxiv manbalari, tarixiy ma’lumotlar va dala tadqiqotlari asosida kulolchilik maktablarining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va ular faoliyatiga ta’sir ko‘rsatgan omillar yoritildi va ushbu jarayon quyidagi xulosalarni shakllantirishga imkon berdi.

O‘zbekiston hududida kulolchilik an’analari neolit davridayoq shakllanib, bronza davriga kelib ishlab chiqarish texnologiyasi barqarorlashgani, mahsulot turlarining ko‘paygani hamda ixtisoslashuv jarayoni boshlanganligi aniqlanadi. Biroq ushbu bosqich kulolchilik maktabining ijtimoiy institut sifatida shakllanganini emas, balki hunarning moddiy-texnologik ildizlari va uzoq tarixiy davomiyligini tasdiqlaydi.

Antik va o‘rta asrlar davrida shaharlashuv jarayonining kuchayishi natijasida kulolchilik ishlab chiqarishi shahar iqtisodiy hayoti bilan uzviy bog‘lanib, ustaxona faoliyati, sirlangan sopol va koshinchilikning rivojlanishi orqali mustaqil hunarmandchilik tarmog‘i darajasiga ko‘tarilgan. Bu bosqich kulolchilikning oddiy maishiy faoliyatdan professional shahar hunarmandchiligi tizimiga o‘sish davri sifatida baholanadi.

Qolaversa, ta’kidlash lozimki, koshinchilikning shakllanishi mintaqada me’morchilik jarayonlarining yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qilgan. Pishiq va rangli koshinlardan foydalanish nafaqat inshootlarning tashqi ko‘rinishini bezash, balki ularning konstruktiv mustahkamligini ta’minlash hamda bezak san’atini me’moriy muhit bilan uyg‘unlashtirish imkonini bergan. Natijada me’moriy obidalar estetik va ramziy mazmun kasb etib, hududiy madaniy identitetning muhim vizual ifodasiga aylangan. Bugungi kunda ham koshin bilan bezatilgan tarixiy binolar mahalliy jamiyat va sayyohlarga estetik zavq ulashib, mintaqaning boy madaniy merosini namoyon etib kelmoqda.

Ijtimoiy-antropologik yondashuvga tayangan holda kulolchilik maktablarining institutsional shakllanishini XV-XVIII asrlar bilan bog‘lash ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi. Aynan shu davrda shaharlashuv, ichki savdo aloqalarining kengayishi va hunarmandchilik mahallalarining barqarorlashuvi natijasida ustoz-shogird tizimi mustahkamlanib, kasb sirlarini uzatish tizimlari va hududiy uslubiy farqlar aniq shakl ola boshlaydi. Shu tariqa kulolchilik maktablarining jamiyat tomonidan tan olinib, barqaror tizimga aylanishi uchun zarur ijtimoiy zamin yuzaga keladi.

XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida kulolchilik markazlari ilmiy va tavsifiy manbalarda aniq hududiy nomlar bilan qayd etilib, ularning rang-bezak tizimi hamda texnologik xususiyatlari tasvirlana boshlaydi. Shu bois mazkur davrni maktablarning vujudga kelish bosqichi emas, balki ularning identifikatsiya qilinishi va ilmiy muomalada tan olinishi kuchaygan davr sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

1920-1950-yillarda yuz bergan siyosiy-iqtisodiy o‘zgarishlar kulolchilik maktablari faoliyatida tub tashkiliy transformatsiyani yuzaga keltirdi. Kooperativ va artel tizimiga o‘tish natijasida ishlab chiqarish

standartlashuvi kuchaygan, ayrim hududiy uslubiy tafovutlar qisqargan bo‘lsa-da, ustalar tajribasi va texnologik an’analar to‘liq uzilmagan. Mazkur bosqichni inqirozdan ko‘ra, moslashuv va saqlanib qolish davri sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi.

1960-1980-yillarda kulolchilik maktablari badiiy meros sifatida e’tirof etilib, ilmiy tadqiqotlar va ko‘rgazmalar orqali hududiy uslublar tizimlashtirildi hamda kulolchilik maktabi tushunchasi yanada mustahkamlandi, biroq shu bilan birga davlat tizimidagi ishlab chiqarish jarayonlari ayrim hollarda mahsulotlarning standartlashuviga olib kelganligi sababli bu davr kulolchilik maktablari tarixida bir tomondan ilmiy-legitimatsiya va badiiy tiklanish, ikkinchi tomondan esa qisman standartlashuv jarayonlari bilan xarakterlanadi.

Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab milliy madaniy merosni tiklash va an’anaviy hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylanishi natijasida kulolchilik faoliyati sovet davrining so‘nggi bosqichida asosan mahalliy ehtiyoj doirasida saqlangan holatdan chiqib, milliy iqtisodiyot, madaniyat va turizm bilan bog‘liq strategik resurs sifatida talqin qilina boshladi.

1991-1997-yillar kulolchilik maktablari taraqqiyotida murakkab o‘tish davri bo‘lib, bu bosqichda markazlashgan ta’minot va nazorat tizimlarining zaiflashuvi sabab ustaxonalarning iqtisodiy tayanchlari qisqargan, xomashyo-savdo-aniqizatsiya zanjiri uzilgan; shu bilan birga, bozor munosabatlariga o‘tish ustalarga oilaviy ustaxona modelini kuchaytirish, mahsulotni bevosita iste’molchiga chiqarish va hunarni kamida sulolaviy doirada saqlab qolish imkonini bergan.

Mustaqillikning dastlabki bosqichida kuzatilgan iqtisodiy qiyinchiliklar kulolchilikning ayrim hududlarda vaqtinchalik susayishi yoki to‘xtashi holatlarini yuzaga keltirgan bo‘lsa-da, mazkur jarayonni faqat inqiroz sifatida emas, balki ishlab chiqarishning yangi bozor sharoitlariga moslashuvi bilan kechgan transformatsiya sifatida baholash maqsadga muvofiq; chunki aynan shu moslashuv keyingi tiklanish uchun ijtimoiy-amaliy poydevor vazifasini bajargan.

1997-yilda qabul qilingan davlat miqyosidagi normativ-huquqiy asoslar hunarmandchilikni, jumladan kulolchilikni qo‘llab-quvvatlashning institutsional tizimlarini shakllantirib, ustalar faoliyatini

rasmiylashtirish, imtiyozlar berish, targ‘ibot va savdo infratuzilmasini yo‘lga qo‘yish orqali kulolchilik ustaxonalarini saqlanib qolish holatidan barqaror tiklanish va rivojlanish bosqichiga olib chiqdi.

So‘nggi yillarda kulolchilik maktablarini qayta tiklash va rivojlantirish jarayonida katalog va reyestrlar (ustalar, sulolalar, turizm subyektlari) kabi hujjatlashtirish tizimlarining joriy etilishi hunarni individual ustalar faoliyati darajasidan ko‘tarib, uni muhofaza qilinadigan madaniy resurs va institutsional meros sifatida mustahkamladi; bu esa ustoz-shogird an’anasining kengayishi, maktab-uslub va hududiy identitetning barqaror saqlanishi uchun tizimli asos yaratdi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston hududidagi kulolchilik an’analari ijtimoiy-madaniy antropologik yondashuvda nomoddiy madaniy merosning institutlashgan shakli sifatida talqin qilindi. Kulolchilik bu yerda faqat buyum ishlab chiqarish emas, balki ustoz-shogird tizimi, kasbiy me’yorlar, jamoaviy nazorat, obro‘-e’tibor va kasb sirini uzatish tizimlari orqali barqarorlashadigan ijtimoiy faoliyat ekanligi asoslandi. Shu orqali kulolchilik maktabi tushunchasi hududiy uslubdan tashqari, kasbiy hamjamiyat va ijtimoiy legitimatsiya maydoni sifatida ilmiy muomalaga kiritildi.

Hududiy kulolchilik maktablarining shakllanishi va davomiyligi tabiiy resurslar (gil, yoqilg‘i, sir xomashyosi), bozor-savdo tarmoqlari, shahar madaniyati hamda kasbiy uzatish zanjiri birikmasi bilan izohlanishi aniqlashtirildi. Xususan, markaz (geografik-iqtisodiy ishlab chiqarish makoni) va maktab (barqaror stilistik-texnologik hamda ijtimoiy uzatish modeli) tushunchalarini metodologik jihatdan farqlash zarurligi asoslandi. Bu farqlash keyingi tahlillarda terminologik birxillikni ta’minlab, hududiy an’analarning ijtimoiy ildizlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotda ustoz-shogird an’anasi kasbiy bilimlarning faqat og‘zaki bayoni emas, balki amaliy ishtirok va tanaviy ko‘nikmalar (qila olish tajribasi) orqali avloddan avlodga o‘tishini ta’minlaydigan asosiy tizim ekani ko‘rsatildi. Sir tayyorlash, pishirish haroratini boshqarish, rang uyg‘unligini ushlash, naqshni bajarish kabi nozik bilimlar yozma qoidaga bo‘ysunmaydi; ular ustaxona muhitida takroriy mehnat, kuzatish va baholash orqali mustahkamlanadi. Mazkur xulosa kulolchilik merosini

muhofaza qilishda ustaxona muhiti ni saqlash va shogird tayyorlash tizimini qoʻllab-quvvatlashni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi.

Rishton, Gʻijduvon, Xorazm, Samarqand, Urgut, Toshkent, Andijon, Gʻurumsaroy, Shahrisabz kabi hududiy maktablar misolida bezak, rang palitrasi va sir texnologiyasi hududiy identitet va madaniy xotiraning vizual-moddiy ifodasi sifatida talqin qilindi. Ranglar, naqsh kompozitsiyalari va ustaxona uslubi nafaqat insoniy did orqali tanlov, balki jamoa ichidagi toʻgʻri uslub me’yorlari, tarixiy tajriba va mahalliy estetik kodlar bilan bogʻlangan. Shu asosda kulolchilik buyumlari kundalik iste’mol buyumidan tashqari, madaniy ma’no va xotira tashuvchisi sifatida aks etadi.

III BOB. KULOLCHILIK MAKTABLARINING IJTIMOIY-MADANIY FUNKSIYALARI VA AN’ANALARI

§ III.1. Ustoz-shogird an’analari, mehnat taqsimoti va gender vazifalarining ifodalanishi

Kulolchilik buyumlari insoniyat tarixining turli bosqichlarida xo‘jalik ehtiyojlarini qondirishi bilan birga jamiyatning madaniy, estetik va ma’naviy taraqqiyotini ham o‘zida mujassam qilgan. Sopol buyumlar kundalik turmushda dasturhon uchun idishlar, saqlash va tashish vositasi vazifasini bajargan bo‘lsa, o‘z navbatida har bir davrning didi, dunyoqarashi va texnologik imkoniyatlarini ham ifodalagan. Shakl, bezak va ranglardagi o‘zgarishlar esa jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti hamda madaniy qarashlari bilan bog‘liq holda rivoj topgan.

Shuningdek, xo‘jalik hayotining muhim qismi sifatida mahsulot turlarining ko‘payishiga va ularning amaliy jihatdan takomillashuvini ham ta’minlagan. Buyumlarning estetik boyishi esa insonlarning go‘zallikka intilishi va madaniy saviyasining o‘sishini ko‘rsatib, mahsulotlar faqat foyda keltiruvchi vosita emas, balki estetik zavq beruvchi, marosimiy va ramziy ma’no ifodalovchi buyum sifatida ham qadr topgan.

Yana bir muhim jihat shundaki, kulollar barcha tarixiy davrlarda madaniyat tashuvchisi vazifasini ham bajargan. Ular buyum yaratish bilan birga an’ana, tajriba va qadriyatlarni avlodlardan avlodlarga yetkazib kelgan. Ushbu jarayonda ustoz-shogird tizimi, mehnat taqsimoti, kasbiy odob va bezak an’analari madaniy xotirani saqlash va davom ettirishga xizmat qilgan, albatta.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, mazkur bobda bugungi kun mamlakatimizda faoliayat olib borayotgan kulolchilik maktablarining ijtimoiy-madaniy funksiyalari va tarixiy davomiyligi masalalariga e’tibor qaratilib, uning jamiyat hayotidagi o‘rni aniqlashtiriladi.

Dastavval qayd etish kerakki, kulolchilik maktablari nafaqat ishlab chiqarish markazi, balki muayyan ijtimoiy-madaniy munosabatlar tizimi sifatida shakllangan murakkab jarayon. Ushbu muhitda kasbiy bilim va ko‘nikmalarni avloddan-avlodga o‘tkazilishi, mehnatni tashkil qilinishi hamda ustaxona ichidagi ijtimoiy vazifalarni taqsimlanishi ustoz-shogird an’anasi asosida amalga oshirib kelingan. Shu bois kulolchilik maktablarining ichki tuzilmasini tahlil qilishda ustoz-shogird

munosabatlari, mehnat taqsimoti va gender vazifalarining o‘zaro bog‘liqligini ochiqlash ahamiyatli jarayondir.

Tadqiqotlarda ta’kidlanishicha[279], kulolchilikka oid bilimlar va kasb sirlari keng ommaga emas, balki, shogirdlarga, ustoz boshchiligida amaliy ish jarayonida bosqichma-bosqich o‘rgatilgan.

Yozma manbalarda, xususan Samarqand kulolchilik faoliyatiga doir ma’lumotlarda usta-oqsoqol yetakchi o‘rin egallagani, uning atrofida halfa va shogirdlardan iborat ishlab chiqarish jamoasi shakllangani qayd etiladi[280]. Bu tizim doirasida nafaqat mahsulot tayyorlash ko‘nikmalari, balki ustaxona qoidalari, kasbga doir qadriyatlar, mehnat madaniyati amaliy faoliyat jarayonida keyingi avlodga yetkazilgan.

Kulolchilik aksariyat hollarda sulolaviy davomiylik asosida saqlangan bo‘lib, hunar otadan farzandga o‘tib kelgan. Bu jarayonda aholining kasbga bo‘lgan qiziqishi, hunarni egallashning uzoq vaqt va katta sabr talab qilishi, shuningdek, og‘ir va mas’uliyatli mehnat bilan bog‘liqligi muhim omil bo‘lib xizmat qilgan, albatta.

Ushbu jarayonni, Rishton kulolchilik maktabining yirik namoyandalaridan biri Ibrohimjon Komilov misolida kuzatish mumkin. U 1920-yillardan boshlab tarixiy sharoitlar ta’sirida susaygan ajdodlariga tegishli an’analarni tiklashga kirishgan[281]. Faoliyati davomida ko‘plab shogirdlar yetishtirgan. Bugungi kunda ham ustaning merosi avlodlari va shogirdlari tomonidan davom ettirilmoqda. Xususan, mazkur sulolaviy ustahonada hozirda sakkizinchi, to‘qqizinchi avlod kulollari va o‘ninchi nabira shogirdi faoliyat olib bormoqdalar. Bu esa hunarning dastlab oilaviy muhitda o‘rganilib, keyinchalik mustaqil ijodiy faoliyat darajasiga ko‘tarilganini ko‘rsatadi.

Tarixiy tadqiqotlarda ham kasbni iqtisodiy faoliyati bilan birga madaniy meros tarzida talqin qilishga chorlovlar mavjud[282].

---

[279] Гаврилов М. Рисоля сартовских ремесленников. – Ташкент, 1912. – С. 1; Пещерова Е. М. Гончарное производства Средней Азии. – М–Л.: АН СССР, 1959. – С. 311.; Davlatova S. O‘zbek an’anaviy hunarmandchiligi tarixiy jarayonlar kontekstida (O‘zbekistonning janubiy hududlari misolida): tarixiy-etnologik tadqiqot. – Toshkent: Yangi nashr, 2018. – 368 b.

[280] Davlatova S. O‘zbek an’anaviy hunarmandchiligi tarixiy jarayonlar kontekstida (O‘zbekistonning janubiy hududlari misolida): tarixiy-etnologik tadqiqot … – B. 280.

[281] Dala yozuvlari. Rishton tumani. 2025 yil.

[282] Гаврилов М. Рисоля сартовских ремесленников. – Ташкент, 1912. – С. 1; Пещерова Е. М. Гончарное производства Средней Азии. – М–Л.: АН СССР, 1959. – С. 311.; Davlatova S. O‘zbek an’anaviy hunarmandchiligi tarixiy jarayonlar kontekstida (O‘zbekistonning janubiy hududlari misolida): tarixiy-etnologik tadqiqot. – Toshkent: Yangi nashr, 2018. – 368 b.

Kuzatilishicha, madaniy meros tarzidagi hunar esa ustaxona doirasida qaror topgan tartib-qoidalar, mehnat taqsimoti va kasbning ijtimoiylashuvi tizimlari orqali davom qilgan.

Ta’kidlash lozimki, ustoz-shogird tizimining rivojlanishi bir qancha omillar ta’sirida taraqqiy qilib kelgan murakkab jarayon. Mazkur omillarni esa shartli ravishda ichki va tashqi qismlarga ajratib tahlil qilish muammoni atroflicha tushunish imkoniyatini beradi. Ichki omillarga to‘xtalib, mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari hamda kulolchilik buyumlariga bo‘lgan talab darajasi bilan bog‘liq bo‘lganligini e’tirof etish o‘rinlidir. Hududda mahsulotga barqaror talab mavjud bo‘lsa, ustaxona iqtisodiy jihatdan barqaror ishlaydi, bu esa shogird qabul qilish va hunar sirlarini davomiy ravishda avloddan-avlodga o‘tishi imkonini yaratgan. Bunday sharoitda ustaning bozorbop shakl, bezak va sifatni ushlashga harakat qilishi, yangi naqsh va uslublarni joriy eta olishi ham ustaxonaning davomiyligini ta’minlovchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Tashqi omillar qatorida raqobat muhitini ta’kidlash lozim xisoblanib, bozorda ustahona tomonidan tayyorlangan buyumlarni o‘rnini bosuvchi takliflar xususan, boshqa ustahona maxsulotlari va tashqi savdo jarayonida kirib kelgan sanoat maxsulotlari shular jumlasidandir. Ushbu jarayonni XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr davomida kuzatish mumkin bo‘lib, sanoat mahsulotlarining mintaqa bozorlariga kirib kelishi ustahona faoliyatlarida ma’lum qiyinchiliklarni yuzaga keltirgan. Zavod-fabrikalarda ishlab chiqarilgan arzon va ommaviy buyumlar an’anaviy ustaxona mahsulotlariga talabni qisqartirgan. Bu esa ayrim ustaxonalarni zamonga moslashishga, ayrimlarini esa faoliyatni to‘xtatishga majbur qilgan.

Yuqoridagilardan anglash mimkinki, ustoz-shogird an’anasi ustaning shaxsiy mahorati bilan bir qatorda iqtisodiy jarayonlar va tashqi raqobat bilan ham chambarchas bog‘liq holda shakllangan.

Mazkur holatni hozirda faoliyat olib borayotgan kulolchilik maktablari misolida kuzatilganida, hududlar kesimida bir xil kechmayotgani anglashiladi. Ba’zi joylarda ustaxonalarning ko‘pligi, ishlab chiqarish hajmining kattaligi va mahsulotga talabning yuqoriligi shogirdlar sonini ortishiga olib kelsa, boshqa hududlarda ishlab

chiqarishning cheklanganligi, bozor imkoniyatlarining torligi hamda ustaxonalar sonining kamligi shogirdlik tizimini qisqartirmoqda.

Bu o‘rinda Rishton kulolchilik markazining tajribasi alohida ahamiyat kasb qilib, bu yerda ishlab chiqarishning rivojlanganligi, ustalar o‘rtasidagi raqobat va mahsulotlarning ichki hamda tashqi bozorlarda xaridorgirligi ustaxonalar faoliyatiga ta’sir qilgan. Ushbu jarayon xattoki, ustahonalarning ma’lum yo‘nalishlarga ixtisoslashuviga ham olib kelgan.

Dala kuzatuvlaridan ma’lumki, Rishtonda beshta an’anaviy maktab davomchilari, xususan, Alisher Nazirov, Ismoil Komilov, Yuldashali Polvonov, Muzaffar Saidov va Rustam Usmonovlar ustoz-shogird an’analarini tiklash va rivojlantirishga alohida e’tibor qaratmoqdalar. Bugungi kunda mazkur ustahonalarda turli bosqich bilimlariga ega 30 dan ortiq shogirdlar faoliyat yuritmoqda va bu jarayon Rishtonning respublika miqyosida yirik markaz sifatida ajralib turishini ta’minlaydi[283]. Qolaversa, markazda faoliyat olib boruvchi bazi noan’anaviy ustahonalarning loy tayyorlash va buyum pishirish kabi jarayonlarga ixtisoslashganligi ishlab chiqarish tezligining ortishi bilan birga shogirdlar sonining ko‘payishiga ham zamin yaratmoqda.

Respublikaning ba’zi hududlarida esa ustaxona faoliyatining asosan oilaviy doirada olib borilishi, ishlab chiqarish hajmining kamligi va bozor imkoniyatlarining nisbatan pastligi shogirdlar qiziqishining susaytirgan. Xususan Xorazm viloyatining Madir maktabi, Andijon shahri hamda Urgut kulolchilik maktabi ustaxonalarida tashqaridan keladigan shogirdlar soni birqadar kamligi kuzatiladi. Madir maktabi davomchilaridan Odil Matchonov bilan suhbatda yoshlarning aksariyati kulolchilik mehnatining murakkabligiga bardosh bera olmay, 10-15 kun ichida ustaxonani tark etayotgani qayd etilgan[284]. Bunday fikr Andijon va Urgut maktablari davomchilari Mirzabahrom Abduvahobov hamda No‘monjon Abloqulovlar tomonidan ham tasdiqlangan[285]. Ustalar buni hozirgi davrda daromadli kasblarning ortib borayotgani, yoshlarning esa uzoq muddat sabr va mehnat talab qiladigan hunardan ko‘ra tez natija beradigan faoliyat turlarini afzal ko‘rayotgani bilan izohlaydilar.

[283] Dala yozuvlari. Rishton tumani. 2025 yil.
[284] Dala yozuvlari. Honqa tumani. 2025 yil.
[285] Dala yozuvlari. Rishton tumani. 2025 yil.

Shogirdlarni qabul qilish jarayoni ham hududlarda turlicha kuzatiladi. Masalan, Andijon kulolchilik maktabida shogird ustaga qarindosh boʻlmay, tanishlar tavsiyasi orqali qabul qilingan boʻlib, bunday hol mahalliy xususiyatdan kelib chiqib, kulolchilik yoshlarni kasb bilan taʼminlash vositasi sifatida ham koʻrilayotganini anglatadi.

Xorazm ustaxonalarida esa ish asosan oila aʼzolari va yaqin qarindoshlar doirasida davom etmoqda. Tashqaridan kelgan ayrim yoshlar keyinchalik mustaqil usta maqomiga yetib, hamkorlik asosida faoliyat yuritgani sabab anʼanaviy shogirddan koʻra teng ishtirokchi maqomiga oʻzgarmoqda. Urgut va Gʻijduvonda ham hunar koʻproq oila doirasida davom etib, tashqi shogirdlar ulushi nisbatan pastligi qayd etiladi.

Anglash mumkinki, shogirdlik tizimining shakllanishi ustaxonaning ishlab chiqarish hajmi, mahalliy hunarmandchilik muhiti va kasbning iqtisodiy jozibadorligi bilan bevosita bogʻliq xolda kechmoqda.

Ustoz-shogird munosabatlarini yoritishda kulolchilik risolalarining oʻrni alohida ahamiyat kasb qiladi. Risolalar hunar oʻrgatish jarayonini, ustoz va shogird oʻrtasidagi axloqiy, maʼnaviy hamda kasbiy munosabatlarni tartibga soluvchi manba sifatida shakllangan. Ularda ustozning masʼuliyati, shogirdning ustozga hurmati, kasb sirlarini saqlash, mehnatga halol munosabat, poklik, sabr-toqat va intizom kabi tamoyillar mustahkamlangan[286]. Qolaversa, risolalarda ustoz shogirdni faqat kasbga emas, maʼnaviy kamolot sari yetaklovchi shaxs sifatida talqin qilingan.

Risolalarda halfa maqomi ham tilga olinib, kasbiy bilimning bosqichma-bosqich avloddan-avlodga oʻtishida vositachi boʻgʻin sifatida koʻrsatiladi[287]. Shuningdek, hunar faoliyatini diniy-maʼnaviy qadriyatlar bilan uygʻunlashtirish, ishni barcha bosqichlarida duolar oʻqish, kulolchilik pirlari ruhiga hurmat bajo keltirish, hunarni halol mehnat bilan davom ettirish gʻoyalari risolalarda muhim oʻrin tutadi[288]. Koʻrinadiki,

[286] Гаврилов М. Рисоля сартовских ремесленников. – Ташкент, 1912. – С. 1; Пещерова Е. М. Гончарное производства Средней Азии. – М–Л.: АН СССР, 1959. – С. 311.

[287] Davlatova S. Oʻzbek anʼanaviy hunarmandchiligi tarixiy jarayonlar kontekstida (Oʻzbekistonning janubiy hududlari misolida): tarixiy-etnologik tadqiqot. – Toshkent: Yangi nashr, 2018. – 368 b.

[288] Гаврилов М. Рисоля сартовских ремесленников. – Ташкент, 1912. – С. 1; Пещерова Е. М. Гончарное производства Средней Азии. – М–Л.: АН СССР, 1959. – С. 311.; Davlatova S. Oʻzbek anʼanaviy hunarmandchiligi tarixiy jarayonlar kontekstida (Oʻzbekistonning janubiy hududlari misolida): tarixiy-etnologik tadqiqot. – Toshkent: Yangi nashr, 2018. – 368 b.

risolalar ustoz-shogird tizimini kasbiy oʻqitish bilan birga axloqiy va maʼnaviy tamoyillarga tayangan ijtimoiy tuzilma sifatida tavsiflaydi.

Bugungi kunda ham aksariyat anʼanaviy kulolchilik maktablari risolalarda qayd etilgan qoidalarni tiklash va ular asosida ish yuritishga urinmoqdalar. Xususan, Dala kuzatuvlarida Xorazm viloyati Xonqa tumani kuloli usta Odil Matchonov risola anʼanalarini ustaxona faoliyatida saqlab kelayotgani, risolani hunarning davomiyligining tayanchi deb bilishi, keyinchalik oʻgʻli Ogʻabek Matchonovga topshirganiga guvoh boʻlindi[289]. Gʻijduvon maktabi davomchisi usta Abdulla Narzullayev esa ustaxonadagi tartibni risola qoidalari bilan bogʻlab, xalq orasida mashhur boʻlgan “Qilayotgan ishingning barchasi risoladek boʻlsin” naqlining mazmunini hunar egasining har bir ishi risolalarda qayd qilingani kabi puxta, halol va odob doirasida boʻlishi zarurligi sifatida sharhlaydi[290]. Qolaversa, usta kulolning qizi Dilnoza Narzullayeva tomonidan Toshkent shahrida ochilgan hunarmandchilik uyiga Risola nomi berilgani ham ushbu maʼnaviy ramzlarning zamonaviy sharoitda talqin qilinayotganidan dalolat beradi.

Kuzatilishicha kulolchilik ustaxonalarida ustoz-shogird munosabatlari tarbiyaviy mazmun bilan ham uygʻun boʻlib, shogirdni kamol toptirish faqat ishlab chiqarish koʻnikmalar bilan cheklanmaydi. Ustoz-shogird muhitida ijtimoiy nazorat va intizom tizimlari ham ahamiyat kasb etadi. Masalan, usta Yuldashali Polvonov bilan oʻtkazilgan suhbatda u shu kungacha 50 dan ortiq shogird tayyorlagani va shogird tayyorlashda, avvalo, kamtarlik, keraksiz holatlarda gapirmaslik, ustaxona muhitida oʻzini tutish qoidalarini singdirishga urgʻu berishini taʼkidlaydi[291]. Bu hol ustaxonaning kasbiy koʻnikma berish bilan birga, mehnat madaniyati va shaxsiy fazilatlarni shakllantiruvchi ijtimoiy muhit ekanini anglatadi.

Yana bir ahamiyatli jihat shundaki, tizimda tarbiyaviy jarayonlarning oʻziga xos koʻrinishlari ham mavjud. Rishtonda sakkizinchi avlod vakili usta Ismoiljon Komilov bilan suhbatda shapaloq kalom anʼanasi tilga olinadi. Unga koʻra shogird xato qilganida usta uni doʻkonga shapaloq kalom olib kelishga yuborgan, doʻkon egasi vaziyatni anglab,

[289] Dala yozuvlari. Honqa tumani. 2025 yil.
[290] Dala yozuvlari. Gʻijduvon tumani. 2025 yil.
[291] Dala yozuvlari. Rishton tumani. 2025 yil.

shogirdga yengil, uyat ma’nosidagi tanbeh berish orqali xatosini tushuntirib, ustaxonaga qaytargan[292]. Ushbu xolat jismoniy jazodan ko‘ra ijtimoiy uyat va jamoaviy nazorat orqali tarbiyalash usullari ustaxonada muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi. Qolaversa, ustaning ta’kidlashicha bu xol shogirdning farzandidan ustin qo‘yib, jismoniy jazoga tortmaganini ham anglatadi.

Ustoz shogird tizimining asosiy mezonlarida shogird tanlash va tayyorlash jarayoni ham muhim o‘rin tutadi. Ushbu jarayonda shogirdning individual sifatlari ham hisobga olingan. Ustalar shogirdlikka qabul qilinayotgan yoshning jismoniy mehnatga chidamliligi bilan birga fahm-farosati, topshiriqni anglay olishi va vaziyatni mantiqan baholash qobiliyatiga ham e’tibor qaratganini ta’kidlaydilar. Dala kuzatuvlarida shogirdni sinashning ramziy usuli xaqida ham ma’lumot to‘plandi. Bu borada, usta suvga to‘ldirilgan chelakni to‘kib, chelakni suvga tashlab kel deya topshiriq berganligi, shogird chelakni suv bilan to‘ldirib kelsa topshiriqni mantiqan anglagan, chelakni quduqqa tashlab yuborsa so‘zma-so‘z tushungan, fahm bilan ishlash ko‘nikmasi sust deb baholangan[293]. Bu misol kasbni o‘zlashtirish jarayoni shogirdning aqliy va ijtimoiy tayyorgarligi bilan ham bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Kulolchilikda shogirdning usta darajasiga yetishi odatda bosqichma-bosqich jarayon xisoblanib, dastlab tartib-intizom, asbob-uskunani tayyorlash, loy tashish kabi yordamchi vazifalar, keyin loy tayyorlash, quritish va pishirishga tayyorlash, so‘ng charxda shakl berish, bezak, sir berish kabi murakkab jarayonlar va nihoyat mustaqil buyum tayyorlash, mijoz bilan ishlash va usta duosini olish bosqichlaridan iboratdir[294]. Bu ketma-ketlik shogirdning ishlab chiqarish mahorati bilan birga sabr, mas’uliyat va ishlab chiqarish madaniyatini ham egallashini taqozo qiladi.

Shogirdning mustaqil usta darajasiga yetishida ichki rag‘bat hal qiluvchi omil sifatida baholanadi. Rishtonlik usta Sharofiddin Yusupovning ta’kidlashicha, hech bir usta shogirdiga hunarni majburan o‘rgata olmaydi. Shogirdning tez o‘zlashtirishi uning ichki qiziqishi, kuzatish va amaliy takrorlashga harakati bilan belgilanadi[295]. Bunday

[292] Dala yozuvlari. Rishton tumani. 2025 yil.
[293] Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Rishton shahri, Mamadali Topvoldiyev MFY. 2025 yil.
[294] Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Rishton shahri, Mamadali Topvoldiyev MFY. 2025 yil.
[295] Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Rishton shahri, Mamadali Topvoldiyev MFY. 2025 yil.

shogirdlar vaqt o‘tishi bilan o‘z uslubi va yo‘nalishini shakllantirib, ba’zan ustozidan ham ilgarilab ketishi mumkin. Bu jarayon yoshlarning zamonaviy didga yaqinligi, yangi shakl va bezaklarni sinashga moyilligi hamda individual zehniyati bilan bog‘liq xisoblanadi.

Tarixiy davrlarda ustoz-sobiq shogird munosabatlari o‘ziga xos kasbiy aloqalar shaklida davom etgan. Dala ma’lumotlarida qayd etilgan voqeaga ko‘ra, shogird ustaning qarshiligiga qaramay duo olib mustaqil ish boshlaganidan so‘ng buyumlaridan sir ko‘cha boshlaydi. U ustozga qaytadi va ustoz unga sir berishdan oldin buyumni changdan tozalash kabi ilgari oshkor qilinmagan muhim bosqichni ko‘rsatadi, shundan so‘ng shogird faoliyatini tiklab sifatli natijaga erishadi[296]. Ushbu xolat ustoz-shogirdlikning faqat bilim emas, balki bosqichma-bosqich egallanadigan tajriba ekanini, kasbiy aloqalar uzilmasdan maslahat va hamkorlik shaklida davom etishini ham ko‘rsatadi.

Zamonaviy sharoitda esa ustoz-shogird tizimiga iqtisodiy omil ham kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Avvallari shogirdlar uzoq muddat bepul ishlab hunarni egallagan bo‘lsa, hozirgi davrda yoshlarning iqtisodiy ehtiyojlari ustozlarni shogirdlarga haq to‘lashga undamoqda. Xususan, Xorazm viloyati Kattabog‘ MFY hududidagi kulolchilik markazida yosh usta Otabek Rahimov tandir yasash yo‘nalishida 10 nafar yollanma ishchi (halfa)ni ish bilan ta’minlagani, ular kunlik haq olishini, koshin tayyorlashda esa ikki nafar shogirdga oyiga 2-3 mln so‘mgacha haq to‘layotganini ta’kidlaydi[297]. Unga ko‘ra, haq to‘lanmasa shogirdlarni uzoq muddat ushlab turish qiyin, buyurtma ko‘payganda shogirdlarning ishga kelmay qolish holatlari ishlab chiqarishga salbiy ta’sir qilishi, haq to‘lash esa mas’uliyatni kuchaytirishi qayd etiladi. Bu kuzatuvlar shogirdlikning asta-sekin iqtisodiy hamkorlikka yaqinlashayotganini anglatadi.

Bugungi kunda ustaxonada mustaqil ustalar, sobiq shogirdlar yoki yollanma ishchilar bilan hamkorlik aloqalari ham shakllanmoqda. Ba’zilar daromaddan ulush olish asosida ishlaydi, ba’zilar yarim tayyor mahsulotni olib uyida bezab qaytaradi, ayrim taniqli ustalar esa buyurtmani ustaxona infratuzilmasidan foydalangan holda bajarib, tushumning bir qismini ustaxona xarajatlari uchun ustaga topshiradi[298].

[296] Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Rishton shahri, Mamadali Topvoldiyev MFY. 2025 yil.
[297] Dala yozuvlari. Honqa tumani. 2025 yil.
[298] Dala yozuvlari. Rishton tumani. 2025 yil.

Natijada ustaxona hunar o‘rgatish joyi vazifasi bilan birga, hamkorlikda ishlab chiqarish yuritiladigan iqtisodiy maskan vazifasini ham bajaradi.

Yoshlarning kasbga munosabatini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari ham bu jarayonning murakkabligini ko‘rsatadi. Usta maqomiga ega bo‘lmagan 27 nafar shogird o‘rtasidagi so‘rovnomada Siz uchun kulolchilik nimani anglatadi? savoliga javoban 9 nafar respondent kulolchilikni asosiy moddiy ta’minot manbai, 7 nafari ota-bobolardan qolgan merosni davom ettirish vositasi, 6 nafari orzuidagi kasb, 5 nafari esa qo‘shimcha kasb-hunar sifatida baholagan. Respondentlarning o‘rtacha yoshi 22 yosh ekani kulolchilikka asosan yosh avlod jalb etilayotganini ko‘rsatadi. Demak, kulolchilik shogirdlar nazarida bir vaqtning o‘zida meros, iqtisodiy resurs va shaxsiy kasbiy tanlov sifatida talqin qilinayotganini ko‘rsatadi[299].

Avlodlar kesimida kasbga munosabatning o‘zgarishini ustalar xotiralari orqali ham ko‘rsatish mumkin. Xususan, 73 yoshli rishtonlik usta G‘ofurjon Bobojonov bilan suhbatda u sovet davrida ham kulolchilik zavodida an’anaviy usulda buyum ishlab chiqarganini eslanadi, 1950-yillar oxirlarida kuyov kulol bo‘lsa, qiz tomonning bunday kasb egasiga qiz berishni istamagan holatlar uchraganini qayd etgan[300]. Lekin, kulol avlodlari kasbni tark etmagan.

Uning fikricha, kasbga munosabat yoshi va mas’uliyatiga ko‘ra farqlanadi. Jumladan, u hunarning davomiyligi haqida o‘ylasa, oilaning iqtisodiy ta’minotchisi xisoblangan farzandlari iqtisodiy imkoniyatlar haqida qayg‘uradi, nabiralari esa kelajak shaxsiy hayotidagi rejalari haqida mulohaza yuritadi. Bu esa ustoz-shogird tizimi ham an’anaviy qadriyatlar, ham zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta’sirida o‘zgarayotganligini ko‘rsatadi.

Zamonaviy ishlab chiqarish sharoitlarida ustoz-shogird tizimida bir qator muammolar ham uchramoqda. Buyurtmalarning ko‘payishi sabab xosil bo‘lgan tezkorlik talabi shogirdlarni qisqa muddatda tayyorlash ehtiyojini kuchaytirib, an’anaviy uzoq muddatli o‘rgatish bilan bozor tezligi o‘rtasida muvozanat masalasi to‘qnashmoqda.

[299] Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Rishton shahri, Mamadali Topvoldiyev MFY. 2025 yil.
[300] Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Rishton shahri, Mamadali Topvoldiyev MFY. 2025 yil.

Shuningdek, rasmiy ta’lim muassasalarida kulolchilikni o‘qitish yo‘lga qo‘yilishi natijasida ustaxona tajribasi bilan akademik tayyorgarlik o‘rtasidagi farqlar, an’anaviy sirlarning qay darajada saqlanishi ham muhokamalarga sabab bo‘lmoqda[301]. Bundan tashqari, sopol maxsulotlari ishlab chiqarishida zamonaviy uskunalar va texnologiyalarning kengayishi ayrim bosqichlarni soddalashtirib, ustozdan amaliy tajriba orqali o‘rganiladigan ko‘nikmalarning o‘zgarishiga ta’sir etgan muhim sabablardan biri sifatida kuzatish mumkin. Bu hol an’ana va texnologiya muvozanatini alohida tadqiq etishni talab qiladi.

Shogirdlik muddati ham ustaxonalarda bir xil emas. Alisher Nazirov ustaxonasida to‘laqonli usta shakllanishi 10-15 yil davom etishi qayd etilgan. Usta Yuldashali Polvonov esa shogirdning tez o‘zlashtirishiga qarab mustaqil ishlashga ruxsat berilishini ta’kidlaydi[302].

Shu bilan birga, uzoq muddatli shogirdlarga ustalar tomonidan ta’lim berish, kiyim-kechak va oziq-ovqat bilan ta’minlash, ba’zan esa oila qurishda ko‘maklashish kabi yordamlar ko‘rsatilgan hamda ustaxona ba’zi hollarda shogirdlarning vaqtinchalik yashash joyiga ham aylanganligi kuzatiladi. Ushbu hol ustoz-shogird an’anasini faqat iqtisodiy munosabat emas, balki ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va o‘zaro ishonch tizimi sifatida ham tahlil qilish zaruratini belgilaydi.

Kuzatish mumkinki, ustoz-shogird munosabatlarining bunday ijtimoiy mazmun kasb etishi ustaxona ichidagi ichki tartib va vazifalar tizimini ham alohida tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Sababi, shogirdning nafaqat kasbiy, balki ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlanishi ustaxonada mehnatning tashkil etilish shakli, vazifalarning taqsimlanishi va mas’uliyat belgilanish tartibi bevosita bog‘liqdir.

Kulolchilikda mehnat taqsimoti ham murakkab jarayonlardan xisoblanib, hunarning ijtimoiy davomiyligini, bilimning avloddan-avlodga o‘tish tizimlarini, kasbiy iyerarxiya va maqomlar tizimini, nazorat va intizom tartiblarini, sir saqlash va mas’uliyat, shuningdek, bozor bilan bog‘liq muloqot madaniyatini o‘z ichiga oladi.

Shu bilan birga, mehnat taqsimoti kulolchilik maktabining ichki ijtimoiy tuzilishi bilan bog‘liq bo‘lib, u ustoz-shogird tizimi, ustaxonadagi

[301] Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Rishton shahri, Mamadali Topvoldiyev MFY. 2025 yil.
[302] Dala yozuvlari. Rishton tumani. 2025 yil.

rol va vazifalar, mehnat bosqichlari hamda mahsulot sifati oʻrtasida uzviy bogʻliqligini ta’minlaydi.

Dala materiallari tahlilidan kelib chiqib, kulolchilikdagi mehnat taqsimotini uchta yirik jihatlarda kuzatish mumkin. Xususan, birinchi jihatda texnologik xususiyat ahamiyat kasb qiladi. Unda ish bosqichlari ketma-ketligi, mavsumiy omillar va xom ashyo bilan bogʻliq logistika masalalari muhim oʻrin tutadi. Ikkinchi jihatda tashkiliy jihatlar bilan bogʻliq boʻlib, bu jarayonda shogirdlar va yollanma ishchilar ishtiroki, ixtisoslashuv darajasi, ichki nazorat tizimi, ishlab chiqarish muddatlari hamda tezligi asosiy jarayon xisoblanadi. Uchinchi jihat esa ijtimoiy va axloqiy mazmunga ega boʻlib, unda ishonch rejimi, obroʻ, risolaviy tartiblar, ustoz va shogird munosabatlari hamda brendni saqlash masalalari ahamiyat kasb qiladi.

Kulolchilik maktablarida mazkur uch jihat hududiy an’analarga sodiqlik, buyurtmalarning hajmi va bajarish uchun belgilanadigan vaqt me’yorlari ta’sirida ustahonalarda turlicha koʻrinishda aks etadi.

Kulolchilikda mehnat taqsimoti xom ashyoni tanlash va qazib olishdan boshlanib, loyni tayyorlash, ya’ni elash, ivitish, pishitish va aralashtirish, soʻng shakl berish, quritish, bezash va naqshlar berish, sirlash, humdonga joylash va pishirish bosqichlari orqali davom qiladi. Mahsulotni humdondan olish, sifatini tekshirish, qadoqlash, sotuv va buyurtmalarni boshqarish hamda ustaxonani yuritish va shogird tarbiyasigacha boʻlgan uzviy jarayon bilan yakunlanadi.

Tushunish mumkinki, bu jarayon oddiy ketma-ket ishlar yigʻindisi boʻlib qolmay, har bir bosqichning oʻziga xos jihatlari mavjud. Xususan, har bir jarayonda yoʻl qoʻyilgan xato avvalgi mehnatlarni yoʻqqa chiqaradi, bu esa oʻz navbatida tavakkalchilik va javobgarlik xissini keltirib chiqaradi. Qolaversa, bu jrayonlarning vaqt va mavsumga bogʻliqligi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ustaxonada muayyan ishni kim bajarishi masalasi faqat texnologik imkoniyatlar bilan chegaralanmay, oʻzaro ishonch va axloqiy me’yorlar, iyerarxik maqom, iqtisodiy talab hamda shogirdni bosqichma-bosqich yetishtirish maqsadi bilan ham

belgilanadi[303]. Bu xolat mehnat taqsimoti ustaxona ichidagi ijtimoiy munosabatlar tizimi ekanligini koʻrsatadi.

Shogirdlik tizimi kulolchilikda mehnat taqsimotining asosiy bosqichidan biri sifatida qaraladi. Ushbu tizimda hunar koʻnikmalari, odatda, yozma qoʻllanmalar yoki nazariy izohlar orqali berilmaydi. U bevosita amaliy jarayonda, ustoz rahbarligida shakllantiriladi. Kulolchilik texnologiyasiga xos boʻlgan koʻplab murakkab bosqichlar loyning namlik darajasini aniqlash, ta'sir omillari me'yorini his qilish, charx aylanishi tezligini muvofiqlashtirish, buyum qalinligini sezish, quritish bosqichidagi holatni koʻz bilan nazorat qilish, pishirish jarayonida rang va tovush belgilarini farqlash ogʻzaki tushuntirish bilan toʻliq oʻzlashtirilmaydi, albatta.

Mazkur koʻnikmalar asosan tanaviy tajriba, takroriy faoliyat va ustoz nazorati doirasida bajariladigan mashqlar orqali egallanadi. Boshqacha qilib aytganda, bilim va mahorat faoliyat ichida oʻrganish tamoyili asosida shakllanadi[304]. Shu bois shogirdlik tizimi hunarning texnologik, estetik va intizomiy me'yorlarini avloddan-avlodga yetkazuvchi ijtimoiy tizim sifatida ham dolzarb ahamiyat kasb qiladi.

Shu bois shogird ustaxonaga kirgan zahoti eng murakkab boʻgʻinga qoʻyilmaydi. U dastlab oddiy yumushlardan boshlaydi va asta-sekin muhimroq bosqichlarga oʻtkaziladi. Bu jarayon antropologlar ta'kidlaganidek[305], ikkinchi darajali ishtirokdan asosiy ishtirokchiga qarab oʻzgarib boradi. Kulolchilikda mehnat taqsimoti aynan shu oʻzgarishni boshqaradi, ya'ni shogirdning qaysi bosqichda qancha vaqt ishlashi, qaysi ishni bajarishga ruxsat olishi va qachon mustaqil buyum tayyorlashi mumkinligi ustoz nazorati, ustaxona ehtiyoji hamda shogirdning intizomi bilan belgilanadi.

Ushbu oʻrinda katta shogird fenomeni alohida ahamiyat kasb qilib, dala kuzatuvlarida katta shogird atamasi koʻpincha yoshi ulugʻ shogirdni

[303] Dala yozuvlari: Rishton tumani va boshqa hududlar boʻyicha kuzatuvlar (2025 yil).; Lave J., Wenger E. Situated Learning: Legitimate Peripheral Participation. – Cambridge: Cambridge University Press, 1991.; Sennett R. The Craftsman. – New Haven: Yale University Press, 2008.

[304] Lave J., Wenger E. Situated Learning: Legitimate Peripheral Participation. – Cambridge: Cambridge University Press, 1991.; Bourdieu P. Outline of a Theory of Practice / transl. by R. Nice. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977.; Ingold T. Making: Anthropology, Archaeology, Art and Architecture. – London: Routledge, 2013.

[305] Dala yozuvlari: Rishton tumani va boshqa hududlar boʻyicha kuzatuvlar (2025 yil).; Ruziyev N. M., Salamova Z. B. Ustoz-shogirdlik an'anasi va amaliy san'atda kulolchilikning oʻrni // Academic Research in Modern Science: International scientific-online conference. – 2022. – B. 124–126.

emas, aksincha koʻproq bosqichdagi bilimlarni egallagan, ustozning koʻproq ishonchini qozongan, mustaqil faolyat olib borishga yaqin turgan shogirdni bildirishi qayd etiladi[306]. Yuqoridagilardan anglash mumkinki, iyerarxiya biologik yosh bilan belgilanmay kasbiy yetilganlik va ishonch bilan oʻlchanishini koʻrsatadi.

Masalan, Rishton tumanining Alisher Nazirov ustaxonasida bir vaqtning oʻzida bir necha shogirdning ish rejimida eng kichik shogirdning koʻproq tartib va xizmat yumushlariga jalb etilgani, tajribaliroqlarning shakl berish, quritish, bezak va pishirish jarayonlariga bosqichma-bosqich oʻtganligi, eng ishonchli shogird boʻlsa mijoz bilan muomala qilish va ustahonaning umumiy ishlarini muvofiqlashtirishda ham ishtirok etgnligi kuzatilgan[307]. Tushunish mumkinki, mehnat taqsimoti ustaxonada turli maqomlar bosqichlarini xosil qiladi. Shogird bosqichlardan yuqoriga koʻtarilgani sari uning qiladigan ishi murakkablashadi, javobgarligi ortadi, yuqori natijaga yaqinlashadi, bu esa kasbiy jihatdan legitimlikni ichki tartib orqali tasdiqlaydi. Agar ustoz shogirdni muhim bosqich ishlariga jalb qilsa, bu ish oʻrgatish jarayoni bilan birga shogirdga ishonch bildirish va unga ma’lum vakolat berishni ham anglatadi.

Ustaxonadagi intizomga doir tizimlar ham mehnat taqsimotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shogirdning dastlabki yillarda asosan mayda yumushlar bilan shugʻullanishi shunchaki xolat sifatida qabul qilinmaydi. Aksincha, bu jarayon shogirdning sabr-toqati, itoatkorligi, mas’uliyat hissi va ustaxona tartib-qoidalarini qabul qilish darajasini sinovdan oʻtkazadigan tarbiyaviy tizimni anglatadi[308]. Shu yoʻl bilan shogird ustaxonaning ichki talablariga moslashadi, mehnat intizomini oʻzlashtiradi va bosqichma-bosqich murakkabroq vazifalarga tayyorlanadi.

Kuzatilishicha zamonaviy davrga kelib, kulolchilik markazlaridagi mehnat taqsimoti iqtisodiy omillar ta’sirida murakkablashib bormoqda. Ixtisoslashuv jarayonini buning yaqqol misoli sifatida qayd etish mumkin. Rishton markazida loy tayyorlash va yarim tayyor maxsulotni pechda pishirish kabi bosqichlarning maxsus ustaxonalar yoki alohida

[306] Dala yozuvlari: Rishton tumani va boshqa hududlar boʻyicha kuzatuvlar (2025 yil).
[307] Dala yozuvlari: Rishton tumani va boshqa hududlar boʻyicha kuzatuvlar (2025 yil).
[308] Dala yozuvlari: Rishton tumani va boshqa hududlar boʻyicha kuzatuvlar (2025 yil).

ixtisoslashgan ustalar qo‘liga o‘tganligi kuzatiladi[309]. Bu hol mehnat taqsimotini ustaxonalar o‘rasida ham shakllanganini ko‘rsatadi. Bir usta yoki bir jamoa barcha bosqichlarni boshidan oxirigacha o‘zlari bajaradigan tizimdan ko‘ra, bosqichlarni bo‘laklarga ajratgan xolda ish bajaradi va bu jarayon tufayli ta’minot va hamkorlik kabi aloqalarni rivojlantiradi.

Bunday sharoitda ustaning vazifasi ham o‘zgaradi, u endi buyum yasovchilik bilan birga sifat nazoratini belgilovchi, barcha jarayonlarni muvofiqlashtiruvchi, hamkorlar bilan muloqot olib boruvchi, shogirdni boshqaruvchiga aylanadi[310]. Ixtisoslashuv natijasi ish unumini oshiradi, vaqt tejaladi, buyurtmalar tezroq bajariladi va ustahona ixtisoslashgan bosqichlar bilan bog‘liq mahorat kuchayadi.

Shu bilan birga bu jarayonning salbiy tomonlari ham bor. An’anaviy kulolchilik maktablarida butun jarayonni bilish muhim qadriyat hisoblanib, shogird faqat bitta bosqich bilan cheklanib qolsa, u hunarning to‘liq sir-asrorini o‘zlashtira olmaydi. Yoki boshqa bir nechta ustahonada kasbning boshqa bosqichlarini o‘zlashtirishiga to‘g‘ri keladi. Ustaxona esa buyurtmalarning ortishi sababli tez va ko‘p ishlab chiqarishga ortiqcha bog‘lanib qoladi. Ko‘rinib turibdiki, ixtisoslashuv samaradorlikni oshirishi bilan birga hunarning yaxlitligini saqlash bilan uyg‘un holda olib borilishi zaruratini tug‘diradi[311].

Mavsumiylik ham mehnat taqsimoti jarayonlarini belgilovchi omildir. Masalan, Yangiariq markazida tandir ishlab chiqarishda issiq mavsumda ish jarayoni jadallashadi. Sovuq davrda maxsulotlarning quritish qiyinlashgani uchun ishlab chiqarishning vaqtincha sekinlashishi yoki to‘xtashi kuzatiladi[312]. Bunday sharoitda mehnat taqsimoti barqaror vaqtda emas, balki mavsumiy jarayonga moslashuvchi tizimga aylanadi.

Shogirdning tajriba orttirishi ham uzluksiz davom etmaydi. Mavsumda ish ko‘payganda u ko‘proq ishlab chiqarish jarayonida qatnashadi va ko‘nikma to‘playdi. Mavsum pasayganda esa jarayon sekinlashadi, ushbu vaqtda shogird boshqa tirikchilik yo‘liga vaqtincha

[309] Dala yozuvlari: Rishton tumani va boshqa hududlar bo‘yicha kuzatuvlar (2025 yil).
[310] Sennett R. The Craftsman. – New Haven: Yale University Press, 2008.; Braverman H. Labor and Monopoly Capital: The Degradation of Work in the Twentieth Century. – New York: Monthly Review Press, 1974.
[311] Dala yozuvlari: Rishton tumani va boshqa hududlar bo‘yicha kuzatuvlar (2025 yil).; Braverman H. Labor and Monopoly Capital: The Degradation of Work in the Twentieth Century. – New York: Monthly Review Press, 1974.; Sennett R. The Craftsman. – New Haven: Yale University Press, 2008.;
[312] Dala yozuvlari: Rishton tumani va boshqa hududlar bo‘yicha kuzatuvlar (2025 yil).

oʻtadi[313]. Shogirdlik muddatlari, ustaxona ichidagi vazifalar va hatto ustozning shogirdga boʻlgan talab darajasi ham mavsum bilan birga oʻzgarib boradi.

Zamonaviy kulolchilikda iqtisodiy transformatsiya ham mehnat taqsimotiga bevosita ta’sir koʻrsatmoqda. Bepul shogirdlik aksariyat ollarda haq toʻlanadigan mehnat munosabatlari bilan qorishib ketayotganligini ham kuzatish mumkin.

Biroq bu jarayon ustoz va shogird munosabatlarini toʻliq ish beruvchi va ishchi tizimiga aylantirib yubormaydi. Dala kuzatuvlari koʻrsatishicha, ustalar shogirdlarga faqat kasbiy emas, balki turmushning iqtisodiy jihatlarida ham koʻmak bermoqdalar. Xususan, Alisher Nazirovning an’anaviy kulolchilik maktablarida shogirdlarga kiyim-kechak, va boshqa oilaviy ehtiyojlarda ham yordam koʻrsatadi, zaruriy xollarda maslahat beradi va hatto shaxsiy hayotiy masalalarda ham qoʻllab-quvvatlaydi. Bu holat ustoz va shogird oʻrtasidagi munosabat faqat iqtisodiy aloqadan iborat emasligini koʻrsatadi[314]. Bu esa ustaxona ichida bozor iqtisodi mantiqi bilan gʻamxoʻrlik va ustozlik mas’uliyati mantiqi yonma-yon koʻrinish olganligini anglatadi[315]. Mehnat taqsimoti esa aynan shu ikki mantiqning muvozanatini amalda ushlab turadi.

Mehnat taqsimoti bozor talabi va mahsulot tipologiyasi bilan ham uzviy bogʻliq. Ustaxonalar arzon, kundalik ehtiyoj uchun moʻljallangan buyumlar ishlab chiqarishi koʻproq maxsulot tayyorlashni talab qiladi[316]. Shogirdlar esa har bir bosqichni almashlagan xolda bajaradilar.

Xiva tumanidagi Mahmud Sa’dullyev ishlab chiqarish korxonasida kuzatilgan holatga e’tibor qaratilsa, mehnat taqsimotining zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangani tufayli tayyor loydan maxsus uskuna yordamida shakl berish, quritish jarayonini nazorat qilish, qurigan buyumlarga rang-tasvir tushurish hamda sirlash kabi bosqichlar tizimli ravishda tashkil etilgani, ishchilar oʻrtasida vazifalar aniq taqsimlangani, yangi ishchilarni oʻrgatish tizimi ham ishlab chiqarish ichida yoʻlga qoʻyilgani tushuniladi[317].

[313] Dala yozuvlari: Rishton tumani va boshqa hududlar boʻyicha kuzatuvlar (2025 yil)
[314] Dala yozuvlari: Rishton tumani va boshqa hududlar boʻyicha kuzatuvlar (2025 yil)
[315] Polanyi K. The Great Transformation: The Political and Economic Origins of Our Time. – New York: Farrar & Rinehart, 1944.; Sennett R. The Craftsman. – New Haven: Yale University Press, 2008.
[316] Braverman H. Labor and Monopoly Capital: The Degradation of Work in the Twentieth Century. – New York: Monthly Review Press, 1974.
[317] Dala yozuvlari: Rishton tumani va boshqa hududlar boʻyicha kuzatuvlar (2025 yil).

Bu holat Braverman tasvirlagan mehnatning parchalanishi[318] va nazoratning kuchayishi bilan ham ma’lum darajada o‘xshashlik kasb qiladi. Ayrim ishlar soddalashtiriladi, natijada ishlab chiqarish tezlashadi, biroq hunarning yakuniy mualliflik va butun jarayonni bilish jihati qisqaradi.

Buyurtmalar kamchilikni tashkil qilgan badiiy qiymati yuqori, bezakli, sovg‘a ko‘rinishidagi mahsulot tayyorlaydigan ustahonalar esa har bir buyumga mualliflik tasavvurni singdirishi zarurati mavjud bo‘lib, maxsulot tayyorlash jarayonining aksariyat bosqichini utaning o‘zi bajaradi[319]. Bunday sharoitda shogirdlar asosan yordamchi vazifalarda ishtirok etadi va tajriba orttiradi.

Dala materiallarida N.Abloqulov, A.Narzullayev, M. Abduvahobov va A.Karimovlar faoliyatida[320] katta hajmdagi buyurtmalarni qabul qilmaslik, asosan badiiy qiymati yuqori va an’anaviy bezakka tayangan mahsulotlar ishlab chiqarishga ustuvorlik berish tendensiyasi kuzatildi. Xususan, M. Abduvhidov har bir bosqichni shaxsan bajarishi mahsulotning uning tasavvuriga mos chiqishini ta’minlashini ta’kidlaydi[321]. Bu holat nazoratni markazlashgan holda saqlashga qaratilgan yondashuvni ifodalaydi.

Mehnat taqsimoti ko‘rinadigan va ko‘rinmaydigan mehnat munosabatida ham kuzatiladi. Ustaxonada natijasi tez ko‘ringani sabab ko‘pchilik kuzatuvchilarning e’tibori charxda buyum tayyorlash yoki rangli bezakka qaratiladi.

Lekin, tuproqni loyga tayyorlash, uni suvga qorish, loyni pishitish, ustaxona tozaligini saqlash, buyumlarni changdan himoyalash, quritish joyini tashkil qilish, tayyor mahsulotni saralash va qadoqlash kabi ishlar aksariyat xolda e’tibordan chetda qoladi. Aslida esa aynan shu bosqichlar bo‘lmasa, ko‘zga ko‘rinadigan jarayon ham to‘liq ishlamaydi.

Olib borilgan dala tadqiqotlarida ustaxonani toza saqlash, mahsulotlarni changdan tozalash kabi ishlariga ham alohida e’tibor qaratildi. Qolaversa, ularning ishlab chiqarish sifatiga ta’siri masalasiga doir mulohazalar berildi[322]. Antropologik nuqtai nazardan ko‘rinmas

[318] Braverman H. Labor and Monopoly Capital: The Degradation of Work in the Twentieth Century. – New York: Monthly Review Press, 1974.
[319] Dala yozuvlari: Rishton tumani va boshqa hududlar bo‘yicha kuzatuvlar (2025 yil).
[320] Dala yozuvlari: Rishton tumani va boshqa hududlar bo‘yicha kuzatuvlar. – 2025 yil.
[321] Andijon viloyati Andijon shahri, Xorazm viloyati Honqa tuani, tumanlari. 2025 yil.
[322] Dala yozuvlari: Rishton tumani va boshqa hududlar bo‘yicha kuzatuvlar (2025 yil).

ishlarni yordamchi mehnat sifatida past baholash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Bu mehnat turini ustaxonaning kundalik faoliyatini ta’minlaydigan jarayon deyish mumkin. Usta aynan shu tizimini boshqaruvchi shaxs xisoblanadi[323]. Urgut kulolchilik maktabi ustahonasida tuproqdan loy tayyorlash va barcha bosqichlar bir ustahonada amalga oshirilishi, tayyorlangan buyumlarning ustiga changni tez to‘planishiga olib keladi. Bu xolat charxda shakl berilgan va quritish uchun qo‘yilgan buyumlarni doimiy changdan tozalashni talab qilib, honadon a’zolari xisoblangan ayollarni ustahona ishiga jalb qilishga sharoit yaratadi[324]. Usta esa bu jarayonni doimiy nazorat qiladi. Qolaversa, tanlangan tuproqni ustahonaga tashib keltirish yosh nabiralarning harakati bilan amalga oshiriladi.

Mehnat taqsimoti oilaviy ishlab chiqarish tizimi bilan uyg‘un xolatda tahlil qilinishi ham yangi masalalarni taqdim qiladi. Xorazm viloyati kulolchilik maktablari bo‘yicha dala tadqiqoti natijalari kulolchilikning ko‘p hollarda oilaviy kasb sifatida namoyon qiladi. Ustaning turmush o‘rtog‘i, farzandlari yoki qarindoshlari jarayonning turli bosqichlarida ishtirok etishi kuzatiladi[325]. Oilaviy mehnat taqsimoti uy xo‘jaligi bilan bir qatorda ustaxona ehtiyojiga ham moslashadi. Ushbu jarayonda vaqt, kuch, va ko‘nikma, did va diqqat e’tibor muhim ahamiyat kasb qiladi.

Masalan, Xorazm viloyati Kattabog‘ kulolchilik markazida Odil Rahimov ustaxonasida mehnat jarayoni oilaviy asosda tashkil etilgan bo‘lib, qizlari koshinlarni ranglash, o‘g‘li naqsh uchun bosma qog‘oz tayyorlash bilan shug‘ullangan, usta esa buyurtma muddatiga qarab nazorat va amaliy yordamni birgalikda olib borgan[326]. Shuningdek, ustaning katta qizi tasvir va pardoz bosqichiga mas’ul qilib belgilanganligi ham ahamiyat kasb qiladi.

Bu jarayonda mehnat taqsimoti oila ichida tajriba uzatish tizimini ham kuchaytiradi. Hunar sirlarini begonalarga oshkor qilmasdan, ularni o‘z doirasi ichida o‘rganish va mustahkamlash imkoniyati yaratiladi. Shu tariqa bilim va ko‘nikmalar avloddan avlodga yopiq tarzda o‘tadi. Bunday

[323] Sennett R. The Craftsman. – New Haven: Yale University Press, 2008.
[324] Dala yozuvi. Urgut tumani
[325] Dala yozuvlari: Hiva tumani va boshqa hududlar bo‘yicha kuzatuvlar (2025 yil).
[326] Dala yozuvlari. Yangiariq tumani. 2025 yil.

shakl Markaziy Osiyo hunarmandchiligi tarixida risolaviy qadriyatlar va kasb odobi bilan uyg‘un holda shakllanganligini ham kuzatish mumkin[327].

Umuman olganda, mehnat taqsimoti ustaxona ichida turli talablar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlovchi boshqaruv tizimi sifatida ko‘rinish berib, hunarning barqarorligi va davomiyligini ta’minlaydigan asosiy tizim xisoblanadi.

Mehnat taqsimoti bilan bog‘liq ichki tafavvutlar ustaxonalar hayotining boshqa ijtimoiy bosqichlarini ham tahlil etishni talab qiladi. Ustaxonadagi vazifalar faqat texnologik zarurat asosida emas, balki ijtimoiy mavqe, mas’uliyat darajasi va an’anaviy tasavvurlar asosida ham belgilanishi shular jumlasidandir.

Qaysi jarayon kimga topshirilishi, qaysi ish usta ishi yoki yordamchi ish sifatida baholanishi mehnat taqsimotining ijtimoiy va madaniy jihatlarini ochiqlashga yordam beradi. Bu mezonlar ustaxona ichidagi ierarxiya va vakolat tushunchasini shakllantiradi.

Shu nuqtai nazardan kulolchilik jarayonida gender vazifalarining ifodalanishini alohida tahlil qilish mehnat taqsimotining ijtimoiy asoslarini yanada batafsil yoritishga xizmat qiladi.

Kulolchilik faoliyatida gender vazifalarining ifodalanishi aksariyat xollarda ayol yoki erkaklar ma’lum ishlarni qilishligi doirasidagi soddalashtirilgan tasnif bilan chegaralanib qoladi, holbuki antropologik va etnologik yondashuvlar bu hodisani ijtimoiy tuzilma, ma’naviy me’yor, iqtisodiy moslashuv hamda madaniy xotira avloddan avlodga o‘tishining murakkab tizimi sifatida ko‘rishga tavsiya beradi.

Kulolchilik ustaxonasida erkaklar va ayollar bajaradigan vazifalar, bir tomondan, texnologik jarayonning ichki mantiqi loy, tayyorlash, shakl berish, quritish, pishirish, sir, bezak bilan belgilanganidek ko‘rinsa-da, ikkinchi tomondan, bu taqsimot jamiyatda jins (gender) asosida shakllangan ijtimoiy jarayonlar, munosiblik va joizlik haqidagi qarashlar, axloqiy nazorat, iffat va obro‘ kabi tushunchalar bilan mustahkamlanadi.

Shu sabab kulolchilikdagi gender vazifalari faqat mehnat taqsimoti emas, balki ramziy-ma’naviy tartibning ham ifodasi sifatida tahlil qilinadi. Xususan, erkak ko‘pincha kuch, barqarorlik, nazorat bilan, ayol esa

[327] Ruziyev N. M., Salamova Z. B. Ustoz-shogirdlik an’anasi va amaliy san’atda kulolchilikning o‘rni // Academic Research in Modern Science: International scientific-online conference. – 2022. – B. 124–126.

nafislik, bezak, sabr-toqat, baraka bilan bog‘lanib tahlil qilinadi. Bunday talqinlar tarixiy davrlarda kulolchilikning oilaviy kasb sifatida barqaror ishlashiga xizmat qilgan. Ota o‘g‘ilga texnologik jarayonni, ona qizga bezak va pardozning estetik sirlarini o‘rgatadi, natijada hunar ichidagi bilimlar faqat kasb emas, balki ijtimoiy meros sifatida ham uzviy davom etadi.

Gender antropologiyasida keng e’tirof etilgan yondashuvlardan biri shuki, kulolchilikning eng qadimgi bosqichlarida sopol tayyorlash uy-ro‘zg‘or ehtiyojlariga yaqin bo‘lgani uchun bu faoliyat, avvalo, ayollarning kundalik xo‘jalik faoliyatiga bog‘langan.

Markaziy Osiyoda miloddan avvalgi VII-V ming yilliklar atrofida shakllangan ilk dehqonchilik jamoalari Joytun, Anov, Nomozgoh, Kaltaminor, Hisor madaniyatlari hayotida sopol buyumlar asosan pishirish, saqlash, suv tashish kabi maqsadlarda ishlatilgani qayd etiladi. Bu esa idish yasash texnologiyasining dastlab uy faoliyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lganini ko‘rsatadi. Aynan shu jarayon qadimiy jamiyatlarda ko‘proq ayollar mas’uliyatiga biriktirilgani sabab, tadqiqotchilar sopol ishlab chiqarish jarayoni ham ayollarning faoliyati sifatida boshlanganini e’tirof qiladilar[328]. Joytun yodgorliklaridan topilgan dastlabki sopollarning qo‘lda shakllantirilgani, soddaligi va uy sharoitida ishlab chiqarilgani ham bu fikrni mustahkamlovchi dalil sifatida talqin etiladi. V. M. Masson Joytun sopollari uy-ro‘zg‘or jarayonining bir qismi bo‘lganini, ishlab chiqaruvchilar ko‘proq ayollar bo‘lganini qayd etadi[329]. Bunday yondashuvning ilmiy ahamiyati shundaki, u kulolchilikni ustaxona hunari degan tor doiradan chiqarib, uni dastlab uy xo‘jaligi faoliyati sifatida talqin qiladi. Bu esa keyinchalik yuz bergan ixtisoslashuv jarayonida gender vazifalarining qanday taqsimlanganini izohlash imkonini beradi.

Keyingi bosqichlarda, ayniqsa ishlab chiqarish texnologiyalari murakkablashgani sari, kulolchilikning ayrim vazifalari jismoniy kuch va uzoq muddatli davomiy amaliy tajribani talab qila boshlaydi. Katta hajmli xomashyo qazish, loyni ko‘p miqdorda tayyorlash, xumdon qurish, yuqori haroratli pishirish jarayonini boshqarish, yirik buyumlarni ko‘tarish va joylashtirish kabi yumushlar ko‘proq erkaklar zimmasiga o‘ta boshlaydi.

[328] Массон В. М. Древнейшие земледельцы Юго-Западного Туркменистана (Культура Джейтун). – Москва: Наука, 1981. – 240 с.; Лисицына Г. Н. Неолит и энеолит Средней Азии. – Ленинград: Наука, 1984. – 256 с.
[329] Массон В. М. Древнейшие земледельцы Юго-Западного Туркменистана (Культура Джейтун). – Москва: Наука, 1981. – С. 73.

Shu yerda texnologiya, mehnat taqsimoti, ijtimoiy maqom tushunchalari yuzaga keladi.

Charx va xumdon bilan bog‘liq bosqichlar ishlab chiqarishning asosiy tayanchi sifatida ko‘rilib, bu tayanchni bajargan subyekt ustozlik, nazorat, bozorga chiqish kabi maqomiy funksiyalarni ham o‘z qo‘liga oladi. Natijada kulolchilik tarixiy jarayonda ayollarning uy doirasidagi ishlab chiqarishidan erkaklar ustaxona tizimiga ko‘chib, ko‘pincha usta obrazi erkaklar bilan ko‘proq bog‘lanib ketadi. Biroq, bu o‘zgarish ayollarning hissasi yo‘qolganini anglatmaydi, aksincha, ayollarning mehnati ko‘pincha ko‘rinmas shaklda davom etadi.

Xususan, bezak, pardoz, mayda ishlov, quritish, saralash, tayyor mahsulotni tozalash, ba’zan savdoga tayyorlash kabi jarayonlar iqtisodiy ahamiyat kasb qilsa-da, ustalik maqomi bilan har doim ham bir xil darajada e’tirof etilmaydi.

Ana shu ko‘rinmas mehnat majmuasi kulolchilikdagi gender vazifalarini tahlil qilishda muhim muammoni keltirib chiqaradi. Ayollar bajaradigan nozik ishlar bo‘lmasa, mahsulot badiiy qiymati va bozor jozibadorligi pasayadi, ammo ijtimoiy tasavvurda asosiy usta ko‘pincha charx va xumdon egasi sifatida belgilanishda davom etadi.

Adabiyotlarda keltirilgan etnografik ma’lumotlar ham gender vazifalarining faqat mehnat taqsimoti emas, balki marosimiy-ramziy tartib bilan mustahkamlanganligini ko‘rsatadi. 1970 yillarda mavjud bo‘lgan kulolchilik haqidagi ma’lumotlarda tog‘li hududlarda charxsiz qo‘lda yasaladigan sopol buyumlarning ayollar tomonidan tayyorlangani, bu jarayonda loy tayyorlash va ishlov berishda boshqa ayollarning ham ishtirok etgani, ayrim qishloqlarda ayol ustalarning idishlarni don evaziga almashtirgani yoki bozorda sotishni erlariga topshirgani qayd etiladi.

Eng muhim jihati shundaki, idishlarni pishirish jarayoni atrofida ko‘z tegish , yovuzlikdan saqlash, buyumlarga oq matolarning himoya kuchi, sut quyish kabi qarashlar mavjud bo‘lib, bu faoliyatlar ayollar tomonidan bajarilgan marosimiy nazoratning bir qismi sifatida ko‘riladi[330]. Payqash mumkinki, bu yerda gender roli iqtisodiy vazifa bilan tugamaydi, ayol usta nafaqat ishlab chiqaradi, balki mahsulotni yomon

[330] Дервиз Г., Жадова Л., Жданко И., Митлянский Д. Современная керамика народных мастеров Средней Азии: альбом. – Москва: Советский художник, 1974. – С. 29–31; 236 с.: ил.

nazardan himoya qiladi, ya’ni kulolchilik jarayoniga marosimiy tushunchani kiritadi. Shunday talqin kulolchilikda ayol mehnatini madaniy xotira va himoya tizimlarining tashuvchisi sifatida koʻrishga asos yaratadi.

Qadimgi Xorazm boʻyicha S. P. Tolstov qayd etgan mulohazalarda ham idish yasash ishlab chiqarishasining dastlabki bosqichlari xoʻjalik faoliyati tarkibida, ayollar tomonidan bajarilgani, keyinchalik erkaklar bu sohada ixtisoslasha borgani tushunilishi lozimligi ta’kidlanadi[331]. Xususan, gender munosabatlarda faqat erkaklar ustun degan yakuniy holat emas, balki tarixiy jarayon natijasi ekanligi qayd etiladi.

Demak, bugungi kulolchilik maktablarida kuzatilayotgan gender rollarining ildizi ham texnologik va iqtisodiy ixtisoslashuvning tarixiy yoʻnalishi bilan bogʻliq xodisa. Aksariyat ustaxonalarda kuzatiladiki, ishlab chiqarish jarayoniga bozor munosabatlarining ta’sirini ortishi natijasida buyurtma, mas’uliyat, tavakkalchilik, kapital va xomashyo ta’minoti kabi omillar kuchayadi, bu jarayon esa aksariyat xollarda patriarxal ijtimoiy tuzilma sharoitida erkaklar zimmasiga loyiq deb koʻriladi. Ayollarning uy, farzand tarbiyasi kabi yumushlarini xisobga olganda ayollar koʻproq bezak, marosim, mayda ishlab chiqarish kabi segmentlarda qolib ketgan. Bu esa ijtimoiy maqomning ishlab chiqarishdagi koʻzga koʻrinadigan bosqichlari orqali taqsimlanishiga olib keladi.

Shu bilan birga, dala materiallarida ham kulolchilikdagi gender vazifalari doim ham qat’iy taqiqlar bilan belgilanmaganini, aksincha, koʻplab holatlarda u moslashuvchan boʻlganini koʻrsatadi. Masalan, 22 ta kulolchilik maktabi boʻyicha kuzatuvlarda[332] erkaklar aksariyat ustaxonalarda tuproq tanlash, qazib olish, loy tayyorlash, charxda shakl berish, xumdon bilan ishlash, sirlash, sotish, ustaxona boshqarish va shogird oʻqitish kabi muntazamlik talab qiluvchi jarayonlarda peshqadam boʻlgani ochilanadi. Ba’zi ustaxonalarda ayollar mehnati umuman kuzatilmagan, ayrimlarida esa faqat tozalash, chang artish, yordamchi yumushlar bilan chegaralangani kuzatiladi. Biroq, oʻrganilga kulolchilik

[331] Толстов С. П. По следам древнехорезмской цивилизации. – Москва: Наука, 1948. – 320 с.; Толстов С. П. По следам древнехорезмской цивилизации. – Москва: Наука, 1948. – С. 152.
[332] Dala yozuvlari: Rishton tumani va boshqa hududlar boʻyicha kuzatuvlar. – 2025 yil.

maskanlari orasida 4 ta ustahona boshqaruvi ayollar tomonidan olib borilishini ham e’tirof etish o‘rinlidir.

Bu yerda gender roli, bir tomondan, mehnatning og‘irligi bilan, ikkinchi tomondan, oilaviy hayot tarzi yani, farzand tarbiyasi, uy ro‘zg‘ori, ijtimoiy majburiyatlar bilan ham belgilanadi. Ustalar bilan suhbatlarda ayollar ko‘pincha uy yumushlari va tikuvchilik kabi boshqa faoliyat bilan band ekani, katta buyurtmalar olinmasligi, badiiy qiymatga ega kam sonli mahsulotlar tayyorlanishi, shuning uchun ham ustaxona ichida ishni erkak usta o‘zi nazorat qilishi ta’kidlanadi.

Bu mulohazalar gender taqsimotining tabiiy emas, balki iqtisodiy jarayonlar ya’ni, buyurtma hajmi, mahsulot turi, ustaxona imkoniyati bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Ayolning kundalik ro‘zg‘or yumushlari bilan bog‘liq oilaviy majburiyatlari qisqargan taqdirda, u hunarmandchilik faoliyati bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Agar u ishlab chiqarish jarayonining zarur ko‘nikmalarini puxta egallagan usta darajasiga yetgan bo‘lsa, zarur xolatda ustaxona faoliyatini boshqarish vazifasini ham zimmasiga olgan.

Agar ustaxona badiiy va kam sonli bo‘lsa, usta jarayonning ko‘p bo‘g‘inini o‘zi bajarishga harakat qiladi. Agar ustaxona katta jamli va tezkor ishlab chiqarishga o‘tsa, ayollar ko‘proq bezak va ishlab chiqarish kabi ishlarga jalb qilingan.

Aynan shunday jarayonlarda kechgan gender munosabatlarni Xiva tumanidagi Mahmud Sa’dullayev korxonasida kuzatish mumkin va masala yaqqol ko‘rinadi. Dala materiallarida ushbu ustahonada 20 ga yaqin ishchining 17 nafari ayollar bo‘lib, zamonaviy uskunalarda ishlash, shakl berish, quritish, rang-tasvir tushurish va sirlash jarayonlari ko‘proq ayollar zimmasiga topshirilgani, erkaklar esa loy tayyorlash, xumdon, pishirish, sotish va xomashyo tashish bilan shug‘ullangani qayd etiladi. Bu holat ayollarni ishlab chiqarishning markaziga ko‘tarilganini ko‘rsatadi.

Ushbu jarayonni, me’yorlashtirilgan jarayonlarni tez va barqaror bajarish, bir xil bezakni takror tasvirda ks ettirish, ishlab chiqarish intizomini saqlash kabi talablarda ayollar mehnati ishonchli xisoblanadi. Bu faoliyat ko‘proq diqqat, sabr-toqat talab qiladi. Ushbu xolatdan kelib

chiqib, gender vazifalari ishlab chiqarishning tashkiliy shakli bilan birga o‘zgarib boradigan ijtimoiy kelishuv deb baholash mumkin.

Tadqiqot davomida ba’zi ustahonalarda ayollarning charxda o‘tirishi mumkin emas, degan qarashlar uchraydi. Bu xaqida O.Rahimov ustahonasida ham ayni shunday ma’lumotlar qayd etildi[333]. Ammo tahlil qilingan manba va adabiyotlarda bu xaqida ma’lumotlar uchratilmadi. Axborotchilar savolga tutilganida bu qoidaning aniq sababini ko‘pchilik ustalar ham ko‘rsatib bera olmadi. Faqatgina Rishton tumanida faoliyat olib boruvchi G‘ofurjon Bobojonov bu holatni ayollar iffati va sog‘liq bilan izohlab beradi. Unga ko‘ra charx o‘rindig‘ining kichik va noqulayligi sabab qizlar va ayollarning o‘tirishi taqiqlangani, bu kasb pirlari bilan bog‘liq emasligi aytiladi. Bu izoh antropologik jihatdan juda muhim, chunki, u taqiqning diniy matnlardan ko‘ra ko‘proq mahalliy axloqiy me’yor va ijtimoiy nazorat (iffat, uyat kabi tushunchalar) bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Anglash mumkinki, gender vazifalari ba’zan kasb qoidasi ko‘rinishida emas, balki jamiyatning umumiy axloqiy tartibi ko‘rinishida ustaxonaga kirib kelgan. Bunday holatlarda ayolning ustaxonadagi roli cheklanadi, ammo u butunlay yo‘qolmaydi. Ayollar bezak, pardoz, koshinga rang berish, murakkab naqsh kabi segmentlarda tajribasini davom ettiradi.

Dala materiallarida ayollarning kasbiy rivojlanishi va ijtimoiy mavqe’i e’tirofi ham kuzatiladi. Odiljon Rahimov ustaxonasida faoliyat olib boruvchi ikki nafar qizlari (shu bilan bir vaqtda ular usta maqomiga egalar) Barno va Nodira Rahimovalarning so‘rovnomadagi javoblari gender masalasining zamonaviy qiyofasini ochib beradi.

Axborotchilar fikriga ko‘ra kasb ko‘p vaqt talab qilishi, ba’zan oilaga ajratiladigan vaqtni ham qisqartirishi, ammo aynan shu kasb oilaviy byudjetga foyda keltirishi xaqida to‘xtaladilar. Qolaversa, ustalar ish jarayonida ruhiyat bilan bog‘liq kechinmalarini ham tushuntirtib beradilar. Xususan, bezak berish jarayonida turmush bilan bog‘liq ko‘plab muammolar unitiladi, stress va tushkunlikdan chalg‘ishga ba’zi xollarda chiqishga ham yordam berishini ta’kidlaydilar. Shu bilan birga kasb tufayli

[333] Dala yozuvlari. Horazm viloyati, Yangiariq tumani. Kattabog‘ MFY. 2025 yil.

sayohatlar, koʻrgazmalar, ijtimoiy tajriba ortishi masalalari ham e’tirof etiladi.

Eng muhimi, usta maqomini oʻzida his etish kabi tushunchalar ayol hunarmandning yordamchiligidan chiqib mustaqil kasb egasi boʻla olishini koʻrsatadi. Barno Rahimovaning yoshlarni kasbga yoʻnaltirishdagi faolligi va ragʻbat olgani haqidagi ma’lumot ham ayol ustalarning zamonaviy ijtimoiy mavqe’ topishi va shaogirdlar yetishtira olishini bildiradi.

Bu misollar kulolchilikdagi gender vazifalari an’anaviy cheklovlar bilan chegaralanmasligini, imkoniyatlar berilgan sari ayollar bu sohada tajribali usta maqomiga chiqishi mumkinligini koʻrsatadi.

Gender vazifalarining ifodalanishi oʻyinchoqlar tayyorlash va xushtak yasash kabi segmentlarda yanada aniqroq koʻrinadi. Dala tadqiqotida qoʻlga kiritilgan dalillarda sirlangan sopol buyumlar markazlarida ham oʻyinchoqlarni koʻpincha ayollar yasashi qayd etiladi. Ushbu jarayonga sabab sifatida bu yoʻnalishda jismoniy kuch va charxda ishlash talab qilinmasligi, Markaziy Osiyoda qadimdan bunday ish bilan keksa kulollar yoki ayollar shugʻullangani aytiladi. Uba qishlogʻidagi oʻyinchoq yasash an’anasining davomiyligi, Hamro Rahimova misoli shuni tasdiqlaydiki, ayollar kulolchilikning yirik ishlab chiqarish jarayonidan cheklangan taqdirda ham, uning ramziy va tarbiyaviy jihatini oʻyinchoq, xushtak, suvenir maxsulotlarida saqlab qoladi.

Bu jarayon esa madaniy xotirani davomiyligida istiqbolli ahamiyatga ega xisoblanib, oʻyinchoq savdo buyumi bilan birga bolalik, marosim, sovgʻa, baraka va mahalliy oʻziga xoslik bilan bogʻliq ramziy obyekt ham xisoblanadi

Kuzatilishicha turizm sharoitida ayol kulollarning tashabbuskorligi va faolligi yanada ortib bormoqda. Xususan, Xiva shahrida Dilnoza Otajanovaning oilaviy korxonasi, Samarqandda Dilorom Muxtorova, Toshkentda Dilnoza Narzullayevaning ustaxonalari hamda Natalya Yalishevaning dekol ishlab chiqarish bilan bogʻliq yoʻnalshidagi faoliyati ayollarning[334] ishlab chiqarish jarayonida, boshqaruv, brend yaratish, savdo, marketing va innovatsiya sohalarida ham faol ishtirok etayotganini koʻrsatadi.

[334] Dala yozuvlari: Toshkent shahri va boshqa hududlar boʻyicha kuzatuvlar. – 2025 yil.

Ayniqsa, dekol ishlab chiqarish misolida ayol ustalarning kasbiy salohiyati aniq namoyon bo‘ladi. Tasvirni qog‘ozdan buyum yuzasiga ko‘chirish, kompozitsiya muvozanatini ta’minlash, ranglar uyg‘unligini saqlash hamda yuqori haroratda pishirish jarayonida tasvirning sifatini oldindan hisobga olish kabi bosqichlar yuqori darajadagi aniqlik va mahoratli tajriba talab qiladi. Mazkur jarayon ayol ustaning ustaxonada estetik nazorat va sifat monitoringi funksiyasini bajarishiga imkon yaratadi.

Shu tariqa, zamonaviy kulolchilik maktablarida gender roli jismoniy imkoniyatlar bilan emas, balki professional bilim, amaliy ko‘nikma va bozor talablari bilan belgilanadi. Ayol kulollarning faoliyati ularning muayyan kasbiy bilimga egaligi asosida shakllanib, ustaxona va bozor tizimida barqaror mavqega ega bo‘lishini ta’minlamoqda.

Kulolchilikdagi gender vazifalarini anglash uchun ularni faqat mehnat taqsimoti doirasida emas, balki ijtimoiy institut sifatida talqin qilish ham maqsadga muvofiq xisoblanadi. Bunday yondashuvda ustaxona ichida shakllangan ishonch muhim o‘rin tutadi. Sir berish, xumdonni tayyorlash, buyumlarni pishirish jarayoni, buyurtma uchun javobgarlik kabi tavakkalchilikka asoslangan bosqichlar, odatda, ustaning o‘zi yoki sinovdan o‘tgan, ishonch qozongan shogirdlarga topshiriladi.

Mazkur jarayonda ayolning ustaxonadagi qisman ishtiroki oilaviy va ijtimoiy majburiyatlar sabab muhim va doimiy faoliyat talab qiladigan ishlarni ayollarga nisbatan kam topshirilishligini ham kuzatish mumkin[335].

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib aytish mumkinki, kulolchilikdagi gender masalasi ramziy tasavvurlar bilan bog‘liq xolda ya’ni erkak ko‘proq kuch, nazorat va mas’uliyat bilan, ayol esa nafislik, bezak va baraka bilan bog‘lanadi. Boshqa jihatda esa amaliy hayot bilan bog‘liq xolda bo‘lib, doimiy ishlash, buyurtma olish, savdo bilan shug‘ullanish shuningdek, mazkur murakkab jarayonlarni boshqarish kabilar muhim xisoblanadi.

Hozirda bu ikki yo‘nalish har doim bir-biriga to‘liq mos kelmaydi. Faoliyatda ayol usta ham boshqaruv va savdoda faol bo‘lishi kuzatilsa,

[335] Dala yozuvlari: Toshkent shahri va boshqa hududlar bo‘yicha kuzatuvlar. – 2025 yil.

erkak usta esa bezak ishlarida yetakchi oʻrinni egallagan va maxsulotlarni brend darajasiga olib chiqqan xolatlar uchratildi.

Bugungi kunga kelib, sanoatlashish, texnologiyalarning taraqqiy qilishi, sayyohlik va brendlarni yaratishga boʻlgan harakatlar, ijtimoiy tarmoqlardagi targʻibot hamda ayollarning tadbirkorlik faoliyatiga kirib kelishi natijasida ayol kulollarning ustaxona, boshqaruv va innovatsiya sohalaridagi faolligi ham ortib bormoqda.

Ushbu oʻrinda kulolchilikni oilaviy ishlab chiqarish tizimi sifatida tushunish ham muhim xisoblanadi. Xorazm va boshqa hududlar tajribasida kuzatish mumkinki, kulolchilik aksariyat xollarda uy bilan ustaxona tutashgan yagona joyda faoliyat olib borishi sharoitida shogirdlar usta bilan bir xil hayot tarzida yashaydi. Tayyor mahsulot uyda saqlanadi va xaridorlar ham bevosita xonadonga tashrif buyuradi. Shu bois kulolchilik oilaning turmush tarzining bir boʻlagiga aylanadi.

Antropologik nuqtai nazardan qaraganda, ayol buyumni bevosita yasamasligi mumkin, biroq u ishlab chiqarish jarayonining uzluksiz va barqaror kechishi uchun zarur sharoitni yaratadi.

Bundan tashqari, kulolchilikdagi marosimiy jarayonlar ham gender masalasini har tomonlama tushunishga yordam beradi. Etnologik kuzatishlarda buyumni pishirish jarayonida sir sinoatni saqlash bilan birga koʻz tegishdan saqlanish, buyumlarni himoyalash va bazi xollarda humdon atrofiga ortiqcha odamlarni yaqinlashtirmaslik kabi odatlar uchrashi ham qayd etilgan[336].

Bunday tasavvurlarda ayol koʻpincha himoya, baraka va poklik timsoli sifatida talqin qilinadi. Masalan, ustaxona ochilishida erkakning duo oʻqishi va ayolning loy qorishga qoʻl urishi haqidagi qarashlar ishlab chiqarishning ma’naviy boshlanishini ifodalaydi. Erkak niyat va soʻz bilan jarayonni boshlab bersa, ayol bevosita loy bilan ishlash orqali baraka va davomiylik ramzi sifatida koʻrinish beradi.

Shu tariqa, kulolchilikdagi gender vazifalari faqat mehnat taqsimoti bilan cheklanmaydi. Ular ma’naviy va ramziy mazmun kasb qilib, hunarni muqaddaslashtirish, ustaxona obroʻsini saqlash hamda mehnatni halol va pok bajarish haqidagi tasavvurlarni boyitadi.

[336] Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati, Rishton shahri. Mamadali Topvoldiyev MFY. 2025 yil.

Yuqoridagi kuzatuv va tahlillar shuni koʻrsatadiki, kulolchilik ustaxonasida shakllangan ustoz-shogird munosabatlari, mehnat taqsimoti hamda gender vazifalari oʻzaro uzviy bogʻliq holda faoliyat yuritib, buyumning moddiy yaratilishini bilan birga ustaxona ichidagi ijtimoiy tartib, kasbiy iyerarxiya va mehnat madaniyatining shakllanishini ham ta’minlaydi.

Ustaxona muhiti shogirdni kasbga oʻrgatish bilan birga, mehnat intizomi, mas’uliyat, ustozga hurmat va kasb odobini singdiruvchi ijtimoiy makon vazifasini bajaradi. Mehnat jarayonining turli bosqichlarga taqsimlanishi esa mahsulot sifatini barqarorlashtirish, ishlab chiqarishning bozor talabiga moslashuvi hamda oilaviy ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishni ta’minlaydi.

Shu bilan birga, olib borilgan dala tadqiqotlari kulolchilikda mehnat taqsimoti qat’iy tartib emas, balki ishlab chiqarish hajmi, bozor talabi, shogirdlar soni, mavsumiylik va iqtisodiy sharoitga mos ravishda doimiy oʻzgarib boradigan ijtimoiy uyushma ekanini koʻrsatadi. Zamonaviy sharoitda iqtisodiy manfaatdorlik kasb qilmagan shogirdlik tizimi asta-sekin haq toʻlanadigan mehnat bilan uygʻunlashib, ustaxona faoliyati oilaviy hunarmandchilikdan kichik ishlab chiqarish tizimiga qarab oʻzgarib bormoqda.

Gender vazifalari ham an’anaviy vazifalarni saqlagan holda, ayrim bosqichlarda ayollar va yoshlarning ishlab chiqarish jarayoniga koʻproq jalb qilinishi orqali ma’lum darajada moslashib bormoqda.

§ III.2. Kulolchilikda marosimiy an’analar va hunarning ramziy-ma’naviy mazmuni

Kulolchilik ustaxonalarida bajariladigan marosimiy odatlar avvaliga oddiy tartib yoki ish qoidasi kabi tasavvur uygʻotadi. Ammo dala kuzatuvlari shuni koʻrsatadiki, aynan shu odatlar ustaxona ichidagi intizomni saqlaydi, kasbga nisbatan hurmat va ehtiromni mustahkamlaydi hamda ustoz-shogird an’anasining davom etishiga xizmat qiladi.

Kulol uchun loy tirik modda sifatida idrok qilinadi. U namlik, harorat, qo‘l harakati va vaqt omiliga bog‘liq bo‘lib, uni tayyorlash jarayoni ustadan yuqori darajadagi mehnat, e’tiborni va sabrni talab qiladi[337].

Mazkur talablar ustaxona ishlari jarayonida marosimiy shaklda aks etadi va ish boshlashdan oldin baraka tilab, ustahonaga qadam bosishdan tortib xumdon yoqilishigacha bo‘lgan mehnat faoliyatining barcha bosqichlarida duo qilinadi.

Xususan, buyumlarni pishirishdan so‘ng ustoz ruhini yod olish, ish qurollari va vazifalarini pok saqlash, shogirdga kasb sirlarini bosqichma-bosqich o‘rgatish kabi qoidalar kulolchilik maktabining ichki axloqiy me’yorlarini shakllantiradi[338]. Shu tariqa kulolchilikdagi marosim va an’analarni anglashda risolalarda qayd etilgan tafakkur muhim nazariy asos vazifasini o‘taydi. Risolalarda kasb pirlariga nisbat berilgan rivoyatlar, ustozning roziligi, halollik va poklik talablari kulolchilikni jamiyat oldidagi mas’uliyatli va ma’naviy ahamiyatga ega xizmat sifatida ajratib ko‘rsatadi.

Shuni ham aytish lozimki, ushbu jarayonlar marosim matnni yod olish yoki uni shior sifatida takrorlash bilan cheklanmaydi. U ustaxona muhitida, kundalik mehnat jarayonida tanaviy tajriba orqali o‘zlashtiriladigan faoliyat intizomi ko‘rinishida ham namoyon bo‘ladi. Shogird ustoz oldida o‘zini tutishi, loy bilan g‘oyibona muloqot qilishi va shoshilmasligi, xumdon oldida ehtiyotkor bo‘lishi, buyumlarni pishirishdan avval barcha mayda tafsilotlarni tekshirishi kabi qoidalarni marosimiy tartiblar orqali ko‘nikmaga aylantiradi[339].

Dala tadqiqotlarida kulolchilikdagi marosimiylik ko‘pincha olov va xumdon atrofida ko‘proq kuzatiladi. Buning sababi oddiy bo‘lib, pishirish bosqichi tavakkallikka asoslanib, barcha mehnat faoliyatining imtihoni xisoblanadi[340].

---

[337] Гаврилов М. Рисоля сартовских ремесленников. Исследование преданий мусульманских цехов. – Ташкент: Типография при Казанском генерал-губернаторе, 1912. – 59 с.; Пещерева Е. М. Гончарное производство Средней Азии // Труды Института этнографии им. Н. Н. Миклухо-Маклая. – М.; Л.: Издательство АН СССР, 1959. – 344 с.

[338] Гаврилов М. Рисоля сартовских ремесленников. Исследование преданий мусульманских цехов. – Ташкент: Типография при Казанском генерал-губернаторе, 1912. – 59 с.; Остроумов Н. П. Рисаля тележных мастеров // Туркестанская туземная газета. – 1903. – № 30–31.

[339] Гаврилов М. Рисоля сартовских ремесленников. Исследование преданий мусульманских цехов. – Ташкент: Типография при Казанском генерал-губернаторе, 1912. – 59 с.; Остроумов Н. П. Рисаля тележных мастеров // Туркестанская туземная газета. – 1903. – № 30–31.

[340] Dala yozuvi. Urgut tumani 2025 yil.

Shuning uchun barcha kulolchilik maktablarida xumdon yoqilishi imtihon sifatida qabul qilinadi. Bu paytda ustaxona ichida ovoz pasayadi, usta ortiqcha gapni yoqtirmaydi, shogirdga esa avvalo mazkur tartib va intizom uqtiriladi[341]. Bu jimlik va ehtiyotkorlikning koʻrinishi, marosimiy belgilardan biri xisoblanadi. Aynan bu bosqichda usta xuddi ustaxonaning kundalik faoliyatida chiqib, mas'uliyat kuchaygan, xavf va umid aralashgan xissiyotlarga beriladi.

Urgut va Kattabogʻ kulolchilik maktablari ustahonalarida buyumlarni pishirish kuni ustaning boshqa masalaga chalgʻimasligi va yomon koʻzdan ehtiyot boʻlib, begona kishining ustaxonaga kirishiga yoʻl qoʻyilmaydi.

Mazkur cheklovni ijtimoiy jihatdan ham muhim deb xisoblash lozim. Chunki, u xumdonni kulolchilik maktabining sir saqlanadigan joyi sifatida qaraladi[342]. Rishton tumanida boʻlsa xumdonning ogʻzi yopilgach, ustoz shogirdlarga mayda vazifalarni topshirib, ularga humdon bilan ishlash sirini oʻrgatishga harakat qiladi.

Bu jarayon orqali humdonning haroratini xis qilishga va jarayonni toʻgʻri nazorat qilishga boʻlgan koʻnikmalar, xissiy kechinmalar tushuntiriladi. Ushbu marosim shogirdni sinovdan oʻtkazish va usta-shogird ierarxiyasini mustahkamlashga ham xizmat qiladi[343]. Ikkala holatda ham maqsad bir boʻlib, pishirish jarayoni kasbning eng sinovli bosqichi sifatida koʻrsatish, shogird ongida olov oldida tartib qoidani mustahkamlash jarayonidir.

Xumdon atrofida bajariladigan marosim va odatlar ham ramziy ma'noga ega. Chunonchi, olov inson toʻliq boshqara olmaydigan kuch sanaladi, kulol esa aynan shu kuch bilan ishlaydi va u bilan muloqotga kirishishga harakat qiladi. Agar pishirish muvaffaqiyatli yakunlansa, usta buni mehnat, toʻgʻri niyat va barakaning birlashuvi sifatida tushunadi.

---

[341] Дервиз Г., Жадова Л., Жданко И., Митлянский Д. Современная керамика народных мастеров Средней Азии: альбом. – М.: Советский художник, 1974. – 236 с.: ил.; Пещерева Е. М. Гончарное производство Средней Азии // Труды Института этнографии им. Н. Н. Миклухо-Маклая. – М.; Л.: Издательство АН СССР, 1959. – 344 с.

[342] Дервиз Г., Жадова Л., Жданко И., Митлянский Д. Современная керамика народных мастеров Средней Азии: альбом. – М.: Советский художник, 1974. – 236 с.: ил.

[343] Гаврилов М. Рисоля сартовских ремесленников. Исследование преданий мусульманских цехов. – Ташкент: Типография при Казанском генерал-губернаторе, 1912. – 59 с.; Дервиз Г., Жадова Л., Жданко И., Митлянский Д. Современная керамика народных мастеров Средней Азии: альбом. – М.: Советский художник, 1974. – 236 с.: ил.

Bu qarash ustaxona ichidagi muomala va kasbiy madaniyatga ham ta’sir qiladi. Usta o‘z ustaligini mehnatga hurmat, kamtarlik va ishga mas’uliyat bilan ko‘rsatadi. Shogird esa bu jarayonni guvohiga aylanib, kulolchilikda ishlab chiqarish mahorat bilan bir qatorda axloqiy intizom ham muhim ekanligini tushunib yetadi.

Kulolchilikda marosimiy an’analar xumdon atrofidan tashqari ustaxona hayotining deyarli barcha jarayonlarida uchraydi. Masalan, ishni boshlashdan oldin baraka tilash, ustaxona tozaligini saqlash, ish qurollariga ehtiyotkor munosabatda bo‘lish kabi odatlar an’analardan tashqari ish sifatiga ham bevosita ta’sir qiladi. Chunki, loyning tayyorligi, buyumning to‘g‘ri qurishi, sirning bir tekis berilishi va xumdon haroratining barqaror bo‘lishi ustaxona ichidagi tartib va e’tibor bilan chambarchas bog‘liq xisoblanadi.

Kuzatish natijalaridan ma’lumki, shogirdga hunar sirlarini birdaniga o‘rgatmaslik ham oddiygina sir saqlash emas, balki tarbiyaviy jarayonning tarkibiy qismi xisoblanadi. Bu orqali usta shogirdni asta-sekin mas’uliyatga o‘rgatadi, shogird esa har bir yangi bosqichni ishonch va e’tirof belgisi sifatida qabul qilib, kasbga mehr bilan yondashadi.

Ustaxonadagi tartib va munosabatlar qat’iy buyruq yoki majburlash orqali emas, balki o‘zaro hurmat, rozilik va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash asosida shakllanadi.

Kulolchilikdagi marosimiy an’analar hududiy maktablarda mintaqaviy ahamiyat kasb qilib, pirlar va homiylarga ehtirom va ziyorat qilish bilan yaxshiroq ko‘rinish beradi.

Kuzatuvlarga ko‘ra, Rishton kulolchilik maktablarida hunarmandlar orasida diniy va ijtimoiy qarashlar kasbiy hayot bilan chambarchas bog‘lanib ketgani aniqlanadi. Farg‘ona vodiysidagi ko‘plab kulollar o‘z kasbining homiy pirlari sifatida Markaziy Osiyoda mashhur bo‘lgan Bahauddin Naqshband va Said Amir Kulol nomlarini e’tirof qiladilar. Ayniqsa, Rishtondagi bezakli idish yasovchi kulollar Bahauddin Naqshband siymosiga alohida e’tiqod qilganlari va XIX asr oxiri - XX asr boshlariga qadar uning Buxorodagi maqbarasini ziyorat etib kelganlari qayd etiladi[344].

[344] Esonov Z.Yu. Farg‘ona vodiysi qishloq aholisining hunarmandchilik an’analari / Z.Yu. Esonov. – Toshkent: Classic, 2023. – 160 b.

Bu holat kulolchilikdagi marosimiy an’analarning ikki jihatini ochib beradi. Bir tomondan, u kasbning ichki tartibi va ustoz-shogird an’analarini mustahkamlasa, ikkinchi tomondan, kulolchilikning jamiyatdagi o‘rni va madaniy jihatdan qabul qilinishini ta’minlaydi. Pirlarga bog‘lanish ustalar uchun kasbning tarixiy davomiyligini his qilishga xizmat qiladi. Shu sababli usta o‘zini avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan kasbiy silsilaning davomchisi sifatida anglaydi.

Rishton kulolchiligining Buxoro, Samarqand, Xorazm kulolchilik maktablari bilan uzviy aloqada rivojlangani qayd etilar ekan, bu aloqa e’tiqodiy-marosimiy qarashlarning ham o‘zaro ta’siri sifatida tushuniladi[345].

Shu bilan birga, qayd etish lozim vodiy kulolchiligi ichida ham pirlar bilan bog‘liq ayrim etnohududiy farqlar kuzatiladi[346]. Masalan, tandirchilik sohasi mamlakatdagi rivojlangan kulolchilik markazlari bilan nisbatan kam aloqada bo‘lgani uchun homiy pirlar obrazlari o‘ziga xos shaklda rivojlangan. Masalan, Marg‘ilon, Asakada tandirchilari Amir Kulol obrazini Mehri kulol nomi bilan atagani va Rishtonlik tandirchilar uning qabri So‘x tumanining Gul qishlog‘ida joylashgan deb ko‘rsatishi qayd qilinadi.

Bu misol marosimiy an’ananing mahalliy muhitga ko‘chganini ko‘rsatadi. Pir timsoli umumiy tarzda mahalliy tarix, mahalliy tuproq manbai va mahalliy xotira bilan bog‘langan holda talqin qilinadi. Tushunish mumkinki, marosim an’ana sifatida meros hamda moslashuvchan holat sifatida ko‘rinadi. Lekin, kasbni ma’naviy jihatdan mustahkamlash vazifasini o‘zida saqlab qoladi.

Kulolchilikka oid risolalarda hunarmandning xomashyoga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi alohida e’tirof qilinadi. Ushbu qarash ham kulolchilikdagi marosimiy tushunchalar bilan chambarchas bog‘liq. Tuproq, suv va olov hunarning asosini tashkil qiluvchi hamda ustaning mahorati sinovdan o‘tadigan muhim unsur sifatida qabul qilinadi. Shu sababli xomashyoga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish nafaqat ishlab chiqarish talabi, balki axloqiy mas’uliyat sifatida ham qaraladi.

[345] Пещерева Е. М. Гончарное производство Средней Азии // Труды Института этнографии им. Н. Н. Миклухо-Маклая. – М.; Л.: Издательство АН СССР, 1959. – 344 с.

[346] Гаврилов М. Рисоля сартовских ремесленников. Исследование преданий мусульманских цехов. – Ташкент: Типография при Казанском генерал-губернаторе, 1912. – 59 с.

Qolaversa, ushbu jarayonni ekologik omillar (navbatdagi paragrafda batafsil koʻrib chiqiladi) bilan ham bogʻlash mumkin.

Islom dini nisbatan kechroq kirib borgan hududlarda ham Said Amir Kulol siymosining turlicha talqin qilinishi marosimiy an'analarning mahalliy mentalitet va ijtimoiy muhitga moslashib borishini koʻrsatadi. Qiyosiy ma'lumotlarda ayrim joylarda Said Amir Kulol nomi Vi Sait Kulol , Bibi Sait kulol yoki Kulol Sait momo kabi shakllarda qoʻllanilgani qayd etiladi. Hatto ba'zi hududlarda ayollar kulolchiligi homiy-piri sifatida Momo Havo , Bibi Fotima yoki Bibi Zuhra timsollariga e'tiqod qilingani ham uchraydi.

Bu yerda ikki jihatni alohida ajratib koʻrish muhim. Birinchisi, Said Amir Kulol obrazining nomi va hatto jinsiga oid tasavvurlar hududiy muhit ta'sirida oʻzgarib, masalan, Bibi Sait kulol shaklida talqin qilinishidir. Ikkinchisi esa, ayollar kulolchiligi bilan bogʻliq muhitda alohida homiy timsollar, xususan, Momo Havo , Bibi Fotima, Bibi Zuhra kabi muqaddas obrazlarning shakllanishidir[347].

Har ikki holat shuni koʻrsatadiki, marosimiy an'analar oʻzgarmas tizim emas. Ular mahalliy tarixiy xotira hamda diniy tasavvurlar bilan uygʻunlashib, vaqt oʻtishi bilan yangi shakllarga kirib boradi. Biroq bu oʻzgarishlar marosimning asosiy vazifasi xisoblangan hunarning davomiyligini saqlash va kulolchilik kasbining jamiyatdagi obroʻsini mustahkamlash masalalarini saqlab qoladi.

Pir atamasining oʻzi ham kulolchilikdagi marosimiy tizimning ijtimoiy mazmunini tushunishga yordam beradi. Qiyosiy ma'lumotlarda kulolchilik bilan bogʻliq homiy-pir tushunchasi dastlab qadimiy, arxaik koʻrinishga ega boʻlgani qayd etiladi. Masalan, Tojikistonning Qorategin hududida kulol ayollar jamoasiga boshchilik qilgan tajribali hunarmand ayol pir deb atalgan va u kulol ayollar sulolasining davomchisi sifatida qabul qilingan. Shuningdek, islomiy an'anada jamiyat uchun foydali, savobli ish bilan shugʻullanuvchi ba'zi kasb egalari yarim-pir deb e'tirof etilgani ham ma'lum[348].

[347] Esonov Z.Yu. Farg'ona vodiysi qishloq aholisining hunarmandchilik an'analari / Z.Yu. Esonov. – Toshkent: Classic, 2023. – 160 b.

[348] Дервиз Г., Жадова Л., Жданко И., Митлянский Д. Современная керамика народных мастеров Средней Азии: альбом. – М.: Советский художник, 1974. – 236 с.: ил.

Bu ikki misol shuni koʻrsatadiki, marosimiy tizim jamiyatda maʼlum ijtimoiy meʼyorni shakllantirishga xizmat qiladi. Yaʼni pir tushunchasi diniy timsol boʻlishi bilan birga jamiyat nazarida halol mehnat qiladigan, odamlar uchun foydali xizmat koʻrsatadigan hunarmandning maqomini ham ifodalaydi.

Shu bois kulolchilikdagi marosimiy anʼanalar kasbni oddiy ishlab chiqarish faoliyatidan yuqoriroq darajaga yani, maʼnaviy xizmat sifatida qabul qilinishiga olib keladi.

Rishton kulollarining marosimiy hayotida pir haqqini nazr qilish odati ham muhim oʻrin tutadi. Maʼlumotlarga koʻra, Rishton kulollari oʻtkaziladigan anjumanlarga Buxorodan Said Amir Kulol avlodlari hisoblangan pirzodalarni maxsus taklif qilib, ularga pir haqqi berganlar. Shuningdek, odatga koʻra, har bir xumdonda pishirilgan buyumlardan yetita idish pir haqqiga ajratilgan. Bundan tashqari, hunarmand doʻkoniga biror ish bilan kirgan kishiga, imkon qadar, kichik boʻlsa ham biror buyumni sovgʻa qilishga harakat qilingan.

Dala tadqiqoti davomida suhbatga tortilgan Urgut kulolchilik maktabi davomchisi Noʻmon Abloqulov va Rishtonlik Yoʻldashali Polvonovlar oʻz ustahonalari nomidan beʼminnat sovgʻa ulashgani, qarshilik koʻrsatilganida pir xaqqini nazarda tutganiga guvoh boʻlindi.

Bu yerda marosimiy anʼana bir vaqtning oʻzida bir nechta vazifani bajaradi. Avvalo, u ustaxona jamoasini birlashtiradi, chunki barcha hunarmandlar bir xil udum va qoidalarga amal qiladi. Ikkinchidan, bu odatlar kulolchilik kasbining jamiyatdagi obroʻsini oshirishga xizmat qiladi, yaʼni sovgʻa berish orqali kasbning barakali va saxovatli ekanligi koʻrsatishga harakat qiladi. Uchinchidan esa, iqtisodiy almashinuv jarayonlari maʼnaviy qadriyatlar bilan uygʻunlashib, jamiyat tomonidan maʼqullangan shaklga kiradi.

Ushbu jarayonlarning uzoq vaqt davomida hunarmandlar jamoasini birlashtirib kelgani marosimlarning aniq ijtimoiy kuchga ega ekanini koʻrsatadi. Chunki, marosim jamoada oʻzaro ishonchni mustahkamlaydi, ishonch esa hunar va kasbning uzluksiz davom etishini taʼminlaydi.

Rishton kulollarining oʻzaro aloqada boʻlgan jamoalari yoki bir kulolchilik maktabi aʼzolari yiliga bir yoki ikki marta saylga chiqib, muayyan ziyoratgohlarda qurbonlik marosimlarini oʻtkazgani ham

jamoaviy marosim bilan bog‘liq an’analarning yorqin ko‘rinishi hisoblanadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, bunday yig‘inlar odatda Xo‘ja Ilg‘or Boshi ziyoratgohida o‘tkazilgan. Marosim barcha ustalar tomonidan yig‘ilgan mablag‘ hisobidan tashkil qilingan, hunarmandlar esa saylga o‘zlari tayyorlagan bir necha idishlarni ham olib borganlar. Marosim yakunida esa bu idishlar ziyoratgohda ehson sifatida qoldirilgan.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, Xo‘ja Ilg‘or Boshi ziyoratgohiga kuzatish olib borish davomida u yerga kelgan kulollar bilan suhbat olib borilganida, ziyoratgoh hududida yer osti g‘ori mavjudligi ma’lum bo‘ldi. Ziyoratchilar odatga ko‘ra g‘orga tushib, u yerda bir muddat dam oladilar. Ularning aytishicha, bu jarayon insonning kundalik tashvishlardan bir muddat xalos bo‘lib, ruhiy jihatdan yengillashishiga yordam beradi. Ustalar ustaxonaga qaytgach, ish faoliyatini yangi kuch va g‘ayrat bilan davom ettirish imkoniga ega bo‘ladilar[349].

Bu jarayonning tadqiqot uchun muhim jihati shundaki, marosim uchun jamoaviy mablag‘ yig‘ilishi hunarmandlar jamoasining iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan birlashganini ko‘rsatadi, ziyoratgohda qoldirilgan idishlarning oddiy savdo mahsulotidan nazr yoki ehson buyumiga aylanganligi hamda ziyorat tadbiri davomida ruhiy jihatdan yengillik xis qiladilr.

Kuzatish mumkinki, marosimiy an’analar nafaqat ustalar jamoasini birlashtiradi, balki kulol mahsulotini ham ijtimoiy va ma’naviy mazmun kasb etuvchi ramzga aylantiradi.

Rishton kulollari uchun Buxorodagi Bahauddin Naqshband maqbarasi ham muhim e’tiqod va ziyorat joylaridan biri hisoblangan. Shuningdek, Samarqand kulollari Arvohi-pir[350] marosimini Said Amir Kulol mozori yonida, Panjikent kulollari esa Qaynar-ota nomli mozor atrofida o‘tkazgani ham qayd etiladi[351]. Bu marosimlar davomida qurbonlik qilinib, ustalarga kasbga doir nasihatlar ham berilgan.

[349] Dala yozuvi. Rishtin tumani 2024 yil.

[350] Arvohi-pir marosimi. An’anaviy hunarmandchilik muhitida, ustaxonalari faoliyatida uchraydigan diniy-marosimiy an’ana. Unda hunar piri va o‘tgan ustozlar ruhiga hurmat ko‘rsatadi. Ushbu marosim odatda ustalar tomonidan muayyan vaqtlarda, masalan, yangi ish boshlash arafasida, muhim buyurtma oldidan yoki yilning muayyan kunlarida tashkil qilinadi. Mazkur marosim davomida hunarmandlar ustozlar xotirasini yodga olib, ularning ruhidan baraka va madad so‘raydilar. Duo qilinadi hamda ba’zan ehson yoki taom ham ulashiladi.

[351] Esonov Z.Yu. Farg‘ona vodiysi qishloq aholisining hunarmandchilik an’analari. – Toshkent: Classic, 2023. – 160 b.

Bu holat kulolchilik kasbining o‘ziga xos marosimiy geografiyasi mavjudligini ko‘rsatadi. Ya’ni kasb bilan bog‘liq muqaddas joylar shakllangan bo‘lib, u yerlarga borish hunarning tarixiy ildizlari va an’analari bilan bog‘lanish sifatida qabul qilingan. Usta uchun bu kasbni ko‘proq diniy va madaniy muhit bilan bog‘lash imkonini bersa, shogird uchun kasbning jamiyatdagi qadrini chuqurroq his qilish imkoniyatini yaratadi.

Marosim vaqtida aytiladigan nasihatlar esa kulolchilik risolalarida bayon qilingan tamoyillar bilan uyg‘unlashadi. Nasihat kasb axloqini og‘zaki shaklda mustahkamlasa, risolalar ana shu qoidalarni yozma ravishda saqlab qolishga xizmat qiladi.

Kulolchilikda marosimiy an’analar vaqt bilan bog‘liq tartiblar orqali ham namoyon bo‘ladi. Masalan, tarixiy davrlarda Rishton kulollari orasida dushanba va payshanba kunlari xosiyatli, seshanba esa xosiyatsiz kun deb qaralgan. Kulollarning izohlashicha odatda chorshanba kuni xumdonni tayyorlash jarayoniga kirishilib, cho‘zma taomi pishirilgan va ustaxonada is chiqarish, ya’ni muhitni ishga tayyorlash ishlari bajarilgan[352]. Vodiy aholisi orasida ham chorshanba mushkullar yengillashadigan, ish yurishadigan kun sifatida qaralgan. Payshanba kuni xumdonga o‘t yoqilib, buyumlar pishirilgan, juma kuni esa idishlar xumdon ichida sovitilib, natija sabr bilan kutilgan.

Bu ketma-ketlik marosimiy vaqt tushunchasining amaliy va ishlab chiqarish asosiga ega ekanini ko‘rsatadi. Pishirishdan oldin tayyorgarlik ko‘riladi, keyin eng mas’uliyatli bosqich xisoblangan pishirish amalga oshiriladi, undan so‘ng esa buyumning sifatini saqlab qolish uchun sovitish jarayoni o‘tkaziladi. Bu tartib barcha ustalarning bir vaqtda bir xil ishni bajarishiga yordam berib, jamoaviy faoliyatni muvofiqlashtirgan.

Bunday vaqt tartiblari shogird tarbiyasiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Shogird ustaxonada qaysi ish qachon bajarilishini kasbning marosimiy va intizomiy qismi sifatida ham o‘zlashtirib borgan.

Bugungi kunga kelib, ushbu qarash va marosimiy tartiblarning aksariyati ko‘plab kulolchilik maktablarida avvalgi darajada saqlanib qolmagan. Zamonaviy ishlab chiqarish talablari, bozor munosabatlari

[352] Esonov Z.Yu. Farg‘ona vodiysi qishloq aholisining hunarmandchilik an’analari. – Toshkent: Classic, 2023. – 160 b.

hamda ish sur’atining tezlashuvi natijasida ko‘plab an’anaviy marosim va vaqt tartiblari asta-sekin amaliy hayotdan siqilib chiqmoqda. Natijada ustaxonadagi ish jarayoni ishlab chiqarish va iqtisodiy samaradorlikka yo‘naltirilib, marosimiy-intizomiy jihatlar ayrim joylardagina saqlanib qolmoqda.

Umuman olganda, kulolchilikdagi marosimiy an’analar ustaxona ichidagi tartib-intizomni ta’minlash, pishirish jarayoni va xumdon atrofidagi eng mas’uliyatli bosqichda ruhiy ko‘mak va ustoz-shogird munosabatlarida ham ko‘rinish beradi. Hunar sirlarining bosqichma-bosqich o‘rgatilishi, rozilik va ruxsatni kutish kabi tamoyillar shogirdni kasbga mas’uliyat bilan yondashishga o‘rgatadi.

Shuningdek, marosimiy an’analar jamoaviy e’tiqod va pir-homiylar bilan ham bog‘liq bo‘lib, pir haqqi, ziyoratlar va qurbonlik marosimlari orqali hunarmandlar jamoasi birlashsa, marosimiy vaqt tartiblari va mehnat ketma-ketligi ish jarayonining izchil kechishini ta’minlaydi.

Bu darajalar o‘zaro bog‘liq holda bir-birini to‘ldirib boradi. Ustaxona ichidagi tartib xumdon oldidagi xavf va mas’uliyatni kamaytirsa, pir-homiy tizimi jamoaning birdamligini mustahkamlaydi, vaqt tartiblari esa ishning izchil davom etishiga xizmat qiladi.

Mazkur marosim va an’analar sharoitida kulolchilik buyumlari ham jamiyat hayotida alohida maqom kasb etadi. Xum, ko‘za, tandir kabi buyumlarning turli turmush marosimlarida ramziy ahamiyatga ega bo‘lishi, ularning baraka timsoli sifatida qabul qilinishi kulolchilik mahsulotining oddiy maishiy buyumdan yuqoriroq ijtimoiy qadriyat darajasiga ko‘tarilishini ta’minlaydi.

Rishton va boshqa kulolchilik maktablarida pir haqqiga idish ajratish yoki saylga olib borilgan buyumlarni ziyoratgohlarda qoldirish kabi odatlar esa buyumning marosimiy hayotdagi o‘rnini yanada mustahkamlaydi. Bunday sharoitda idish bozorga chiqariladigan mahsulot bo‘lib qolmay, nazr, sovg‘a, xayriya yoki jamoaviy xotirani ifodalovchi buyum sifatida ham ko‘rinish oladi.

Shuningdek, kulolchilikdagi marosimiy an’analarni faqat diniy yoki folklor sifatida talqin qilish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Aksincha, ular ustaxona ichidagi ijtimoiy tizimni barqarorlashtiradigan, kasbning jamiyatdagi obro‘sini mustahkamlaydigan, hunarmandlar jamoasini birlashtiradigan,

mehnat jarayonini tartibga soladigan va shogird tarbiyasini izchil yoʻlga qoʻyadigan amaliy tizim vazifasini bajaradi.

Oʻzbek anʼanaviy hunarmandchiligi asrlar davomida rang-barang mahsulotlari bilan dunyo bozorlarida oʻz oʻrniga ega boʻlib kelgan. Savdo-sotiq va madaniy aloqalarning kuchayishi esa hunarmandchilik buyumlariga boʻlgan talabning ortishiga, shuningdek, ularni tayyorlash uslublarining maʼlum darajada oʻzgarishiga taʼsir koʻrsatgan. Shu jarayonda kulolchilik alohida ajralib turadi, chunki, hunar qadimiy tarixiy ildizlarga ega boʻlib, xalqning turli anʼanalari va urf-odatlarini oʻzida mujassam etgan ramzlar tizimini shakllantirgan.

Kulolchilik shakllangan dastlabki davrlardanoq buyum yuzasida turli ramz va belgilar qoʻllanib kelgani, ular ajdodlarimizning olam, tabiat va koinot haqidagi tasavvurlarini ifodalagani anglanadi. Bunday bezaklar buyumni nafisligi bilan bir qatorda kimga yoki qaysi muhitga tegishli ekanini bildirgan, shu bilan birgalikda yovuz kuchlardan himoya qiluvchi ramziy maʼno ham kasb etgan. Ushbu jarayon koʻplab belgilar va bezak motivlari avloddan avlodga oʻtib, bugungi kungacha ramziy shaklda yashab kelishini taʼminlamoqda.

Kulolchilikda uchraydigan ramzlarning xilma-xilligi va mazmuni ularning turli davr gʻoyalari hamda tasavvurlarining mahsuliligini koʻrsatadi. Ayniqsa, hayot va tiriklikni asrovchi sirli kuchlar, olamning bosqichlari va tomonlari, koinot jismlariga oid falsafiy talqinlar kulolchilik bezaklarida uchrashi taʼkidlanadi[353]. Kulolchilikning sanʼat darajasiga koʻtarilishida bezaklarning oʻrni yuqori boʻlgani, diniy qarashlar ramzlar tizimiga uzluksiz taʼsir koʻrsatib kelgani ham muhim jihat sifatida koʻrinadi[354]. Shu sabab ramziy maʼnolar buyumning tashqi koʻrinishini izohlash bilan birga kulolchilik maktablari ichida kasbni anglash, ustoz-shogird tizimida bilimni uzatish, hududiy xotirani saqlash va oʻzlikni ifodalash jarayonlari bilan ham uzviy bogʻlanadi[355].

Ilk kulolchilik buyumlari oʻziga xos shakli hamda yuzasiga tushirilgan bezaklari bilan ajralib turgani, bezak esa buyumning tashqi

[353] Davlatova S.T. Oʻzbek anʼanaviy hunarmandchiligi tarixiy jarayonlar kontekstida (Oʻzbekistonning janubiy hududlari misolida). – Toshkent, Yangi nashr, 2018. 260-bet.; Гюль Э. Диалог культур в искусстве Узбекистана. Античность и средневековье. – Ташкент, PRINT-S, 2005. 77–78 с.

[354] Алиева С.Ш. Эстетика исламской поливной керамики Узбекистана // International scientific journal Grail of Science. №5. 2021. С. 415.

[355] Davlatova S.T. Oʻzbek anʼanaviy hunarmandchiligi tarixiy jarayonlar kontekstida (Oʻzbekistonning janubiy hududlari misolida). – Toshkent, Yangi nashr, 2018. 368-bet.

koʻrinishini va mazmunini ham belgilagani qayd etiladi[356]. Maʼlumotlarga koʻra, dastlabki kulollar tayyorlagan idishlar sakkiz bosqichli jarayondan oʻtgan boʻlib, buyum yettinchi bosqichga yetganda unga bezak berilgan, oxirgi bosqichda esa buyum pishirilgan[357].

Bezaksiz buyum bilan bezak tushirilgan buyum oʻrtasidagi asosiy farq shundaki, bezak pishirishdan soʻng oʻchmaydigan holatga keladi, yaʼni u buyum bilan birga saqlanib, uning ajralmas qismiga aylanadi[358]. Shuningdek, bezak berish va buyumni pishirish jarayonining ana shu ketma-ketligi deyarli oʻzgarmasdan bugungi kungacha davom etib kelayotgani ham kulolchilik anʼanalarining uzluksizligini koʻrsatadi.

Bu oʻrinda ramzlarning amaliy jihatlari ham yaqqol namoyon boʻladi. Kulol buyumga bezak berar ekan, u chiroy yaratish bilan cheklanmaydi, buyumni maʼlum maʼnoda tasniflaydi[359], uni muayyan maktab uslubiga bogʻlaydi, ayrim hollarda esa buyumga himoya mazmunini ham kiritadi.

Shuningdek, idishning rangi ham asosiy bezak unsurlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotlarda[360] har bir hududda maʼlum ranglardan keng foydalanilgani va aynan shu ranglar orqali kulolchilik maktablariga xos anʼanalar shakllangani taʼkidlanadi. Bu tamoyil hozirgi kunda ham koʻplab kulolchilik markazlari faoliyatida maʼlum darajada saqlanib kelayotgani qayd etiladi.

Umuman olganda, hunarmandchilikning turli yoʻnalishlarida hududiy bezak va ranglar tizimining shakllanishi madaniy jarayonning bir qismi boʻlib, kulolchilik ana shu jarayonning yaqqol namoyon boʻladigan sohalardan biri sanaladi.

Ramzlarning vujudga kelishida insonning atrof-muhitni tasvirlash doirasidagi harakati asosiy omil sifatida koʻrsatiladi. Qoyatosh suratlarining paydo boʻlishi ham shunday ehtiyoj bilan izohlanib, qadimgi

---

[356] Лоллекова О. Локальная вариабильность в культуре и хозяйстве Джейтунских племён. – Ашхабат, Ылым, 1988. - С. 98.

[357] Лоллекова О. Локальная вариабильность в культуре и хозяйстве Джейтунских племён. – Ашхабат, Ылым, 1988. - С. 98.

[358] Лоллекова О. Локальная вариабильность в культуре и хозяйстве Джейтунских племён. – Ашхабат, Ылым, 1988. - С. 98.

[359] Davlatova S.T. Oʻzbek anʼanaviy hunarmandchiligi tarixiy jarayonlar kontekstida (Oʻzbekistonning janubiy hududlari misolida). – Toshkent, Yangi nashr, 2018. 260-bet.; Гюль Э. Диалог культур в искусстве Узбекистана. Античность и средневековье. – Ташкент, PRINT-S, 2005. 77–78 с.

[360] Janabayeva G.D. Arts of the peoples of Central Asia. – Washington, The George Washington University, 2019. 8 p. (104 p.).; Dala yozuvlari: Fargʻona viloyati Rishton shahri, Xorazm viloyati Honqa tuani, Buhoro viloyati Gʻijduvon tumanlari. 2025 yil.

ajdodlar oʻsimliklar, hayvonlar va turmush tarzini tasvirlash orqali olamni qanday tasavvur qilganini va boʻlib oʻtgan voqealarni boshqalarga yetkazishga uringanini koʻrsatadi[361]. Ushbu jarayondan ramzlar dastlab tasvir boʻlsa, keyinchalik belgiga aylanganligini tushunish mumkin.

Shakllar, bezaklar va ramzlar kishilar tomonidan ajralib turish yoki tanilish belgisi sifatida ham qoʻllanib kelgani, bunday belgilar avval mulkchilik xususiyatiga ega boʻlib, keyinchalik urugʻ belgisini yoki ustalarning shaxsiy imzosini bildirgani ham atroflicha qayd etilgan[362]. Dastlabki davrda muhrlar rasmiy ramzga aylangan boʻlsa, keyinchalik tamgʻa sifatida mulkchilik hamda tegishlilikni ifodalovchi belgi oʻlaroq qoʻllanib kelingani, turkiy xalqlar orasida bu tizim ayniqsa keng tarqalgani ham koʻrsatiladi[363]. Bu jihat kulolchilikda mualliflik va maktabga mansublik masalasini tushuntiradi.

Diniy tasavvurlar omili ham ramzlar shakllanishida muhim oʻrin tutadi. Ilk e’tiqodiy qarashlar, zardushtiylik, buddaviylik, shomonlik va islom ta’sirida turli bezaklar va shakllar vujudga kelgani qayd etiladi[364]. Masalan, zardushtiylikda tovus quyosh ramzi boʻlsa, islomiy talqinda u jannat qushi yoki baxt qushi sifatida gavdalanishi keltiriladi. Tovus va boshqa qushlar tasviri bugungi kunda ham buyum bezashda qoʻllanilishi ushbu mulohazalarni tasdiqlaydi.

Shuningdek, humo timsolining shomonlikdagi Umay ona bilan bogʻlanishi haqidagi qarashlarni ham tadqiqotlardan kuzatish mumkin[365]. Tushunish mumkinki ramzlar bir yoʻnalishda qotib qolmagan[366], turli davrlar dunyoqarashi bilan talqin qilinib bugungi kungacha yetib kelgan.

Ramzlarning yana bir omili ijtimoiy holatni bildiruvchi bezaklarning shakllanishidir. Bunday bezaklar qadimdan shaxsiy, hukmron sulola yoki yuqori tabaqa vakillari buyumlarini bezashda ishlatilgani, devoriy suratlarda hukmdorlar va yuqori tabaqa vakillari tasvirlangan liboslarda

[361] Kabirov J. Sarmishsoyning qoya toshlaridagi rasmlar. – Toshkent, Fan, 1976. 22-bet.
[362] Аскаров А. Сапаллитепа. – Ташкент, Фан, 1973. 103 с.
[363] Mahmud Qoshgʻariy. Devonu lugʻotit turk. 3-jild. – Toshkent, OʻzSSR fanlar akademiyasi nashriyoti, 1963. 167-bet.; Davlatova S.T. Oʻzbek an’anaviy hunarmandchiligi tarixiy jarayonlar kontekstida (Oʻzbekistonning janubiy hududlari misolida). – Toshkent, Yangi nashr, 2018. 260-bet.; Гюль Э. Диалог культур в искусстве Узбекистана. Античность и средневековье. – Ташкент, PRINT-S, 2005. 77–78 с.
[364] Dala yozuvlari. Fargʻona viloyati Rishton tumani, 2025 yil.
[365] Boboyorov Gʻ. Gʻarbiy turk xoqonligi davlat tuzumi. – Toshkent, Yangi nashr, 2018. 119-bet.
[366] Davlatova S.T. Oʻzbek an’anaviy hunarmandchiligi tarixiy jarayonlar kontekstida (Oʻzbekistonning janubiy hududlari misolida). – Toshkent, Yangi nashr, 2018. 260-bet.; Гюль Э. Диалог культур в искусстве Узбекистана. Античность и средневековье. – Ташкент, PRINT-S, 2005. 77–78 с.

oʻsimlik yoki hayvon koʻrinishida ramzlar uchrashini ham kuzatish mumkin[367]. Qush yoki arslon kabi tasvirlarning hukmdorlar buyumlarida qoʻllanishi ham shu ijtimoiy belgining bir koʻrinishidir[368]. Bu dalillar kulolchilikdagi ramzlar xalqona bezak boʻlishi bilan birga ijtimoiy tabaqalanish, mavqe va rasmiylikning ham ma'lum koʻrinishlarini avloddan avlodga olib oʻtganligini koʻrsatadi.

Oʻzbek hunarmandchiligi, xususan kulolchilikdagi bezaklar kelib chiqishi va shakliga koʻra bir necha guruhga boʻlinadi. Tadqiqotlarda[369] ular handasaviy, oʻsimliksimon, hayvonlar va inson shakliga oid, shuningdek, alohida qismlar birlashuvidan tashkil topgan butun shakllar tarzida tasniflanadi.

Bunday tasnif kulolchilik bezaklarini oʻziga xos til sifatida tushunishga imkon yaratadi. Sababi, har bir guruh doirasida ma'lum ramziy mavzular mujassam boʻlib, ularning buyum yuzasida qoʻllanishi hududiy kulolchilik maktablarining didi, ustoz-shogird an'analari hamda muayyan davrga xos talqinlar bilan bogʻliq holda shakllangan.

Dastavval, handasaviy ramzlarga toʻxtalib aytish mimkinki, ular eng qadimiy bezak turlaridan biri sifatida e'tirof qilinadi. Ularga doira, uchburchak, romb, toʻgʻri va toʻlqinli chiziqlar, shuningdek, koinot jismlarini ifodalovchi qirrali shakllar kirishi qayd etiladi[370]. Namozgoh yodgorligidan topilgan sopol buyumlardagi bezaklar turkman gilamdoʻzlik naqshlarini eslatishi, handasaviy bezaklarning ming yillar davomida boshqa hunarmandchilik sohalariga ham kirib borgani haqidagi mulohazalarni tasdiqlaydi. Aytish mumkinki, handasaviy naqshlar umumiy madaniy naqsh tizimining tayanch qatlamini tashkil qilgan. Dala tadqiqotlari hozirda ham Gʻijduvon, Urgut, Rishton, Andijon va Horazm kulolchilik maktablarida handasaviy ramzlardan keng qoʻllanilayotganligini koʻrsatdi[371].

---

[367] Luuk E. Symbol and it's evolution / The Evolution of Language: Proceedings of the 12th International Conference (EVOLANGXII). Ed. Christine Cuskley; Molly Flaherty; Hannah Little; Luke McCrohon; Andrea Ravignani; Tessa Verhoef. Evolang 12 Organizing Committee. 2018. 258–269. DOI 10.12775/3991-1.064. 259 p.

[368] Альбаум Л.И. Живопись Афрасияба. – Ташкент, Фан, 1975. 41 с.

[369] Davlatova S.T. Oʻzbek an'anaviy hunarmandchiligi tarixiy jarayonlar kontekstida (Oʻzbekistonning janubiy hududlari misolida). – Toshkent, Yangi nashr, 2018. 368-bet.; Гюль Э. Диалог культур в искусстве Узбекистана. Античность и средневековье. – Ташкент, PRINT-S, 2005. 77–78 с.

[370] Гюль Э. Диалог культур в искусстве Узбекистана. Античность и средневековье. – Ташкент, PRINT-S, 2005. 77–78 с.

[371] Dala yozuvlari: Buhoro viloyati Gʻijduvon, Samarqand viloyati Urgut tumani, Fargʻona viloyati Rishton shahri, Andijon viloyati Andijon shahri, Xorazm viloyati Honqa tuani, tumanlari. 2025 yil.

Uchburchak shakli ham qadimiy belgilardan biri hisoblanib, tadqiqotlarda uning neolit davridan boshlab bezak sifatida qo‘llanilgani hamda bugungi kunda ham mazmunan boyigan holda saqlanib kelayotgani qayd etiladi[372]. Dastlab bu belgi tog‘ timsoli bilan bog‘langan bo‘lib, ko‘plab xalqlarda moddiy dunyo bilan ruhlar olami o‘rtasidagi bog‘lanishni ham anglatgani ham e’tirof qilingan[373].

Shuningdek, ayrim manbalarda davlat rahbarining muhri ham uchburchak shaklida bo‘lgani haqidagi ma’lumotlar keltiriladi[374]. Ushbu jarayonlar uchburchak shaklining tabiat manbalari bilan bog‘liqligi va uning hokimiyat va rasmiylik ramziga aylanganini belgilaydi.

O‘zbek madaniyatida uchburchak shaklining turli ramziy ma’nolari mavjudligi batafsil yoritiladi. Uchi yuqoriga qaratilgan uchburchak olov va erkaklik ibtidosi bilan bog‘langan bo‘lsa, uchi pastga qaratilgan uchburchak g‘or, suv, tog‘lardan oshish, hosildorlik hamda ayollik ibtidosini ifodalagan. Teng tomonli uchburchak esa ilohlar, uyg‘unlik va mutanosiblik timsoli sifatida talqin qilingan[375].

Turkiy xalqlar tasavvurida Umay ona tasvirining bosh qismida uchburchak shaklidagi toj bilan ifodalanishi ham bu shaklning qadimgi e’tiqodlar bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi[376]. Islom dini kirib kelishi bilan uchburchak shakli tumor ko‘rinishida keng tarqalib, madaniyatdagi muhim bezak unsurlaridan biriga aylangani ham qayd etiladi[377].

Shu tariqa, uchburchak bir tomondan qadimiy tabiat ramzi sifatida shakllangan bo‘lsa, ikkinchi tomondan diniy va ijtimoiy muhit ta’sirida talqin qilinib, turli davrlarda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan barqaror motiv sifatida yashab kelgan.

Doira shakli ham o‘zbek kulolchiligida shakl va bezak sifatida qo‘llangan asosiy ramzlardan biri bo‘lib kelgan. Doiraning eng qadimiy

---

[372] Jung C.G., von Franz M.L., Henderson J.L., Jacobi J., Jaffe A. – New York, London, Toronto, Sydney, Auckland, Anchor Press, Doubleday, 1988. 232 p.

[373] Cirlot J.E. A dictionary of symbols. Second edition. – London, Routledge, 1971. 16 p. (563 p.)

[22] Burckhardt T. Foundations of Oriental Art & Symbolism. – Bloomington, Indiana, World Wisdom, Inc., 2009. 56 p.

[374] Davlatova S.T. O‘zbek an’anaviy hunarmandchiligi tarixiy jarayonlar kontekstida (O‘zbekistonning janubiy hududlari misolida). – Toshkent, Yangi nashr, 2018. 260-bet.

[375] Davlatova S.T. O‘zbek an’anaviy hunarmandchiligi tarixiy jarayonlar kontekstida (O‘zbekistonning janubiy hududlari misolida). – Toshkent, Yangi nashr, 2018. 261-bet.

[376] Чебодаева М.П. Образ богини Умай (Ымай) в изобразительном и декоративном искусстве Хакасии. – Абакан, Хакасское книжное издательство, 2019. 20 с.

[377] Исамиддинов М.Х. истоки городской культуры Самаркандского Согда (проблемы взаимодействия культурных традиций в эпоху раннежелезного века и в период античности). – Ташкент, А. Кадыри, 54 с.

qoyatosh suratlarida turli chizgilar koʻrinishida, turar joy va bosh kiyim shakllanishida ham uchrashi koʻrsatiladi[378]. Turli madaniyatlarda doira odatda quyosh, osmon va hayot davomiyligini ifodalovchi ramz sifatida talqin qilingan[379]. Ayrim qadimiy tasavvurlarda jannatga kirish eshigining ham doira shaklida tasvirlangani haqidagi qarashlar uchraydi.

Bugungi kun kulolchilik maktablarida esa doira shakli, avvalo, olam haqidagi falsafiy qarashlar bilan bogʻlanib, markaz tushunchasini ham anglatadi. Shu bois buyum yuzasida doira ichiga boshqa ramzlar joylashtirilib, bezakning asosiy tuzilmasi shakllantiriladi[380]. Bunday usul faqat kulolchilikda emas, balki mato toʻqish va kashtachilik san'atida ham keng qoʻllanib, doiraning umumiy naqshni jamlovchi bezak shakli sifatidagi o'rnini koʻrsatadi.

Toʻrtburchak shakli ham ramziy bezak tizimining muhim unsurlaridan biri hisoblanib, turli xalqlar tasavvurida u dunyoning toʻrt tomoni, moddiy olam yoki yer timsoli bilan bogʻlangan. Xususan, shimol, janub, gʻarb va sharq yoʻnalishlarini anglatgan[381]. Shuningdek, u hudud, chegara va barqarorlik tushunchalari bilan ham bogʻlangan, ayrim qadimiy qarashlarda esa erkaklik ibtidosi ramzi sifatida ham talqin qilingan[382].

Oʻzbek madaniyatida handasaviy shakllar uygʻunlik va tartib timsoli sifatida tushunilgan boʻlib, me'morchilik bezagida ham bu shakllardan keng foydalanilgan. Kulolchilikda esa toʻrtburchak koʻpincha mayda katakchalar yoki chiziqli bezaklar koʻrinishida qoʻllanilmoqda, ayrim hollarda esa boshqa naqshlarni joylashtirish uchun chegaraviy yoki asosiy maydon yaratish vazifasini bajarmoqda.

Hududiy maktablar faoliyatida ham bu shaklning qoʻllanishi turlicha namoyon boʻladi. Masalan, Rishton kulolchiligida handasaviy naqshlar har doim asosiy bezak vazifasini bajarmay, koʻproq kompozitsion chegara

[378] Наскальное искусство в Центральной Азии. Тематическое исследование. – Paris, ICOMOS, 2011. 244 с.; Раззоков Ф.А. Строительные комплексы древнеземледельческого поселения Саразм в IV–III тыс. до н. э. – Санкт-Петербург, НКТ, 2016. 11 с.; Морозова А.С. Традиционная народная одежда туркмен / Традиционная одежда народов Средней Азии и Казахстана. – Москва, Наука, 1989. 55–56 с.

[379] Bardzinska-Bonenberg T. Ring-and-circle, symbolical and practical meaning of the form in town planning and architecture / 11th CTV back to the sense of the city. 11th International Congress Virtual City and Territory. – Krakow, 2016. 38 p.; Frutiger A. Signs and Symbols. Their design and meaning. – New York, Van Nostrand Reinhold, 1989. 27 p.

[380] Dala yozuvlari. Farg'ona, Samarqand viloyatlari Rishton, Urgut tumanlari 2025 yil.

[381] Fletcher R. The square // NEXUS NETWORK JOURNAL. Vol. 7. No. 2, 2005. P. 37.

[382] Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Rishton tumani 2025 yil.

yoki boshqa naqshlarni ajratuvchi unsur sifatida ishlatilgani kuzatiladi[383]. Xorazm kulolchiligida esa to‘rtburchak va boshqa handasaviy shakllar bezak tizimining faol elementi sifatida qo‘llangan[384].

Shu tariqa, hududiy farqlar aniq ko‘rinadi, ya’ni ayrim maktablarda handasaviy shakllar bezakning asosiy tili bo‘lib xizmat qilsa, boshqalarida ular ko‘proq naqsh tuzilishini tartibga soluvchi unsur sifatida namoyon bo‘ladi.

To‘rtburchakning romb ko‘rinishi eneolit davridan hosildorlik va serfarzandlikni bildirgani qayd etiladi. Bu ham ramzning ma’no qatlami davrlar davomida chuqurlashganini, shaklning o‘zi saqlangan holda talqini kengayganini ko‘rsatadi[385].

Handasaviy ramzlar tarkibida chiziqli belgilar ham alohida o‘rin tutadi. Farg‘ona vodiysi qadimgi davr kulolchiligida chiziqli bezaklar boshqa ramzlarga nisbatan kengroq qo‘llangani qayd etiladi[386]. Jez davrida sopol buyumlar sirtiga chiziqli ramzlar tushirilgan namunalarning ko‘pligi, chiziqli belgilar qoyatosh suratlarda ham ma’no anglatgan chizgi sifatida uchrashi, ayrim madaniyatlarda bu chiziqlar ilk yozuv shakllariga asos bo‘lgani keltiriladi[387]. Kuzatuv natijalariga ko‘ra chiziqli naqshlar Urgut kulolchilik maktabining asosiy bezak turi bo‘lib kelgan va bugungi kunda ham keng qo‘llanilmoqda[388].

Kulolchilik buyumlarida tik, kesishgan, xochsimon yoki siniq ko‘rinishlar uchrashi, Xumbuztepa va boshqa yodgorliklardan shunday idishlar topilgani qayd etiladi[389]. Bu ma’lumotlar chiziqning kulolchilikda faqat bezak emas, balki belgilash, hisoblash, tegishlilik va hatto qadimgi yozuv jarayonlari bilan bog‘liq kod bo‘lganini ko‘rsatadi[390].

---

[383] Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Rishton tumani 2025 yil.

[384] Dala yozuvlari. Horazm viloyati Honqa tumani 2025 yil.

[385] Исамиддинов М.Х., Хасанов М.Х. История древнего и средневекового керамического производства Нахшаба. – Ташкент, А. Кадыри, 2000. 12 с.

[386] Литвинский Б.А. Керамика из могильников Западной Ферганы. – Москва, Главная редакция восточной литературы, 1973. 161 с.

[387] Аскаров А. Сапаллитепа. – Ташкент, Фан, 1973. 74 с.; Loring M.J., Loring L. Pictographs & petroglyphs of the Oregon country. Part I & II. Second edition. – Los Angeles, University of California, 50 p.; Evans A.J. Cretan pictographs and prae-phoenician script. – London, New York, Bernard Quaritch, G.P. Putnam’s Son, 1895. 84 p.

[388] Dala yozuvlari. Samarqand viloyati, Urgut tumani. 2025 yil.

[389] Shaydullayev Sh., Shaydullayev A. Turonning eng qadimgi yozuv tizimi. – Toshkent, Fan, 2024. 21-bet.; Баратов С.Р. Знаки на керамических изделиях в Древном Хорезме / Тамги доисламской Центральной Азии. – Самарканд, МИЦАИ, 2019. С. 48–49.

[390] Литвинский Б.А. Керамика из могильников Западной Ферганы. – Москва, Главная редакция восточной литературы, 1973. 161 с.; Evans A.J. Cretan pictographs and prae-phoenician script. – London, New York, Bernard Quaritch, G.P. Putnam’s Son, 1895. 84 p.

O‘zbekistonning bugungi kun kulolchilik maktablarida keng qo‘llanilayotgan islimiy ramzlar insonning tabiat bilan yaqinligi va tabiatdagi o‘simliklar tasvirini bezak tarzida chizishi natijasida shakllangan guruh sifatida tushuniladi. Termachilik, keyinchalik esa dehqonchilik va bog‘dorchilik kabi ho‘jalik yo‘nalishlari kulolchilik ramzlarida ham aks etgani, bu ramzlar chuqur falsafiy mazmunni mujassam etganligi tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan[391]. Ilk o‘simlik ko‘rinishidagi ramzlar sifatida archa yoki hayot daraxti tasvirlari ko‘rsatiladi. Joytun hududi iqlim sharoiti, qurg‘oqchilikka moslashgan o‘simliklar mavjudligi, doimiy yashillikni saqlovchi daraxtlarning dastlabki ramzlarga aylanishi bilan izohlanadi[392]. Hayot daraxti ko‘p xalqlarda saqlanib kelgan muhim ramz bo‘lib, turkiy tasavvurda dunyo daraxti muqaddas tog‘da o‘sgani, buddaviylikda Budda bodi daraxti doirasida oliy bilimga erishgani qayd etiladi[393]. Kuzatish mumkinki, o‘simliksimon ramzlar kulolchilikda hayot davomiyligi, baraka va yangilanish g‘oyalarini ifodalovchi muhim bezak unsurlaridan biri sifatida shakllangan. Bugungi kunda ham deyarli barcha kulolchilik maktablarida ana shu o‘simliksimon motivlardan keng foydalanib kelinadi.

Xususan, Rishton kulolchilik maktabida islimiy naqshlar moviy, yashil va oq ranglar uyg‘unligida ko‘proq gul va novda shakllarida tasvirlanib, buyum yuzasida jonli, harakatchan kompozitsiyalar hosil qiladi. G‘ijduvon kulolchiligida esa o‘simliksimon bezaklar ko‘pincha geometrik shakllar bilan uyg‘unlashgan holda, soddaroq, ammo mazmunan barqaror kompozitsiyalar tarzida qo‘llanadi. Shahrisabz kulolchilik maktablarida gul va barg shakllari ko‘proq an’anaviy islimiy bezaklar bilan birlashib, mayda elementlardan tashkil topgan murakkab kompozitsiyalarni yuzaga keltiradi.

Samarqand kulolchiligida o‘simliksimon bezaklar ko‘pincha markaziy kompozitsiya atrofida joylashib, idish yuzasida muvozanat va uyg‘unlik hissini kuchaytiradi. Xorazm kulolchilik maktabida esa bezaklarda o‘simlik shakllari ba’zan soddalashtirilgan, ba’zan esa

[391] Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. История искусств Узбекистана с древнейших времён до середины девятнадцатого века. – Москва, Искусство, 1965. 164 с.

[392] Harris D.R. and others. Investigating early agriculture in Central Asia: new research at Jeitun, Turkmenistan // Antiquity. 67. 1993. P. 6.; Массон. В.М. Поселение Джейтун (проблема становления производящей экономики). Материалы и исследования по Археологии СССР. №180. – Ленинград, Наука, 1971. 35 с.

[393] Turdimov Sh. Xalq qo‘shiqlarida ramz. – Toshkent, Fan, 2020. 55-bet.; Burckhardt T. Foundations of Oriental Art & Symbolism. – Bloomington, Indiana, World Wisdom, Inc., 2009. 53 p.

handasaviy naqshlar bilan qo‘shilib, qat’iy ritmik tuzilmani hosil qiladi. Toshkent va Farg‘ona vodiysining ayrim markazlarida ham o‘simliksimon bezaklar an’anaviy naqsh tizimining muhim qismi sifatida davom etib, hududiy did va ustoz-shogird an’analari orqali boyib bormoqda.

Shu tariqa, o‘simliksimon ramzlar kulolchilik maktablarida bezak unsuri bo‘lishi bilan birga tabiat, hayot davomiyligi va baraka haqidagi qadimiy tasavvurlarning davomiy ifodasi sifatida yashab kelmoqda. Har bir maktab bu ramzlarni o‘ziga xos uslubda talqin qilsada, ularning asosiy mazmuni - hayotiylik, yangilanish va uzluksizlik g‘oyasi - umumiy madaniyat ko‘rinishi sifatida saqlanib qolmoqda.

Kulolchilik maktablarida lola, nilufar, anor, bodom, qalampir, barg kabi motivlarning turli ko‘rinishlari borligi, ayrimlari asrovchi xususiyatga ko‘ra keng qo‘llangani qayd etiladi[394]. Ayniqsa, anor serhosillik va serfarzandlik belgisi sifatida qadimdan talqin qilingani, Anahita haykalchasida anor hosildorlik ramzi sifatida tasvirlangani keltiriladi[395]. Hozirgi kunda anor tasviri kulolchilik buyumlarida zamonaviy talqinda ham qo‘llanilmoqda. Masalan, ayrim buyumlar yuzasida katta va kichik anor tasvirlari birgalikda ishlatiladi. Axborotchi kulollarning izohlashicha, katta anor ota-onaning timsoli sifatida tushunilsa, uning atrofida joylashtirilgan kichik anorlar farzandlar hamda avlodning davomiyligini anglatadi. Shu tariqa anor tasviri nafaqat bezak unsuri, balki oilaviy birlik, baraka va nasl davomiyligini ifodalovchi ramziy obraz sifatida talqin qilinmoqda[396].

Bodom motivi ham ko‘plab xalqlarda muhim bezak bo‘lib, yovvoyi bodom eng kuchli asrovchi ramzlardan sanalgani, bunga uning juda achchiqligi sabab bo‘lgani qayd etiladi[397]. Qalampir ramzi esa yuzdan ortiq ko‘rinishga ega bo‘lib, kulolchilikda, xususan, Rishtonda yetakchi asrovchi bezak sifatida beriladi[398]. Qalampir motivining suzanalar va bosh

[394] Гюль Э. Сады небесные и сады земные. Вышивка Узбекистана: скрытый смысл сакральных текстов. – Москва, ИД Марджани, 2013. 34 с.
[395] Xakimov A. O‘zbekiston san’ati tarixi. Qadimgi davr, o‘rta asrlar, hozirgi zamon. – Toshkent, Zilol buloq, 2022. 54-bet.
[396] Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Rishton tumani 2024 yil.
[397] Гюль Э. Сады небесные и сады земные. Вышивка Узбекистана: скрытый смысл сакральных текстов. – Москва, ИД Марджани, 2013. 35 с.
[398] Davlatova S. O‘zbek an’anaviy hunarmandchiligi tarixiy jarayonlar kontekstida (O‘zbekistonning janubiy hududlari misolida). – Toshkent, Yangi nashr, 2018. 122-bet.; Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati, Rishton shahri. 2025 yil.

kiyimlarda ham muhim bezak bo‘lishi keltiriladi[399]. Bular kulolchilik ramzlarining boshqa hunarmandchilik turlari bilan umumiy ma’no hosil qilganini yana bir bor tasdiqlaydi.

Qolaversa, zamonaviy ustalar tomonidan qalampir shakli kichik laganlar yuzasida bo‘rtma ko‘rinishda tasvirlangan buyumlar ham tayyorlanmoqda[400]. Bunday mahsulotlar, asosan, mintaqa madaniyatida qalampirning asrovchi, yomon ko‘z va salbiy ta’sirlardan himoya qiluvchi timsol sifatida talqin qilinishi bilan izohlanadi. Shu bois bu turdagi buyumlar ko‘proq sayyohlar uchun esdalik sovg‘a sifatida tayyorlanib, mahalliy ramziy tasavvurlarni zamonaviy bozorbop mahsulot shaklida ifodalashga xizmat qilmoqda.

Barg ramzi ko‘plab yodgorliklardan topilgani, u to‘kinlik va bahorgi uyg‘onish tasavvurlarini bildirishi bilan birga, umrning tugashi, o‘lim mazmunini ham anglatgani qayd etiladi[401]. Bu borada Samarqand viloyatining Urgut tumanida faoliyat yuritib kelayotgan Abloqulovlar sulolasi kulolchilik an’anasini misol sifatida keltirish mumkin. Ushbu maktab ustalari tayyorlaydigan kulolchilik buyumlarining ko‘p qismida barg ramzi keng qo‘llanadi. Gulli, bargsimon va olma tasvirlari birgalikda ishlatilgan kompozitsiyalar esa hayotning boshlanishi va yakunlanishini ifodalovchi ramziy mazmunda talqin qilinadi.

Shu tariqa islimiy ramzlar faqat go‘zal gul emas, balki hayotning davom etishi haqidagi murakkab tasavvurlarni buyum yuzasida aks ettiradi.

Kulolchilik maktablarida qayta tiklanib, bugungi kunda zamonaviy ko‘rinishda qo‘llanilayotgan muhim yo‘nalishlardan biri samoviy ramzlar bilan bog‘liq bezaklardir. Samoviy ramzlarning shakllanishi qadimgi davrlardan boshlab insonning osmon jismlarini kuzatishi, tabiat hodisalari va ularning inson hayotiga ta’sirini anglashga bo‘lgan intilishi bilan izohlanadi. Qadimgi sopol buyumlarda quyosh, oy va yulduz tasvirlari uchrashi, oy ramzi turli shakllarda aks ettirilgani, yarim oy

[399] Sukhareva O.A. Suzani. Central Asian decorative embroidery. – Tashkent, IICAS, SMI-ASIA, 2011. 90 p.; Shomirzaev M. Local features of the traditional embroidery of the Ferghana valley // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 7. No. 12. 2019. P. 971. (P. 970–973.)
[400] Dala yozuvlari. Horazm viloyati Urganch shahri, 2025 yil.
[401] Гюль Э. Диалог культур в искусстве Узбекистана. Античность и средневековье. – Ташкент, PRINT-S, 2005. 19 с.; Jabbarov R.R. Amaliy bezak san’ati. – Toshkent, LESSON PRESS, 2023. 42-bet.; Frutiger A. Signs and Symbols. Their design and meaning. – New York, Van Nostrand Reinhold, 1989. 254 p.

koʻrinishi esa ayrim hollarda belgi yoki tamgʻa vazifasini bajargan qayd etiladi[402].

Xususan, yulduz ramzi Turon kulolchiligida alohida oʻrin tutgani, janubiy hududlarda u koʻpincha sakkiz qirrali shaklda, ayrim hollarda esa xochsimon bezak bilan uygʻun holda qoʻllangani qayd etiladi[403]. Qadimiy manbalarda yulduzlar orqali yoʻl topish faoliyati keng tarqalganligi ham keltiriladi. Turkiy xalqlar tasavvurida qutb yulduzi Oltin qoziq deb atalgan, Yetti qaroqchi yulduzlar turkumi esa yoʻl topishda muhim mezon boʻlib xizmat qilgan[404].

Narshahiy asarida Buxoro hukmdori saroyini Yetti qaroqchi shakliga moslab qurdirgach, doimo gʻalaba qozongani haqidagi rivoyat ham yulduz motivining gʻalaba timsoli sifatida talqin qilinganini koʻrsatadi[405]. Shuningdek, Hulkar yulduzi ham gʻalaba ramzi sifatida tushunilib, bu belgi quvazifalar va ot yopigʻichlarini bezashda qoʻllangani qayd etiladi[406].

Yulduzlarni amaliy ahamiyatga ham ega boʻlgan. Ular orqali fasllar almashinuvi aniqlanib, chorvachilik va dehqonchilik ishlarini rejalashtirish imkoniyati yaratilgan. Shu bilan birga, turkiy xalqlar orasida osmon jismlarining xalqona nomlari shakllangani ham qayd etiladi[407].

An’analarni qayta tiklash jarayonida an’anaviy kulollar ijodida samoviy ramzlardan foydalanish yana kengaya boshlagani kuzatiladi. Xususan, Rishton tumanida faoliyat yuritayotgan usta Gʻofurjon Bobojonov bezaklarida yarim oy tasvirining qoʻllanishi uchrasa, Andijon shahrida ijod qilayotgan Mirzabahrom Abduvahobov hamda Madir kulolchilik maktabi davomchisi Odil Matchonov ishlarida yulduzsimon bezaklarning ishlatilishini kuzatish mumkin. Bu holat samoviy ramzlarning zamonaviy kulolchilikda ham an’anaviy mazmunini saqlagan holda davom etayotganini koʻrsatadi[408].

---

[402] Davlatova S. Oʻzbek an’anaviy hunarmandchiligi tarixiy jarayonlar kontekstida. – Toshkent, Yangi nashr, 2018. 269-bet.; Аскаров А. Сапаллитепа. – Ташкент, Фан, 1973. 169 с.

[403] Исамиддинов М.Х., Хасанов М.Х. История древнего и средневекового керамического производства Нахшаба. – Ташкент, А. Кадыри, 2000. 160 с.; Qadimgi tarixchilar Oʻrta osiyo haqida: Terma parchalar. – Toshkent, Yurist-media markazi, 2008. 98-bet. (184 bet.)

[404] Joʻrayev M., Rasulova Z. Mif, marosim va ertak. – Toshkent, Mumtoz soʻz, 2014. 133–134-betlar.

[405] Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far Narshaxiy. Buxoro tarixi. – Toshkent, Sharq bayozi, 1993. 29-bet.

[406] Al-Utbiy, Abu Nasr Abduljabbor ibn Muxammad. Tarixi Yaminiy. – Toshkent, TA VFIQNA SHR, 2023. 371-bet.

[407] Narziqulov A. Dehqon, bogʻbon va chorvador taqvimi. – Toshkent, Mehnat, 1991. 8-bet.; Mahmud Koshgʻariy. Devonu lugʻotit turk. III jild. – Toshkent, Oʻzbekiston SSR fanlar akademiyasi nashriyoti, 1963. 47-bet. (463 bet.)

[408] Dala yozuvlari. Rishton tumani 2025 yil.

Bir so‘z bilan aytganda samoviy ramzlar kulolchilik bezaklarida ham e’tiqodiy tasavvurlar, ham amaliy bilimlarning izlari sifatida uzoq vaqt davomida yashab kelmoqda.

Kulolchilik bezaklarida suv manbai bilan bog‘liq ramzlar ham kuzatiladi. To‘lqinsimon chiziqlar odatda hayot manbai hisoblangan suvni anglatadi. Naxshab shahar xarobalaridan topilgan ayrim bezakli sopol buyumlarda ham suv ramzi tasvirlanganligi qayd etiladi[409].

Axborotchining fikriga ko‘ra to‘lqinsimon naqshlar idishning yuqori qismida ichki chiziqni belgilash uchun ham ishlatilgani, bu chiziq idish sig‘imini ko‘rsatuvchi amaliy o‘lchov vazifasini bajargan[410]. Ko‘rinib turibdiki, suv ramzi hayot manbai haqidagi qadimiy tasavvurlarni ifodalash bilan bir qatorda buyumning amaliy vazifasi bilan ham uyg‘unlashgan[411].

Tog‘ ramzi ham bugungi kun kulolchilik maktablarida keng qo‘llanilib kelinmoqda. Farg‘ona vodiysi qadimgi davr kulolchiligida uchburchaksimon takrorlanuvchi bezaklar ustun bo‘lgani, bu motiv tog‘ tasavvuri bilan bog‘liqligi qayd etiladi[412]. Tog‘lar irmoq va soylarga manba bo‘lgani, dastlabki manzillarning ko‘pi tog‘ yonbag‘rida joylashgani sababli tog‘ motivi hayot va makon xotirasining bir qismi sifatida qaralgan.

Kulolchilik bezaklarida hayvonot olamiga oid ramzlar ham muhim o‘rin tutadi. Panjikent hududidan hayvon boshi shaklida ishlangan dastali idishlar topilgani ma’lum bo‘lib, bunday buyumlar zoomorf naqshlar kabi asrovchi, himoya mazmuniga ega bo‘lgani qayd etiladi[413]. Shuningdek, Qovunchi madaniyati ga oid topilmalarda idish dastalari chetiga qo‘y boshi tasviri ishlanishi xos jihat sifatida ko‘rsatiladi[414].

Farg‘ona vodiysi hududida esa qo‘chqor shoxi motivi keng tarqalgan bo‘lib, V-VII asrlarga oid ayrim idish tutqichlarida ham ushbu bezak tez-

[409] Исамиддинов М.Х., Хасанов М.Х. История древнего и средневекового керамического производства Нахшаba. – Tashkent, A. Qadyri, 2000. 59 с.

[410] Dala yozuvlari. Andijon viloyati, Oltinko‘l tumani. Jalabek MFY. 2025 yil.

[411] Исамиддинов М.Х., Хасанов М.Х. История древнего и средневекового керамического производства Нахшаba. – Tashkent, A. Qadyri, 2000. 59 с.;Ильясова С.Р. Кашинная керамика Ташкента XV–XVI вв. // История и археология Турана. №3. 2017. С. 375.

[412] Литвинский Б.А. Керамика из могильников Западной Ферганы. – Москва, Главная редакция восточной литературы, 1973. 214 с. Табл. 12.

[413] Соколовская Л.Ф. Неглазурованная керамика средневекового Самарканда. – Самарканд, МИЦАИ, 2015. 62 с.

[414] Isomiddinov M. Sopolga bitilgan tarix. – Toshkent, Fan, 1993. 33-bet.

tez uchrashi qayd etiladi[415]. Sirlangan idishlar paydo bo‘lishi bilan hayvon tasvirlari bilan bezash an’anasi yanada kengaygani, o‘rta asrlarda esa qush obrazi eng ko‘p qo‘llanilgan ornamentlardan biriga aylangani ta’kidlanadi[416].

Shuningdek, X asrga oid buyumlarda qanotli jonzotlar, jumladan it, bo‘ri va senmurv kabi tasvirlarning qo‘llangani ham ma’lum[417]. Bularning barchasi zoomorf motivlar diniy-mifologik tasavvurlar bilan birga, estetik qarashlar va kulolchilik maktablari uslubining ajralmas qismiga aylanganini ko‘rsatadi[418].

Ayrim zoomorf motivlar sinкretlashuv[419] natijasida asl shaklini yo‘qotib, o‘simlik ko‘rinishiga o‘tgan hollari ham qayd etiladi. Masalan, bodom naqshi zardushtiylikdagi yaxshilik ruhi farnga tegishli qanot talqini bilan bog‘lanishi keltiriladi[420]. Bu misol zoomorf va islimiy motivlar o‘rtasida o‘tish zonalari borligini ko‘rsatadi, ya’ni ramzlar qat’iy ajralib ketmagan, madaniy tafakkurda bir-biriga o‘tib turgan[421].

Ba’zi hayvon tasvirlari ma’lum hududning ramzi sifatida ham qo‘llanilgan. Masalan, Quvada topilgan tuya haykalchasi, ilk o‘rta asrga oid Farg‘ona tangalarida ikki o‘rkachli tuya tasvirining uchrashi, Panjikent devoriy suratlaridan birida hukmdorning tuya shaklidagi tutqichni ushlab turgani kabi dalillar tuya motivining davlat ramzi va e’tiqodiy belgi darajasiga ko‘tarilganini ko‘rsatadi[422].

Xorazm hududida esa baliq tasvirlari keng qo‘llanilgan bo‘lib, Mezdaxon kulolchilik an’analarida ham baliq motivlari uchraydi, ayrim kosalar tubiga suzib ketayotgandek tasvirlangan baliqlar ishlangani qayd

---

[415] Жабборов И. Ўзбеклар: turmush tarzi va madaniyati (Etno-tarixiy lavҳalar). – Toshkent, O‘qituvchi, 2003. 46–47-betlar.; Маршак Б.И. Керамика Согда V–VII веков. – Санкт-Петербург, Издательство Государственного Эрмитажа, 2012. 138–139 с.

[416] Isomiddinov M. Sopolga bitilgan tarix. – Toshkent, Fan, 1993. 42-bet.; Abdurahmonov I. IX–XII asrlar san’atida mifologik mavzular tizimi // O‘zDSMI xabarlari. 2018. №3(7). B. 65.

[417] Азбелев П.П. Древние кыргызы. Очерки истории и археологии. 104 с.

[418] Abdurahmonov I. IX–XII asrlar san’atida mifologik mavzular tizimi // O‘zDSMI xabarlari. 2018. №3(7). B. 65.; Байпаков К.М., Терновая Г.А. О мифологических животных и «зооморфном коде» вселенной. – 2006. №1. С. 109.

[419] Xalq amaliy san’ati va bezak tizimida turli hayvonlarga xos tasviriy belgilar, ramziy ma’nolar hamda badiiy shakllarning o‘zaro qo‘shilib ketishi natijasida yangi kompozitsiyaviy motivlarning yuzaga kelish hodisasi xisoblanadi.

[420] Uzbek Embroideries and Carpets in Foreign Collections. Authored by E. Gyul. Series Cultural Heritage of Uzbekistan. Edited by A. Abdukhalikov, E. Rtveladze. – Tashkent, 2017. 9 p.; Байпаков К.М., Терновая Г.А. О мифологических животных и «зооморфном коде» вселенной. – 2006. №1. С. 109.

[421] Uzbek Embroideries and Carpets in Foreign Collections. Authored by E. Gyul. Series Cultural Heritage of Uzbekistan. Edited by A. Abdukhalikov, E. Rtveladze. – Tashkent, 2017. 9 p.

[422] Boboyorov G‘., G‘oyibov B., Kubatin A. O‘rta Osiyo bitiklari. I Sug‘diy yozma yodgorliklar. – Toshkent, Tafakkur avlodi, 2020. 126-bet.

etiladi[423]. Dalvarzintepadan topilgan ilon shaklidagi tumorlar, kishnab turgan ot haykalchalari hamda idish yuzasiga ilon tasvirlarini yopishtirib ishlash kabi misollar esa ilon motivining hududiy va diniy tasavvurlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, Choch hududida bars, Qanxada ikki o‘rkachli tuya, Erkurg‘onda tipratikan, Chag‘oniyonda esa fil tasvirlari muhim ramz sifatida qo‘llangani ham qayd etiladi[424]. Bu dalillar hayvon obrazlari ayrim hududlarda o‘ziga xos ramziy belgi, ya’ni hududning madaniy pasporti vazifasini ham bajarganini ko‘rsatadi.

Farg‘ona vodiysi hududidan ham o‘ziga xos hayvon shaklida ishlangan idishlar topilgani ma’lum. Xususan, To‘ratosh qabristoni va Qoratepa hududidan aniqlangan qo‘chqor shaklli dastali idishlar Kushon va Sosoniylar davriga mansub ekani qayd etiladi[425].

Boshqa hunarmandchilik turlarida ham zoomorf motivlar keng qo‘llanilgani kuzatiladi. Masalan, Markaziy Osiyo va turk gilamlarida gardani shutur , Turkiston hududida poyi murg , Xo‘jand suzanalarida iz motivlari, Vobkentda esa tovuq oyog‘i deb ataluvchi naqshlarning ishlatilgani qayd etiladi[426].

Shuningdek, Marg‘ilon atlaslarida qo‘chqor shoxi, qurbaqa, asalari va tovus tasvirlariga oid naqshlar ham hozirgi kungacha saqlanib kelayotgani dala kuzatuvlari materiallarida keltiriladi[427]. Shu tariqa kulolchilikda uchraydigan ramzlar boshqa hunarmandchilik turlaridagi bezak tizimi bilan ham uyg‘unlashib, umumiy madaniy ramzlar majmuasining bir qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ramziy ma’nolar bo‘limi doirasida ayniqsa muhim chizgilardan biri Rishton kulolchiligida uchraydigan baxt qushi an’anasi bilan bog‘liq tasvirlardir. Tadqiqotlarda qush obrazi tarixan bezak sifatida eng keng qo‘llangan ramzlardan biri ekani qayd etiladi[428].

Rishtonlik ustalar bezaklarda tasvirlangan qushni ko‘pincha baxt qushi deb ataydilar. Mahalliy axborotchilar talqiniga ko‘ra, baxt qushi har

[423] Саипов С.Т. Неполивная керамика Средневекового Хорезма. – Nukus, 2015. 52 s. (100 s.).; Ильясова С.Р. Кашинная керамика Ташкента XВ–XВИ вв. // История и археология Турана. №3. 2017. С. 375.
[424] Бабаяров Г. Древнетюркские монеты Чачского оазиса. – Tashkent, 2007. 68–69 с.
[425] Брыкина Г.А. Юго-Западная Фергана в первой половине I тысячелетия нашей эры. – Москва, Наука, 1982. 69–70 с.; Бактрийские древности. – Ленинград, Наука, 1976. 49 с.
[426] Sukhareva O.A. Central Asian decorative embroidery. – Tashkent, IICAS, SMI-ASIA, 2011. 46 p.
[427] Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati, Rishton shahri. 2024 yil.
[428] Самашев З., Кузнецова О., Плакхов В. Керамика Сарайчика. – Алматй, 2008. 63 с.

bir insonning homiysi boʻlib, u insonga hamroh boʻlmasa ishlar yurishmasligi, baxtsizlik yoki kambagʻallik yuz beradi degan qarashlar mavjud[429]. Xalq orasida keng tarqalgan Baxt qushingni qoʻldan chiqarma iborasi ham ana shu ijtimoiy tasavvurning til orqali ifodalangan shakli sifatida qaraladi.

Usta-kulollar orasida baxt qushi tasvirini ishlash anʼanani davom ettirish tarzi bilan birga ustaning oʻziga xos dastxati, yaʼni shaxsiy uslubini bildiruvchi belgi sifatida ham talqin qilinadi. Kuzatuvlarga koʻra, har bir kulol oʻziga xos qush obraziga ega boʻlishi kerak, agar u bu obrazni mustaqil yaratib, buyum yuzasida ifodalay olmasa, toʻlaqonli usta darajasiga yetmagan deb hisoblanadi. Tajribali ustalar esa baxt qushi har bir kulolga goʻyoki tushida ayon boʻlishini ham taʼkidlaydilar.

Bu hol kasbiy identitetning ramziy tizimini ochib beradi. Usta buyumga qush tasvirini chizar ekan, aslida oʻzining kimligini, anʼana davomchisi ekanini ham ifodalaydi. Shogird esa oʻz baxt qushi obrazini mustaqil tasvirlay olganidagina ustalikka nomzod sifatida tan olinadi[430]. Agar shogird bu ramzni yarata olmasa, u kulolchilikning boshqa ishlarini bajarishi mumkin, biroq haqiqiy usta-kulol darajasiga yetish uchun albatta ijodiy qobiliyat zarur deb qaraladi.

Shu tariqa, baxt qushi oddiy bezak koʻrinishi boʻlib qolmay, ustoz-shogird anʼanasida kasbiy maqomga oʻtishning muhim ramziy mezonlaridan biri sifatida yashab kelmoqda.

Rishton maktabi anʼanasiga koʻra, ustalar hech qachon tayyor eskizdan foydalanmasligi, barcha suratlar qoʻlda va bir-biridan farqli tarzda chizilishi qayd etiladi[431]. Bu esa ramzning yana bir vazifasini koʻrsatadi. Usta bir xil motivni takrorlasa ham, uni har safar yangidan yaratadi, yaʼni ramz ustaning ichki koʻrish qobiliyati va tasavvurini namoyon qiluvchi amaliy isbotga aylanadi. Bu xolatdan anglash mumkinki, ramziy maʼno bevosita kasbiy mahoratni koʻrsatuvchi indikator vazifasini bajaradi.

Baxt qushi tasvirining har doim magʻrur holatda ishlanishi, uning hech qachon maʼyus yoki boshi egilgan holda tasvirlanmasligi haqidagi

[429] Dala yozuvlari. Fargʻona viloyati, Rishton shahri. 2025 yil.

[430] Dala yozuvlari. Fargʻona viloyati, Rishton shahri. 2025 yil.

[431] Dala yozuvlari. Fargʻona viloyati, Rishton shahri. 2025 yil.

qarash ham mavjud. Usta-hunarmandlar buni ozodlik va tinchlik timsoli bilan izohlaydi, mahalliy tasavvurda esa baxt qushi hech kimga boʻysunmaydigan, erkin qush sifatida qabul qilinadi[432].

Bu yerda ramzning ijtimoiy va axloqiy talqini ham koʻrinish beradi. Chunonchi, usta mehnati halol boʻlishi, uning ruhiy holati baland boʻlishi va bu kayfiyat buyumda ham aks etishi kerak degan madaniy qarash shakllangan boʻlib, baxt qushi obrazi ana shu me'yorning ramziy ifodasiga aylangan.

Baxt qushi tasviri faqat humo yoki semurgʻ obrazlari bilan cheklanib qolmaydi. Ayrim ustalar ijodida tovus, bulbul, turna, laylak va boshqa qush tasvirlari ham baxt qushi sifatida talqin qilinadi. Mahalliy tasavvurga koʻra, bulbul kichik qush boʻlsa ham, oʻzining yoqimli sadosi bilan hayrat uygʻotgani sabab, baxt qushi turli koʻrinishda namoyon boʻlishi mumkin degan qarash mavjud[433].

Shu bilan birga, kuzatuvlarga koʻra ustalar orasida baxt qushining eng keng tarqalgan obrazi sifatida oʻrdak timsoli yetakchi oʻrin tutishi ham qayd etiladi. Kichikdan katta hajmgacha boʻlgan turli idish shakllarini yasashda oʻrdak obrazidan andoza sifatida foydalanilgani ma'lum[434]. Qush shaklida idish tayyorlash esa qush haqidagi ramziy tasavvurning bevosita buyum shakliga koʻchishini anglatadi. Ramz bezak unsuri boʻlishi bilan bir qatorda buyumning shaklini belgilovchi asosiy tamoyillardan biriga aylanadi.

Idish nomlarida ham oʻrdak atamasining saqlanib qolgani kuzatiladi. Masalan, dori yoki may ichish uchun moʻljallangan murgʻoba, ya'ni oʻrdak nomli idish aynan shu turdagi jihozlardan biri hisoblanadi. Bunday idishdan foydalanishda bemorning oʻrnidan turishi shart boʻlmagan, yonboshlagan holda ichish imkoniyati mavjud boʻlgan, hatto idish yonboshlatilganda ham ichidagi suyuqlik toʻkilmagan. Shu sababli u xalq xoʻjaligida zaruriy idishlardan biri sifatida keng qoʻllanilgan. Shuningdek, bu idishning kattasi ona, kichiklari esa joʻjalar deb atalganligi ham qayd etiladi[435]. Hozirda bu uslubdagi buyum Rishton, Andijon va Urgut kulolchilik maktablarida tayyorlanmoqda.

[432] Dala yozuvlari. Fargʻona viloyati, Rishton shahri. 2025 yil.
[433] Dala yozuvlari. Fargʻona viloyati, Rishton shahri. 2025 yil.
[434] Dala yozuvlari. Fargʻona viloyati, Rishton shahri. 2025 yil.
[435] Dala yozuvlari. Fargʻona viloyati, Rishton shahri. Zarariq MFY. 2025 yil.

Bu ma’lumot ramzning amaliy qulaylik bilan ham bog‘lanib ketganini kuzatish mumkin. Ya’ni o‘rdak obrazi chizilgan bezak bo‘lishi bilan birga buyumning konstruktiv shaklini, uning qulayligi va funksional xususiyatlarini belgilovchi omilga aylangan.

O‘rdak va boshqa qush ko‘rinishlari sut idishlarini yasashda ham ishlatilgani, uchta quloqli o‘rdak boshli jo‘mpaкka ega sut idish keng tarqalgani, uni osib ishlatish mumkinligi, sutning qaymog‘ini ajratish xususiyati bo‘lgani keltiriladi. Shuningdek, xalq orasida ko‘p ishlatiladigan sopol obdastalarni yasashda ham o‘rdak obrazi asosiy shakl vazifasini bajargani, mag‘rur turgan o‘rdak shakli idishning chiroyli bo‘lishi va qulaylikni ta’minlagani qayd etiladi[436]. Bu dalillar ramzning go‘zallik bilan birga ishlash qobiliyatini ham aks etganini anglatadi.

Turmush marosimlari bilan bog‘liq ramziy talqinda esa qizlarning kelinlik sepiga qo‘shib berilishi lozim deb hisoblangan soch yuvish idishining ikki chekkasida qushlar tasvirlanishi odat tusiga kirganiga ham guvoh bo‘lindi. Bu xolat ikki qush obrazi yosh oila, ya’ni kelin va kuyovni ifodalovchi ramziy ma’noga ega xisoblangan.

Hozirgi kunda esa bunday idishlarni sep tarkibiga qo‘shib berish deyarli uchramaydi, ular ko‘proq noyob buyum yoki amaliy san’at namunasi sifatida ko‘rgazmalarda namoyish qilinmoqda. Bu hol ramzlarning zamonaviy sharoitda vazifasi asta-sekin o‘zgarib borayotganini anglatadi.

Qadimdan qush qo‘nib turgan shaklda ishlangan shamchiroqlar ham tayyorlangani, ular pilik orqali yoritilgani, shamchiroqning yuqori qismiga qush tasviri joylashtirilgani haqida axborotchilar alohida ma’lumot qayd etadilar. Ba’zi hollarda esa qushga tomon intilayotgandek tasvirlangan ilon shakli ham ishlangani kuzatildi[437].

Tushunish mumkinki, bu xolatda ikki ma’noli ramzni anglatadi. Ya’ni qush va ilon obrazlari bir buyumda birgalikda tasvirlangan. Ba’zi hollarda ilon ramzi baxt qushi bilan birga qo‘llangani ham ma’lum. Shu tariqa bu ramzlar o‘zaro qo‘shilib, buyumga murakkab himoya, omad va e’tiqodiy mazmun yuklagan. Tahlilni davom ettirib aytish mumkinki, yaxshilik va yomonlik to‘qnashuvi mavjudligiga ishora ham bo‘ladi.

[436] Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati, Rishton shahri. Zarariq MFY. 2025 yil.
[437] Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati, Rishton shahri. Mamadali Topvoldiyev MFY. 2025 yil.

Rishtonda qushdan tashqari baliq tasviridan ham foydalanilgani, ammo qush obrazi baliqdan koʻra kengroq tasvirlanishi asosiy an’anaga aylangani keltiriladi. Baliq qadimdan halollik ramzi sifatida yoki kulol ishining halolligini koʻrsatish uchun tasvirlangani, kulolning aytishicha baliq oʻz luqmasini kulol tayyorlagan idishda suv bilan bir bor boʻlsa ham tozalashni orzu qilishi haqidagi talqin keltiriladi[438]. Qush esa kulolning halol mehnat qilib yashovchi eng baxtli insonlardan biri ekanligi siymosi sifatida ifodalanishi, qushni chiza boshlash ustaning kasbiy mahorati yuqori darajaga koʻtarilganini anglatishi qayd etiladi. Bu ikki misol bitta muammo, halollik va kasbiy obroʻ masalasini ikki ramz orqali ochadi, bunday yondashuv ramzlarning kasbiy identitetni ifodalash vazifasini kuchaytiradi.

Ramzlar tizimida yozuvli bezaklarni ham alohida guruh sifatida ajratib koʻrsatish mumkin. Axborotchilarning ma’lumotiga koʻra yozuvlardan dastlab idishlarni farqlash yoki ularning kimga tegishli ekanini koʻrsatish maqsadida foydalanilgan. Islom dini kirib kelgach esa yozuvni bezak sifatida qoʻllash kengaya boshlagan va X asrga oid sopol buyumlarda yozuvli naqshlar ayniqsa yuqori darajada rivojlangan.

Bunday bezaklarda koʻpincha ezgu tilaklar ifodalangan, keyinchalik esa yozuvlar arab alifbosidagi shakllar orqali berila boshlagan. Masalan, Xoʻjanddan topilgan X asrga oid sopol tovoqda salomatlik soʻzining bezak tarzida yozilgani bunga misol boʻla oladi[439]. Bu hol yozuvli ramzlar orqali matn mazmuni buyum yuzasida vizual shaklga koʻchirilganini, ya’ni tilak va duo mazmuni bezak orqali ifoda etilganini bildiradi.

Shu oʻrinda Buxoro shahrida kulolchilik an’analarini qayta tiklash yoʻlida faoliyat yuritayotgan kulol Abduvohid Karimov ijodini ham misol sifatida keltirish mumkin. U ark harobalaridan topilgan sopol parchalarida uchraydigan yozuv namunalarini zamonaviy dizayn asosida qayta ishlab, yangi kulolchilik buyumlarida aks ettirib kelmoqda. Shu tariqa yozuvli laganlar orqali qadimiy an’ana davom ettirilib, kulollar tomonidan ifodalangan ezgu tilaklar zamonaviy mahsulotlar orqali ham odamlarga yetkazilmoqda. Qolaversa, Fargʻona vodiysi kulolchiligida osh

[438] Dala yozuvlari. Fargʻona viloyati, Rishton shahri. Mamadali Topvoldiyev MFY. 2025 yil.
[439] Dala yozuvlari. Buhoro viloyati, Buhoro shahri. Mirzo Fayoz koʻchasi, 2025 yil.

tayyorlaydigan yemakhonalar uchun maxsus, lagan o‘rtasiga “Osh bo‘lsin” yozuvi tushirilganligini ham ta’kidlash lozim.

Yuqorida keltirilgan mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, kulolchilikda qo‘llaniladigan ramzlar an’analarga tayangani bilan bir vaqtda turli davrlarda jamiyat hayotida muhim hisoblangan tushuncha va tasavvurlar ta’sirida shakllanib, vaqt o‘tishi bilan ma’lum o‘zgarishlarga uchrab borgan. Boshqacha qilib aytganda, sopol buyumlarni bezashda har bir davrning asosiy ijtimoiy va madaniy g‘oyalari o‘z aksini topgan. Masalan, XX asrga kelib paxta va chanoq gullari tasvirlarining bezaklarda keng qo‘llanila boshlashi ham ana shunday jarayon natijasi sifatida qaraladi. Ushbu o‘zgarishlarni bugungi kunda faoliyat yuritayotgan kulolchilik maktablari misolida kuzatish esa muammoning mohiyatini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Yuqorida keltirilgan materiallar shuni ko‘rsatadiki, kulolchilik buyumlarida qo‘llaniladigan an’anaviy bezak va ramzlar turli tarixiy davrlarda jamiyat hayotida muhim hisoblangan tasavvur va e’tiqodlar ta’sirida shakllanib, vaqt o‘tishi bilan kompozitsiya hamda badiiy talqinda ma’lum o‘zgarishlarga uchrab borgan. Boshqacha aytganda, sopol buyumlarni bezash tizimi har bir davrning ijtimoiy va estetik qarashlarini o‘zida aks ettirib kelgan. Hozirgi davr kulollarining ijodida ham an’anaviy kompozitsiya tuzilmalari saqlanib qolgan holda, ularning zamonaviy talqinda qayta tiklanayotganini kuzatish mumkin.

Xususan, G‘ijduvon kulolchilik maktabi davomchisi Abdulla Narzullayev ijodida an’anaviy bezak tizimining zamonaviy badiiy yechimlar bilan uyg‘unlashuvi yaqqol namoyon bo‘ladi. U yaratgan ko‘plab buyumlar markazida doiragul saqlanib, uning atrofi miandr uslubidagi hoshiyalar bilan to‘ldiriladi. Kompozitsiya ko‘pincha maydagul, morak va boshqa elementlar bilan boyitilib, naqshlarning o‘zaro uyg‘unligi orqali buyum yuzasida muvozanat va uslub hosil qilinadi. Ayrim buyumlarda tovus, pechgul yoki boshqa obrazlar kiritilishi esa an’anaviy bezak unsurlarining zamonaviy talqin bilan boyib borayotganini anglatadi[440]. Tushunish mumkinki, G‘ijduvon maktabida bezak tizimi saqlangan holda, uning kompozitsion yechimlari zamonaviy estetik talablar bilan uyg‘unlashmoqda (1-ilova).

[440] Dala yozuvlari. Buhoro viloyati, G‘ijduvon tumani. A.G‘ijduvoniy ko‘chasi. 2025 yil.

Shunga o‘xshash jarayon Xorazm viloyatining Honqa tumanida faoliyat yuritayotgan sulolaviy davomchi Odiljon Matchonov ijodida ham kuzatiladi. Bu maktab buyumlarida geometrik chizmalar muhim o‘rin tutib, markazdan chetga tomon yoyiluvchi yulduzsimon va arabeska shakllari keng qo‘llanadi. Ko‘k, oq va lojuvard ranglarning uyg‘unligi hududiy badiiy an’ananing muhim belgisi sifatida ko‘rinish oladi. Geometrik va o‘simliksimon naqshlarning uyg‘un qo‘llanishi kompozitsiyada harakat va me’yor hosil qilib, buyumga yaxlitlik baxsh qiladi. Anor tasviri, kufiy yozuvsimon bezaklar hamda o‘simlik motivlarining ishlatilishi esa bezaklarning ramziy mazmunini boyitib, baraka va farovonlik timsolini ifodalaydi[441]. Shu tariqa Honqa maktabida ham an’anaviy naqshlar zamonaviy badiiy talqin orqali rivojlanib bormoqda.

Andijon shahrida faoliyat yuritayotgan Mirzabahrom Abduvahobov ustaxonasida tayyorlanayotgan buyumlarda geometrik va chiziqli kompozitsiyalar ustunlik qiladi. Norzana naqshlari, pillaki belbog‘i va qovun chetan tipidagi bezaklar buyum yuzasida me’yoriy tuzilma hosil qiladi. Ayrim buyumlarda charxpalak tasviri qo‘llanib, u an’anaviy talqinda hayot aylanishi va davomiylik timsoli sifatida qabul qilinadi. Ba’zi kompozitsiyalarda geometrik lola va boshqa bezaklarning uyg‘unlashtirilishi an’anaviy naqshlarning zamonaviy shaklda qayta ishlanayotganini ko‘rsatadi[442]. Tushunish mumkinki, hududiy bezak tizimi saqlangan holda, kompozitsiya zamonaviy estetik qarashlar bilan boyib bormoqda.

Samarqand viloyati Urgut tumanida shakllangan kulolchilik an’analari, xususan Ablakulovlar sulolasi davomchisi No‘mon usta ijodida esa an’anaviy bezaklarning zamonaviy talqini uchramaydi.

Rishton kulolchilik maktabi vakillari ijodida ham an’anaviy naqsh tizimining davomiyligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Alisher Nazirov ustaxonasida yaratilgan buyumlarda g‘ozagul, shonagul, qalampirmunchoq kabi naqshlar yetakchi o‘rin tutib, ular islimiy va geometrik bezaklar bilan uyg‘unlashtiriladi. Buyum yuzasida qo‘shimcha

[441] Dala yozuvlari. Xorazm viloyati, Xonqa tumani. Hunarmandlar ko‘chasi. 2025 yil.
[442] Dala yozuvlari. Andijon viloyati, Oltinko‘l tumani. Jalabek MFY. 2025 yil.

sir bilan ishlangan naqshlar ham kompozitsiyani boyitib, an’anaviy Rishton bezak maktabining uzluksizligini ko‘rsatadi[443].

Xuddi shunday, Polvonov Yo‘ldashali ijodida ham o‘simliksimon, geometrik va zoomorf elementlar birlashib, Rishton maktabiga xos bezak tizimi zamonaviy talqinda davom ettirilmoqda. Qush, baliq, anor kabi obrazlarning qo‘llanishi bezak kompozitsiyasini mazmunan boyitib, an’anaviy motivlarning zamonaviy talqinini yuzaga keltiradi[444].

Umuman olganda, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston hududidagi kulolchilik maktablarida an’anaviy bezak tizimi uzluksiz saqlanib qolgan holda, ustalarning ijodiy yondashuvi natijasida yangi kompozitsion yechimlar bilan boyib bormoqda. Bu jarayonda qadimiy ramz va naqshlarning ma’no va mohiyati yo‘qolmay, aksincha zamonaviy badiiy did bilan uyg‘unlashib, hududiy maktablarning o‘ziga xos badiiy qiyofasini saqlashga xizmat qilmoqda.

Shu bois, an’anaviy bezak tizimining saqlanishi va yangilanishi kulollarning nafaqat ijodiy faoliyatida, balki kasbga oid ijtimoiy xotira va ustoz-shogird an’anasi orqali shakllanuvchi kasbiy identitetning barqarorligini ta’minlovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari kulolchilik maktablarida shakllangan ustoz-shogird tizimi, marosimiy an’analar, gender ro‘llari va ramziy ma’nolar tizimini o‘rganish sohada kechayotgan ijtimoiy-madaniy hamda iqtisodiy o‘zgarishlarni aniqlash asnosida quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi.

An’anaviy shogirdlik tizimi zamonaviy sharoitda asta-sekin haq to‘lanadigan mehnat munosabatlari bilan uyg‘unlashmoqda. Natijada ustoz-shogird tizimi faqat tarbiyaviy va kasbiy bilim uzatish instituti sifatida emas, balki iqtisodiy hamkorlik shakliga o‘zgarayotgan ijtimoiy mexanizmga aylanmoqda. Bu jarayon kulolchilik ustaxonasining oilaviy hunarmandchilikdan kichik ishlab chiqarish subyektiga o‘zgarayotganini ko‘rsatadi.

Kulolchilikda mehnat taqsimoti ilgari ustoz atrofida markazlashgan va ko‘p bosqichli ishlab chiqarish asosida shakllangan bo‘lsa, hozirgi davrda ixtisoslashuv kuchaymoqda. Ayrim ustaxonalarda jarayon

[443] Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati, Rishton shahri. Farg‘ona yo‘li ko‘chasi. 2025 yil.
[444] Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati, Rishton shahri. Mamadali Topvoldiyev MFY. 2025 yil.

bosqichlari alohida ijrochilar yoki alohida ustaxonalar oʻrtasida taqsimlanmoqda. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirgan holda, hunarning barcha bosqichlarini mukammal oʻzlashtirish tamoyili oʻzgarishiga olib kelmoqda.

Kulolchilikdagi gender rollari qat'iy va oʻzgarmas tuzilma emas, balki texnologik yangilanish, bozor talabi va ishlab chiqarish modeli oʻzgarishi bilan birga transformatsiyalanayotgan ijtimoiy institut boʻlib, modernizatsiya sharoitida ayollar faqat yordamchi sifatida emas, balki boshqaruv, dizayn, savdo va innovatsiya bosqichlarida ham faol ishtirok etmoqdalar.

An'anaviy ustaxonalarda tavakkalchilikka asoslangan sir, pishirish, xumdonda ishlash bosqichlari ustoz yoki sinovdan oʻtgan shogirdga topshirilgan boʻlsa, zamonaviy ishlab chiqarish sharoitida uzluksiz mehnat qiluvchi va malaka toʻplagan ijrochilar jinsidan qat'i nazar ushbu bosqichlarga jalb etilmoqda.

Kulolchilik koʻp hollarda uy xoʻjaligi va ustaxonani birlashtirgan gibrid tizim sifatida faoliyat yuritgan boʻlsa, zamonaviy davrga kelib, bu tizim oilaviy mehnat, yollanma ishchi, mavsumiy ijrochi va bozor buyurtmalari oʻrtasidagi integratsiyalashgan mikro-iqtisodiy markazga transformatsiyalanmoqda.

Kulolchilik tarixan marosimiy, axloqiy va risolaviy me'yorlar bilan mustahkamlangan ijtimoiy institut boʻlgan. Zamonaviy davrda esa turizm, suvenir bozori va brendlashuv jarayonlari mahsulotning estetik va ramziy qiymatini iqtisodiy kapitalga aylantirmoqda. Shu tariqa hunar muqaddas kasb modelidan madaniy mahsulot ishlab chiqarish modeliga tomon transformatsiyalanmoqda, biroq uning axloqiy va identitetga oid qatlamlari toʻliq yoʻqolmay, yangi sharoitda moslashmoqda.

Kulolchilik ustaxonalarida kuzatilayotgan transformatsiya jarayonlari an'anaviy institutsional mexanizmlarning yemirilishi emas, balki ularning zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitga moslashuvi sifatida namoyon boʻlmoqda. Ustoz-shogird tizimi, mehnat taqsimoti va gender rollari oʻzaro bogʻliq holda qayta shakllanib, kulolchilikni tirik va moslashuvchan nomoddiy madaniy meros instituti sifatida saqlab qolmoqda.

Kulolchilikdagi marosimlar dastlab kasbning ichki intizomini ta’minlovchi, muqaddaslik maqomini mustahkamlovchi va usta-shogird tizimini boshqaruvchi amaliy tizim bo‘lgan. Zamonaviy sharoitda esa ular to‘liq yo‘qolmagan, balki ayrim hududlarda ramziy shaklga o‘tib, qisqargan yoki soddalashgan ko‘rinishda saqlanib qolgan.

An’anaviy ravishda xosiyatli va xosiyatsiz kunlarga asoslangan mehnat ketma-ketligi ustaxona hayotining kundalik faoliyat tizimini belgilagan. Hozirgi davrda bozor talabi va tezkor ishlab chiqarish ehtiyoji tufayli bu vaqt tartiblari zaiflashgan, biroq ayrim ustalar intizomiy mezon sifatida ularni saqlab qolmoqda.

Avvallari pir haqqi, ziyorat va sayllar hunarmandlar jamoasining real ijtimoiy-iqtisodiy birligini mustahkamlagan. Hozirgi bosqichda esa bu faoliyatlar ko‘proq tarixiy xotira va kasbiy o‘zlikni anglash vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Qadimiy ramzlar xisoblangan qush, anor, qalampir, handasaviy va boshqa shakllar dastlab e’tiqodiy-himoyaviy ma’noga ega bo‘lgan bo‘lsa, zamonaviy kulolchilikda ular estetik, dizaynerlik va bozor talabi bilan bog‘liq omillar bilan uyg‘unlashgan. Shunga qaramay, asosiy baraka, himoya, davomiylik kabi ma’nosaqlanib qolgan.

Rishton maktabidagi baxt qushi obrazi ustaning shaxsiy uslubi va ijodiy darajasini ko‘rsatuvchi mezon sifatida shakllangan. Transformatsiya jarayonida bu ramz nafaqat bezak, balki kasbiy maqom va ustalik darajasini ko‘rsatadigan belgisi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Hududiy kulolchilik maktablarida kompozitsion tuzilma va asosiy ramzlar saqlanib qolgan holda, ular zamonaviy estetik did, bozor talabi va individual ijodiy yondashuv bilan boyitilmoqda. Natijada kulolchilikdagi transformatsiya jarayoni uzilish emas, balki moslashuv va yangicha talqin orqali davom etayotgan evolyutsion jarayon sifatida namoyon bo‘lmoqda.

IV BOB. ZAMONAVIY DAVRDA KULOLCHILIK MAKTABLARINING MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

§ IV.1. Globallashuv, turizm, bozor iqtisodiyoti va ekologik omillarning kulolchilikka ta’siri

XXI asr boshlariga kelib, an’anaviy kulolchilik maktablari faoliyati tub o‘zgarishlar bosqichiga yuz tutdi. Endilikda kulolchilik faqat mahalliy xo‘jalik ehtiyojlarini qondiruvchi ishlab chiqarish tizimi sifatida emas, hunarmandchilik ishlab chiqarishining shakli, ustaxonalardagi mehnat tartibi, mahsulot dizayni va bezagi, uni sotish tizimlari, shuningdek, ustaning jamiyatdagi ijtimoiy mavqei global bozor munosabatlari, ommaviy madaniyat, transport va logistika tizimining tezlashuvi, raqamli savdo platformalari hamda madaniy merosni muhofaza qilish siyosati ta’sirida yangi yo‘nalish kasb etmoqda.

Shu bois kulolchilikni oddiy tarixiy taraqqiyot bosqichlarida rivojlanib kelayotgan hunar sifatida emas, balki tez o‘zgarib borayotgan iqtisodiy va madaniy muhit sharoitida moslashib, rivojlanayotgan tirik ijtimoiy-madaniy tizim[445] sifatida talqin etish ilmiy jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Dastavval qayd etish lozimki, globallashuv jarayonining sezilarli oqibatlaridan biri bu iste’mol bozori tuzilmasining o‘zgarishi bilan bog‘liq. Tarixiy davrlarda ko‘za, xum, tandir, lagan, kosa va piyola kabi buyumlar uy xo‘jaligining kundalik hayotida muhim amaliy vazifani bajargan. Suv tashish va saqlash, sut-qatiq mahsulotlarini tutish, donni yig‘ish, taom tayyorlash hamda dasturxonga tortishda sopol buyumlarning o‘rni alohida ahamiyat kasb etgan.

Hozirgi vaqtga kelib esa shisha, metall va plastmassa mahsulotlari keng ommalashib, sanoat usulida ishlab chiqariladigan idishlar arzonligi, standartligi va tez yetkazib berilishi bilan iste’mol bozorida ustunlik qilib kelmoqda. Ushbu jarayonlar ta’sirida sopol buyumlarning kundalik amaliy ahamiyati qisqarib, ularning badiiy, ramziy va madaniy identitetni ifodalovchi jihatlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

[445] Bandarin F., Van Oers R. Heritage and the Sustainable Development Goals. – Paris: UNESCO, 2015.; UNESCO. Safeguarding Intangible Cultural Heritage and Sustainable Development [Elektron resurs]. – Paris: UNESCO, 2015. – Rejim kirish: https://ich.unesco.org/doc/src/00349-EN.pdf (murojaat sanasi: 16.02.2026).

Shu sababli aksariyat kulolchilik maktablari mahsulotni oddiy maishiy xo‘jalik buyumi sifatida emas, balki suvenir, bezak buyumi, sovg‘a yoki madaniy ramz sifatida namoyish qila boshladilar[446].

Bu jarayon kulolchilik ustahonalari faoliyati davomida yangilik emas, tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, bozorda raqobat kuchaygan vaqtlarda hunar markazlari doim moslashuv yo‘lini izlagan. Xususan, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Toshkentda Rossiyaning markaziy hududlaridan kelgan fabrika mahsulotlari bilan raqobat natijasida sopol buyumlar ishlab chiqarish hajmi kamaygani va sifati pasaygani qayd etiladi[447]. Biroq ushbu davr bugungi kun bilan qiyoslansa globallashuvning ta’siri yuqori bo‘lib, raqobat mahalliy bozor bilan cheklanmaydi, u internet platformalari, xalqaro logistika va turistlar oqimi orqali deyarli har bir ustaxonaga yetib keldi[448]. Shunday sharoitda hududiy maktablar uslubini saqlash masalasi oddiy estetik tanlov bo‘lib qolmay, hunarning saqlab qolish strategiyasiga aylanganligini kuzatish mumkin.

Dala tadqiqotlari tahlili ko‘rsatishicha globallashuv jarayoni hunarmandchilik sohasida narx va qadriyat o‘rtasidagi farqlarni tafovutlashuviga ham ta’sir qildi. Ushbu jarayonni an’anaviy buyumlarni tayyorlash bilan bog‘liq xolda kuzatsak, qo‘l mehnati asosida tayyorlanadigan kulolchilik buyumlari ko‘p vaqt, ustaning uzoq yillik tajribasi, sifatli xomashyo, yoqilg‘i sarfi hamda pishirish jarayonida aniq harorat nazoratini talab qiladi[449]. Sanoat usulida ishlab chiqariladigan mahsulotlar esa konveyer texnologiyasi yordamida tez tayyorlanib, qiymati sezilarli darajada past bo‘ladi.

Natijada iste’molchilarning muayyan qismi arzon va qulay mahsulotlarni afzal ko‘rishi sababli ustalar o‘z mehnatiga mos narx belgilashda qiyinchilikka duch keladi. Narx past saqlanganda buyum ortida turgan mehnat va mahoratning haqiqiy qadri yetarli darajada baholanmaydi, narx oshirilganda esa sotuv hajmining qisqarishi kuzatiladi.

---

[446] Bandarin F., Van Oers R. Heritage and the Sustainable Development Goals... https://ich.unesco.org/doc/src/00349-EN.pdf (murojaat sanasi: 16.02.2026).
[447] Hakimov A. O’zbekiston hunarmandchiligi. – Toshkent: Fan, 2023.
[448] Dala yozuvlari. Buhoro viloyati G‘ijduvon tumani. A.G‘ijduvoniy ko‘chasi. 2025 yil.
[449] Dala yozuvlari. Xorazm viloyati Hiva tumani. Sergali ko‘chasi. 2025 yil.

Mazkur holat yuzasidan akademik Sharofiddin Yusupov intervyularidan birida qo‘l mehnati asosida tayyorlangan buyumlarning asosiy xaridorlari, avvalo, san’atni qadrlovchi iste’molchilar ekanini alohida ta’kidlaydi[450] Natijada ko‘plab ustaxonalar bozor talabiga moslashib, tez sotiladigan, yengil, ixcham hamda tashishga qulay suvenir mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishga majbur bo‘lmoqda. Bu jarayon hunarmand uchun iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash vositasi bo‘lishi bilan birga, an’anaviy maktabning murakkab shakl va bezak repertuari qisqarishiga ham olib kelishi tabiiy.

Mazkur o‘zgarishlarni kulolchilik eng keng rivojlangan hududlardan biri bo‘lgan Rishton tumani misolida kuzatish mumkin. Dala tadqiqotlari natijalariga ko‘ra, bugungi kunda hududda taxminan 80 mingga yaqin aholi kulolchilik buyumlarini ishlab chiqarish yoki ularni sotish bilan bevosita yoki bilvosita shug‘ullanadi. Biroq, ushbu katta miqyosdagi ishlab chiqarish fonida an’anaviy texnologiya asosida faoliyat yuritayotgan ustaxonalar soni juda cheklangan bo‘lib, ular qariyb 20 taga yaqin ekani qayd etiladi. Mazkur ustaxonalarda ishlovchi ustalar va yordamchi ishchilar soni esa 200 nafarga ham yetmaydi[451].

Bu ko‘rsatkichlar kulolchilik keng ommalashayotganini ko‘rsatishi bilan birga, an’anaviy usulda ishlab chiqarish ulushi nisbatan qisqarib borayotganini ham anglatadi. Kuzatish mumkinki, bozorning kengayishi bilan birga hunarning an’anaviy texnologik va badiiy bosqichlarini saqlab qolish masalasi ham dolzarb muammoga aylanmoqda.

Shu bois ko‘plab ustaxonalar bozor talabiga moslashib, tez sotiladigan, yengil, ixcham va tashishga qulay suvenir mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirmoqda. Bu holat qisqa muddatda ustaxonaga iqtisodiy foyda keltiradi[452]. Shu bilan birga, uzoq istiqbolda an’anaviy kulolchilik maktablariga xos murakkab naqsh tizimi, shakl me’yorlari va texnologik jarayonlarning soddalashuviga ham olib keladi.

Bunday ta’sir, ayniqsa, mahalliy kulolchilik maktablarining ishlab chiqarish ko‘lami va texnologik jarayonlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

[450] Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati, Rishton shahri. Mamadali Topvoldiyev MFY. 2024 yil.
[451] Dala yozuvlariFarg‘ona viloyati Rishton tumani. Mamadali topvoldiyev ko‘chasi. 2026 yil.
[452] Буваев В. Ғурумсарой кулолчилик мактаби // Oriental Art and Culture: Scientific Methodical Journal. – 2022. – Vol. 3, Issue 4. – P. 707–709.; Жаббаров Б.Ғ. Ғурумсарой кулолчилик марказига хос бўлган технологик жараён // “Ғурумсарой бадиий кулолчилик мактаби қадимий анъаналарини қайта тиклаш…” мавзусидаги халқаро анжуман материаллари. – Наманган, 2025. – Б. 29.

Masalan, G‘urumsaroy kulolchilik maktabi tarixan katta hajmli buyumlar xususan, barakash, xum, ko‘za, damtovoq kabi idishlar, yo‘g‘on va aniq ifodali naqshlar, to‘q ranglar hamda uzoq muddatli pishirish texnologiyasi bilan ajralib turgan markazlardan biri hisoblanadi[453]. Bozor talabining ixcham va tez sotiladigan suvenir mahsulotlariga o‘zgarishi natijasida ustalar asta-sekin yirik hajmli buyumlar ishlab chiqarishdan chekinishga majbur bo‘lmoqdalar.

Bu jarayon esa maktabning an’anaviy repertuarini toraytirish xavfini yuzaga keltirmoqda. Muammo faqat mahsulot o‘lchamining kichrayishida ham emas, balki maktabning badiiy tafakkur uslubi ham qisqarishi yuz bermoqda. Chunki, katta hajmli lagan yoki idish markazida aks ettiriladigan murakkab kompozitsiyalar, keng hoshiyalarda beriladigan uyg‘un bezaklar, ranglar hamohangligi va sirlash texnologiyasining qalin yoki yupqaligi kabi badiiy yechimlar buyum hajmi hamda texnologik jarayon bilan uzviy bog‘liq xolda rivojlanib kelgan. Shu sababli ishlab chiqarish ko‘lamining o‘zgarishi estetik ifoda imkoniyatlariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi.

Globallashuv jarayonining yana bir muhim jihati shundaki, u an’anaviy kulolchilikka faqat salbiy ta’sir qiluvchi omil bo‘lib qolmay yangi imkoniyatlar manbai sifatida ham baholanishi tabiiy. So‘nggi yillarda ko‘plab ustalar xalqaro ko‘rgazmalar, hunarmandchilik festivallari, grant dasturlari, ijodiy yig‘inlar hamda onlayn savdo platformalari orqali o‘z mahsulotlarini mahalliy bozor doirasidan tashqariga olib chiqish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar va elektron savdo tizimlarining kengayishi hunarmand uchun yangi savdo maydonini yaratib, mahsulotni to‘g‘ridan-to‘g‘ri xaridorga yetkazish imkonini kengaytirdi.

Internet muhiti ustaga vositachilarsiz savdo qilish imkoniyatini ham taqdim qilmoqda. Usta mahsulot tayyorlash jarayonini videolar va suratlar orqali namoyish etadi, o‘z maktabining tarixi va uslubiy xususiyatlarini tushuntirib beradi, buyurtmalarni masofadan turib qabul qiladi va zarur hollarda individual dizayn asosida mahsulot ham tayyorlaydi. Bunday aloqa shakli xaridor bilan bevosita aloqani kuchaytirib, buyumning faqat moddiy qiymatini emas, balki uning

[453] Буваев В. Ғурумсарой кулолчилик мактаби… – Р. 707–709.

ortidagi mehnat, tajriba va madaniy bilimlarini ham sotish imkonini beradi.

Bir so‘z bilan aytganda kulolchilik an’anasi asta-sekin mahalliy xo‘jalik doirasidagi hunardan chiqib, xalqaro miqyosda taniladigan madaniy brendga aylanish jarayonini boshdan kechirmoqda. Bunday sharoitda buyum nafaqat iste’mol maxsuloti, balki muayyan hudud, maktab va ustaning madaniy qiyofasini ifodalovchi timsol sifatida qabul qilinmoqda[454]. Shu tariqa globallashuv, an’anaviy ishlab chiqarish tizimiga yangi talablar qo‘yishi bilan birga kulolchilik maktablari uchun iqtisodiy barqarorlik va xalqaro tan olinishi imkonini ham yaratmoqda.

Globallashuv jarayoni yaratayotgan bunday imkoniyatlar yangi muammolarni ham yuzaga keltiradi. Hridorlar odatda, sodda dizayni, mazmuni tez anglash imkonini beruvchi va jozibador ko‘rinishli buyumlarni afzal ko‘radi. An’anaviy kulolchilik maktablarida qo‘llaniladigan naqshlar esa ko‘pincha mahalliy estetik tafakkur, ramziy tasavvurlar va uzoq tarixiy tajriba asosida shakllangan. Buyumlarda qo‘llanilgan bezaklarning ichki ma’nosi kuzatuvchiga har doim ham darhol sezilavermaydi. Buning natijasida esa ustalar o‘z faoliyatida bir qancha talablar doirasida muvozanat saqlashga majbur bo‘ladi.

Xususa, kulollar o‘z maktabining naqsh tili, rang tanlovi va shakllar bilan bog‘liq qadriyatlarni saqlashi zarur xisoblanadi. Aynan ushbu xususiyatlar buyumning an’anaviy maktabga xosligini va asosiysi madaniy qiymatini belgilaydi. Shu bilan birga zamonaviy davr iste’molchisi talabini inobatga olib, mahsulotni yanada tushunarli mazmunga ega, jozibador va bozor uchun mos ko‘rinishga keltirishga to‘g‘ri keladi[455]. Bu jarayonda naqshlar soddalashtirilishi, ranglar muvozanati o‘zgartirilishi yoki shakllarning zamon talabiga moslashtirilishi zaruratini tug‘diradi.

Qolaversa, mazkur jarayon ustahonalar orasida iqtisodiy tengsizlik masalasini ham kuchaytiradi. Globallashuv sharoitida internet va xalqaro savdo platformalaridan foydalanish imkoniga ega ustalar mahsulotlarini

[454] Bandarin F., Van Oers R. Heritage and the Sustainable Development Goals. https://www.aup-online.com/content/papers/10.5117/9789048557820/ICAS.2022.055. (murojaat sanasi: 16.02.2026).
[455] Bandarin F., Van Oers R. Heritage and the Sustainable Development Goals… https://ich.unesco.org/doc/src/00349-EN.pdf (murojaat sanasi: 16.02.2026).

chet el bozorlariga olib chiqib, daromadlarini oshirish imkoniyatiga ega boʻladilar.

Lekin barcha ustalar bunday imkoniyatdan foydalana olmaydi. Raqamli savodxonlikning yetishmasligi, internet infratuzilmasida doimiy ishlash imkoniyatining cheklanganligi yoki logistikaning xarajatlarining yuqoriligi va maxsulotning sinuvchi xususiyati koʻplab hunarmandlarni global savdo tizimidan chetda qoldirmoqda. Natijada an'anaviy maktablar doirasida iqtisodiy tafovut yuzaga keladi. Ba'zi ustaxonalar rivojlanib, kengayib borishi bilan bir qatorda boshqalari daromad yetishmasligi sabab faoliyatini qisqartirishi yoki hunardan butunlay voz kechishga majbur boʻlmoqda. Bu esa an'anaviy maktablarning ramziy qiymati va identitetiga putur yetkazadi.

Antropologik nuqtai nazardan qaralganda, mazkur jarayon ustaning kasbiy identitetiga ham sezilarli ta'sir koʻrsatadi. Zamonaviy sharoitda kulol endi faqat buyum tayyorlovchi hunarmand sifatida emas, oʻz maktabining madaniy vakili, an'ana davomchisi hamda ushbu an'anani keng auditoriyaga yetkazib, buyumlarning mazmunini tushuntira oladigan ijodkor sifatida koʻrinish oladi.

Ushbu oʻrinda qayd etish lozimki, globallashuv jarayonining an'anaviy kulolchilik maktablariga ta'siri faqat iqtisodiy yoki texnologik oʻzgarishlar bilan cheklanib qolmayabdi. Bu jarayonni madaniy va ijtimoiy qatlamlarga ta'sir etayotganligi bilan izohlash mumkin. Xususan, soʻnggi yillarda kuzatilishicha, an'anaviy naqsh va shakllarning madaniy kontekstidan uzilib, global dizayn bozorida erkin muomalaga kirib ketmoqda.

Mahalliy kichik korhonalar yoki mustaqil dizaynerlar tomonidan an'anaviy kulolchilik maktablariga xos bezak elementlarini jumladan, rang yechimlari yoki shakllari nusxalanib, sanoat usulida ommaviy ishlab chiqarish yoʻlga qoʻyilayotganligi shular jumlasidandir.

Bunday vaziyatda arzon nusxadagi mahsulotlar xalqaro bozorga tez kirib boradi va asl, qoʻl mehnati bilan yaratilgan buyumlar bilan raqobatga kirishadi. Natijada mahalliy, an'anaaaaviy ustalar iqtisodiy jihatdan zarar koʻrib, xaridor koʻpincha koʻrinish jihatdan oʻxshash, biroq arzonroq mahsulotni tanlaydi. Qolaversa, naqsh va shakllarning asl madaniy

ma’nosi yo‘qoladi, buyum o‘z tarixiy kontekstidan chiqib, sanoat asosida tayyorlangan dekorativ elementga aylanadi.

Bu jarayonning xavfli tomoni shundaki, kulolchilik maktablari an’anaviy ravishda oilaviy va jamoaviy davomiylik asosida faoliyat yuritib kelgan ustaning faoliyatdan chiqib ketishi nafaqat individual yo‘qotish, balki butun maktabning bilim va tajriba zanjirida uzilish paydo bo‘lishiga olib keladi. Iqtisodiy tengsizlik asta-sekin kasbiy davomiylikka ham salbiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Umuman olganda globallashuv jarayonlari kulolchilik maktablari uchun bir vaqtning o‘zida yangi iqtisodiy imkoniyatlar ochishi bilan birga an’anaviy texnologiya, naqsh tili va ustoz-shogird davomiyligiga zid bo‘lgan murakkab muhitni shakllantirdi. Ushbu jarayon esa sohaning faqat ishlab chiqarish faoliyati emas, balki bozor, madaniy meros siyosati va xalqaro madaniy almashinuv ta’siridagi ijtimoiy-madaniy tizimga aylantiradi.

Aynan shu xol doirasida turizm omili ham alohida ahamiyatga ega xisoblanadi. Globallashuv natijasida shakllangan ochiq iqtisodiy va madaniy makonda sayyohlar sonini ortishi hunarmandchilikni yangi iste’mol muhiti bilan bog‘lab, ustaxonalarni nafaqat ishlab chiqarish joyi, balki madaniy tajriba va muloqot joyiga ham aylantiradi. Bu esa turizmning kulolchilik maktablari faoliyatiga ko‘rsatayotgan iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy ta’sirini alohida tahlil qilish zaruratini belgilab beradi.

O‘zbekistonda turizmning rivojlanishi hunarmandchilik markazlariga ta’sir qilib, globallashuv jarayonlari bilan birga kulolchilik maktablarini yangi iqtisodiy va madaniy bosqichga olib chiqmoqda. Kulolchilik ishlab chiqarish hududigina bo‘lib qolmay, madaniy etnoturizm marshrutlarining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Ustaxona endi faqat buyum tayyorlanadigan joy emas, balki an’anaviy ishlab chiqarish jarayonlarini ko‘rsatish, o‘rgatish, sayyohlar bilan madaniy muloqot olib borish hamda mehmonlarga bevosita tajriba taqdim etiladigan maskan vazifasini ham bajarmoqda.

Bu jarayonna tijasida ustaning roli o‘zgarib, u nafaqat buyum tayyorlaydi, balki mehmon bilan suhbatlashadi, ishlab chiqarish bosqichlarini tushuntiradi, mahorat darslari tashkil qiladi, shogirdlar faoliyatini namoyish qiladi, mahsulotni qadoqlaydi va an’anaviy

maktabning brend sifatida tanitadi[456]. Bir so‘z bilan aytganda kulol ishlab chiqaruvchi bo‘lishi bilan birga ustahonaning madaniy vakili va madaniyat tashuvchisi sifatida ham faoliyat yurita boshlaydi.

So‘nggi yillar O‘zbekistonda turizm oqimi ortgan. Xususan, davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025 yilda mamlakatga 11,7 million nafar sayyoh tashrif buyurgan[457]. Ushbu ko‘rsatkich turizm infratuzilmasi bilan birga hunarmandchilik, jumladan kulolchilik mahsulotlariga ham talab ortib borayotganini ko‘rsatadi. Sababi, sayyohlar aksariyat xollarda tashrif buyurgan mintaqa madaniatini o‘zida jamlagan buyumni esdalik sifatida olib ketishni xohlaydi. Shunday sharoitda ko‘za, lagan yoki piyola oddiy idish emas, balki safarning moddiy xotirasi va madaniy belgisiga aylanadi[458].

Mamlakatimizda turizmning iqtisodiy ahamiyati xizmatlar eksporti tarkibidagi ko‘rsatkichlar orqali ham tasdiqlanadi. Xususan, A. Baxromov tomonidan olib borilgan statistik tahlillardan turizm xizmatlari eksporti umumiy xizmatlar eksportida yetakchi segmentlardan biriga aylanganini kuzatish mumkin[459]. Bu esa hunarmandchilik mahsulotlari bozorining ham kengayganini ko‘rsatadi. Ustalar mahsulotni nafaqat mahalliy iste’molchiga, balki sayyohlik bozoriga moslab ishlab chiqara boshlaydi. Bu esa globallshuv jarayonida yuz bergan o‘zgarishlar bilan oxshash xolatda dizayn tanlovi, qadoqlash, narxlash, savdo shakllari va ustaxonadagi mehnat taqsimotining ham o‘zgarishiga olib keladi.

Shuni ham qayd etish lozimki, turizmning ta’siri iqtisodiy foydani oshirish bilan bir qatorda har doim ham ijobiy natija bermaydi. Sayyoh aksariyat xolda tez tanlab olish mumkin bo‘lgan, ixcham, yengil, arzonroq va tashish uchun qulay buyumni afzal biladi. Bunday talab esa ustaxonalarning ishlab chiqarish jarayonini tezlashtirishiga ham olib keladi[460]. Natijada ayrim texnologik bosqichlar qisqaradi, naqshlar soddalashtiriladi, ranglarning tanlovi sayyohlar didiga mos tarzda

[456] Bandarin F., Van Oers R. Heritage and the Sustainable Development Goals… https://ich.unesco.org/doc/src/00349-EN.pdf (murojaat sanasi: 16.02.2026).
[457] O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/66309-2025-jilda-(murojaat sanasi: 16.02.2026).
[458] Bandarin F., Van Oers R. Heritage and the Sustainable Development Goals... https://ich.unesco.org/doc/src/00349-EN.pdf (murojaat sanasi: 16.02.2026).
[459] Baxromov A. O‘zbekistonda turizm xizmatlari eksportining hozirgi holati va uni rivojlantirish imkoniyatlari: statistik tahlil asosida yondashuv // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2025. – V son (may). – B. 56–63.
[460] Dala yozuvlari. Toshken shahri, Chorsu bozori, 2026 yil.

yorqinlashib repertuarida kamayish boʻladi, shuningdek, sifat nazorati ham susayadi.

Antropologik nuqtai nazardan bunday jarayon suvenirlashtirish deb talqin qilinadi. Ushbu jarayonda buyumning mahalliy hayotdagi amaliy vazifasi qisqaradi va u mazmunini yoʻqotgan ramziy buyumga aylanadi. Ya'ni, ilgari kundalik foydalanishda boʻlgan buyumlar endi koʻproq koʻrgazmali yoki esdalik yoki sovgʻa vazifasini bajaradi[461]. Bunday sharoitda esa kulolchilik maktabining texnologik va estetik murakkabligi sekin-asta bozor talabiga mos soddalashtirilgan shaklga oʻtishini ta'minlaydi.

Masalan, Samarqand hududida an'anaviy kulolchilik maktabining ayrim yoʻnalishlari bozor va turizm talabi sabab qisqarib borayotgani, zamonaviy ustaxonalar koʻproq kundalik yoki tez sotiladigan mahsulotlar tayyorlashga yoʻnaltirilgani haqidagi fikrlar ilmiy adabiyotlarda uchraydi[462]. Bu holat ustalar yoʻqolib borayotgani bilan emas, balki bozor qaysi shakl va mazmundagi mahsulotni talab qilayitganiga bogʻliq xolda oʻzgaradi.

Turizmning mavsumiyligi ham an'anaviy ishlab chiqarish jarayoni bilan birga va ustaxonalar iqtisodiy faoliyatiga bevosita ta'sir koʻrsatadi. Sababi, ustaxona faoliyati bilan bogʻliq asosiy xarajatlar yil davomida saqlanib qoladi. Xomashyo xaridi, yoqilgʻi sarfi, ishchi kuchi toʻlovi, ustaxona ta'miri, transport va savdo bilan bogʻliq xarajatlar davomiy xisoblanadi. Sayyohlar oqimi esa, odatda, ma'lum mavsumlarga toʻgʻri keladi va yilning boshqa fasllarida kamayadi.

Shu sababli ustalar daromadning uzluksizligini ta'minlash maqsadida qoʻshimcha savdo va faoliyat rejalarini izlashga majbur boʻladilar. Jumladan, onlayn savdoni yoʻlga qoʻyish, koʻrgazma va yarmarkalarda qatnashish, buyurtma asosida mahsulot tayyorlash, jamoaviy sovgʻalar ishlab chiqarish, mahorat darslari tashkil qilish, shuningdek, uy-muzey yoki koʻrgazma honasi shaklidagi doimiy tashrif maskanlarini kengaytirish kabi yoʻnalishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Aks holda hunarmandchilik faoliyati faqat mavsumiy daromad manbaiga aylanib qolishi, bu esa ustaxonaning barqaror ishlashiga,

[461] Bandarin F., Van Oers R. Heritage and the Sustainable Development Goals… – P. 707–709.
[462] Hakimov A. O'zbekiston san'at tarixi. Qadimgi davr, o'rta asrlar, hozirgi zamon. – Toshkent: Zilol buloq, 2022.

ayniqsa shogird tayyorlash va kasbiy uzluksizlikni saqlash jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi tabiy, albatta.

Sayyohlar oqimining ortgan davrda esa yana bir muhim muammo vujudga keladi. Ushbu jarayonni mahsulot autentikligini saqlash masalasining paydo bo‘lishi bilan ifodalsh mumkin. Xususan, sayyohlik bozorida soxta yoki sanoat usulida tayyorlangan mahsulotlarning qo‘l mehnati asosida tayyorlangan buyum sifatida sotilishi dala tadqiqoti davrida kuzatildi[463]. Toshkent shahrida tayyorlangan buyumlarning Rishton shahrida ishlab chiqarilgan buyum, mashhur Alisher Nazirov nomi bilan bog‘lanishi shular jumlasidandir. Bu holat ustaning iqtisodiy manfaatiga zarar yetkazishi bilan birga, maktabning obro‘sini ham kamaytiradi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, bunday muammolarni hal qilishda standartlash va sertifikatlash tizimlari muhim ahamiyatga ega. Masalan, Talavera an’anasi[464] misolida UNESCO tomonidan qo‘llab-quvvatlangan tizimlar autentik mahsulotni himoya qilish vositasi sifatida qo‘llanilgan[465].

Tadqiqot davomida turizmning ta’siri kulolchilik ustahonalarini tajriba maydoniga aylantirganiga ham guvoh bo‘lindi[466]. Sayyohlar buyumni shunchaki sotib olishni emas, balki uni yaratish jarayonini ko‘rish, qisqa mahorat darslarida qatnashish va ijodiy jarayonda ishtirok etib, ko‘z oldida usta yoki sayyohning o‘zi tomonidan tayyorlangan buyumni sotib olishni ham hohlaydilar. Bu xolatda ustaxona ishlab chiqarish joyiligi bilan bir qatorda tajriba va tomosha dargohiga ham aylanadi. Bunday jarayon hunarning vizuallashuvini ta’minlaydi, qolaversa, ustahonalar daromad manbalarini kengaytiradi va yoshlarning qiziqishini kuchayishiga xizmat qiladi.

Tadqiqotlar shuni ham zamonaviy sharoitda usta endi faqat buyum tayyorlovchi hunarmand sifatida emas, balki logistika, qadoqlash,

[463] Dala yozuvlari. Toshken shahri, Chorsu bozori, 2026 yil.

[464] Mazkur tushuncha Meksikaning Puebla hududida shakllangan an’anaviy sirlangan kulolchilik maktabining ishlab chiqarish texnologiyasi va bezak uslublari maxsus sertifikatlash tizimi orqali himoya qilinganligini ifodalaydi. UNESCO tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan autentik hunarmandchilik mahsulotlarini saqlash tizimiga misol sifatida ko‘rsatib o‘tish uchun talavera an’anasi termini qo‘llanilgan.

[465] UNESCO. Artisanal Talavera of Puebla and Tlaxcala (Mexico) and ceramics of Talavera de la Reina and El Puente del Arzobispo (Spain): Making process [Elektron resurs]. – Rejim kirish: https://ich.unesco.org (murojaat sanasi: 16.02.2026).

[466] Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Rishton shahri. Mamadali Topvoldiyev MFY. 2024, 2025 yillar.

marketing, sertifikatlash, eksport talablari va mijoz bilan muloqot qilish kabi koʻplab qoʻshimcha vazifalarni ham bajarishga majbur boʻlmoqda.

Bu jarayonda vositachilar, reklama xizmati savdo platformalari va turistik savdo tarmoqlarining ulushi ortib, mahsulot yakuniy narxining sezilarli qismi ustaxonadan tashqarida qolmoqda. Natijada usta koʻproq buyurtmani tez va arzon bajaruvchi ijrochi roliga tushib qolishi, bu esa hunarning badiiy va texnologik sifatiga emas, balki ishlab chiqarish tezligiga ustuvorlik berilishiga olib kelmoqda.

Hunarmandchilik tarmoqlari boʻyicha olib borgan tadqiqotlar[467] shuni koʻrsatadiki, agar qiymat zanjiri[468] ichida daromad adolatli taqsimlanmasa, hududiy hunarmandchilik markazlari iqtisodiy jihatdan zaiflashadi, natijada ustaxonalar yopiladi yoki nisbatan arzon, tez ishlab chiqariladigan mahsulotga oʻtishga majbur boʻladi. Shu sababli kulolchilik markazlarining uzoq muddatli barqarorligi faqat savdo hajmining oshishiga emas, balki qiymatning muhim qismi ustalar qoʻlida qolishiga ham bogʻliq boʻladi.

Bunday sharoit ustoz-shogird an’analariga ham ta’sir koʻrsatadi. Hunarni oʻrganish uzoq vaqt talab qiladi, daromad esa mavsumiy yoki beqaror boʻladi va yoshlarning barqaror ish haqi beradigan boshqa sohalarga oʻtishga moyilligi sababli sulolaviy ustaxonalar davomiyligi xavf ostida qoladi[469]. Shu bilan birga mehnat boʻlinishida ham oʻzgarish yuz beradi. Ayollar marketing, bezak, savdo va kommunikatsiya jarayonlarida faolroq ishtirok etadi, ayrim hududlarda mustaqil usta sifatida koʻrinish beradi.

Shunday qilib, turizm kulolchilik uchun bir vaqtning oʻzida imkoniyat va sinov vazifasini bajaradi. U hunarga yangi bozorlarni eshigini ochadi, iqtisodiy faoliyatni jonlantiradi va madaniy vizuallashuvni oshiradi. Biroq nazoratga olinmagan xolda rivojlangan turizm hunarning estetik, texnologik va madaniy xosligini pasaytiradi.

---

[467] Creative Industries: Supporting Handicrafts and Design Value Chains. Vienna: United Nations Industrial Development Organization (UNIDO), 2023. – 72 p.

[468] Qiymat zanjiri tushunchasi mahsulot yoki xizmatning yaratilish jarayonida ishtirok etuvchi barcha bosqichlarning oʻzaro bogʻliq xoldaligini ifodalaydi. Bu yondashuvga koʻra, mahsulot qiymati faqat yakuniy ishlab chiqarish jarayonida emas, balki xom ashyo tayyorlash, ishlab chiqarish, dizayn va bezash, marketing, savdo hamda iste’mol jarayonlarini xisob qilish natijasida shakllanadi.

[469] UNESCO. Safeguarding Intangible Cultural Heritage and Sustainable Development [Elektron resurs]. – Paris: UNESCO, 2015. – Rejim kirish: https://ich.unesco.org/doc/src/00349-EN.pdf (murojaat sanasi: 16.02.2026).

Umuman olganda, hunarmandchilikni barqaror rivojlantirish uchun turizm, bozor munosabatlari va madaniy merosni muhofaza qilish siyosati oʻrtasida muvozanat saqlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Muvozanatning saqlanishi esa kulolchilik maktablarini zamonaviy iqtisodiy sharoitda ham tirik madaniy an'ana sifatida saqlab qolishga xizmat qiladi.

Kulolchilik an'anasi oʻz mohiyatiga koʻra tuproq, suv, oʻsimlik va minerallar, shuningdek olov kabi tabiiy resurslar bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan hunar hisoblanadi. Shu sababli ekologik omillar kulolchilikning eng muhim moddiy asosini tashkil qiladi va mazkur poydevorning zaiflashuvi hunarning uzoq muddatli an'analarning davomiyligiga xavf soladi.

An'anaviy kulolchilik maktablari ustahonalarida tayyorlanadigan har bir buyum loyning sifati, sirning tabiiyligi, pishirish rejimi hamda mavjud yoqilgʻi imkoniyatlariga bevosita bogʻliq boʻlib, ushbu omillarning oʻzgarishi nafaqat iqtisodiy, balki estetik qiymatiga ham oʻz ta'sirini koʻrsatmay qolmaydi. Shu bois kulolchilikni ekologik omil bilan uzviy bogʻlangan amaliy jarayon sifatida kuzatish dolzarb ahamiyatga ega.

Kulolchilik maktablarining tarixiy shakllanishiga nazar tashlansa, har bir hududning badiiy qiyofasi uning tabiiy resurslari bilan belgilanganiga guvoh boʻlamiz. Rishton markazida ishqorli sirning yorqinligi, Gʻurumsaroy buyumlaridagi oq-moviy rang oqimlari, Samarqand atrofidagi yashil-sariq kolorit, Toshkent an'analarida qoʻllangan qoʻrgʻoshinli sir yoki chizma bezaklar qoʻllanilishi hududiy resurslar, ustalar tajribasi va an'anaviy did uygʻunligidan shakllangan[470]. Shu ma'noda har bir maktabning oʻziga xos hududiy identikligi mavjud boʻlib, u faqat naqsh yoki shaklda emas, balki ishlatilgan materialning kimyoviy va fizik xususiyatlarida ham koʻrinish beradi.

Mazkur muammoni izohlashda etnologik yondashuv muhim metodologik asos boʻlib xizmat qiladi. Xususan, S. P. Tolstov xoʻjalik-madaniy tiplar bilan tabiiy muhit oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlikni ta'kidlab, ayrim madaniy oʻxshashliklar migratsiya yoki madaniy aloqalar orqali tarqalishi, biroq tabiiy resurslarning takrorlanmasligi sababli har bir

[470] Буваев В. Ғурумсарой кулолчилик мактаби… – Р. 707–709.; Жаббаров Б.Ғ. Ғурумсарой кулолчилик марказига хос бўлган технологик жараён… – Б. 29.; Hakimov A. O'zbekiston san'at tarixi. Qadimgi davr, o'rta asrlar, hozirgi zamon… -18-23 betlar.; Hakimov A. O'zbekiston hunarmandchiligi… – 13-28- betlar

hududda oʻziga xos madaniy shakllar yuzaga kelishini qayd etadi[471]. Ushbu mulohaza kulolchilik an’anasiga ham mos kelib, naqsh yoki uning uygʻunligi boshqa hududda qoʻllanilishi mumkin, lekin, loyning elastikligi va tarkibi, shuningdek sir tayyorlash uchun zarur boʻlgan mineral hamda oʻsimlik (kulol tilida giyoh) resurslarini boshqa joyda takrorlash imkoni yoʻq.

Masalan, Gʻurumsaroy hududida sir tayyorlash jarayonida guvak va qirqboʻgʻin oʻsimliklari alangalatmay, tutatib yoqilishidan xosil boʻladigan kul qitishmasi bilan oqtoshning maydalangan aralashmalarini yuqori haroratda eritish texnologiyasidan foydalanilganligi qayd etiladi. Mahalliy ustalar orasida baliq koʻzi nomi bilan mashhur boʻlgan ushbu usul natijasida hosil boʻladigan sirning oʻziga xos jilosi va rang yorqinligi bevosita hududning ekologik sharoiti bilan bogʻliq xisoblangan[472]. Ushbu tabiiy resurslarning kamayishi yoki yoʻqolishi sir ranglarining tabiiy tusiga ham ta’sir koʻrsatadi, natijada kulolchilik maktabining tarixan shakllangan badiiy qiyofasi oʻziga xos muhim belgilaridan birini yoʻq boʻlib ketishiga olib keladi.

XX asrda Xorazm kulolchilik markazi ustaxonalarida, xususan Kattabogʻ kulolchilik maktablari faoliyatida sir tayyorlash jarayonida tabiiy xomashyo sifatida ham qirqboʻgʻin oʻsimligidan keng foydalanilgan. Mazkur oʻsimlik asosan qabristonlar, tashlandiq hamda nisbatan zahkash yerlarda oʻsgani sababli, sir tayyorlash texnologiyasi ham hududning tabiiy-ekologik sharoiti bilan chambarchas bogʻliq holda shakllangan[473]. Ushbu hududning sirlash jarayonida foydalanilgan oʻsimlik nomi Gʻurumsaroydagi kabi qirqboʻgʻin nomi bilan atalsada undan tayyorlangan ishqoriy sir shishaga oʻxshash oʻziga xos jilovni bergan va boshqa mintaqalardan farqlangan[474].

Biroq iqlim oʻzgarishi, yerlarning keng miqyosda oʻzlashtirilishi va obodonlashtirish ishlari natijasida ushbu oʻsimlikning tabiiy tarqalish hududi qisqarib, u faqat ayrim joylardagina saqlanib qolmoqda. Bu esa kulollarning an’anaviy sir tayyorlash uchun zarur boʻlgan tabiiy xomashyo

[471] Толстов С.П. Очерки первоначального ислама // Советская этнография. – 1932. – № 2. – С. 24–82.
[472] Jabbarov B.G’. G’urumsaroy kulolchilik markaziga xos bo’lgan texnologik jarayon… – B. 29.
[473] Dala yozuvlari. Horazm viloyati, Yangiariq tumani. Kattabog‘ MFY. 2025 yil.
[474] Dala yozuvlari. Horazm viloyati, Yangiariq tumani. Kattabog‘ MFY. 2025 yil.

tanqisligiga duch keltirib, ular sirlash jarayonida boshqa texnologiyalardan foydalanishga majbur bo‘lganlar.

Hozirgi kunda Xorazm an’anaviy kulolchilik ustaxonalari shishalarni mahalliy sharoitda maydalash va uni yuqori haroratda eritish orqali sir tayyorlamoqdalar. Bu usul ishlab chiqarish jarayonini soddalashtirgan va barqaror natija berayotgan bo‘lsa-da, an’anaviy tabiiy sirlarning rangining o‘ziga xos jilosida o‘zgarish yuz bergan. Ushbu jihatdan qaralganda, ekologik muhitdagi o‘zgarishlar nafaqat ishlab chiqarish texnologiyasiga, balki kulolchilik maktabining tarixan shakllangan estetik qiyofasiga ham ta’sir ko‘rsatmoqda.

Bugungi kunda an’anaviy kulolchilik maktablarida kuzatilayotgan ekologik muammolardan yana biri bu tuproq zahirasi va uning asosini tashkil qilgan yer resurslarining holati alohida ahamiyatga ega. Qurilish, sanoat va infratuzilmaning kengayishi, shuningdek, ruxsatsiz qazib olish hamda yerlarning sho‘rlanishi natijasida bazi hududlarda sifatli tuproq zahiralari zarar ko‘rmoqda. Tuproq sifatining pasayishi esa buyumlarni humdonda pishirishda yorilish yoki chiziq tushish yuzaga kelishi yoki mahsulot mustahkamligining susayishi kabi muammolarni keltirib chiqaradi.

Bunday sharoitda ustalar loyga qo‘shimcha ishlov berish, boshqa hududlardan keltirilgan xomashyo bilan aralashtirish yoki qo‘shimcha texnologik ishlov berish orqali vaziyatni yaxshilashga harakat qiladilar. Biroq bu choralar har doim ham an’anaviy sifat va mahsulotning o‘ziga xos xususiyatlarini to‘liq saqlab qolish imkonini bermaydi. Markaziy Osiyo kulolchiligiga bag‘ishlangan umumlashtiruvchi tadqiqotlarda ham xomashyo, geografik sharoit va ishlab chiqarish texnologiyasi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik alohida ta’kidlanadi[475]. Shu sababli loy resurslarini muhofaza qilish kulolchilik an’anasini saqlab qolishning eng muhim shartlaridan biri sifatida qaraladi.

Dala tadqiqotlari materiallari ham kulolchilik texnologiyasidagi hududiy farqlar tabiiy resurslar bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Yer sharining deyarli barcha mintaqalarida kulolchilik mahalliy tabiiy va iqlimiy sharoit ta’sirida turlicha ishlab chiqarish texnologiyasi hamda

[475] Дервиз Г., Жадова Л. А., Жданко И. А., Митлянский Д. Ю. Современная керамика народных мастеров Средней Азии... – 235 с. ил.

badiiy uslublarni qaror toptirgan. Bu jarayon O‘zbekiston hududida ham kuzatiladi. Uzoq tarixga ega bo‘lgan Rishton kulolchilik markazi buning yorqin misoli hisoblanadi. Bu hududda asosiy xomashyo bo‘lgan gil tuproq, odatda, yer sathidan bir yarim-ikki metr chuqurlikdan qazib olinadi va unga faqatgina suv qo‘shish orqali loy holatiga keltiriladi[476]. Mazkur hududda mavjud soz tuproqning shirasi buyumni dastlab yumshoq va elastikligini pishirilgandan so‘ng esa buyumning mustahkam chiqishini ta’minlaydi. Shuningdek, tuproqning bu xususiyatlari o‘ziga xos texnologik jarayonlarning shakllanishini ham keltirib chiqaradi. Loyni uzoq vaqt urib, tarkibidagi havo pufakchalarini siqib chiqarish jarayoni aynan shu texnologik xususiyatning muhim bosqichi hisoblanadi.

Bu xolat Xorazm viloyatining Kattabog‘ kulolchilik markazida kuzatilsa farqlar yanada tushunarli ko‘rinadi. Bu yerda tuproq ko‘pincha yer ostining mayin qatlamlaridan olinadi va mahalliy ustalar ta’kidlashicha, u boshqa mintaqlardagi tuproqlardan nisbatan kuchli bo‘lgani sababli kuchsizlantirish maqsadida unga oz miqdorda qum qo‘shiladi. Qolaversa, tuproqning dag‘alligini kamaytirish maqsadida loyga qamish o‘simligining mayda tolalari (mahalliy atama bilan pufi) aralashtiriladi[477]. Bu hududda loy tarkibidagi havo to‘liq chiqarib yuborilmaydi. Buning sababi shishali sirning xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, pishirish jarayonida hosil bo‘ladigan mayda bo‘shliqlar sirning yuzaga mustahkam yopishishiga yordam beradi. Natijada buyum yuzasida o‘ziga xos jilo hosil bo‘ladi.

Xorazmning Xonqa tumani kulollari esa bugungi kunda xomashyo tanlash bilan bog‘liq yanada murakkab sharoitga duch kelmoqdalar. Bu hududda sho‘rlanish va eroziya sababli sifatli soz tuproq topish qiyinlashmoqda. Ustalar soz tuproqni zah suvlarni yig‘ish uchun qazilgan joylardan qidirishga to‘g‘ri kelmoqda[478]. Tanlangan tuproq esa maxsus qo‘shimcha komponentlar bilan mustahkamlanadi. Bunday texnologik ishlovning asosiy maqsadi buyumning olovga bardoshini oshirishdan iborat.

Hududlar o‘rtasidagi farq pishirish texnologiyasida ham aniq ko‘rinadi. Rishton kulollari buyumlarni, odatda, ikki marotaba pishirib,

[476] Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Rishton shahri. Mamadali Topvoldiyev ko‘chasi. 2025 yil.
[477] Dala yozuvlari. Horazm viloyati Yangiariq tumani, Kattabog‘ MFY. 2025 yil.
[478] Dala yozuvlari. Xorazm viloyati Xonqa tumani Hunarmandlar ko‘chasi. 2025 yil.

oʻrtacha 900-950 daraja haroratdan foydalanadilar. Kattabogʻ ustalari esa mahsulotni koʻpincha bir martalik, ammo yuqori — 1000-1050 darajagacha yetadigan haroratda pishiradilar. Xonqa hududida esa tuproqning nisbatan kuchsizligi sababli pishirish harorati 800-850 daraja atrofida saqlanadi[479]. Har bir hududda mavjud tuproqning tarkibiy qismlari va xususiyatlari nafaqat buyum shakli va bezagiga, balki texnologik jarayonning barcha bosqichlariga bevosita taʼsir koʻrsatadi.

Shu jihatdan qaralganda, Oʻzbekiston hududidagi lokal kulolchilik markazlari tabiiy resurslar sababli oʻziga xos texnologik koʻnikmalarni shakllantirganini kuzatish mumkin. Rishton hududida uchraydigan ayrim tuproq turlari boshqa joylarda takrorlanmasligi esa geografik va ekologik omillarning hunar taraqqiyotidagi hal qiluvchi ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Dala tadqiqotlarida kuzatilgan yana bir ekologik muammo bu Rishton hududida ham shoʻrlanishning ortishi natijasida soz tuproq zahiralarini kamayishi masalasidir. Tuproq eroziyasining yuz berishi va uning kengayib borishi esa tuproq shoʻrlanishini oldini olishda mavjud boʻlgan anʼanaviy jarayonlarning qisqarishi natijasida yuz bergan. Xuddi shunday anʼanaviy jarayonlardan biri bu mahalliy hudud ekin yerlarining atrofida tutzorlarning tashkil qilinganidir. Hozirgi kunga kelib, mahalliy axoli tomonidan oʻzining yoqilgʻi bilan bogʻliq ehtiyojlarini qondirish maqsadida tutzorlarning kesilishi yerning ichki qatlamida tuz miqdorining ortib borishi, loy sifati pasayishiga olib kelmoqda[480]. Bu esa buyumlarning pishirish jarayonida yorilishi, sirning barqaror chiqmasligi va umumiy sifatning susayishiga olib kelada.

Shunday qilib, dala tadqiqotlari kulolchilikning tabiiy muhit bilan bogʻlangan texnologik tizim ekanini ham koʻrsatadi. Tabiiy resurslarning kamayishi buyumning tashqi koʻrinishi, ranglar tizimi va texnologik ishlab chiqarish jarayoniga toʻgʻridan-toʻgʻri taʼsir koʻrsatadi. Ekologik muvozanatni saqlash masalasi esa kulolchilik maktablarining davomiyligini taʼminlashda hal qiluvchi omil xisoblanadi.

Yana bir muhim masala sir tayyorlashda qoʻllaniladigan xomashyo resurslari bilan bogʻliq boʻlib, ekologik oʻzgarishlarning kuchayishi

[479] Dala yozuvlari. Fargʻona, Xorazm viloyatlari, Rishton shahri, Yangiariq va Xonqa tumanlari, 2025 yil.
[480] Dala yozuvlari. Fargʻona viloyati Rishton shahri. Mamadali topvoldiyev MFY. 2024 yil.

ta’sirida ayrim tabiiy resurslarning kamayishi kuzatilmoqda. Shu sababli ko‘plab ustalar ishlab chiqarishda sintetik sir turlaridan foydalanishga majbur bo‘lmoqdalar.

Sintetik sirlar texnologik jihatdan qulaylik yaratib, ishlab chiqarish jarayonini yengillashtirishi tabiiy. Biroq ular an’anaviy rang va bezaklar jilosining tabiiy ko‘rinishiday taqdim qilaolmaydi. Hamda maktablarga xos rang koloritining o‘ziga xos xususiyatlarini to‘liq taqdim qila olmaydi. Buyumning tashqi shakli an’anaviy ko‘rinishini saqlab qolgandek ko‘rinsada, uning badiiy ifodasi va estetik ruhi sezilarli darajada o‘zgaradi.

Shu sababli ekologik siyosat faqat cheklov va taqiqlar bilan chegaralanmasligi lozim. Xususan, hunarmandchilik uchun zarur bo‘lgan xomashyo resurslarini muhofaza qilish, ularni qayta tiklash, ilmiy monitoringini yo‘lga qo‘yish hamda an’anaviy texnologiyalarni saqlash shular jumlasidandir.

Muammo doirasida energiya va yoqilg‘i bilan bog‘liq omillar ham muhim o‘rin tutadi. Kulolchilik jarayonida buyumni pishirish eng mas’uliyatli va tavakkalchilikka asoslangan bosqich hisoblanadi. Sababi, humdon ichidagi zaruriy haroratning biroz o‘zgarishi ustaning uzoq mehnati natijasini yo‘qqa chiqarishi mumkin. An’anaviy xumdonlar katta miqdorda yoqilg‘i talab qiladi, yoqilg‘i narxining oshishi esa mahsulot tannarxining ko‘tarilishiga ta’sir qiladi.

Zamonaviy gaz yoki elektr pechlari esa haroratni aniq nazorat qilish imkonini beradi, bu xolat pishirish jarayonidagi yo‘qotishlarni kamaytiradi va mahsulot sifatini barqaror saqlashga yordam beradi. Biroq bunday zamonaviy pechlarni joriy qilish ko‘p moliyaviy sarmoya talab etgani bois barcha ustaxonalar uchun birdek qulay yechim bo‘la olmaydi.

Ko‘plab ustalar an’anaviy xumdon tajribasi bilan zamonaviy texnologik imkoniyatlar o‘rtasida muvozanatni topishga harakat qilmoqdalar. Ba’zi tarixiy uslubni saqlagan holda pech konstruktsiyasini takomillashtirsa, boshqalari esa zamonaviy pechlardan foydalanib, ishlab chiqarish jarayonini barqarorlashtirishga xarakat qilmoqdalar.

Bu jarayonni kulolchilikning kelgusi istiqboli uchun hal qiluvchi omillardan biri sifatida qo‘llanilayotgan energiya tejamkor va nazorat qilinadigan pishirish texnologiyalari tashkil qilmoqda. Ushbu texnologiyalarning joriy qilinishi nafaqat ekologik zararlarni kamaytiradi,

balki ishlab chiqarishning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlab, ustaxonalar faoliyatining davomiyligini ta’minlashga ham ta’sir koʻrsatadi.

Xorij tajribalarida ham ekologik muammolarni nazorat qilishga doir mulohazalarni uchratish mumkin[481]. Tadqiqotlarda aosan ekologik nazorat va ilmiy monitoring qilib borishning kulolchilikni saqlashdagi oʻrni ochiqlanadi. Masalan, Oaxaca vodiysida olib borilgan tadqiqotlarda tuproq tarkibi va kelib chiqishi ilmiy tahlil qilingan. Bu yondashuv resurslardan foydalanishni nazorat qilish, sifatsiz aralashmalarni aniqlash hamda hududiy manbalarni xaritalash imkonini bergan[482]. Natijada resurslardan oqilona foydalanish va hunarning kelajak bazasini saqlab qolish uchun ilmiy asos yaratilgan. Ushbu yondashuv Oʻzbekiston sharoitida ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Loy zaxiralari monitoringi, qazib olishni tartibga solish, shoʻrlanish va eroziya xavfini kamaytirish, energiya samarador pechlarni joriy qilish kabi choralar kulolchilikning ekologik barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois ekologik barqarorlik faqat tabiatni asrash jarayoni bilan bogʻliq emas. U kulolchilikning iqtisodiy samaradorligi, estetik sifati va avloddan-avlodga oʻtkaziladigan davomiylik uchun zarur poydevor hisoblanadi. Agar tabiiy resurs bazasi kamaysa, hunarning texnologik tartibi buziladi, badiiy sifati pasayadi va yosh avlod uchun bu kasb jozibadorligini yoʻqotadi. Bir soʻz bilan aytganda, ekologik muhitni muhofaza qilish kulolchilikni zamonaviy jamiyatda yashab qolishga qodir tirik hunar sifatida saqlab qolishning asosiy sharti hisoblanadi.

Bu borada ham xalqaro tajribalar mavjud boʻlib, ularni chuqur oʻrganib faoliyatga joriy etish kulolchilik maktablarida an’anaviy jarayonlarni saqlashga az qotadi. Xususan, UNESCO tomonidan nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilinishini barqaror rivojlanish bilan bogʻlab talqin etish mumkin. Merosni saqlash faqat madaniyat masalasi emas, balki iqtisod, ijtimoiy barqarorlik va ekologiya kabi omillar bilan bogʻliq jarayon[483].

[481] Yamaguchi Y. The Rise and Transformation of Arita Porcelain Industry in Japan [Elektron resurs]. – Rejim kirish: https://api.lib.kyushu-u.ac.jp/opac_download_md/1657256/p081.pdf (murojaat sanasi: 16.02.2026).
[482] Yamaguchi Y. The Rise and Transformation of Arita Porcelain Industry in Japan [Elektron resurs]. – Rejim kirish: https://api.lib.kyushu-u.ac.jp/opac_download_md/1657256/p081.pdf (murojaat sanasi: 16.02.2026).
[483] UNESCO. Safeguarding Intangible Cultural Heritage and Sustainable Development [Elektron resurs]. – Paris: UNESCO, 2015. – Rejim kirish: https://ich.unesco.org/doc/src/00349-EN.pdf (murojaat sanasi: 16.02.2026).

Bandarin va Van Oers merosni barqaror rivojlanishi bilan bog‘lab, resurslardan mas’uliyat bilan foydalanish, mahalliy aholini rag‘batlantiradi. Merosni iqtisodiy hayotga ongli ravishda kiritish zarurligini ta’kidlaydi. Bu yondashuv kulolchilikka ham to‘liq mos keladi. Chunki, hunarmandchilik barqaror rivojlanishi uchun avvalo uning resurslari ham barqaror bo‘lishi kerak.

Ekologiya bilan bog‘liq zamonaviy jarayonlar ta’sirida kulolchilik uchun yangi imkoniyatlar ham yuzaga kelmoqda. Xususan, bugungi global iste’mol madaniyatida ekologik toza, tabiiy va qayta ishlanadigan materiallardan tayyorlangan mahsulotlarga talab ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, sopol buyumlar ishlab chiqarish jarayoni ekologik me’yorlarga mos yo‘lga qo‘yilgan xolda, plastmassa va boshqa sintetik materiallarga nisbatan barqarorroq muqobil mahsulot sifatida qadrlanishi tabiiy. Bu esa kulolchilik uchun yangi bozor segmentini ochib, mahsulotni ekologik toza maxsulot imidji asosida ilgari suradi.

Biroq bu imkoniyat o‘z-o‘zidan yuzaga kelmaydi. Agar loy qazib olish tartibsiz olib borilsa, xumdonlardan chiqayotgan tutun va chiqindilar nazoratsiz qolsa, sir tayyorlashda ishlatiladigan tabiiy resurslar kamayib ketsa, kulolchilikning ekologik toza xisoblangan ijobiy qiyofasi zaiflashadi. Natijada hunarning ekologik afzalligi marketing vositasidan ko‘ra, muammoli jarayonga aylanib qolishi mumkin.

Shu sababli ekologik boshqaruv nafaqat tabiiy resurslarni muhofaza qilish masalasi, balki kulolchilik mahsulotining zamonaviy bozordagi raqobatbardoshligi, madaniy merosning mazmunini saqlash va hunarning kelajakdagi iqtisodiy barqarorligini ta’minlovchi muhim omil sifatida qaralishi lozim[484].

Umuman olganda, Globallashuv, turizm, bozor iqtisodiyoti va ekologik omillar O‘zbekiston an’anaviy kulolchilik maktablariga o‘zaro bog‘liq xolda ta’sir qiladi. Global bozor raqobatni kuchaytiradi va buyumni suvenir shakliga o‘zgartiradi. Turizm talabni oshiradi va ustaxonani namoyish va tajriba maydoniga aylantiradi. Bozor iqtisodiyoti esa ustani marketing va vositachilik tizimiga bog‘laydi. Ekologik sharoit esa xomashyo va energiya orqali hunarning asosi bo‘lgan resurslarni

[484] Bandarin F., Van Oers R. Heritage and the Sustainable Development Goals. – Paris: UNESCO, 2015.; UNESCO. Safeguarding Intangible Cultural Heritage and Sustainable Development [Elektron resurs]. – Paris: UNESCO, 2015. – Rejim kirish: https://ich.unesco.org/doc/src/00349-EN.pdf (murojaat sanasi: 16.02.2026).

cheklanganini koʻrsatadi. Shu toʻrtta omil birgalikda kulolchilik maktablarining badiiy koʻrinishiga ham, kasbiy tuzilmasiga ham, merosning avloddan avlodga oʻtishiga ham ta’sir qiladi. Shuning uchun zamonaviy davrda kulolchilikni saqlash strategiyasi an’anani muzlatish emas, balki an’ananing asosiy belgilari xisoblangan maktab uslubi, naqsh tili, sir texnologiyasi, ustoz-shogird tartibini saqlagan holda bozor va turizm imkoniyatlaridan ongli foydalanish, ekologik resurslarni muhofaza qilish va sifatni himoya qiladigan institutlarni rivojlantirishdan iborat.

Xususan, dastavval an’anaviy kulolchilik maktablarining madaniy meros sifatidagi qiymatini saqlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Buning uchun hozirgi kunda kulolchilik maktablarida mavjud naqsh va bezak tizimlari, shakl va texnologiyalarni ilmiy iste’molga olib kirish, ularning kataloglari va elektron ma’lumot bazalarini yaratish lozim xisoblanadi. Ushbu xolat nafaqat an’anaviy uslublarning yoʻqolib ketishini oldini oladi, balki kelajak avlod ustalari uchun metodik manba vazifasini ham bajaradi.

Kulolchilik maktablarining rivojlanishida ta’lim va ustoz-shogird an’analarini qayta tiklash va zamonga moslashtirilgan tartibda rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Globallashuv sharoitida koʻplab yosh ustalar tez daromad topadigan, bozor talabiga moslashtirilgan mahsulotlar tayyorlashga koʻproq e’tibor qaratilmoqda. Bunday xolat esa davom ettiruvchi avlod tomonidan an’anaviy uslublarning mukammal oʻzlashtirmasligiga olib keladi. Shuning uchun hunarmandchilik markazlarida ustoz-shogird tizimini har tomonlama qoʻllab-quvvatlash, maxsus oʻquv dasturlari va seminarlar tashkil qilish, hunarmandchilik kollej va universitetlari bilan hamkorlikni kuchaytirish muhim xisoblanadi. Bu kabi yondashuv kulolchilikning nafaqat iqtisodiy faoliyat, balki madaniy meros sifatida saqlanishi hamda davom etishini ta’minlaydi.

Zamonaviy bozor talablariga moslashish kesimida innovatsiya va an’ana oʻrtasida muvozanatni saqlash ham dolzarb ahamiyatga ega. Kulolchilik mahsulotlari zamonaviy dizayn elementlari bilan boyitilishi mumkin, biroq bu jarayonda an’anaviy naqsh va kompozitsiya tamoyillari saqlanib qolishi ham kerak.

Kulolchilik maktablari uchun raqamli savdo va marketing imkoniyatlarini kengaytirish muhim strategik yo‘nalishlardan biriga aylanib bormoqda. Bugungi kunda onlayn platformalar orqali hunarmandchilik mahsulotlarini xalqaro bozorga olib chiqish imkoniyati kengaygan. Shu sababli kulollarni elektron savdo tizimlaridan foydalanishga o‘rgatish, mahsulotlarni professional tarzda foto va video orqali targ‘ib qilish, ijtimoiy tarmoqlar orqali marketing strategiyalarini rivojlantirish zarur. Bu nafaqat mahsulotlar savdosini kengaytiradi, balki kulolchilik maktablarining xalqaro miqyosda tanilishida ham ahamiyat kasb etadi.

Kulolchilik maktablarini qo‘llab-quvvatlashda etnoturizm va madaniy turizmni rivojlantirish alohida o‘rin egallaydi. Sayyohlik tur-marshrutlarga kulolchilik ustaxonalari, hunarmandchilik markazlari va mahorat darslarini kiritish orqali ustalar faoliyati bilan tanishtirish sayyohlik ob’ektlari doirasida rang baranglikni oshiradi va ularni boyitishga ham xizmat qiladi. Qolaversa, mahalliy iqtisodiyotga qo‘shimcha daromad keltirishi bilan birga, kulolchilik an’analarining keng auditoriyaga targ‘ib qilinishiga yordam beradi. Sayyohlar uchun kulolchilik faoliyatini amaliy tarzda ko‘rsatish, ularning ishtirokida mahorat darslari tashkil qilish ham bu yo‘nalishda samarali natijalar beradi.

Shuningdek, kulolchilik maktablarining rivojlanishi uchun davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jarayonini davomiyligini ta’minlash va yanada mustahkamlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy inshootlarni intereriga ana’naviy bezak shakllarini kiritishni targ‘ib qilish, hunarmandlarga mahalliy grandlarni joriy etish ishlari shular jumlasidandir.

Umuman olganda, globallashuv jarayonlari kulolchilik maktablari faoliyatida ma’lum muammolarni yuzaga keltirishi bilan birga yangi imkoniyatlar eshigini ham ochayotganligini xisobga olish joiz. Ushbu jarayonlarga faqat salbiy jarayon sifatida emas, balki an’ana va innovatsiyaning o‘zaro uyg‘unligi orqali yuzaga kelayotgan o‘zgarish, moslashish jarayoni sifatida qarash ham maqsadga muvofiq xisoblanadi.

§ IV.2. An’anaviylik va innovatsiya uyg‘unligi sharoitida kulollarning kasbga munosabati transformatsiyasi

Zamonaviy davrda O‘zbekistonda an’anaviy kulolchilik maktablari murakkab ijtimoiy-madaniy jarayonlar ta’sirida faoliyat yuritmoqda. Globallashuv, bozor iqtisodiyoti, turizmning kengayishi, kommunikativ texnologiyalarning rivojlanishi va innovatsiyalarga asoslangan sanoatning shakllanishi kulolchilikni nafaqat ishlab chiqarish sohasi, balki ijtimoiy institut sifatidagi ichki tuzilmalarini ham o‘zgartirmoqda. Bu jarayon, hozirgi vaqtda an’anaviy kulolchilik maktablari ustahonalarida faoliyat olib borayotgan kulollarning kasbga bo‘lgan munosabatida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Dastavval qayd etishimiz lozimki, kulollarning kasbga munosabati transformatsiyasini faqat iqtisodiy moslashuv yoki texnologik yangilanish natijasi sifatida talqin etish ham bir tomonlama yondashuvga olib keladi va ushbu jarayon muammoni to’liq tushunish imkoniyatini cheklaydi. Antropologik nuqtai nazardan kasbga munosabatlarni ijtimoiy ong, qadriyatlar tizimi, kasbiy identitet va ramziy maqomning yangi mazmun kasb etib borayotganligi bilan bog‘liq murakkab hodisa sifatida yondashish maqsadga muvofiq xisoblanadi. Chunonchi, har qanday an’anaviy hunar nafaqat moddiy mahsulot yaratish vositasi, balki ma’lum ma’naviy mazmun, tarixiy xotira va ijtimoiy rolni o‘zida jamlagan institutdir.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, an’anaviy kulolchilik maktablari uzoq vaqt davomida barqaror ijtimoiy tizim sifatida shakllangan. Ularning ichki mustahkam tuzilmasi avlodlararo davomiylik, ustoz-shogird munosabatlari bilan bog‘liq an’analar, kasb etikasi, hududiy identitet va jamoaviy nazorat kabi tizimlar bilan bog‘liq xisoblangan. Bu tizimda kulol o‘z hunarini shaxsiy manfaat emas, balki ma’naviy burch, ajdodlardan o‘tib kelayotgan meros va jamiyatdagi ijtimoiy maqom sifatida anglab kelgan.

Globallashuv, bozor munosabatlarining rivojlanishi kabi omillarni boshdan kechirayotgan zamonaviy sharoitda esa kulolchilik sohasi yangi ijtimoiy ta’sirlariga uchramoqda. Xususan, bozor munosabatlari kasbni iqtisodiy samaradorligi bilan baholaydi. Ya’ni, kasbning qadri va ahamiyati uning daromad keltirish darajasi, mahsulotning haridorbobligi, ishlab chiqarish hajmi hamda bozor talabiga moslashish qobiliyati orqali o‘lchanadi.

Turizm va eksport yoʻnalishlarida mahsulot, avvalo, xaridorga qulay va tez sotiladigan boʻlishi kerak deb qaraladi. Ya’ni buyumning shakli, hajmi, bezagi va narxi sayyohlarning didi hamda bozor talabiga moslashtiriladi.

Shu bilan birga, zamonaviy axborot maydoni ustadan oʻz nomini tanitishni, ya’ni shaxsiy brend yaratishni ham talab qiladi. Usta faqat buyum yasovchi emas, balki oʻz ishini targʻib qiluvchi shaxsga aylanadi.

Ushbu jarayonlar oʻz navbatida kasbning mazmunini oʻzgarishiga ham ta’sir qiladi va kulolchilik endi faqat an’anani davom ettirish yoki jamoaga xizmat qilish emas, balki bozorda oʻz oʻrnini topish va oʻz nomini tanitish vositasiga ham aylanadi.

Mazkur transformatsiya jarayonlarini tushunishda bir qator nazariy yondashuvlar mavjud boʻlib, ijtimoiy makonning oʻzgarishi, kapital shakllari va habitus[485]ning qayta shakllanishiga doir qarashlar shular jumlasidandir[486]. Ushbu yondashuvlar asosida kulolchilik ham alohida ijtimoiy institut sifatida oʻz ichki qoidalari va resurslar tizimiga ega ekanligi, mazkur institutning iqtisodiy va madaniy sharoitdagi oʻzgarishlari kulollarning kasbiy ongiga bevosita ta’sir koʻrsatishini anglash mumkin.

Shu nuqtai nazardan, zamonaviy jamiyat sharoitida shaxsning oʻz hayot yoʻlini ongli ravishda belgilashi va uni zarurat tugʻilganda oʻzgartirishi haqidagi yondashuv ham muhim ahamiyat kasb etadi[487]. Bu holat kasbga munosabatdagi oʻzgarishlarni izohlashda ahamiyat kasb qiladi. Chunki, bugungi kulol hunarni faqat ajdodlardan qolgan meros sifatida emas, balki oʻzi tanlagan yoʻl va kelajak rejasi sifatida qabul qilmoqda.

---

[485] Habitus – bu shaxsning ma’lum ijtimoiy muhitda shakllangan barqaror ichki qarashlari, odatlari, xulq-atvor andozalari va dunyoni idrok etish usullarining yigʻindisidir. Mazkur tushuncha ijtimoiy tajriba natijasida shakllanadi va insonning kundalik faoliyati, qaror qabul qilish jarayoni hamda atrof-muhitga munosabatida namoyon boʻladi. Habitus tugʻma xususiyat emas, balki oila, mahalla, ta’lim jarayoni, kasbiy muhit va madaniy an’analar ta’sirida bosqichma-bosqich shakllanadi. U shaxsning qanday fikrlashi, qanday baholashi va qanday harakat qilishini belgilovchi ichki tizim vazifasini bajaradi. Kulolchilik kontekstida habitus ustoz–shogird tizimi, ustaxona intizomi, mehnatga boʻlgan munosabat, mahoratga sadoqat va an’anaviy naqshlarni idrok etish orqali shakllanadi. An’anaviy muhitda kulolning habitusi hunarni ajdodiy meros va ma’naviy burch sifatida qabul qilishga asoslangan boʻlsa, zamonaviy sharoitda u iqtisodiy barqarorlik, innovatsiya va shaxsiy muvaffaqiyat mezonlari bilan boyib bormoqda.

[486] Bourdieu P. The Forms of Capital // Richardson J. (ed.). Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education. – New York: Greenwood, 1986. – P. 241–258.

[487] Giddens A. Modernity and Self-Identity: Self and Society in the Late Modern Age. – Stanford: Stanford University Press, 1991. – 256 p.

Boshqa nuqta’i nazar bilan qaraganda, hunarmandchilik an’anaviy jarayonga sadoqat va mukammallikka intilish bilan izohlanadi[488]. Mazkur yondashuv kulolchilik faoliyatida sifat va mahoratni saqlash istagi bilan bozor talablariga moslashish zarurati o‘rtasidagi mutanosiblikni tushunish imkonini beradi. Shu tariqa, kasbga munosabat transformatsiyasi nafaqat iqtisodiy sharoitlar, balki shaxsiy qarashlar va qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlar bilan ham uzviy bog‘liq jarayon sifatida aks etadi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib kulollarning kasbga munosabati transformatsiyasini uch asosiy mezonda tahlil qilish muhim xisoblanadi. Xususan:

1. Kulolchilikning ontologik[489] maqomidagi o‘zgarishlar;

2. Mahorat etikasi va bozor munosabatlari o‘rtasidagi nomutanosiblik;

3. Avlodlararo davomiylik va kasbiy identitetdagi o‘zgarishlar.

Bu orqali kulolchilik maktablarining zamonaviy sharoitdagi barqarorligi va rivojlanish istiqbollarini antropologik nuqtai nazardan anglash imkoniyati ortadi, albatta. Chunonchi, kasbga munosabatning o‘zgarishi, aslida, kulolchilik institutining ichki tuzilmasining muhim jihatlaridagi o‘zgarishlarni aks ettiradi.

Kulolchilikning ontologik maqomidagi o‘zgarishlar masalasi doirasida qayd etish kerakki, kulollarning kasbga munosabati transformatsiyasi ijtimoiy ong, qadriyatlar tizimi, kasbiy identitet va ramziy maqomning shakllanishi bilan bog‘liq murakkab antropologik hodisa sifatida baholash lozim.

Antropologik qarashlarga ko‘ra, har bir kasb jamiyat ichida o‘ziga xos muhitda shakllanadi va yashaydi. Bu muhitning o‘z tartib-qoidalari, qadriyatlari va kim haqiqiy usta ekanini belgilovchi mezonlarini yaratadi.

[488] Sennett R. The Craftsman. – New Haven: Yale University Press, 2008. – 326 p.

[489] Ontologik maqom – bu muayyan hodisa yoki faoliyat turining jamiyat va shaxs hayotidagi mavjudlik shakli, mazmuni va mohiyatini anglatadi. Ontologiya falsafaning borliq haqidagi ta’limoti bo‘lib, u narsalar va hodisalarning qanday mavjud ekanini, ularning mazmuniy asoslarini tushuntiradi. Kasbga nisbatan qo‘llanganda ontologik maqom hunarning shaxs va jamiyat hayotida qanday o‘rin egallashi, u qanday ma’no va vazifaga ega ekani bilan bog‘liq masalalarni ifodalaydi. Masalan, an’anaviy kulolchilik muhitida hunar shaxsning ijtimoiy mavjudligi bilan tenglashtirilgan bo‘lsa, zamonaviy sharoitda u ko‘proq iqtisodiy faoliyat yoki strategik resurs sifatida ko‘rilmoqda. Shu bois ontologik maqomdagi o‘zgarish kasbning tashqi shakli emas, balki uning mazmuni, ijtimoiy vazifasi va shaxs hayotidagi ahamiyati o‘zgarayotganini bildiradi.

Ya’ni kasb shunchaki ish turi emas, balki ma’lum ijtimoiy tizim ichida faoliyat yuritadi.

An’anaviy kulolchilik maktablari ham uzoq vaqt davomida nisbatan yopiq va barqaror tizim sifatida mavjud bo‘lgan. U yerda hamma narsa ma’lum tartib asosida shakllangan. Xususan, ustoz-shogird munosabatlari, ish jarayoni, kasb odobi va o‘zaro hurmat qoidalari qat’iy saqlangan.

Bu muhitda kulolning maqomi pul yoki savdo hajmi bilan emas, balki uning mahorati, ustozlik darajasi, yetishtirgan shogirdlari soni va jamoa tomonidan belgilangan hurmat darajasi muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Shuning uchun qayd etish lozimki, kasbdan orttirilgan obro‘ e’tibor avvalo sifat, tajriba va axloqiy mas’uliyat orqali shakllangan.

Antropologik tadqiqotlarga ko‘ra, jamiyat ichida turli resurs shakllari, ya’ni obro‘, bilim, tajriba, pul va aloqalar o‘zaro ta’sir va raqobat jarayonida shakllanadi[490]. Qaysi jihat ustun bo‘lsa, ushbu sohada mezonlar ham mavjud imkoniyatlarga qarab belgilanadi.

An’anaviy kulolchilik muhitida ham bu holat kuzatiladi. Xususan, mahorat, tajriba va jamoa hurmati yuqori baholangan. Ustaning obro‘si naqshni mukammal bajarishi, kasb odobiga rioya qilishi va mahallada hurmat qozonganligi bilan o‘lchangan. Shuning uchun madaniy va ramziy ustunlik iqtisodiy muvaffaqiyatdan ko‘ra muhimroq hisoblangan. Ushbu o‘rinda aytish joiz, monografiyada e’tirof etilgan an’anaviy kulolchilik maktablarida ham bu holat saqlanib qolgan. Biroq, ularning soni O‘zbekistonda mavjud kulolchilik ustahonalarining umumiy sonidan kelib chiqib aytganda 10% ga ham yetmaydi. Keng taraqqiy etgan va hal qiluvchi ahamiyatga ega mintaqa sifatida Rishton tumani misolida tahlil qilinsa, hozirda faoliyat olib borayotgan 400 dan ortiq ustahonalardan 20 tasi an’anviy jarayonlarni saqlab, rivojlantirishdagi muhim ustahonalar sifatida e’tirof etiladi[491].

Mavjud holatdan kelib chiqib aytish mumkinki, zamonaviy sharoitda kulolchilik faoliyatida kechadigan ijtimoiy jarayonlar avvalgidan ko‘ra ochiqroq va raqobat kuchliroq tizimga aylanmoqda. Ya’ni, endi kulollar faqat mahalla yoki hudud doirasidagi tan olinishi bilan cheklanib

[490] Bourdieu P. The Forms of Capital… – P. 241–258.
[491] Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Rishton shahri. Mamadali Topvoldiyev MFY. 2025 yil.

qolmayapti. O‘zbekiston kulolchiliging xalqaro maydonga chiqishi, bozor munosabatlari, sayyohlar, dizaynerlar, vositachilar, onlayn xaridorlar va reklama platformalari ham bu sohaga faol kirib kelmoqda.

Ushbu jarayonda resurslar nisbatida ham o‘zgarish yuz beradi. Ilgari ustaning obro‘si ko‘proq mahorat, ustozlik maqomi, an’anaga sodiqlik va jamoa hurmati bilan o‘lchangan bo‘lsa, hozir iqtisodiy imkoniyatlar (mahsulotni yuqori bahoda ko‘proq sotish, daromadni barqarorligini ta’minlash, xomashyo va ishlab chiqarish xarajatlarini qoplash, bozor talabiga mos narx qo‘yish.), kommunikativ resurslar (o‘zini tanita olish, brend yaratish, reklama qilish, ijtimoiy tarmoqlarda faol bo‘lish, mijoz bilan aloqa o‘rnatish, onlayn savdoni yo‘lga qo‘yish) ahamiyat kasb etmoqda.

Buning natijasida kulolchilik muhitining ichki tuzilishida ham o‘zgarishlar yuz bermoqda. Jumladan, kimdir mahsulotini an’anaviy uslubda saqlab qolishga urinadi, kimdir esa dizayn, bozor didi va turistik talabni hisobga olib, yangicha yo‘nalishga o‘tadi. Bu holat ustalarning o‘zini anglashiga ham bevosita ta’sir qiladi. Usta endi o‘zini faqat hunar egasi sifatida emas, balki ma’lum ma’noda tadbirkor, dizayn ijodkori va brend egasi sifatida ham ko‘rsata boshlaydi.

An’anaviy kulol habitusida hunar ma’naviy burch, ajdodlardan o‘tib kelayotgan meros va jamoaviy mas’uliyat sifatida qabul qilingan. Kasb tanlash refleksiv qaror emas, balki ijtimoiy vorislikning tabiiy natijasi xisoblanga. Farzandning ota kasbini davom ettirishi normativ holat bo‘lib, kasbiy ong uzluksiz ravishda shakllanib kelgan. Ushbu xolat bugungi kunda ham mavjud bo‘lib, tadqiq qilingan an’anaviy kulolchilik maktablarining aksariyat qismi sulolaviy kulol avlodlari xisoblanishi e’tirof etiladi[492].

Zamonaviy sharoitda kulollarning ichki kasbiy odatlari va qarashlari, ya’ni habitus tarkibi ham asta-sekin o‘zgarib borayotgani kuzatiladi. Avvallari hunar ko‘proq ajdodlardan o‘tib kelayotgan meros va ma’naviy burch sifatida qabul qilingan bo‘lsa, bugungi kunda u ko‘proq strategik tanlov, daromad manbai va shaxsiy loyiha sifatida idrok etilmoqda.

[492] II-bobning 2-paragrafida batafsil ma’lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot davomida olib borilgan so‘rovnoma natijalari ham ushbu jarayonni tasdiqlaydi. Xususan, 40 nafar respondent (kulolchilik maktablari davomchi usta va usta darajasiga yetishgan shogirdlari) orasida o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, 65% ishtirokchilar kasbni ajdodlardan o‘tib kelayotgan meros meros sifatida ko‘rsatadi. Qolgan 35% qismi esa kelajakda mazkur sohani rivojlantirish ortidan jahon mamlakatlari ko‘rgazmalarida qatnashish, oila iqtisodiyotini barqarorlashtirish va shaxsiy loyihalarini amalga oshirishni maqsad qilganlar. Ahamiyatli jihati shundaki, respondentlarning 19 nafari 40 yoshdan yuqori, 21 nafari esa 40 yoshgacha bo‘lganlarni tashkil qilib, yosh avlodning 66.6% kulolchilikka strategik tanlov, daromad manbai va shaxsiy loyiha sifatida e’tibor qaratmoqda.

Ushbu muammoga hududlar kesimida e’tibor qaratilganida Xorazm, G‘ijduvon, Urgut, Andijon va G‘urumsaroyda barqarorlik mavjud, Rishton shahrida esa ishlab chiqarishning kengayishi va ixtisoslashib borayotganligi sababli yoshlar orasida zamonaviy qarashlar yuqori suratni tashkil qilgan.

Bu holatni faqat alohida ustaning shaxsiy qarori bilan izohlab bo‘lmaydi. Mazkur o‘zgarish jamiyatdagi umumiy iqtisodiy va madaniy muhitning o‘zgarishi bilan ham bog‘liq. Ya’ni, ijtimoiy sharoit yangilangani sari kasbga bo‘lgan munosabat ham yangilanmoqda.

Natijada kulollarning ichki rag‘bati, ustuvor qadriyatlari va muvaffaqiyat mezonlari ham o‘zgarib yangidan shakllanmoqda. Ilgari mahorat va jamoa hurmati birinchi o‘rinda turgan bo‘lsa, hozir iqtisodiy barqarorlik, bozor talabi va shaxsiy rivojlanish omillari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa kasbga munosabatdagi ichki o‘zgarishlarni anglatadi.

Ushbu jarayonni dala tadqiqotlaridan shakllangan xulosalardan kelib chiqib tushuntirilsa, an’anaviy kulol oilasida voyaga yetgan farzand ilgari u otasining ustaxonasida ishlab, hunarni davom ettirishi tabiiy va kutilgan holat bo‘lgan[493]. U kasbni bizning sulola hunari deb qabul qilgan, asosiy maqsadi esa mahoratni mukammallashtirish va mahalla hurmatini saqlash bo‘lgan.

[493] Dala yozuvlari. Samarqand viloyati Urgut tumani. Yuqori Kalangar MFY. 2025 yil.

Zamonaviy sharoitda esa xuddi shunday muhitda ulg‘aygan yosh kulol boshqacha qaror qabul qilishi ham mumkin. U hunarni davom ettiradi, lekin uni aksariyat xolda bozor uchun moslashtiradi, ijtimoiy tarmoqlarda sahifa ochadi, mahsulotlarini onlayn sotadi, dizaynga zamonaviy elementlar qo‘shadi, eksport imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu yerda hunar endi faqat meros emas, balki shaxsiy biznes va strategik loyiha sifatida ham ko‘rilmoqda.

Yoki yana bir jihat an’anaviy usta buyumni ko‘proq sifat va mahorat mezonlari asosida baholagan bo‘lsa, zamonaviy kulol mahsulotni ishlab chiqarishda bozorda sotilishi imkoniyati, sayyohlarni jalb qilishi, narxi o‘zini oqlashi kabi masalalarni hisobga oladi[494].

Mazkur muammoni Refleksiv va kasbni ongli tanlashga doir yondashuvlar asosida tahlil qilinsa, yangi mulohazalar shakllanadi.

Zamonaviy jamiyat sharoitida inson o‘z hayot yo‘lini tayyor holda qabul qilmaydi, balki uni ongli ravishda tanlaydi va zarurat tug‘ilganda o‘zgartirib boradi[495]. Oldingi davrlarda kasb ko‘pincha ota-bobodan meros bo‘lib, uni davom ettirish tabiiy va majburiy holat sifatida qaralgan. Ya’ni, kulolning farzandi ham kulol bo‘lishi odatiy va kutilgan yo‘l edi.

Hozirgi sharoitda esa kasb meros emas, tanlov sifatida qabul qilinmoqda. Shaxs o‘z qiziqishi, daromad imkoniyati, ijtimoiy mavqe va kelajak istiqbolini hisobga olib qaror qabul qiladi. Zarurat tug‘ilsa, u bu qarorini o‘zgartirishi ham mumkin. Shu ma’noda kasb endi taqdir emas, balki ongli ravishda tanlangan hayotning istiqbolli rejalariga aylanmoqda.

Bu jarayon kulollarning kasbga munosabatida sezilarli o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Katta avlod vakillari hunarni ota-bobodan qolgan ma’naviy burch sifatida qabul qilsa, yosh avlod uni ijodiy loyiha , biznes modeli yoki shaxsiy brend sifatida baholashi ham tabiiy, albatta. Bunday tafovutni oddiy avlodlar farqi emas, balki ijtimoiy ong transformatsiyasining ko‘rinishi deb baholash mumkin.

Refleksiv tanlov kasbni individuallashtiradi. Endilikda kulol o‘z faoliyatini an’anaviy me’yorlar asosida emas, balki bozor talabi, shaxsiy qiziqish va ijtimoiy obro‘ omillarini hisobga olgan holda belgilaydi. Natijada kasbning jamoaviy modeli yakka tartibdagi loyihaga o‘zgaradi.

[494] Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Rishton shahri, 2025 yil.
[495] Giddens A. Modernity and Self-Identity… – 256 p.

Yuqorida qayd etilgan ontologik, habitus tarkibidagi o‘zgarishlar hamda kasbga munosabatning refleksiv tus olishi kulolchilik muhitida resurslar nisbatining ham o‘zgarishini ko‘rsatadi. Endilikda kasbning barqarorligi va ustalarning mavqei faqat mahorat yoki an’anaviy obro‘ bilan emas, balki turli resurs shakllarining o‘zaro almashinuvi bilan bog‘liq xolda kechmoqda.

Shu bois transformatsiya jarayonini atroflicha tushunish uchun sarmoya shakllarining konversiyasi, ya’ni madaniy, ramziy va iqtisodiy resurslarning bir-biriga aylanish tizimlarini tahlil qilish muhim xisoblanadi. Aynan ushbu jarayon zamonaviy kulolchilik muhitida muvaffaqiyat mezonlari va kasbga munosabatning yangicha shakllanishini ko‘rsatib beradi.

Ushbu nazariyalarga ko‘ra, jamiyatda mavjud bo‘lgan turli resurslar jumladan, bilim, mahorat, obro‘, aloqa va moddiy mablag‘ning bir-biriga o‘tishi, ya’ni bir shakldan boshqasiga aylanishi mumkinligi e’tirof etilgan[496]. Masalan, madaniy kapital (tajriba, bilim, kasbiy mahorat) muayyan sharoitda iqtisodiy kapitalga (daromad, moliyaviy barqarorlik) o‘zgarishi kuzatiladi. Aksincha, iqtisodiy resurslar ham ta’lim, ustaxona jihozlash yoki brend yaratish orqali madaniy va ramziy ustunlikni kuchaytirishi ham tabiiy.

Kulolchilik maktablari faoliyatida aynan shu jarayon yaqqol ko‘zga tashlanadi. An’anaviy mahorat naqsh bilimi, sir tayyorlash usullari, shakl berish tajribasi avvallari asosan jamoa hurmati va kasbiy obro‘ manbai bo‘lgan. Hozir esa bu mahorat bozorda talab yuqori bo‘lgan mahsulot yaratish, turistik segmentga mos dizayn ishlab chiqish yoki eksport imkoniyatlarini kengaytirish orqali daromad manbaiga o‘zgarmoqda[497].

Masalan, ustaning hududiy uslubni mukammal bilishi (madaniy kapital) unga o‘z maktabiga xos buyumlarni yuqori narxda sotish imkonini beradi. Yoki an’anaviy texnologiyani saqlagan holda dizaynni zamonaviylashtirish orqali u xalqaro ko‘rgazmalarda ishtirok etib, yangi mijozlar topadi. Bu holatda mahorat iqtisodiy natijaga xizmat qilmoqda.

Bu xolatni kulolchilik maktablari misolida kuzatilsa, Urgut, G‘ijduvon va G‘urumsaroy kulolchilik maktablarida an’anaviy ishlab

[496] Bourdieu P. The Forms of Capital… – P. 241–258.
[497] Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Rishton shahri, 2025 yil.

chiqarish usuli va bezaklar saqlanib, maktabga xos shakllarni o‘z haridorlariga ulashmoqdalar.

Shu bilan birga, iqtisodiy kapital ham aks ta’sir ko‘rsatadi. Agar kulol yetarli daromadga ega bo‘lsa, u ustaxonasini yangilashi, yangi jihozlar xarid qilishi, shogird tayyorlashi yoki marketing faoliyatini kuchaytirishi imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu esa uning madaniy va ramziy mavqeini yanada mustahkamlaydi.

Qayd etish kerakki, transformatsiya jarayonida masala shunchaki iqtisodiylashuv emas, balki turli kapital shakllarining o‘zaro almashinuvi va muvozanati bilan bog‘liq. Zamonaviy davrga kelib aynan shu jarayon kulollarning kasbga munosabati, muvaffaqiyat mezonlari va o‘zini anglashiga ta’sir qilmoqda.

Hududiy maktab brendi orqali eksport bozoriga chiqish, ustaxonani turistik marshrutga kiritish, mahorat darslarini tashkil qilish yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali auditoriya shakllantirish madaniy kapitalning iqtisodiy kapitalga ayriboshlanishi misol bo‘la oladi. Bu jarayon kasbning davomiyligini ta’minlashga xizmat qiladi, albatta.

Biroq kapital ayriboshlanishi muammosiz kechmaydi. Agar iqtisodiy kapital ustuvorlik kasb qilsa, ramziy kapitalning ma’naviy mazmuni zaiflashishi ehtimoli ham mavjud. Shu sababli transformatsiyani baholashda muvozanat masalalari asosiy o‘ringa chiqadi.

Kuzatish mumkinki, kulollarning kasbga munosabati o‘zgarishi birgina omil bilan izohlanmaydi. Bu jarayon ijtimoiy muhitning yangilanishi, ustalarning ichki qarashlari va qadriyatlaridagi o‘zgarish, zamonaviy sharoitda ongli tanlovning kuchayishi hamda turli resurslarning bir-biriga almashinuvi bilan bog‘liq jarayon.

Mazkur omillar bir-biriga ta’sir qilib, kulollarning kasbga munosabatida ichki qarama-qarshiliklarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, an’anaviy mahorat va kasb odobi bilan bozor talablari o‘rtasida tafovut paydo bo‘lmoqda. Shu sababli ham mahorat etikasi va bozor logikasi o‘rtasidagi munosabatlarni alohida ko‘rib chiqish lozim. Chunki, aynan shu holat kasbga munosabatdagi o‘zgarishlarning eng aniq ko‘rinishlaridan biridir.

An’anaviy kulolchilik maktablarida hunar mahorat etikasi asosida shakllangan. Bu etika ish jarayonini qadrlash, sabr-toqat bilan mehnat

qilish, sifatni ustuvor qo‘yish va mukammallikka intilish kabi tamoyillar bilan bog‘liq bo‘lgan. Usta uchun buyumni tez tayyorlash emas, balki uni puxta va badiiy jihatdan mukammal darajada shakllantirish muhim hisoblangan.

Hunarmandchilik haqidagi nazariy qarashlarda ish jarayonining o‘zi alohida tadqiqot ob’ektiga aylangan. Ya’ni hunarmand uchun faqat tayyor mahsulot emas, balki uni yaratish jarayoni ham muhim hisoblanadi[498]. Buyumni bosqichma-bosqich, sabr bilan, sifatni saqlagan holda tayyorlash kasbning ajralmas qismi xisoblanadi.

Shu sababli an’anaviy kulolchilikda mahorat oddiy ishlab chiqarish malaka emas, balki, u ichki sadoqat, mehnatga hurmat va kasb odobiga rioya qilish bilan bog‘liq bo‘lgan ma’naviy tamoyil sifatida namoyon bo‘ladi. Kulolchilik faoliyatida bu loyni puxta tayyorlash, shakl berish jarayonidagi muvozanatni saqlash, quritish va sir berish bosqichlaridagi ehtiyotkorlik, pishirish jarayonida harorat rejimiga qat’iy rioya qilish ko‘rinishida manzara kasb etadi.

Mazkur bosqichlarning har biri nafaqat ishlab chiqarishdagi amallar, balki kasbiy intizom va ichki mas’uliyat ifodasini ham belgilaydi.

Shu bois mahorat etikasi kulolchilik maktablarining ichki barqarorligini ta’minlovchi asosiy omil sifatida bo‘y ko‘rsatadi.

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda esa kulolchilik faoliyati bozor munosabatlari bilan bevosita bog‘lanmoqda. Bozor talablarida tezkorlik, ommaviylik, raqobatbardoshlik va rentabellik ustuvor mezonlarga aylanmoqda. Bu jarayon kulolchilik sohasida ham mahsulotni sotuvchanlik nuqtai nazaridan baholash tendensiyasini kuchaytirmoqda.

Ijtimoiy jarayon o‘zgarganida undagi resurslar nisbati ham o‘zgarib boradi[499]. Kulolchilik sohasida ham avval ustun bo‘lgan ramziy va madaniy resurslar bilan bir qatorda iqtisodiy resurslar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu holat ustaning faoliyatiga yangi talablar qo‘yadi. Endilikda u faqat mahoratli hunarmand bo‘lish bilan cheklanmaydi. U mahsulotni bozorga moslashtirishi, narx va xaridor talabini hisobga olishi, savdo va targ‘ibot imkoniyatlaridan foydalanishi lozim xisoblanadi.

[498] Sennett R. The Craftsman... – 326 p.
[499] Bourdieu P. The Forms of Capital… – P. 241–258.

Buning natijasida kulolning vazifalari kengayadi. Usta endi zamonaviy iqtisodiy sharoitga moslasha oladigan faol subyektga aylanadi[500]. Xususan, mahsulotni tez ishlab chiqarish, dizaynni bozor talablariga moslashtirish, ishlab chiqarish hajmini oshirish, marketing va savdo tizimlarini o‘zlashtirish kabi masalalar shular jumlasidandir.

Bu esa an’anaviy texnologik jarayonlarning ayrim bosqichlari soddalashtirilishi yoki qisqartirilishiga olib keladi. Ushbu jarayon mahorat etikasi bilan bozor talablari o‘rtasida ichki to‘qnashuvni yuzaga keltirishi tabiiy.

Mazkur qarama qarshilikni shaxsiy tanlov sifatida baholash bilan birga tuzilish xarakterlariga ham e’tibor qaratish o‘rinlidir. Chunki, zamonaviylik sharoitida an’anaviy maktablarning iqtisodiy jarayon bilan bog‘lanishi ma’lum bir nazariyalarni shakllanishiga asos bo‘lgan. Xususan, Refleksiv zamonaviylik[501] sharoitida ijtimoiy institutlar doimiy ravishda o‘z faoliyatini jarayonlarga moslashtirib boradi[502]. Bu jarayon kulolchilik maktablar faoliyatida ham kuzatiladi.

Bugungi kunda usta faqat an’anaviy me’yorlarga tayanib ishlay olmaydi. U bir tomondan ustozlardan o‘tgan kasb odobi, mahorat talablari va an’anaviy shakl va naqshlarni saqlashga harakat qilsa, ikkinchi tomondan bozor talabi, xaridor didi va iqtisodiy barqarorlik shartlarini ham hisobga olishiga to‘g‘ri keladi.

Shu sababli zamonaviy kulol o‘z faoliyatini ikki yo‘nalish o‘rtasida muvozanatlashtirishga to‘g‘ri keladi. Xususan, an’anaga sodiqlik va zamonaviy sharoitga moslashuv. Aynan shu muvozanatni ta’minlash jarayoni kasbga munosabat transformatsiyasining muhim belgilaridan biridir.

Bu borada dala tadqiqotlariga e’tibor qaratilsa ko‘plab ustalar bugungi kunda sifatni saqlash yoki ishlab chiqarish hajmini oshirish, an’anaviy jarayonlarni davom ettirish yoki zamonaviy dizayn yaratish,

[500] Bourdieu P. The Forms of Capital… – P. 241–258.

[501] Refleksiv zamonaviylik bu zamonaviy jamiyat rivojlanishining bosqichi bo‘lib, unda jamiyat o‘zining iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik taraqqiyot jarayonlarini tanqidiy tahlil qilib, ularning oqibatlarini tadqiq qiladi. Ushbu konsepsiya XX asr oxiri – XXI asr boshlarida sotsiologiya va ijtimoiy antropologiya fanlarida keng muhokama qilina boshlagan bo‘lib, u asosan Ulrich Beck, Anthony Giddens va Scott Lash kabi olimlar tomonidan nazariy jihatdan asoslab berilgan. Mazkur yondashuvga ko‘ra, zamonaviy jamiyat faqat rivojlanish jarayonini davom ettiribgina qolmay, balki o‘z taraqqiyotining ijtimoiy, madaniy va ekologik oqibatlarini ham chuqur anglash va qayta tadqiq qilish jarayoniga kiradi.

[502] Giddens A. Modernity and Self-Identity… – 256 p.

uzoq texnologik jarayonni saqlash yoki tezkorlikni tanlash va jamoa e’tirofini ustuvor qo‘yish yoki keng auditoriyaga yo‘naltirish kabi savollarga to‘qnash kelmoqdalar. Hududiy kulolchilik maktablarida mazkur holat turli ustahonalarda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqib turlicha ko‘rinish aks ettiradi. Xususan, Xorazm viloyati Yangiariq kulolchilik maktabida mavjud ikki ustahonada turlicha ko‘rinish mavjud. Rahimovlar ustahonasida an’anaviy koshin bilan bog‘liq buyurtmalarning qisqa muddatga berilishi ishlab chiqarish hajmini oshirishni qo‘llab quvvatlasa, Otajonovlar ustahonasi doimiy faoliyatini ko‘zlab restoran va boshqa gavjum bo‘lgan xususiy inshootlarni bezashda qo‘llaniladigan zamonaviy dizayn ishlab chiqqanlar. Otajonovlar koshinning zamonaviy qiyofada tarixiy manzaralarni aks ettirgan xolda mijozlarga yangi takliflarni joriy qilganlar.

Bu savollar kasbning ontologik mazmuniga aloqador bo‘lib, uning natijasida mahorat etikasi zaiflashsa, hunarning ichki ma’nosi ham o‘zgarib boradi. Mahorat etikasi ustaning ichki rag‘bati bilan bevosita bog‘liq. Agar hunar jarayonning o‘ziga sadoqat asosida amalga oshirilsa, kasbiy qoniqish yuqori bo‘ladi. Aksincha, agar faoliyat faqat daromad vositasiga aylansa, ichki qoniqish pasayishi tabiiy, albatta.

Antropologik tadqiqotlarga ko‘ra, mahorat etikasining kuchi ichki mukammallikka intilishda ham aks etadi[503]. Ya’ni hunarmand uchun ishni shunchaki bajarish emas, uni imkon qadar puxta va sifatlitayyorlash muhim hisoblanadi.

Agar mehnat jarayoni faqat daromad topish vositasiga aylansa, kasbning axloqiy va ma’naviy asoslari asta-sekin zaiflashadi. Bunday holatda hunar ichki sadoqat va mas’uliyatga emas, balki tashqi manfaatga bog‘lanib qoladi. Bu esa uzoq muddatda kasbga munosabatning yuzaki va utilitar xarakter kasb etishiga olib kelishi tabiiy.

Ushbu o‘rinda qayd etish kerakki, mazkur jarayonda transformatsiya ikki yo‘nalishda rivojlanadi. Xususan, innovatsiya mahorat etikasi bilan uyg‘unlashadi va evolyutsion rivojlanish yuz beradi, iqtisodiy tezkorlik etik mezonlarni siqib chiqaradi va inqiroz tendensiyasi kuchayadi.

[503] Sennett R. The Craftsman…– 326 p.

Transformatsiyaning barqaror yoʻnalishi mahorat etikasi va bozor logikasi oʻrtasida muvozanat topishga bogʻliq. Bu muvozanat quyidagicha shakllanadi. Yani, an’anaviy buyumlar va turistik segment mahsulotlarini funksional jihatdan ajratish, texnologiyani optimallashtirish, lekin sifat mezonlarini saqlash, marketingni rivojlantirish, biroq naqsh va kompozitsion tizimni soddalashtirmaslik, ustoz-shogird tizimini zamonaviy ta’lim shakllari bilan uygʻunlashtirish.

Bunday modelda innovatsiya an’anani inkor qilmaydi, balki yangi ijtimoiy sharoitda uning davomiyligini ta’minlaydi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, mahorat etikasi va bozor talablari oʻrtasidagi qarama-qarshilik kulollarning kasbga munosabati oʻzgarishining asosiy sabablaridan biri xisoblanadi. Bu masala faqat ayrim ustalarning shaxsiy tanlovi bilan bogʻliq emas, balki umumiy ijtimoiy-iqtisodiy sharoit bilan belgilanadi. Zamonaviy iqtisodiy muhit hunarmandchilik tizimining ichki tuzilishiga ta’sir koʻrsatmoqda.

Shuning uchun transformatsiyaning qaysi yoʻnalishda kechishi ijobiy yoki salbiy aynan mahoratga sadoqat bilan bozor talablari oʻrtasida qanday muvozanat topilishiga bogʻliq. Agar sifat va kasb odobi iqtisodiy moslashuv bilan uygʻunlashsa, kulolchilik maktablari tabiiy ravishda rivojlanadi. Ammo iqtisodiy manfaat ustuvor boʻlib, mahorat etikasi ikkinchi oʻringa tushib qolsa, kasbning ichki ma’naviy poydevori zaiflashishadi.

Mahorat etikasi va bozor logikasi oʻrtasidagi ziddiyatni tahlil qilish kasbning ichki tizimlarini anglash imkonini beradi. Biroq transformatsiya jarayoni faqat ishlab chiqarish uslubi yoki iqtisodiy moslashuv bilan cheklanmaydi. U ijtimoiy-madaniy jarayonlarda yuz berayotgan oʻzgarishlar bilan chambarchas bogʻliqdir.

Chunki kasbga munosabatdagi oʻzgarish, avvalo, kulolning oʻzini jamiyatda qanday oʻrinda koʻrishi, qanday maqom va rolni egallashi bilan belgilanadi. Shu bois transformatsiyani ijtimoiy-madaniy omillar hamda kasbiy identitetdagi oʻzgarishlar nuqtai nazaridan koʻrib chiqish maqsadga muvofiqdir.

An’anaviy kulolchilik maktablarida kasb shaxsiy faoliyat emas, balki jamoaga tayangan tizim sifatida mavjud boʻlgan. Ustoz-shogird an’anasi orqali hunar avloddan-avlodga oʻtgan, sulolaviy davomiylik saqlangan,

mahalla va hududiy maktab an’analari esa kasbning tartib-qoidalarini belgilab bergan. Kulol o‘zini, eng avvalo, ma’lum maktab yoki sulola vakili deb his qilgan. Uning muvaffaqiyati ham shaxsiy yutuq sifatida emas, balki butun jamoaning obro‘si bilan bog‘liq holda baholangan. Ya’ni usta o‘z nomidan ko‘ra maktab sha’nini ustun qo‘ygan.

Bugungi sharoitda esa vaziyat o‘zgarib bormoqda. Kasb shaxsiy tus olmoqda. Endi kulol o‘zini faqat an’ana davomchisi sifatida emas, balki shaxsiy loyiha egasi, ijodiy brend yaratuvchisi yoki mustaqil tadbirkor sifatida ham ko‘ra boshlaydi[504]. Bu holat zamonaviy jamiyatga xos umumiy jarayon bilan bog‘liq xisoblanadi. Inson o‘zligini ongli ravishda shakllantiradi va zarurat tug‘ilganda uni o‘zgartiradi[505]. Shuning uchun kulolning kasbiy identiteti ham avvalgidek qat’iy va o‘zgarmas emas, balki yangilanib boradigan jarayonga aylanadi.

Individuallashuvning ijobiy tomoni shundaki, kulolning ijodiy erkinligi kengayadi. U yangi dizaynlarni ishlab chiqishi, sinab ko‘rishi, innovatsion texnologiyalardan foydalanishi, internet va global kommunikatsiya vositalari orqali o‘z mahsulotini keng auditoriyaga taqdim qilishi mumkin. Bu esa kasbning zamonaviy sharoitga moslashuvini ta’minlaydi.

Biroq bu jarayonning salbiy tomonlari ham bor. Jamoaviy nazorat va an’anaviy ierarxiya zaiflashadi, ya’ni kim haqiqiy usta, kim yetuk hunarmand degan mezonlar avvalgidek qat’iy bo‘lmay qoladi. Shaxsiy brend va marketing ko‘proq ahamiyat kasb eta boshlaydi. Natijada kasb ichidagi tartib va ijtimoiy tuzilma o‘zgaradi.

Shu bois zamonaviy kulolchilikda eng muhim masala sifatida individuallik va an’anaviy jamoaviylik o‘rtasida muvozanatni saqlash xisoblanib, aynan shu muvozanat kasbning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

An’anaviy tizimda usta maqomi oddiy unvon emas, balki jamoaning hurmati va kasbiy yetuklik belgisi hisoblangan. Usta bo‘lish uchun ko‘p yillik mehnat, sabr-toqat va tajriba talab qilingan. Eng muhimi, bu maqomni odam o‘zi e’lon qilmagan, balki jamoa uni tan olganidan keyingina shakllangan.

[504] Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Rishton shahri. Mamadali Topvoldiyev MFY. 2025 yil.
[505] Giddens A. Modernity and Self-Identity… – 256 p.

An’anaviy kulolchilik maktablarida ustaning obroʻsi va usta maqomi ijtimoiy hurmat va tan olinishi orqali mustahkamlangan ramziy qadriyat boʻlgan[506]. Ya’ni ustaning kuchi nafaqat qoʻl mahoratida, balki jamoa ishonchi va hurmatida aks etadi.

Zamonaviy ustahonalar sharoitida usta maqomi ham oʻzgarib bormoqda. Endi obroʻ faqat jamoaning ichki e’tirofi bilan emas, balki tashqi omillar orqali ham belgilanmoqda. Masalan, ijtimoiy tarmoqlardagi faollik, koʻrgazma va festivallarda qatnashish, ommaviy axborot vositalarida koʻrinish berish, xalqaro hamkorlik aloqalari ham ustaning maqomiga ta’sir qilmoqda. Shu tariqa, ramziy maqomning yangi shakllari paydo boʻlmoqda.

Biroq bu jarayonning xavfli tomoni ham bor. Agar obroʻ asosan marketing va reklama orqali tez shakllansa, u har doim ham katta mahorat va tajriba bilan mos kelmaydi. Ushbu jarayon kasbiy ierarxiyaning sifat va tajribaga emas, balki ommaviy tanilish darajasiga qarab shakllanishini ta’minlaydi.

Bu esa an’anaviy tizimda mavjud boʻlgan, jamoa tan olgan legitimlik tizimining asta-sekin zaiflashishiga olib keladi. Shuning uchun zamonaviy sharoitda ramziy maqomni shakllantirishda mahorat va axloqiy mezonlarni saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy identitet an’anaviy modelda nisbatan barqaror va jamoaga tayangan boʻlgan. Kulol oʻzini avvalo usta, ma’lum bir maktab vakili yoki sulola davomchisi deb bilgan. Ya’ni uning oʻzini anglashida shaxsiy manfaatdan koʻra jamoaviy mansublik muhimroq boʻlgan. U oʻz nomidan koʻra maktab sha’ni va sulola obroʻsini ustun qoʻygan.

Zamonaviy davrda esa kasbiy identitet murakkablashib, kulol bir vaqtning oʻzida bir nechta rolni bajaradi[507]. U an’anani davom ettiradi, lekin shu bilan birga dizayner-hunarmand sifatida yangi shakl va uslublarni izlaydi. U tadbirkor sifatida daromad, bozor va marketing masalalarini oʻylaydi. Milliy brend yaratuvchisi sifatida oʻz hududiy maktabini tanitishga harakat qiladi. Shu bilan birga global auditoriya bilan ishlovchi subyekt sifatida internet va xalqaro platformalarda faol boʻladi.

[506] Bourdieu P. The Forms of Capital… – P. 241–258.
[507] Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Rishton shahri. Mamadali Topvoldiyev MFY. 2025 yil.

Bu jarayon identitetning murakkablashganini bildiradi. Bir tomondan, bu ijobiy holat deb baholansa, kulol zamon talabi bilan hamnafas boʻladi, yangi imkoniyatlardan foydalanadi va kasbni yangi darajaga olib chiqadi. Ikkinchi tomondan, bu ichki muvozanat masalasini qiyinlashtiradi. Agar yangi vazifalar mahorat etikasi, sifat talabi va hududiy an’analar bilan uygʻunlashmasa, ichki muammo paydo boʻladi. Masalan, tez sotiladigan mahsulot yaratish istagi bilan an’anaviy sodiqlik va puxtalik talabi oʻrtasida qarama-qarshilik yuzaga keladi.

Shu bois zamonaviy kulol uchun asosiy vazifa turli vazifalarni bir tizimga solib, individuallik va an’anaviylik oʻrtasida muvozanatni saqlashdir. Aynan shu muvozanat kasbiy identitetning barqaror va uygʻun shakllanishini ta’minlaydi.

Transformatsiyaning muhim ijtimoiy-madaniy jihatlaridan yana biri bu kasbning ma’naviy mazmunini ongli ravishda zamonaviy sharoitda anglash jarayonidir. An’anaviy modelda hunar koʻproq ma’naviy burch sifatida qabul qilingan. U ajdodlardan qolgan meros boʻlib, uni davom ettirish tabiiy va zarur vazifa deb qaralgan.

Zamonaviy sharoitda esa ma’naviylik toʻgʻridan toʻgʻri berilmaydi. U ongli tanlov natijasiga aylanadi. Ya’ni kulol hunarni shunchaki meros boʻlgani uchun emas, balki oʻzi qadrlagani va muhim deb bilgani uchun davom ettiradi.

Bu jarayonni ikki yoʻnalishda kuzatish mumkin. Xususan, hunar asosan daromad manbai sifatida talqin qilinadi. Iqtisodiy foyda birinchi oʻringa chiqadi, ma’naviy mazmun esa ikkinchi darajaga tushib qoladi. Hunar koʻproq biznes vositasi sifatida qaraladi.

Ikkinchi yoʻnalishda esa kulol an’anani ongli ravishda saqlashni tanlaydi. U hunarning ma’naviy asoslarini zamonaviy sharoitga moslab oʻzgartiradi va uni mazmunini boyitadi. Ya’ni an’ana shunchaki davom ettirilmaydi, balki tushunilib, qadrlanib, ongli ravishda saqlanadi.

Aynan ikkinchi yoʻnalish kasbiy identitetning barqarorligini ta’minlaydi. Bu holatda ma’naviy qadriyatlar majburiyat emas, balki shaxsning ichki tanloviga aylanadi. Ongli tanlangan qadriyat esa odatda mustahkamroq va uzoq muddatli boʻladi.

Ijtimoiy-madaniy transformatsiya jarayonida hududiy oʻziga xoslik hanuz muhim barqarorlashtiruvchi omil boʻlib qolmoqda. Masalan,

Rishton, G‘ijduvon, G‘urumsaroy, Toshkent va Samarqand kabi markazlarining an’anaviy ustahonalarida kulolchilik oddiy hunar emas, balki mahalliy madaniy xotiraning ajralmas qismi sifatida qabul qilinadi. Bu hududlarda kulol bo‘lish faqat kasb egallash emas, balki ma’lum tarixiy va madaniy an’anaga mansublikni anglatadi[508]. Shu bois hududiy mansublik kasbning ramziy legitimligini, ya’ni jamiyat tomonidan tan olinishi va hurmat qilinishini mustahkamlaydi.

Agar ustalarning mustaqillashuv jarayoni hududiy maktab an’analari bilan bog‘liq xolda kechsa, transformatsiya tabiiy va evolyutsion yo‘nalishda bo‘ladi. Ya’ni kulol yangi imkoniyatlardan foydalanadi, lekin o‘z maktabi uslubi va qadriyatlarini saqlab qoladi. Bunday holatda yangilik an’anani inkor etmaydi, balki uni zamonaviy sharoitda davom ettiradi.

Aksincha, agar ustaning mustaqillashuvi hududiy asoslardan uzilib ketsa, kasbiy identitetning lokal tayanchi zaiflashadi. Natijada kulolchilik o‘ziga xos maktab va hududiy xususiyatlarini yo‘qotib, umumlashgan, ildizsiz shaklga o‘tishi tabiiy. Shu sababli hududiy mansublik transformatsiya jarayonida muhim muvozanat omili sifatida ko‘rinish oladi.

Bugungi kunda faoliyat olib borayotgan kulolchilik maktablaridagi ijtimoiy-madaniy transformatsiyani yuqoridagi tahlillarga tayangan holda bir nechta asosiy o‘zgarishlar orqali tushuntirish mumkin. Xususan,

- ustalar faoliyati jamoaviy mansublikdan ko‘p tarmoqli identitetga o‘tish kuzatilmoqda. Ilgari kulol o‘zini asosan jamoa, maktab yoki sulola vakili deb bilgan. Uning kimligi shu mansublik orqali belgilanardi. Bugungi kunda esa kulol bir vaqtning o‘zida bir nechta vazifani bajaradi. U nafaqat an’ana davomchisi, balki dizayner, tadbirkor yoki brend yaratuvchisi sifatida ham o‘zini ko‘rsatadi. Ya’ni uning kasbiy o‘zini anglash doirasi kengayib, murakkablashib bormoqda.

- ustahona va mahalliy mintaqa jamoasi orasida tan olinishdan ommaviy ya’niy global miqiyosda tanilishga o‘zgarayotganligi ham kuzatilmoqda. Ilgari ustaning obro‘si asosan mahalla yoki hudud doirasida shakllangan bo‘lsa, hozir u internet, ko‘rgazmalar va xalqaro

[508] Dala yozuvlari. Rishton, Toshkent va Samarqand shahar, G‘ijduvon, G‘urumsaroy tumanlari. 2025 yil.

aloqalar orqali keng jamoatchilikka chiqmoqda. Endi tan olinishi faqat ichki jamoa bilan cheklanmaydi, balki tashqi maydonda ham belgilanadi.

- o‘z-o‘zini boshqaruvchi merosdan refleksiv tanlovga o‘tish jarayoni mavjud. Oldin hunarni davom ettirish tabiiy va majburiy yo‘l sifatida qabul qilingan bo‘lsa, bugungi kunda kulol bu yo‘lni ongli ravishda tanlaydi. U kasbni shunchaki meros bo‘lgani uchun emas, balki har tomonlama o‘ylab o‘zi muhim deb bilgani uchun davom ettiradi.

- barqaror ierarxiyadan moslashuvchan ijtimoiy tuzilishga o‘tish kuzatilmoqda. Ilgari kasb ichidagi mavqe aniq va qat’iy mezonlar asosida belgilanardi. Hozir esa mavqe ko‘proq o‘zgaruvchan bo‘lib, turli omillar xususan, tajriba, bozor muvaffaqiyati, media faollik yoki xalqaro aloqalar ta’sirida shakllanmoqda.

Bu o‘zgarishlar kulollarning kasbiy munosabatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Sababi kasbga munosabat faqat iqtisodiy yoki texnologik omillar bilan emas, balki aynan ijtimoiy-madaniy muhit orqali shakllanadi. Shu bois transformatsiyani to‘liq anglash uchun ushbu madaniy o‘zgarishlarni hisobga olish zarur deb xisoblanadi.

Ko‘rinib turibdiki, ijtimoiy-madaniy transformatsiya kulollarning kasbga munosabatidagi o‘zgarishlarning muhim qismi xisoblanadi. Bu jarayonda individuallashuv kuchayadi, usta maqomi yangitdan talqin qilinadi, kasbiy identitet ko‘p ma’noli tus oladi va ma’naviy ong ongli tanlovga aylanadi.

Shu bilan birga, transformatsiyani faqat xavf sifatida baholab ham bo‘lmaydi. U yangi imkoniyatlarni ham yaratadi. Muhimi, bu jarayon qanday yo‘nalishda kechishidir. Agar an’anaviy mahorat etikasi, hududiy identitet va ongli tanlov o‘rtasida muvozanat saqlansa, transformatsiya barqaror va ijobiy natija beradi. Aks holda esa kasbning ichki ma’naviy va madaniy asoslari zaiflashishi tabiiy.

Umuman olganda, zamonaviy sharoitda kulollarning kasbga munosabati sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda. Bu o‘zgarishlar faqat iqtisodiy yoki texnologik omillar bilan bog‘liq emas, balki kulollarning o‘z kasbini qanday tushunishi, unga qanday ma’no berishi va jamiyatda o‘z o‘rnini qanday ko‘rishi bilan ham chambarchas bog‘liq. Globallashuv, bozor munosabatlari, turizm va internet rivoji kulolchilikni yopiq an’anaviy muhitdan ijtimoiy va iqtisodiy sharoit olib chiqdi. Natijada kulol

endi faqat hunar egasi emas, balki tadbirkor, dizayner, brend yaratuvchi va keng auditoriya bilan ishlovchi shaxsga ham aylanmoqda.

Shu bilan birga, bu jarayon ijobiy va salbiy tomonlarni birgalikda o‘z ichiga oladi. Agar yangilik an’anani inkor etmay uni zamonaviy sharoitda davom ettirsa, kulolchilik maktablari barqaror rivojlanadi. Ammo iqtisodiy manfaat va tashqi ko‘rinish ustuvor bo‘lib, mahorat etikasi va hududiy an’analar zaiflashsa, kasbning ichki poydevori sustlashishi mumkin. Shuning uchun asosiy masala an’ana va innovatsiya, sifat va daromad, mahalliy e’tirof va global tan olinishi o‘rtasida muvozanatni saqlashdir.

Zamonaviy davrda globallashuv jarayonlari kulolchilik maktablarining an’anaviy ishlab chiqarish tizimini tubdan o‘zgartirib, buyumning maishiy vazifasidan ko‘ra uning suvenir, estetik va madaniy ramz sifatidagi ahamiyatini kuchaytirmoqda. Mahsulot tarkibi, dizayn talqini va savdo mexanizmlari bozor talabiga mos ravishda qayta shakllanmoqda.

Turizm omilining kuchayishi ustaxonalarni ishlab chiqarish joyidan tashqari madaniy tajriba va ko‘rgazma maskaniga aylantirib, hunarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirgan holda, ayrim texnologik bosqichlarning qisqarishi va badiiy repertuarning soddalashuviga olib kelish xavfini yuzaga keltirmoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qiymat zanjirining kengayishi, vositachilar va savdo platformalarining ko‘payishi ustaning iqtisodiy mavqeiga ta’sir ko‘rsatib, daromadning bir qismi ustaxonadan tashqarida shakllanishi natijasida bazi hollarda ishlab chiqarish soni sifat ustuvorligidan o‘zib ketganligini ko‘rsatadi.

Globallashuv va raqamli savdo tizimlari kulolchilik mahsulotlarini xalqaro maydonga olib chiqish imkonini yaratgan bo‘lsa-da, barcha ustalar uchun teng sharoitni ta’minlamaydi. Raqamli savodxonlik, logistika va infratuzilma bilan bog‘liq cheklovlar maktab ichida iqtisodiy tafovutni kuchayishini yuzaga keltirmoqda.

Ekologik omillar, xususan loy zahirasining holati, sir tayyorlash uchun zarur tabiiy resurslarning kamayishi hamda energiya manbalari bilan bog‘liq muammolar kulolchilik maktablarining texnologik asosiga bevosita ta’sir ko‘rsatib, resurs bazasidagi o‘zgarishlar mahsulotning

shakli, rangi va sifat koʻrsatkichlarida aks etib, maktabning tarixan shakllangan badiiy qiyofasi tarnsformatsiyaga uchramoqda.

Zamonaviy sharoitda kulolchilik maktablarining barqaror rivoji anʼanaviy uslub va texnologik intizomni saqlagan holda bozor, turizm va ekologik talablar bilan muvozanatli moslashuvni taqozo qilib, shunday yondashuvgina kulolchilikni tarixiy meros emas, balki zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy muhitda yashovchan madaniy tizim sifatida davom ettirish imkonini yaratadi.

Zamonaviy davrda kulollarning kasbiy oʻzini anglashida sezilarli oʻzgarish kuzatilib, hunar endi faqat sulolaviy meros yoki maishiy ehtiyojni qondirish vositasi sifatida emas, balki ijtimoiy mavqe, ijodiy oʻzini ifoda etish va iqtisodiy mustaqillik manbai sifatida talqin qilinmoqda. Bozor iqtisodiyoti va turizmning kengayishi natijasida kulolning faoliyati koʻp funksiyali tus olib, u ishlab chiqaruvchi bilan bir qatorda savdo, marketing va muloqot jarayonlarida ham bevosita ishtirok etuvchi subyektga aylanmoqda, bu esa kasbiy rolning kengayishini anglatadi.

Innovatsion texnologiyalar va yangi savdo majmualari hunarmand uchun iqtisodiy imkoniyatlar yaratgan boʻlsa-da, ular mahsulotni soddalashtirish va tezlashtirish taʼsirini kuchaytirib, ayrim hollarda anʼanaviy texnologik izchillikka salbiy taʼsir koʻrsatmoqda.

Kasbga munosabat transformatsiyasi ustoz-shogird tizimining ichki mazmuniga ham taʼsir etib, mahoratni oʻzlashtirish jarayonida tez natija kutish tendensiyasini kuchaytirmoqda, bu esa uzoq muddatli kasbiy tayyorgarlik tamoyillarini oʻzgarishiga olib keladi.

Raqamli platformalar va xalqaro aloqalar kulolchilik mahsulotini keng auditoriyaga olib chiqayotgan bir paytda, hududiy uslub va maktab identitetini saqlash masalasi yanada dolzarblashmoqda, chunki global talab bilan mahalliy anʼana oʻrtasida muvozanat zarur boʻlib qolmoqda.

Kulollarning kasbga munosabatidagi oʻzgarishlar hunarning kelajakdagi barqarorligini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon boʻlmoqda mazkur jarayonning ijobiy natijasi iqtisodiy manfaat, mahorat etikasi va madaniy masʼuliyat oʻrtasidagi ongli uygʻunlikni taʼminlash darajasiga bogʻliq.

XULOSA

O‘zbekistonda an’anaviy kulolchilik maktablarining ijtimoiy-madaniy transformatsiyasi (XIX asr ikkinchi yarmi-XXI asr boshlari) mavzusini tadqiq etish jarayonida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. O‘zbekiston hududida kulolchilikning tarixiy taraqqiyoti uzluksiz evolyutsion jarayon sifatida namoyon bo‘lib, uning neolit davridan boshlangan moddiy-texnologik ildizlari XV-XVIII asrlarda ijtimoiy institut darajasiga ko‘tarilgan, XIX-XX asrlarda ilmiy identifikatsiya qilingan va XX asr davomida turli siyosiy-iqtisodiy sharoitlarda moslashuv orqali saqlanib qolgan bo‘lib, kulolchilik maktablari tarixini transformatsiyalar orqali davom etgan ijtimoiy-madaniy jarayon sifatida talqin qilish lozim xisoblanadi.

2. Kulolchilik maktablari ishlab chiqarish markazidan ko‘ra kengroq mazmunga ega tushuncha hisoblanadi. Ular nafaqat mahsulot tayyorlanadigan hududiy birlik, balki ustoz-shogird an’analarining davomiyligi, kasb jamiyat tomonidan tan olinishi jarayoni, hududiy estetik me’yorlar hamda jamoaviy nazorat mexanizmlari bilan mustahkamlangan nomoddiy madaniy meros instituti sifatida shakllanadi. Shu bois markaz va maktab tushunchalarini metodologik jihatdan aniq farqlash, shuningdek, hududiy uslubni uning ijtimoiy davomiylik tizimi bilan birgalikda tahlil qilish kulolchilik fenomenini antropologik talqin qilishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

3. Mustaqillik davrida amalga oshirilgan davlat siyosati, huquqiy jihatdan muntazam qo‘llab-quvvatlash choralari, merosni saqlash mexanizmlari hamda bozor munosabatlariga moslashuv jarayonlari kulolchilik maktablarini tor mahalliy ehtiyojlar doirasidan chiqarib, ularni milliy madaniy resurs va strategik iqtisodiy omil darajasiga olib kelganligini mavjud tadqiqotlar asosida kuzatish mumkin bo‘lib, kulolchilik maktablari an’anani saqlagan holda zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy muhitga integratsiyalashayotgan, barqarorlik va yangilanish o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlay oladigan tirik madaniy tizim sifatida baholanishi maqsadga muvofiq xisoblanadi.

4. O‘zbekistonda shakllangan an’anaviy kulolchilik maktablarini murakkab ijtimoiy-madaniy tizim sifatida kuzatish lozim xisoblanib,

ularning shakllanishi va rivojlanishida tabiiy-geografik muhit, xom ashyo manbalari hamda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Ushbu maktablarning ichki tuzilmasida ustoz-shogird an’analari, kasbiy ierarxiya va mehnat taqsimoti asosiy o‘rin egallaydi. Shu bois kulolchilik maktablariga faqat ishlab chiqarish faoliyati sifatida emas, balki xo‘jalik, marosimiy, estetik va identitet bilan bog‘liq vazifalarni birgalikda bajaruvchi yaxlit va ko‘p qirrali ijtimoiy tizim sifatida yondashish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

5. Rishton, G‘ijduvon va Xorazm kulolchilik maktablari qiyosiy o‘rganilganida, ularning shakllanishi va rivojlanishi bir xil tarixiy yo‘nalishda kechmaganligi, balki har birining o‘ziga xos tabiiy-geografik, texnologik va ijtimoiy omillar ta’sirida shakllangani kuzatiladi. Hududiy farqlanish, avvalo, tabiiy resurslar - sifatli tuproq zaxirasi, tabiiy rang beruvchi moddalar va xom ashyo manbalari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu omillar mahsulotning rang, shakl va texnologik xususiyatlarida o‘z aksini topgan. Shuningdek, har bir maktabda buyumni yasash, bezash, sir tayyorlash va pishirish usullari avloddan avlodga o‘tib kelayotgan texnologik an’analar asosida rivojlanib, hududiy uslubiy yaxlitlikni ta’minlagan. Bunda ustoz-shogird tizimi kasbiy tajribaning davomiyligini saqlovchi asosiy mexanizm sifatida muhim ahamiyat kasb qilgan. Bundan tashqari, mahalliy ijtimoiy muhit-aholi ehtiyojlari, marosim va urf-odatlar, savdo aloqalari hamda bozor talabi kulolchilik mahsulotlarining tur va funksional yo‘nalishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Ayrim hududlarda maishiy buyumlar ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, boshqalarda bezak va suvenir xarakteridagi mahsulotlar rivojlangan. Shu tariqa, mazkur kulolchilik maktablarini faqat tashqi shakl va bezak tizimi asosida emas, balki tabiiy muhit, texnologik meros va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar o‘zaro uyg‘unligi doirasida kompleks yondashuv asosida tahlil qilish ularning tarixiy shakllanish mexanizmlarini to‘liqroq anglash imkonini beradi.

6. An’anaviy kulolchilik maktablarida kasbiy bilimlar avloddan avlodga ustoz-shogird an’anasi orqali o‘tib kelgan. Bu jarayon amaliy o‘qitish shakllari, norasmiy nazorat mexanizmlari va kasbiy e’tirof tizimi orqali ta’minlangan. Tizim yozma qoidalar yoki rasmiy ta’limdan ko‘ra, ustaxona muhitidagi bevosita amaliy ishtirok, tajriba almashish va

jamoaviy tan olishga tayanadi. Aynan shu institut kulolchilik maktablarining tarixiy davomiyligi, uslubiy yaxlitligi va kasbiy barqarorligini saqlab kelgan asosiy ijtimoiy mexanizm hisoblanadi. Shu bilan birga, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda bu tizim ham o‘zgarishga yuz tutmoqda. Bilim berish usullari, kasbiy maqomni belgilash mezonlari va legitimatsiya jarayonlarida yangi omillar paydo bo‘lmoqda. Natijada ustoz-shogird instituti tarixiy tayanch, shuningdek, kulolchilik maktablarining bugungi transformatsiya jarayonida moslashuvchanligini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

7. Kulolchilik faoliyatida mehnat taqsimoti va gender vazifalari tarixan shakllangan, ishlab chiqarish samaradorligi hamda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi tizimli mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu tizim texnologik jarayonlarni muvofiqlashtirish bilan birga kasbiy ierarxiya, identitet va legitimatsiya mezonlarini ham belgilagan. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda mazkur rollar ma’lum darajada transformatsiyaga uchrayotgan bo‘lsa-da, bu jarayon an’anaviy tizimning yangi sharoitga moslashuvchanligini ko‘rsatadi.

8. Kulolchilik buyumlarining shakli, bezagi va ranglari estetik unsur hamda tarix davomida shakllanib, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan ramziy-ma’naviy tizimning tarkibiy qismidir. Ular muayyan qonuniyatlarga tayangan holda yaratiladi va har bir naqsh, rang hamda kompozitsiya ortida ma’lum ma’no, qadriyat va tasavvur mujassam bo‘ladi. Shu sababli kulolchilik mahsuloti xo‘jalik, bezak buyumi bilan birga, madaniy xotirani saqlovchi va uni keyingi avlodlarga yetkazuvchi ramziy matn sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur ramziy tizim hududiy identitetni mustahkamlash, jamiyatning tarixiy tajribasini davom ettirish hamda madaniy ma’nolarni uzluksiz ravishda o‘tkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

9. Zamonaviy davr kulolchilik faoliyatida ustaning individual uslubi, bezakdagi o‘ziga xos yondashuvi va ramziy dastxati muhim mezonga aylanib bormoqda. An’anaviy jarayonlarda mahsulot asosan muayyan maktabning umumiy uslubiy qoidalariga tayanib yaratilgan bo‘lsa, zamonaviy sharoitda ustaning shaxsiy estetik qarashi va ijodiy pozitsiyasi alohida ahamiyat kasb qilmoqda. Bu jarayon kulolchilikda kollektiv an’anaviylikdan individual ijodiy identitetga tomon muayyan o‘zgarish

yuz berayotganini koʻrsatadi. Ya’ni kulolchilik buyumi hududiy maktab uslubining namunasi boʻlishi bilan birga muallifning individual ijodiy konsepsiyasini ham ifodalovchi asarga aylanmoqda.

10. An’anaviy davrda marosimlar ustaxona ichki intizomini mustahkamlash va kasb muqaddasligini ta’minlashga xizmat qilgan asosiy ijtimoiy mexanizm boʻlgan. Zamonaviy bosqichda esa ular bevosita boshqaruv vositasi sifatidagi funksiyasini qisman yoʻqotib, koʻproq ramziy ahamiyat kasb etmoqda. Bu holatda marosimlar amaliy tartibga solish vositasi boʻlishdan koʻra, kasbiy identitet va madaniy xotirani ifodalovchi muhim ijtimoiy-madaniy unsurga aylanib bormoqda.

11. Zamonaviy transformatsiya jarayonida kulolchilik maktablari an’anaviy maishiy ishlab chiqarish modelidan koʻp tarmoqli, bozor talablari va turizmga yoʻnaltirilgan modelga oʻtmoqda. Bu esa buyumning amaliy vazifasi bilan bir qatorda uning ramziy, reprezentativ va marketing ahamiyatini kuchaytirmoqda. Qolaversa, hududiy bezak va rang tizimi brend resursiga aylanib, milliy va mintaqaviy identitetni vizual ifodalash vositasi sifatida qabul qilinmoqda. Bu jarayon kulolchilikni madaniy meros bilan birga iqtisodiy kapital sifatida ham namoyon etayotganini koʻrsatadi.

Monografiyada umumlashtirilgan tarixiy-antropologik ma’lumotlar asosidagi taklif va amaliy tavsiyalar:

1. An’anaviy kulolchilik maktablarini iqtisodiy ta’sirlardan himoya qilish, ustozlik maqomining legitim asoslarini belgilash hamda hududiy maktablarning oʻziga xosligini saqlash maqsadida sohada mahorat etikasi va kasbiy me’yorlarni ta’minlovchi sifat mezonlari, an’anaviy naqshlardan foydalanish qoidalari, ustoz-shogird munosabatlari tamoyillari hamda hududiy uslubni asrash tizimini oʻz ichiga olgan mahorat etikasi va kasbiy me’yorlar jamlanmasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish taklif qilinadi.

2. Hududiy uslubning soddalashuvi va tijoratlashuvi jarayonida boshqa nufuzli maktab nomidan foydalanish holatlarining oldini olish, kulolchilikni muhofaza qilinadigan madaniy resurs sifatida mustahkamlash hamda hududiy kulolchilik maktablarining identitetini saqlash maqsadida har bir maktab uchun rang palitrasi, naqsh kompozitsiyasi, texnologik xususiyatlari, tarixiy davomiylik zanjiri va

ustozlar sulolasiga oid ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan maktab pasporti tizimini joriy qilish lozim xisoblanadi.

3. Avlodlararo uzluksizlikni qo‘llab-quvvatlash, yoshlar orasida refleksiv tanlovni kollektiv mas’uliyat bilan uyg‘unlashtirish, ustoz-shogird tizimini mustahkamlash maqsadida sulolaviy kulolchilikni davom ettirayotgan yoshlar uchun maxsus grant, stipendiya va rag‘batlantiruvchi dasturlarni joriy etish taklif qilinadi.

4. Kasbning obro‘-e’tiborini oshirish, uni faqat foyda yoki daromad manbai sifatida ko‘rishni kamaytirish, shuningdek, ustalik maqomini moddiy manfaat emas, balki ma’naviy va axloqiy qadriyatlar asosida asoslab berish maqsadida shogird tayyorlash ko‘rsatkichi, an’anaviy naqshni saqlash darajasi, hududiy maktab rivojiga qo‘shgan hissasi hamda ilmiy-ko‘rgazma faoliyati kabi mezonlar asosida baholovchi reyting tizimini joriy qilish taklifi ilgari suriladi.

5. Transformatsiya jarayonini ongli boshqarish va kasbiy ongni refleksiv asosda shakllantirish uchun hududiy markazlarda unutilgan texnologiyalarni tiklash, tarixiy sir va pishirish usullarini restavratsiya qilish hamda ilmiy hamkorlik asosida innovatsiyalar ishlab chiqish bilan shug‘ullanuvchi mahorat laboratoriyalarini tashkil qilish, u yerda yosh kulollar va tajribali ustalar uchun kasbiy identitet, mahorat etikasi va innovatsiya masalalariga bag‘ishlangan refleksiv seminar-treninglarni yo‘lga qo‘yish taklif qilinadi.

6. Hududiy o‘ziga xoslikni saqlagan holda yangi dizayn tajribalarini amalga oshirish, estetik soddalashuvning oldini olish hamda innovatsiyalarni milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish maqsadida an’anaviy naqshlar va zamonaviy dizaynni ilmiy asosda birlashtirish zarur. Shu bois innovatsiyalarni integratsiya qilish bo‘yicha amaliy-metodik qo‘llanma ishlab chiqish taklif etiladi.

7. Kulollarning kasbiy rag‘bati, mahorat etikasi darajasi, avlodlararo davomiylik holati hamda innovatsiyaga munosabatini muntazam ravishda o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Ushbu ko‘rsatkichlarni tahlil qilish va monitoring natijalari asosida sohani qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan institutsional hamda siyosiy qarorlar qabul qilish imkoniyati kengayadi. Shu bois kulollarning kasbga munosabatidagi o‘zgarishlarni

tizimli ravishda aniqlab borish uchun har 3-5 yilda sotsiologik monitoring o‘tkazish faoliyatini joriy etish taklif qilinadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Normativ- huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga ega nashrlar:

1. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son Farmoni// https://lex.uz/docs/5841063;
2. Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.11.2017 yildagi PF-5242-son Farmoni // https://lex.uz/docs/-3416134;
3. Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.11.2019 yildagi PQ-4539-son Qarori // https://lex.uz/docs/-4622088;
4. Kulolchilikni jadal rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.03.2021 yildagi PQ-5033-son Qarori// https://lex.uz/docs/-5339469;
5. Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.12.2018 yildagi PQ-4068-son Qarori // https://lex.uz/docs/-4113465;
6. Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.03.2019 yildagi 265-son Qarori // https://lex.uz/docs/-4262171;
7. Rishton an’anaviy kulolchiligi tarixi muzeyi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 28.01.2025 yildagi 41-son Qarori // https://lex.uz/uz/docs/-7345780.
8. «Hunarmand» uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.11.2017 yildagi PQ-3393-son Qarori // https://lex.uz/docs/-3416129;
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Hunarmand uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: Qaror,

PQ-3393, 17 noyabr 2017 yil // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. - URL: https://lex.uz/docs/-3416129.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Aholini hunarmandchilikka jalb qilish va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida: Farmon, PF-91, 12.06.2023 yil // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. - Toshkent, 2023. - URL: https://lex.uz/uz/docs/-6490321.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Aholini hunarmandchilikka jalb qilish va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida: Farmon, PF-91, 12.06.2023 yil // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. - Toshkent, 2023. - URL: https://lex.uz/uz/docs/-6490321.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Hunarmandchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: Qaror, PQ-77, 30 dekabr 2021 yil // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. - Toshkent, 2021. - URL: https://lex.uz/docs/5807559.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Hunarmandchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida: Farmon. - Toshkent, 2023. - URL: https://lex.uz/docs/-6490321.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Hunarmandchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: Farmon (PF-91). - Toshkent, 12.06.2023. - URL: https://lex.uz/docs/-6490321.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Hunarmandchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: Farmon (PF-91). - Toshkent, 12.06.2023. - URL: https://lex.uz/docs/-6490321.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Hunarmandchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: Farmon (PF-91). - Toshkent, 12.06.2023. - URL: https://lex.uz/docs/-6490321.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-

quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida: Farmon, PF-5242, 17 noyabr 2017 yil // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. - URL: https://lex.uz/docs/-3416134.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida: Qaror, PQ-4539, 28 noyabr 2019 yil // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. - Toshkent, 2019. - URL: https://lex.uz/docs/4622088.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san’atini yanada rivojlantirishni davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida: Farmon, PF-1741, 31.03.1997 // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. - URL: https://lex.uz/docs/168968.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san’atini yanada rivojlantirishni davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida: Farmon, PF-1741, 31.03.1997 // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. - URL: https://lex.uz/docs/168968.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san’atini yanada rivojlantirishni davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida: Farmon, PF-1741, 31.03.1997 // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. - URL: https://lex.uz/docs/168968.

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san’atini yanada rivojlantirishni davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida: Farmon, PF-1741, 31 mart 1997 yil // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. - URL: https://lex.uz/docs/-168968.

23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Xalqaro hunarmandchilik festivalini o‘tkazib borishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida: Farmon, PF-5841, 03.10.2019 yil // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. - Toshkent, 2019. - URL: https://lex.uz/uz/docs/-4535422.

24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Xalqaro hunarmandchilik festivalini o‘tkazib borishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida: Farmon, PF-

5841, 03.10.2019 yil // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. - Toshkent, 2019. - URL: https://lex.uz/uz/docs/-4535422.

25. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Hunarmand uyushmasi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida: Qaror, 282-son, 4 iyun 1997 yil // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. - URL: https://lex.uz/docs/-540056.

26. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Farg‘ona viloyatining Marg‘ilon, Qo‘qon shaharlari va Rishton tumanida hunarmandchilikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: Qaror, 687-son, 2 sentabr 2017 yil // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. - Toshkent, 2017. - URL: https://lex.uz/docs/3326544 .

27. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Farg‘ona viloyatining Marg‘ilon, Qo‘qon shaharlari va Rishton tumanida hunarmandchilikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: Qaror, 687-son, 2 sentabr 2017 yil // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. - Toshkent, 2017. - URL: https://lex.uz/docs/3326544.

28. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Xalqaro hunarmandchilik festivalini o‘tkazishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida: Qaror, 960-son, 27 noyabr 2018 yil // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. - Toshkent, 2018. - URL: https://lex.uz/docs/4082140

29. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Rishton an’anaviy kulolchiligi tarixi muzeyi faoliyatini yo‘lga qo‘yish to‘g‘risida: 2025-yil 28-yanvar, 41-son //https://lex.uz/docs/-7345780 Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. - Kuchga kirish sanasi: 29.01.2025.

II.Manbalar

1. Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far Narshaxiy. Buxoro tarixi. — Toshkent, Sharq bayozi, 1993. 29-bet.

2. Al-Utbiy, Abu Nasr Abduljabbor ibn Muxammad. Tarixi Yaminiy. — Toshkent, TA VFIQNA SHR, 2023. 371-bet.

3. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. III jild. — Toshkent, O‘zbekiston SSR fanlar akademiyasi nashriyoti, 1963. 463 b.

4. Муҳаммад Яҳёхон Ҳуқандий. Ҳўқандий латиф маноқиби (Тазкира). Тошкент: Movarounnahr, 2018. - Б. 295-297.

III. Monografiya, broshyura va to‘plamlar:

1. Atlas of Central Asian Artistic Crafts and Trades. Vol. I: Uzbekistan / International Institute for Central Asian Studies; scien. ed.: I. Kosakovskaya, K. B. Akilova; ed.: A. Khakimov, A. Akhmedov; aut. of the proj.: Sh. Mustafayev. - Tashkent : Sharq, 1999. - 223 p.
2. Boboyorov G‘. G‘arbiy turk xoqonligi davlat tuzumi. — Toshkent, Yangi nashr, 2018. 119-bet.
3. Boboyorov G‘., G‘oyibov B., Kubatin A. O‘rta Osiyo bitiklari. I Sug‘diy yozma yodgorliklar. — Toshkent, Tafakkur avlodi, 2020. 166 b.
4. Davlatova S. O‘zbek an’anaviy hunarmandchiligi tarixiy jarayonlar kontekstida (O‘zbekistonning janubiy hududlari misolida): tarixiy-etnologik tadqiqot. - Toshkent: Yangi nashr, 2018. - 368 b.
5. Esonov Z.Yu. Farg‘ona vodiysi qishloq aholisining hunarmandchilik an’analari / Z.Yu. Esonov. — Toshkent: Classic, 2023. — 160 b.
6. Hakimov A. O‘zbekiston san’at tarixi. Qadimgi davr, o’rta asrlar, hozirgi zamon. — Toshkent: Zilol buloq, 2022.
7. Hakimov A. O’zbekiston hunarmandchiligi. - Toshkent: Fan, 2023. - B. 28-29.
8. Hakimov A. O’zbekiston san’at tarixi. Qadimgi davr, o’rta asrlar, hozirgi zamon. — Toshkent: Zilol buloq, 2022.
9. Hakimov, A. A. Applied Arts of Uzbekistan / A. A. Hakimov. - Tashkent : Art Press, 2007. - 224 p.;
10. Intangible Cultural Heritage of Uzbekistan / R. Abdullaev, U. Tashmatov, J. Eshonqulov, A. Ashirov [va boshq.]. - Tashkent, 2017. - ISBN 978-9943-357-46-4.;
11. Isomiddinov M. Sopolga bitilgan tarix. — Toshkent, Fan, 1993. 42-bet.;
12. Jabbarov R.R. Amaliy bezak san’ati. — Toshkent, LESSON PRESS, 2023. 42-bet.
13. Jo‘rayev M., Rasulova Z. Mif, marosim va ertak. — Toshkent, Mumtoz so‘z, 2014. 133-134-betlar.
14. Kabirov J. Sarmishsoyning qoya toshlaridagi rasmlar. — Toshkent, Fan, 1976. 22-bet.

15. Karimov, U. Traditional Crafts of Uzbekistan / U. Karimov. - Tashkent : Uzbekistan Publishing House, 2010. - 160 p.;

16. Narziqulov A. Dehqon, bog‘bon va chorvador taqvimi. — Toshkent, Mehnat, 1991. 8-bet.

17. Qadimgi tarixchilar O‘rta osiyo haqida: Terma parchalar. — Toshkent, Yurist-media markazi, 2008.184 bet.

18. Shaydullayev Sh., Shaydullayev A. Turonning eng qadimgi yozuv tizimi. — Toshkent, Fan, 2024. 21-bet.

19. Turdimov Sh. Xalq qo‘shiqlarida ramz. — Toshkent, Fan, 2020. 55-bet.;

20. Uzbek Embroideries and Carpets in Foreign Collections. Authored by E. Gyul. Series Cultural Heritage of Uzbekistan. Edited by A. Abdukhalikov, E. Rtveladze. — Tashkent, 2017. 9 p

21. Xakimov A. O‘zbekiston san’ati tarixi. Qadimgi davr, o‘rta asrlar, hozirgi zamon. — Toshkent, Zilol buloq, 2022. 54-bet.

22. Xudaybergenov H. Xorazm kulolchiligI (etnologik tadqiqot). - Toshkent : «Lesson Press» MCHJ nashriyoti, 2023. - 12-34 betlar.

23. Азбелев П.П. Древние кыргызы. Очерки истории и археологии. 104 с

24. Азимов, Я. А. Народное декоративно-прикладное искусство Узбекистана / Я. А. Азимов. - Ташкент : Издательство литературы и искусства им. Гафура Гуляма, 1991. - 256 с.;

25. Алпатова И., Рахимов М. К. Художественная керамика Узбекистана. — Ташкент: Изд-во АН Узбекской ССР, 1961. — 243 с.;

26. Алтунянц С. У гончарного круга // Правда Востока. 1978 йил 8 июля.

27. Альбаум Л.И. Живопись Афрасияба. — Ташкент, Фан, 1975. 41 с.

28. Анарабаев А Изучение одного из ремесленных кварталов средневекового Ахсикента // ИМКУ. Вып. 30, Самарканд, 1999. С. 57-68..

29. Анарабаев А Стратиграфическое изучение Шахристана I городища Эски Ахси // ИМКУ. Вып. 25, Ташкент, 1990. С. 71-86 (соавтор О. Инваткина).;

30. Анарабаев А, С. Ильясова Раскопки ремесленного квартала на городище Эски Ахси // ИМКУ. Вып. 27, Самарканд, 1996. С. 166-176.;

31. Археологические и этнографические работы Хорезмской экспедиции 1945-1948 гг. / под ред. С. П. Толстова, Т. А. Жданко. — Москва: Издательство Академии наук СССР, 1952. — 652 с. — (Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции; т. I).;

32. Археологические и этнографические работы Хорезмской экспедиции 1949-1953 гг. / отв. ред. С. П. Толстов. — Москва: Издательство Академии наук СССР, 1958. — 810 с. — (Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции; т. II).

33. Археологические и этнографические работы Хорезмской экспедиции 1945-1948 гг. / под ред. С. П. Толстова, Т. А. Жданко. — Москва: Изд-во АН СССР, 1952. — 652 с. — (Труды ХАЭЭ; т. I).;

34. Аскаров А. Сапаллитепа. — Ташкент, Фан, 1973. - 169 с.

35. Асқаров, А.А. Сополлитепа. - Ташкент: Фан, 1977. - 160 б.

36. Бабаяров Г. Древнетюркские монеты Чачского оазиса. — Tashkent, 2007. 68-69 с.

37. Байпаков К.М., Терновая Г.А. О мифологических животных и «зооморфном коде» вселенной. — 2006. №1. С. 109.

38. Баратов С.Р. Знаки на керамических изделиях в Древном Хорезме / Тамги доисламской Центральной Азии. — Самарканд, МИЦАИ, 2019. С. 48-49.

39. Беленицкий й А. М. Организация ремесла в Самарканде XV - XVI вв. КСИИМК, VI. Москва, 1940. С. 46.

40. Белова К. Судьба Коломенского // Декоративное искусство СССР. — 1989. — № 4. — С. 11-15.;

41. Бродовский М. И. Технические производства в Туркестанском крае ... — 104 с.

42. Брыкина Г.А. Юго-Западная Фергана в первой половине I тысячелетия нашей эры. — Москва, Наука, 1982. 69-70 с.;

43. Бактрийские древности. — Ленинград, Наука, 1976. 49 с.

44. Булатов, С. С. Народное прикладное искусство Узбекистана / С. С. Булатов. - Ташкент : Ўзбекистон, 1995. - 240 с.;

45. В горах и равнинах Бухары (Очерки Средней Азии.). - М., 1912.

46. Вактурская Н. Н. Раскопки городища Ургенч в 1952 г. // Археологические и этнографические работы Хорезмской экспедиции 1949-1953 гг. — Москва: Изд-во АН СССР, 1958. — С. 467-495.

47. Вактурская Н. Н. Хронологическая классификация средневековой керамики Хорезма (IX-XVII вв.) // Керамика Хорезма / под ред. С. П. Толстова, М. Г. Воробьёвой. — Москва: Изд-во АН СССР, 1959. — С. 261-342. — (Труды ХАЭЭ; т. IV).;

48. Вархотова Д.П. Керамика VII-VIII вв. городища Кува // История материальной культуры Узбекистана (ИМКУ). — Ташкент: Фан, 1976. — Вып. 12. — С. 96-110.

49. Весь Русский Туркестан / И.И. Гейер. — Ташкент : С.Р. Конопка, 1908. — [4], 308, XXXII с. : ил., табл.;

50. Весь Русский Туркестан : иллюстрированный справочник-путеводитель. — Ташкент : Типо-литография С. Р. Конопка, 1908. — [4], 308, XXXII с. : ил.

51. Виноградов А. В. Культура и быт населения Средней Азии в эпоху бронзы. — Москва: Наука, 1972. — 210 с.

52. Воробьёва М. Г. Керамика Хорезма античного периода // Керамика Хорезма / под ред. С. П. Толстова, М. Г. Воробьёвой. — Москва: Изд-во АН СССР, 1959. — С. 63-220. — (Труды ХАЭЭ; т. IV).;

53. Воронов Н. В. Публицистическая керамика // Декоративное искусство СССР. — 1986. — № 7. — С. 17.;

54. Воронов Н., Жадова Л. Искусство керамики. — Москва: Советский художник, 1970. — 296 с.;

55. Всесоюзная выставка произведений молодых художников «Ташкент-80» : каталог / сост. А. Г. Зуйкова, Т. Г. Зуйкова

56. Гаврилов М. Рисоля сартовских ремесленников. — Ташкент, 1912. — С. 1-77.;

57. Гаврилов М. Рисоля сартовских ремесленников. Исследование преданий мусульманских цехов. — Ташкент: Типография при Казанском генерал-губернаторе, 1912. — 59 с.;

58. Географический очерк Гиссарского края и Кулябского бекства // Известия ИРГО. Т. XII. Вып.4. Отд. 2. Географические известия. - Спб., 1877. - С. 349-363;

59. Головин Г. Кустарные промыслы Туркестана // Туркестанский сборник. — Т. 512. — Ташкент, 1909.;

60. Гражданкина Н. С. Архитектурно-строительные материалы Средней Азии. — Ташкент : Узбекистан, 1989. — 208 с.

61. Гражданкина Н. С., Рахимов М. К., Плетнёв И. Е. Архитектурная керамика Узбекистана (очерк исторического развития и опыт реставрации). — Ташкент: Фан, 1968. — 158 с.

62. Гулямов Я. Г. Очерки по истории орошения Хорезма. — Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1957. — 180 с.

63. Гюль Э. Диалог культур в искусстве Узбекистана. Античность и средневековье. — Ташкент, PRINT-S, 2005. 77-78 с.

64. Гюль Э. Сады небесные и сады земные. Вышивка Узбекистана: скрытый смысл сакральных текстов. — Москва, ИД Марджани, 2013. 34 с.

65. Декоративно-прикладное искусство Узбекистана. — Ташкент: Ўзадабийнашр, 1960.;

66. Денике, Б. П. Прикладное искусство Средней Азии. - М.-Л.: Государственное издательство, 1931. - 245 с.

67. Дервиз Г., Жадова Л. А., Жданко И. А., Митлянский Д. Ю. Современная керамика народных мастеров Средней Азии. — Москва: Советский художник, 1974. — 235 с. ил.

68. Джаббаров И. М. Новые материалы к истории гончарного ремесла Хорезма // Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. Т. IV : Керамика Хорезма / под ред. С. П. Толстова, М. Г. Воробьёвой. — М. : Изд-во АН СССР, 1959. — С. 379-396.;

69. Джаббаров И. М. Ремесло узбеков Южного Хорезма в конце XIX — начале XX вв. (историко-этнографический очерк) // Занятия и быт народов Средней Азии : Среднеазиатский этнографический сборник. — Л., 1971. — Вып. III. — С. 72-90.;

70. Екимова В. В. Гончарное производство в Хивинском районе (по материалам поездки в Узбекистан в 1930 г.) // Керамика

Хорезма / под ред. С. П. Толстова, М. Г. Воробьёвой. — М. : Изд-во АН СССР, 1959. — С. 343-378.

71. Жаббаров Б.Ғ. Ғурумсарой кулолчилик марказига хос бўлган технологик жараён // Ғурумсарой бадиий кулолчилик мактаби қадимий анъаналарини қайта тиклаш… мавзусидаги халқаро анжуман материаллари. — Наманган, 2025. — Б. 29.;

72. Жабборов И. Ўзбеклар: turmush tarzi va madaniyati (Etno-tarixiy lavҳalar). — Toshkent, O‘qituvchi, 2003. 46-47-betlar.;

73. Жадова Л. А. Современная керамика Узбекистана. — М.: Искусство, 1963. — 179 с.: ил.

74. Ильясова С.Р. Кашинная керамика Ташкента XV-XVI вв. // История и археология Турана. №3. 2017. С. 375.

75. Исамиддинов М.Х. истоки городской культуры Самаркандского Согда (проблемы взаимодействия культурных традиций в эпоху раннежелезного века и в период античности). — Ташкент, А. Кадыри, 54 с.

76. Исамиддинов М.Х., Хасанов М.Х. История древнего и средневекового керамического производства Нахшаба. — Ташкент, А. Кадыри, 2000. 12 с.

77. Итина М. А. Первобытная керамика Хорезма … 5-62.

78. Квертфельд Э. Керамика Ближнего Востока. Л., 1947. С. 134.

79. Керамика Хорезма / под ред. С. П. Толстова, М. Г. Воробьёвой. — Москва: Изд-во АН СССР, 1959. — 398 с.

80. Кирпичников Н.А. Краткий очерк некоторых туземных промыслов Самаркандской области — Самарканд, 1897.

81. Королева Н. С. Развитие национальных традиций в современных художественных промыслах СССР … . — С. 48.

82. Краткая история Кокандского ханства. - Казань, 1886. - С. 120-131;

83. Кустарные промыслы в быту народов Узбекистана XIX-XX вв. / сост. Н.

Содикова, Н. А. Аведова ; Музей истории народов Узбекистана им. М. Т. Айбека. — Ташкент : Изд-во «ФАН» Узбекской ССР, 1986. — 161 с.

84. Кустарные промыслы в Ташкенте. Тетрадь I / И. Гейер, И. Назаров. — Ташкент, 1903.;

85. Кустарные промыслы Туркестана // Туркестанский сборник. — Ташкент, 1909. — Т. 512. — С. 1-35.

86. Кюбель Е. Л. Среднеазиатская керамика в собрании Российского этнографического музея (коллекционные сборы 1900-1912 гг.). - Санкт-Петербург : Российский этнографический музей, 2012. - С. 404-433.

87. Левина Л.М. Керамика нижней и средней Сырдарьи в I тысячелетии н.э. — Москва, Наука, 1971. 192 с.

88. Леви-Строс К. Структурная антропология / К. Леви-Строс. — М.: Наука, 1985. — 536 с.

89. Лисицына Г. Н. Неолит и энеолит Средней Азии. — Ленинград: Наука, 1984. — 256 с.

90. Литвинский Б.А. Керамика из могильников Западной Ферганы. — Москва, Главная редакция восточной литературы, 1973. 161 с.

91. Логофет Д. Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. Т. 1. - Спб., 1911;

92. Лоллекова О. Локальная вариабильность в культуре и хозяйстве Джейтунских племён. — Ашхабат, Ылым, 1988. - С. 98.

93. Лоллекова О. Локальная вариабильность в культуре и хозяйстве Джейтунских племён. — Ашхабат, Ылым, 1988. - С. 98.

94. Маев Н. А. Географический очерк Гиссарского края // Материалы для статистики Туркестанского края. (Бундан буён - МСТК). Вып. 5. - Спб., 1874. - 400 с.;

95. Маршак Б.И. Керамика Согда V-VII веков. — Санкт-Петербург, Издательство Государственного Эрмитажа, 2012. 138-139 с.

96. Массон В. М. Древнейшие земледельцы Юго-Западного Туркменистана (Культура Джейтун). — Москва: Наука, 1981. — 240 с.;

97. Массон. В.М. Поселение Джейтун (проблема становления производящей экономики). Материалы и исследования по Археологии СССР. №180. — Ленинград, Наука, 1971. 35 с.

98. Миклашевский А. И. Технология художественной керамики: (Практическое руководство в учебных мастерских). — Ленинград: Издательство литературы по строительству, 1971. — 302 с.: ил.;

99. Наливкин В. П. Туземцы раньше и теперь. - Ташкент, 1913. - С. 178- 210;

100. Наливкин В. П., Наливкина М. Очерк быта женщин туземного оседлого населения Ферганской долины. - Казань, 1886. - 245 с.;

101. Народное прикладное искусство: актуальные вопросы истории и развития: сборник статей. — Рига: Зинатне, 1989. — 262 с.;

102. Декоративное искусство СССР: журнал. — Москва, 1957-1991.;

103. Народное хозяйство Узбекской ССР : статистический сборник / Центральное статистическое управление УзССР. — Ташкент : Узбекистан, 1940

104. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1969 г. : статистический ежегодник / ЦСУ при Совете Министров УзССР. — Ташкент : Узбекистан, 1970. — 336 с.;

105. Народное хозяйство Узбекской ССР за 50 лет : сборник статистических материалов / Центральное статистическое управление при Совете министров УзССР. — Ташкент : Узбекистан, 1967. — 240 с.;

106. Народное хозяйство Узбекской ССР за пятьдесят лет : юбилейный статистический ежегодник (1924-1974) / Центр. стат. упр. при Совете Министров УзССР. — Ташкент : Узбекистан, 1974. — 330 с.

107. Наскальное искусство в Центральной Азии. Тематическое исследование. — Paris, ICOMOS, 2011. 244 с.;

108. Неразик Е. Е. Керамика Хорезма афригидского периода …— С. 221-260.

109. Обзор Самаркандской области за 1901 год, Самарканд, - 1902. - С. 13.

110. Опыт исследования гончарного и некоторых других кустарных промыслов в Туркестанском крае / В.К. Розвадовский. — Ташкент : тип. при Канц. турк. ген.-губ., 1916 (обл. 1915). — [2], 58 с.

111. Очерки Гиссарского края // ТВ. - 1876. - №5;

112. Очерки горных бекств Бухарского ханства //МСТК. - Спб., 1879. Вып.5. - С. 212-249;

113. Пален К. К. Материалы к характеристике народного хозяйства в Туркестане : в 2 ч. — Санкт-Петербург : Сенат. тип., 1911.;

114. Пален К. К. Отчет по ревизии Туркестанского края, произведенной по высочайшему повелению сенатором гофмейстером графом К. К. Паленом. — Санкт-Петербург : Сенат. тип., 1909-1911.

115. Перспективы развития народных художественных промыслов местной промышленности Узбекистана: обзор. — Ташкент: УзНИИНТИ, 1988. — 29 с.;

116. Пещерева Е. М. Гончарное производство Средней Азии // Труды Института этнографии им. Н. Н. Миклухо-Маклая. — М.; Л.: Издательство АН СССР, 1959. — 344 с.

117. Пещерева Е. М. Гончарное производство Средней Азии. — М.; Л.: Издательство Академии наук СССР, 1959. — 355 с.

118. Промышленные заведения Туркестанского края / В.В. Заорская, К.А. Александер. — Пг., 1915. — 560 с.;

